

SCIENCE AND EDUCATION NEWS

International scientific, methodical and popular journal

2026
issue 1(1)

https://t.me/saen_2024

saen_2024@mail.ru

www.saen.uz

Google Scholar
ResearchGate
Crossref
WORLD of JOURNALS

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

xalqaro ilmiy-metodik jurnali

2026-yil, 1(1)-son
Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan

Toshkent – 2026

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib:
Muqimov Alisher

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.
Telefon: +998 94 201 14 48
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: https://t.me/saen_2024

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694

TAHRIR HAY'ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

Nashr uchun mas'ullar:
Maxmudova Darmonjon Bozorboyevna
Pazilova Meruert Ermekbayevna

MUNDARIJA

Pazilova M.E. Shaxsning bilish faoliyatini rivojlantirishga oid pedagogik qarashlarning rivojlanish dinamikasi…….... 8
Bekchonova Sh.B. Dasturiy-didaktik ta'minot asosida talabalarning kiberpedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi……... 14
Ералин К.Е., Сарсенова Г.С., Саймбетова Ж.Т., Дарменов Ж. Методы применения технологии фрейма в анализе объекта искусства……. 21
Nauruzbaeva A.S., Embergenova A.A. Pedagogikalíq diagnostikanıń funkciyalarí mazmunı́ hám áhmiyeti…… 28
Maxmudova D.B. Onlayn ta'lim sharoitida talabalarda mustaqil o'qish va o'zini-o'zi rivojlantirish motivatsiyasini kuchaytirish……... 34
Аъзамова М.Н. От дошкольной инклюзии к начальной школе: создание модели взаимодействия педагогов для обеспечения преемственности…….. 39
Madraximova I.B. Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim samaradorligini oshirishning innovatsion yo'llari…….. 45
Бекманова Ж.А. Песочная терапия в коррекции речевых нарушений у детей дошкольного возраста в доо республики каракалпакстан……. 51
Nagmetova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari…… 57
Maxmudov Y.B. Oila bilan hamkorlik orqali o'quvchilarda hurmat, hamjihatlik va mehr-oqibatni shakllantirish…… 63
Жаббарбергенов Ш.Е., Бекманова Ж.А. Цифровые технологии как средство модернизации трудового обучения детей с нарушениями слуха…….. 69
Реймова Ф.Ж., Бекманова Ж.А. Развитие когнитивных функций учащихся с умственной отсталостью в условиях цифровизации образования…… 78
Alyaminov X.I., Urazbaev B.T. Talabalarda zamonaviy kasbiy va innovatsion tadbirkorlik kompetensiyalari rivojlantirish masalalari ……... 86
Zaynitdinova M.A. Umumta'lim fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar……... 92
Alimardanova R.N. Farzandning emotsional barqarorligi va intellektual rivojlanishiga onaning ta'sir omillari…….. 98
Abdalieva P.I. Baslawish klasslarda ana tili hám oqiw sawatxanlıǵın oqitiwda oqiw tapsirmalarinan paydalaniw metodologiyasi…… 105
Madatova Z.H. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qishga qiziqishni shakllantirish mazmuni…….. 112
Sabirova M.G. Tarbiya fanini o'qitishning didaktik ta'minotini takomillashtirish…… 118
Sarsenbaev T.T., Urazbaev B.T., Saparova L.P. Tasviriy san'at vositasida bo'lajak arxitektorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish…… 123
Tangirbergenova M.K. Talabalarda mustaqil ta'lim va yozish kompetensiyasini shakllantirish……. 131
Ilyasova Z.U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qishga qiziqishni shakllantirish mazmuni…… 137
Esnazarova Z.O. Bolalar nutq rivojlanishining logopedik-psixolingvistik mohiyati……. 143
Dawletnazarova D. Vitagen tálim hám oni ámelge asiriwdıń metodologiyalíq tiykarlari.. 149
Bekbosinov D.A. Etnomadaniyat asosida o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda jahon tajribalari tahlili…….. 155

Abdijamilova M.M. 4-sinfda o‘qib tushunish malakalarini shakllantirishda badiiy asar matnlarning ahamiyati…… 162
Saidaliyeva G. O‘zbekistonda halol turizmni rivojlantirish istiqbollari……. 168
Genjeeva U.T. Masofaviy ta’limda interfaol metodlar va raqamli platformalarning kommunikativ imkoniyatlari..... 175
Doshanov B.M. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini bag‘rikenglikka tarbiyalash masalalari…….. 181
Madraximov Y.B. Milliy urf-odat va an’analarning yoshlar tarbiyasidagi roli…….. 186
Jo‘rayeva M.U. Oliy ta’lim sharoitida badiiy-estetik savodxonlik tushunchasini ilmiy-nazariy takomillashtirish……. 191
Kamalova G.Z. Geymifikatsiya ta’lim samaradorligini oshirish vositasi sifatida…….. 198
Saparbaeva S.K. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini tezkor o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni…….. 203
Abdiramanov B.S. Hadislarning ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati 208
Xalmuratov I.T. Umuminsoniy va milliy qadriyatlar integratsiyasi orqali yoshlar ma’naviy madaniyatini shakllantirish……... 214
Gubenova G.T. Musiqa, tasviriy san’at va dizayn yo‘nalishida integratsion metodlar….. 220
Davletova A. Kattalar ta’limida interfaol metodlar……. 225
Жумамуратова А.Н. Развитие когнитивных компетенций будущего учителя на основе межпредметной интеграции в образовании…… 230
Juginisova J.I. Bo‘lajak boshlang‘ish sinf o‘qituvchilarida pedagogik dasturiy vositalar yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi……. 236
Saribayeva M.N. Umumta’lim maktab o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish……. 243
Mamatsaliyeva M.S. Globallashuvning o‘quvchilar ma’naviy tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta’siri……. 248
Maqsetova V. Oqitiwshilarda kreativ sipatlardi rawajlandiriwdin teoriyaliq-metodologiyaliq tiykarlari……. 255
Davletova R.N. Xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirish….. 260
Gaipova S.Q. O‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishda rolli o‘yin metodining ahamiyati……..... 265
Baxtiyorova M.M. Iqtidorli o‘quvchilarning o‘ziga xos individual-psixologik xususiyatlari……. 272

UDK: 37.012.2

SHAXSNING BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA OID PEDAGOGIK QARASHLARNING RIVOJLANISH DINAMIKASI

Pazilova Meruert Ermekbayevna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Umumiy pedagogika" kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan shaxsning bilish faoliyatini rivojlantirishga oid pedagogik qarashlarning rivojlanish dinamikasi batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, manbalarni o'rganish va tahlil qilish natijalarida ajdodlarimiz juda qadim zamonlardan boshlab, shaxs ta'lim-tarbiyasiga alohida talablar bilan yondashganligi keltiriladi. Chunki ular yoshlarning aqliy harakatlarini faollashtirish, ularda zukkolik sifatlarini tarkib toptirishga intilganliklari keltiriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik g'oya, buyuk mutafakkir ajdodlar, yozma yodgorliklar, Zardushtiylik dini, mantiqiy, tahliliy fikrlash faoliyati, shaxsning aqliy kamoloti.

ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ НА РАЗВИТИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье подробно освещена динамика развития педагогических взглядов на развитие познавательной деятельности личности, выдвинутых нашими предками. Также в результате изучения и анализа источников приводятся сведения о том, что наши предки с древнейших времен подходили к воспитанию личности с особыми требованиями. Это связано с тем, что они стремились активизировать умственные действия молодежи и развить в них качества сообразительности.

Ключевые слова: педагогическая идея, предки великих мыслителей, письменные памятники, религия зороастризма, логическая, аналитическая мыслительная деятельность, интеллектуальное развитие личности

THE DYNAMICS OF THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL VIEWS ON THE DEVELOPMENT OF AN INDIVIDUAL'S COGNITIVE ACTIVITY

Abstract. This article details the dynamics of development of pedagogical views on the development of cognitive activity of the individual, put forward by our ancestors. Also, the results of the study and analysis of sources show that our ancestors approached the education and upbringing of the individual with special requirements since ancient times. This is due to the fact that they strive to activate

the mental activity of young people, to develop in them the qualities of intelligence.

Keywords: pedagogical idea, great thinkers, written monuments, Zoroastrian religion, logical, analytical thinking activity, mental maturity of the individual.

Talabalarning o‘quv-bilish harakatlarini faollashtirishda buyuk mutafakkirlar tomonidan yaratilgan didaktik vositalar alohida ahamiyatga ega. Pedagogik bilimlar taraqqiyotida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan badiiy hamda ilmiy-ommabop asarlar alohida o‘rin egallaydi. Chunki ularda ma’naviy-intellektual tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari va inson aqliy faoliyatini rivojlantirish qonuniyatlari o‘z ifodasini topgan. Chunki pedagogik ta’limotlar tarixida buyuk mutafakir ajdodlarimizning ilmiy-badiiy merosi muhim o‘rin tutadi. Ular tomonidan yaratilgan asarlarda millatimiz yoshlarining aqliy, ma’naviy, madaniy kamolotini ta’minlashga xizmat qiladigan ko‘plab yondashuvlar o‘z aksini topgan. Bunday qarashlar bugungi kunda ham ta’lim-tarbiya mazmunini boyitishga o‘ziga xos tarzda xizmat qiladi.

Pedagogik g‘oyalar turli davrda jamiyat va shaxs taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq holda vujudga kelgan va muayyan davrning ijtimoiy buyurtmasini o‘zida mujassamlashtirgan. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik mahoratini maqsadga muvofiq holda shakllantirish uchun uzoq davrlar mobaynida yaratilgan pedagogik merosning muhim jihatlariga e’tibor qaratgan holda saralash va ta’lim-tarbiya mazmuniga tadbiq etish lozim. Ta’lim mazmuniga buyuk mutafakkirlar merosidan talabalarning o‘quv-bilish harakatlarini faollashtirishga xizmat qiladigan yondashuvlarni ajratib olib, singdirish taqozo qilinmoqda.

Buyuk mutafakkirlar o‘z asarlarini asosan ta’lim-tarbiyaning mazmuni va usullarini boyitishga yo‘naltirilgan holda yaratganlar. Eng qadimgi bilish usullari ifodalangan yozma yodgorliklar yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix”, Strabonning «Geografiya» asarlari, Xitoy solnomalari, «Avesto» va Urxun-Enasoy bitiklarida, Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asari kabi manbalar hisoblanadi [3].

Ushbu manbalarni o‘rganish va tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ajdodlarimiz juda qadim zamonlardan boshlab, shaxs ta’lim-tarbiyasiga alohida talablar bilan yondashganlar. Chunki ular yoshlarning aqliy harakatlarini faollashtirish, ularda zukkolik sifatlarini tarkib toptirishga intilganlar. Jumladan, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» ajdodlarimizning o‘tmishdagi tili, yozuvi, ta’lim-tarbiyasi, insonni faollashtirishga oid ilk qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Ushbu asarda xayoliy obrazlar yordamida insonning tasavvurini rivojlantirish asosida ta’lim-tarbiya berish yo‘llari ko‘rsatilgan [1].

Asarda ta’lim-tarbiya hayotning eng muhim asosi ekanligi ta’kidlanadi, shuningdek, asarda ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi, mazmuni, shakllari, usullari, yo‘llari, vositalari ko‘rsatilgan. Asarda shaxsning aqliy faolligini ta’minlovchi ko‘plab falsafiy-pedagogik g‘oyalar o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ushbu qarashlardan talabalarning o‘quv-bilish harakatlarini faollashtirishda samarali foydalanish imkoniyati mavjud.

Inson harakatlarining asosini bilim tashkil etadi. Zardushtning ta'biri bilan aytganda, hayotning asosini ma'rifat tashkil etadi. Zardushtiylik dinida yoshlarning jismoniy, aqliy ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib, u ma'naviy poklik bilan uyg'un tarzda talqin etilgan.

Zardushtiylar yoshlarning yozma savodxonligini oshirishga alohida e'tibor qaratganlar. Shu bilan bir qatorda ularga matematika, astronomiya, tib bilimi, tarix, falsafa, huquqshunoslik, gigiyena singari dunyoviy fanlardan bilim berilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning mantiqiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishdan iborat bo'lgan.

Ustozlar donishmandlik sirlarini egallashi lozimligi haqida "Avesto"da alohida ko'rsatib o'tilgan. Zardusht o'z xalqi, farzandlari uchun yomon muallimlar bo'lmasligi istaydi. Ushbu fikr bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifatini takomillashtirish uchun ham muhim ahamiyatga ega [1].

Turkiy xalqlar tomonidan VI-VIII asrlarda toshbitiklarda yozib qoldirilgan "O'rxun–Enasoy yodgorliklari" yozma yodgorliklarida ham bugungi kun ta'lim tizimi uchun qimmatli fikrlar ilgari surilgan. Hukmdorlar yoshlarning bilimli, shijoatli, yusak aql-idrok egasi bo'lishlari uchun harakat qilganlar. Ma'rifatli yoshlargina millatni yot asoratlardan qutqarishi mumkinligi ta'kidlangan. Mazkur fikrlar bugungi kunda yoshlarni aqliy jihatdan rivojlantirish va o'quv-bilish harakatlarini tizimli tarzda takomillashtirish uchun muhim pedagogik ahamiyat kasb etmoqda [4].

VIII asrda Islom ta'limoti negizida Qur'oni Karimdan "ilm" so'zi asosida dastlabki pedagogik ta'limotlar shakllandi.

VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab insonning bilishga asoslangan aqliy faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashadigan ta'limotlar shariat va fiqh ilmi, hadisshunoslik, manbaashunoslik, matnshunoslik, lug'atshunoslik nazariyasi va amaliy tajribalarning shakllanganligi, adab va she'riyat ilmi, dastlabki Qur'on tafsirlari, qiroat ilmi, sarfu nahv (grammatika), al-jabr, xandasa va boshqa ilmlar negizida ifodalandi.

IX asrdan boshlab madrasalarda talabalarga oliy ta'lim berilgan. Oliy ta'limning asosiy maqsadi va mazmuni talabalarning aqliy bilish imkongiyatlarini kengaytirishga qaratilgan edi. Madrasalarda ushbu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan o'quv dasturlari ishlab chiqilib muntazam takomillashtirilgan. Madrasada 7 yildan 12 yilgacha davom etgan o'qish davrida talabalar mantiq fanini o'zlashtirish asosida mantiqiy hamda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, yaratuvchilik salohiyatiga ega bo'lishlari lozimligi alohida vazifa sifatida belgilab berilgan. Turli tillarda yaratilgan manbalar turkiy tilda sharxlanib, talabalarning ilmiy dunyoqarashlari hamda bilish faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Madrasalarda dastlab "Avvali ilm" deb nomlangan o'quv qo'llanmasidan foydalanilgan. Madrasada o'qish davrida talabalarga 137 ta darslik va qo'llanmalar taqdim etilib, tolibi ilmlar ularning mazmunini to'liq o'zlashtirganlar.

Maktab va madrasalarda ta'lim oluvchilarni aqliy rivojlantirish bilan bir qatorda ularga xusnixat ham o'rgatilganki, aksariyat ilm egalari chiroyli va savodli yozish mahorati, xattotlik ko'nikmalariga ega bo'lganlar. Ushbu tajriba bugungi

kunda alohida ahamiyatga ega. Chunki aksariyat talabalar savodli yozish va o‘z yozganlarini ilmiy jihatdan asoslagan holda sharhlab berish ko‘nikmasiga yetarlicha ega emaslar.

Ta’lim oluvchilarning o‘quv materiallarini qanchalik o‘zlashtirganliklariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu asosda ularning o‘quv-biluv imkoniyatlarini uzluksiz rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar ustida mudarrislar izlanganlar.

Madrasalarda ta’lim 3 bosqichda amalga oshirilgan. Har bir bosqichda ta’lim oluvchilarning o‘quv-biluv imkoniyatlarini uzluksiz rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni tanlangan. Boshlang‘ich (adno), o‘rta (avsat), oliy (a’lo) bosqichlarda talabalarga bilim berilib, har bir bosqich muayyan darajada o‘zining chegaralariga ega bo‘lgan [2].

Madrasalardagi ta’lim jarayonida savol-javob ya’ni dialog usuli ustivor bo‘lgan. Talabalar savodli yozish, notiqlik, muomala madaniyati, nazokat bilan kiyinish ko‘nikmalarini egallashlari zarur hisoblangan. Madrasalarda talabalarning bilimlari muayyan mezonlar asosida baholangan. Bunda ulardagi bilish harakatlarining faollashuviga alohida e’tibor qaratilgan. Mantiqiy, tahliliy fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish markaziy o‘ringa qo‘yilgan.

Madrasalarda ilm-al-nujum, hikmat (fizika), mantiq, tarix kabi fanlarni o‘qitishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu fanlar yordamida talabalarning ilmiy dunyoqarashi, mantiqiy mushohada qilish layoqati va murakkab hodisalarni idrok etish ko‘nikmalari rivojlantirilgan. Ular oldiga muntazam muammoli savollar qo‘yilib, evristik izlanishga undalgan. Muammoli masalalarni hal qilishda mudarrislar talabalar bilan hamkorlik qilganlar. Madrasalarda faoliyat ko‘rsatadigan mudarrislar ta’lim-tarbiya sohasida ilg‘or g‘oyalarni ilgari surganlar. Madrasa mudarrislari o‘zlarining pedagogik tafakkurlarini yosh avlod kamolotiga yo‘naltirganlar. Al-Muttaxharning «Kotiblar» nomli asarida ko‘rsatilishicha, dunyoviy ilmlar sohiblarining obro‘-e’tibori ilohiyot oliminikidan balandroq bo‘lgan.

Madrasalarda dastlab ma’ruza usulidan keng foydalanilgan. X asrga kelib mudarrislar muayyan asarlarni sharhlab o‘rgatish («tadris») usulidan foydalanganlar. Ushbu jarayonda o‘rganiladigan asarni bir talaba ovoz chiqarib o‘qigan. Baxs-munozara usuli madrasalarda o‘qitishning asosiy usullaridan biri hisoblangan.

Madrasalarda yoshlarni yaxshilik va ezgulikka da’vat etish, yomonlik va razolatdan qaytarish, go‘zal odob-axloq, ruhiy-ma’naviy poklik va yetuklik, mehnatsevarlik, bunyodkorlik, do‘stlik, tinchlik, bag‘rikenglik, bilish va yaratuvchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi amal qilgan.

Islom dini insonni o‘qib o‘rganishga ilm yordamida dunyoni anglab yetishga undagan.

Madrasalarda talabalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda mantiq, falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, jug‘rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me’morlik asoslari, hattotlik, musiqa, axloq, notiqlik kabi ayrim fanlar chuqurlashtirib o‘qitilgan.

Mutafakkir ajdodlarimiz yoshlarda iymon, ilm va amal birligini tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratganlar. Ular shaxs iste'dodi, aqliy-fikriy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga harakat qilganlar. Shaxsning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay muhit yaratishga intilganlar. Natijada shaxsning aqliy-ijodiy faolligi yaqqol namoyon bo'lgan.

O'sha davrda yaratilgan Yusuf Xoc Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq", Sa'diyning «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga keng o'rin ajratilgan. Al-Forobiyning asarlaridagi ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar pedagogika fani uchun alohida qimmatga ega.

Xonliklar davrida ham madrasalardagi ta'lim-tarbiya jarayoni takomillashdi. Natijada ko'plab yetuk aql-idrok sohiblari yetishib chiqdi. Shu bilan bir qatorda mazkur davrda maktab va madrasalarda dunyoviy bilimlar berish ma'lum darajada cheklangan edi.

19-asrga kelib, madrasalardagi ta'lim mazmuni siyosiy hayotning o'zgarishi bilan bog'liq tarzda takomillashtirilgan. Ta'lim mazmuniga yoshlarning ilmiy dunyoqarashi, faoliyat yo'nalishini kengaytirishga xizmat qiladigan turk, rus, fransuz, ingliz tillari, fizika, ziroatchilik, hisob, gigiyena, psixologiya, metodika, trigonometriya, siyosiy iqtisod, tijorat kabi o'quv fanlari kiritilgan.

1876 yildan gimnaziya, real maktab, muallimlar seminariyasi va boshqa turdagi ta'lim tashkilotlari tashkil etilib, unda yoshlarning intellektual salohiyati, bilish harakatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan chuqurlashtirilgan ta'lim mazmuni tadbiq qilingan.

Sharq uyg'onish davrida pedagogik ta'limotlar yangi bosqichga ko'tarilgan. Unda asosan, insonning aqliy kamolotini ta'minlash orqali uning bilish harakatlarini faollashtirishga oid didaktik yondashuvlarning vujudga kelishiga zamin yaratilgan.

Ajdodlarimiz suhbatdan ta'lim-tarbiyaning samarali usuli sifatida foydalanganlar. Suhbat jarayoni toliblarga zavqu-shavq bag'ishlab, ularning bilish harakatlarini faollashtirish imkonini bergan. Toliblar ustoz suhbati yordamida ta'lim yo'nalishini tanlaganlar. Pedagogik ta'limotlar mudarrislar tomonidan ta'lim oluchilar ongiga singdirilgan. Mudarrislar pedagogik fikrlar qamrovini kengaytirib, turli shaharlardagi madrasalarga borib, yoshlarga ta'lim berganlar. Shu bilan bir qatorda o'sha shahardagi olimlardan ilm-ma'rifat sirlarini o'rganganlar. Toliblarning bilim egallashga bo'lgan qiziqishlari kuchli bo'lib, bo'sh vaqtlarida mustaqil bilim olish, kashfiyotlar qilish bilan shug'ullanganlar. Ilmga bo'lgan yuksak qiziqish ilm dargohlarining paydo bo'lishi va ko'plab olimlarning bir joyga to'planishiga asos yaratgan.

Markaziy Osiyodagi madrasalarda hadislar, qiroat kitoblari, axloq-odobga oid asarlar va didaktik xarakerdagi asarlar darslik manbasini o'tagan. Ta'limiy-didaktik xarakterdagi asarlarda insonni kamol toptirish yo'llari, vositalari, usullari batafsil ko'rsatilgan. Mutafakkirlar orasida sof pedagogik ta'limotlarni

yaratganlari ham mavjud bo‘lgan. Ular shaxs kamolotini ta’minlashning xususiy didaktik hamda umumpedagogik yo‘nalishlari va vositalarini ko‘rsatib berganlar.

Ko‘rinib turibdiki, barcha mutafakkir ajdodlarimiz ta’lim-tarbiya muammolariga murojaat qilganlar. Shu bilan bir qatorda ushbu muammo bilan maxsus shug‘ullangan allomalar ham faoliyat ko‘rsatganlar. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”, “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql ma’nolari to‘g‘risida”; Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Menerologiya”, «Kitob as-saydona», «Al-Qonuni al-Mas’udiy», «Geodeziya»; Abu Ali ibn Sino «Kitob al-qonun fit-tibb», «Xayy ibn Yakzon», «Risolat at-tayr», «Risolat fi-l-shik», «Donishnoma», «Kitob ash-ishorat va at-tanbixat»; Mahmud Qoshg‘ariy «Devonu lug‘atit turk»; Yusuf Xos Xojib «Qutadg‘u bilig»; Unsurul-Maoliy Kaykovus «Qobusnoma», Abdulqosim Mahmud az-Zamaxshariy «Atvok uz-zaxab fi-l mavoi’z va-l-xutab» («O‘git va nasihatlarning oltin modalari»), «Navobig‘ ul-kalima» («Nozik iboralar»); Ahmad Yugnakiy «Xibatul-Haqoyiq», Abu Abdulloh al-Xorazmiy «Mafotix al-ulum» («Ilmlar kalitlari»); Imom Abu Hamid G‘azzoliy «Al-Munqiz min al-dalil» («Adashuvlardan qutqaruv»); Najmiddin Kubro «Fi odob us-solikin» («Soliklar odobi»); Sa’diy Sheroziy «Guliston»; Amir Temur «Temir tuzuklari»; Abdurazzoq Samarqandiy «Matlai sa’dayin va majmai bahrayn»; Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» va «Vaqfiya»; Abdurahmon Jomiy «Bahoriston»; Jaloliddin Davoniy «Axloqi Jaloliy»; Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi Muhsiniy”; Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” va “Xatti Boburiy” kabi bebaho asarlar yaratgan bo‘lib, ularda ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [4].

Yuqorida nomlari keltirilgan allomalar va ularning asarlari shuni ko‘rsatadiki, Sharq mutafakkirlari ta’lim-tarbiya masalasini jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholaganlar. Ular insonning bilish imkoniyatlari, aqliy salohiyati, ruhiy kechinmalari hamda axloqiy kamolotini o‘zaro uzviy bog‘liq holda talqin etib, komil insonni tarbiyalash g‘oyasini ilgari surganlar. Mazkur asarlarda ilmning ahamiyati, ustoz-shogird munosabatlari, aql va tafakkurning rivoji, axloqiy poklik hamda ma’naviy yetuklik masalalari chuqur yoritilgan. Bu esa o‘sha davr pedagogik qarashlari nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lganini, shaxsning aqliy kamoloti va ijtimoiy faolligini ta’minlashga xizmat qilganini anglatadi. Demak, Sharq pedagogik merosi bugungi kunda ham shaxsning bilish faoliyatini rivojlantirish va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ilmiy-metodologik manba bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avesto. Tarixiy–adabiy yodgorlik. – T.: Sharq, 2001. – 384 b.
2. Buyuk siymolar, allomalar (O‘rta osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar). (Nashrga tayyorlovchi mas’ul muharrir M. Xayrullayev). 2-kitob. – T.: A. Qodiriy nomli «Xalq merosi» nashriyoti, 1996. – 120 b.
3. Nishонова S. Sharq Uyg‘onish davri pedagogik taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. – T.: 1998. – 288 b.
4. Ибрагимов Х., Абдуллаева Ш. История педагогики и образования. Монография. − Т.: Фан ва технологиялар. 2008. 206 б.

UDK: 378.147:37.02:004

DASTURIY-DIDAKTIK TA'MINOT ASOSIDA TALABALARNING KIBERPEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Bekchonova Shoira Bazarbayevna,
Yangi asr universiteti professori

Annotatsiya. Mazkur maqolada dasturiy–didaktik ta'minot asosida talabalarning kiberpedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda kiberpedagogik kompetensiya tushunchasining mazmuni, uning raqamli savodxonlik, pedagogik strategiya va axloqiy mas'uliyat bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Oliy ta'lim tashkilotlarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish, LMS va mualliflik vositalarini tanlash mezonlari, baholash va meta-baholash mexanizmlarining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kiberpedagogik kompetensiya, raqamli savodxonlik, dasturiy–didaktik ta'minot, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, LMS, mualliflik vositalari.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КИБЕРПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПРОГРАММНО-ДИДАКТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Аннотация. В данной статье научно-теоретически обоснована методика развития киберпедагогических компетенций студентов на основе программно-дидактического обеспечения. В исследовании анализируется сущностное содержание понятия «киберпедагогическая компетенция», а также его неразрывная связь с цифровой грамотностью, педагогической стратегией и этической ответственностью. Раскрываются вопросы внедрения компетентностного подхода в высших образовательных учреждениях, критерии выбора систем управления обучением (LMS) и авторских инструментов, а также значение механизмов оценки и метаоценки.

Ключевые слова: киберпедагогическая компетенция, цифровая грамотность, программно-дидактическое обеспечение, компетентностно-ориентированное обучение, LMS, авторские инструменты.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' CYBERPEDAGOGICAL COMPETENCIES BASED ON SOFTWARE AND DIDACTIC SUPPORT

Abstract. This article provides a scientific and theoretical substantiation of the methodology for developing students' cyberpedagogical competencies based

on software and didactic support. The study analyzes the conceptual essence of cyberpedagogical competence and its intrinsic relationship with digital literacy, pedagogical strategy, and ethical responsibility. It examines the implementation of a competency-based approach in higher education institutions, the criteria for selecting Learning Management Systems (LMS) and authoring tools, as well as the significance of assessment and meta-assessment mechanisms.

Keywords: cyberpedagogical competence, digital literacy, software and didactic support, competency-based education, LMS, authoring tools.

Tizimli ravishda tashkil etilgan va yetarlicha nazorat qilinadigan o‘quv faoliyatini loyihalash va amalga oshirish uchun yaxshi ishlab chiqilgan metodologik asos talabalarning kiberpedagogik kompetensiyalarini dasturiy ta’minot va didaktik qo‘llab-quvvatlash orqali rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu asos yetakchi xalqaro pedagogik standartlarda belgilangan tamoyillarga va global ta’lim tizimida o‘qituvchilarni tayyorlash uchun belgilangan umumiy kompetensiya tavsiflariga mos keladi.

Kibermakon mazmunini tushunish va yaratish bilim berish va kasbiy muhitda harakatlanish uchun juda muhimdir. Shuning uchun, kiberpedagogik kompetensiya tushunchasi, hali ham muhokama qilinishi mumkin bo‘lsa-da, kibermakonda o‘quv jarayonlarini olib borish qobiliyati sifatida ta’riflanishi mumkin. Bunga kiberkompetensiyalarni egallashni rag‘batlantirish uchun o‘qitish tartiblarini loyihalash; kontentni tanlash, tuzish, transkripsiya yoki sintezni raqamli ravishda yaxshilaydigan vositalarni pedagogik tarzda joriy etish; media imkoniyatlariga muvofiq kontent(lar) turlarini moslashtirish; doimiy ravishda jalb qilingan talabalarning pedagogik o‘sishini rag‘batlantirish; va Internetdan mas'uliyatli va axloqiy foydalanish kiradi. Kiberpedagogika va kiberkompetensiyalarni bir vaqtning o‘zida rivojlantirish uchun o‘quv dasturini loyihalash, tabiiyki, tegishli konstruksiyalarni, ularning o‘zaro ta’sir qilish usulini (ya’ni o‘zaro yoki boshqa tarzda) va ularning boshqa tan olingan konstruksiyalar bilan qanday bog'liqligini ishlab chiqadigan modellarga asoslanishi kerak. Talabalarning ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishini qanday rag'batlantirish va bu o‘sishni qanday baholash kerakligi haqidagi savollar ta’lim sohasida ham paydo bo‘ladi. Shuning uchun kompetensiyaga asoslangan ta’lim yondashuvi ularni yaratish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu kompetensiya rivojlanishini ko‘rsatuvchi parametrlar asosida, tabiatidan qat'i nazar, kontentni egallashni rag‘batlantiradi.

Sh.B.Bekchonovaning ilmiy ishlari tahlilaga ko‘ra kiberkompetensiya va kiberpedagogik kompetensiya o‘zaro bog‘liq, biroq mazmuni, funksional yo‘nalishi va qo‘llanish sohasi jihatidan farqlanuvchi tushunchalardir.

Kiberkompetensiya - bu shaxsning raqamli va kibermakonda samarali, xavfsiz, tanqidiy hamda axloqiy faoliyat yuritish qobiliyatini ifodalovchi bilim, ko‘nikma va munosabatlar majmuasidir.

Kiberkompetensiya umumiy (general) kompetensiya bo‘lib, barcha soha vakillari uchun zarur.

Kiberpedagogik kompetensiya - bu o‘qituvchi yoki pedagogning kibermakonda ta’lim jarayonini samarali loyihalash, tashkil etish, boshqarish va baholash qobiliyatini ifodalovchi integrativ pedagogik kompetensiyadir.

Kiberpedagogik kompetensiya — bu pedagogik faoliyatga yo‘naltirilgan maxsus (professional) kompetensiya hisoblanadi.

1-jadval

Kompetensiyalarning asosiy xususiyatlari va qo‘llanish sohalari

Kompetensiyalar	Asosiy xususiyatlari	Qo‘llanish sohasi
Kiberkompetensiya	• Raqamli savodxonlik (axborotni izlash, tahlil qilish, yaratish) • Kiberxavfsizlik ko‘nikmalari • Ma’lumotlar maxfiyligini tushunish • Onlayn muloqot va hamkorlik madaniyati • Raqamli fuqarolik va axloqiy mas’uliyat • Media va axborot tanqidiyligi	• Har qanday kasbiy yoki shaxsiy faoliyat • Ijtimoiy tarmoqlar, masofaviy ish, elektron hukumat, e-tijorat va boshqalar
Kiberpedagogik kompetensiya	• Raqamli vositalarni pedagogik maqsadga muvofiq tanlash • LMS va mualliflik platformalaridan foydalanish • Onlayn ta’lim dizaynini ishlab chiqish • Raqamli baholash va meta-baholashni tashkil etish • Virtual hamkorlik muhitini yaratish • Talabalar kiberkompetensiyasini rivojlantirish • Axloqiy va huquqiy normalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish	• Oliy va umumiy ta’lim • Masofaviy va aralash (blended) ta’lim • Raqamli pedagogik innovatsiyalar

2-jadval

Kiberkompetensiya va kiberpedagogik kompetensiyalarning asosiy farqlari

Mezoni	**Kiberkompetensiya**	**Kiberpedagogik kompetensiya**
Tabiati	Umumiy raqamli kompetensiya	Kasbiy-pedagogik kompetensiya
Subyekti	Har qanday shaxs	O‘qituvchi, pedagog
Maqsadi	Kibermakonda samarali faoliyat	Kibermakonda ta’lim jarayonini tashkil etish
Yo‘nalishi	Axborot va kommunikatsiya	Pedagogik dizayn va boshqaruv
Tuzilmasi	Raqamli savodxonlik + xavfsizlik + axloq	Pedagogik metodika + LMS + baholash + didaktika

Natijasi	Raqamli muhitda muvaffaqiyatli ishtirok	Talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish

Kiberkompetensiya – bu kengroq tushuncha bo‘lib, u raqamli muhitda faoliyat yuritishning universal asosini tashkil etadi. Kiberpedagogik kompetensiya esa shu asosda shakllanuvchi, ammo pedagogik loyihalash, o‘qitish strategiyasi va didaktik boshqaruv elementlari bilan boyitilgan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyadir.

Har bir kiberpedagogik kompetensiya o‘z ichiga kiberkompetensiyani oladi, lekin har bir kiberkompetensiya kiberpedagogik kompetensiya emas.

Kiberkompetensiyalar va kiberpedagogik kompetensiyalar mos ravishda kompetensiyalarning ma’lum guruhlariga mos keladi va shuning uchun kompetensiyaga asoslangan fanlar bilan osongina bog'liq. Xuddi shunday, u hozirda keng tarqalgan raqamli savodxonlik kontseptsiyasiga mos keladi, bu dizayn, differentsiatsiya, ekologik, tanqidiy yoki ijtimoiy jihatlarning butun doirasini qamrab olish uchun dasturiy ta’minotdan foydalanishda shunchaki ravonlikdan tashqariga chiqadi. "Competencias" atamasi bilan belgilangan ispan va portugal ta’lim modellaridan foydalanadigan va masalan, Ta’lim vazirligida pedagogik inspektor lavozimini va pedagogik innovatsiyalar sohasida universitet professori lavozimini egallagan muallif "kompetensiya" atamasini kuzatiladigan natijalar shaklida ifodalanishi mumkin bo‘lgan chegaraviy xatti-harakatlar bilan bog'laganligi sababli, ishlab chiqilgan tavsif modellari asosida kiberpedagogika bo‘yicha butun daraja dasturi uchun o‘quv dizaynini yoki modulli o‘quv dasturini yaratishi mumkin (Napal Fraile va boshqalar, 2018).

UNITE ta’lim va tadqiqot tarmog'i doirasida chiqarilgan tushunchalar, g'oyalar va nashrlarni o‘z ichiga oladi. Asosiy pedagogik va raqamli kompetensiyalar tushunchalari taklif qilingan o‘quv dasturi, pedagogik, boshqaruv va texnologik standartlar bilan mos keladi. Asosiy asos raqamli savodxonlik, pedagogik strategiya va axloqiy xabardorlik kompetensiyalaridan iborat bo‘lib, ular Horizon hisoboti takliflari (Messias va Loureiro, 2014) va o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarida talabalar tomonidan talab qilinadigan pedagogik amaliyotlar (Nobre, 2018) bilan to‘liq mos keladi.

Kiberpedagogikani qo‘llab-quvvatlovchi dasturiy ta’minot landshafti keng bo‘lib, o‘rganishni boshqarish (LMS), mualliflik, baholash, meta-baholash va hamkorlik vositalarini o‘z ichiga oladi. LMS va mualliflik vositalarini tanlash zarurati turli xil o‘quv dasturlari va o‘quv materiallarini ishlab chiqish bo‘yicha qarorlarga olib keladigan keng tarqalgan institutsional kontekstlarga bog'liq. Shunga qaramay, so‘nggi meta-tahlillar pedagogik yondashuvlarni aniqlashda LMS tanlash mezonlarini mustahkam asoslaydi va YuNESKO tomonidan akkreditatsiyadan o‘tgan moslashuvchanlik bo‘yicha ko‘rsatmalar (Quadros-Flores va boshqalar, 2018) mualliflik vositalarini tanlashga katta ta’sir ko‘rsatadi. Baholash va meta-baholash vositalari Pedagogika 3.0 doirasidan kelib chiqadi.

Dasturiy ta’minot resurslarini strategik tanlash ularning ta’lim ko‘lami va yo‘naltirilishi masalasini hal qilishga imkon bermaydi. Maxsus yo‘naltirilish nazariy jihatdan pedagogik va kiberpedagogik faoliyatning qiyinchiliklarini

engillashtirsa-da, belgilangan chegaralar ichida qolish talabi hatto tajribali o‘qituvchilar uchun ham qo‘shimcha kognitiv murakkablikni oshiradi. Ilg'or texnologiyalar va yangi media vositalaridan cheksiz foydalanishni hisobga olgan holda, ba’zi yo‘naltirilishlar maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Konstruktivistik, sotsiomadaniy va universal dizayn nuqtai nazaridan asosiy tamoyillar bunday yo‘naltirishni tuzadi.

Metodika. Kompetensiyani rivojlantirishning metodologik asoslari

Oliy ta’lim talabalarining kiberpedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi talabalar ta’limi nazariyasining beshta tamoyiliga mos keladi:

1) talabalar o‘rganish uchun sabablarga muhtoj;

2) talabalar amaliy tajribalar orqali eng yaxshi o‘rganadilar;

3) talabalar o‘qishlarini nazorat qila olganlarida eng yaxshi o‘rganadilar;

4) talabalar yangi narsani o‘rganayotganda boshqalardan dalda olishga muhtoj;

5) talabalar mavzuni bir nechta nuqtai nazardan o‘rgana olganda yaxshiroq o‘rganadilar.

Ushbu tamoyillar birgalikda kompetensiyani rivojlantirish konstruktiv fikr-mulohazalar bilan haqiqiy o‘rganish kontekstida pedagogik ko‘nikmalarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini talab qilishini tasdiqlaydi; dizayn Andersonning (2001) rasmiy talabalar ta’limi modelini shunga mos ravishda moslashtiradi.

Vaqt o‘tishi bilan kompetensiyani rivojlantirish o‘qituvchilar guruhi orqali qanday tarqalishi mumkinligini ko‘rib chiqish uchun talabalarni kiberpedagogik kompetensiyalar bilan qurollantirish metodologiyasi Collabarativ(Hamkorlikdagi) o‘rganish doirasi (Gabrielle va Schinck, 2013) tomonidan asoslanadi. Kiberpedagogik bilim, ko‘nikma va munosabatlar to‘rtta o‘zaro mustahkamlovchi faoliyatdan iborat hamkorlik siklida rivojlanadi:

-saqlash (axborot almashish);

-o‘ynash (tadqiqot va tajriba);

-tanqid (baholash va fikr-mulohaza);

-yaratish (sintez va harakat).

Ushbu sikl yuqorida qayd etilgan talabalar uchun o‘rganish tamoyillariga hurmat bilan qaraydi, shu bilan birga zamonaviy pedagogikaning ijtimoiy tabiatiga va onlayn muhitning kundalik hayotga keng tarqalgan ta’siriga mos keladi (Melnikova va boshqalar, 2018); (Nikolova va boshqalar, 2009).

Munozara. Baholash va doimiy takomillashtirish

Ushbu choralarning ta’sirini kuzatish va doimiy ravishda takomillashtirish uchun tashkilotlar tizimli baholash va takomillashtirish mexanizmlarini yaratishi kerak (Henschel, 2019). Talabalarning o‘qishdagi yutuqlari va qo‘llanilgan metodologiyani doimiy ravishda tekshirish qo‘llab-quvvatlashni rivojlanayotgan ehtiyojlarga moslashtirishga yordam beradi va kompetentsiyani rivojlantirishni kuchaytiradi. Baholash tizimlari asosiy ko‘rsatkichlarni monitoring qilishni, o‘z vaqtida fikr-mulohazalarga urg'u berishni, barqaror ta’sirlarni uzoq muddatli o‘rganishni, miqyoslilik va tarqatishga e'tibor berishni va boshqaruv standartlariga moslashtirishni o‘z ichiga olishi kerak.

Texnologik ilovalarni o‘rganishga o‘rgatish yo‘lida o‘quvchining haqiqiy faoliyatiga asoslangan pedagogik amaliyotlarni bilish muhimdir.

Lebrun (2008) uchun o‘quv jarayonining 5 ta xususiyati mavjud:

- Axborot berish - bilim va ularni qo‘llab-quvvatlash;
- Motivatsiya qilish - umumiy kontekst va didaktik muhit;
- Faollashtirish - ko‘nikmalar (tahlil, sintez, baholash ...);
- O‘zaro ta’sir - turli resurslardan foydalanish;
- Ishlab chiqarish - shaxsiy qurilish.

Agar bu 5 ta xususiyat o‘quv jarayonini ifodalasa, ularni talaba uchun mavjud bo‘lgan texnologik vositalarni ishlab chiqish va ularning sifatini baholash uchun nazorat ro‘yxati sifatida ishlatish muhimdir.

Shu tariqa tashkilotlar ilmiy hamjamiyat bo‘ylab bilim almashinuvi va takrorlanishini kengaytirishi mumkin. Kiberpedagogika tez rivojlanayotgan soha bo‘lib, o‘qituvchilar uchun doimiy qiyinchiliklarni tug'diradi; masalan, raqamli savodxonlik va pedagogikani mas'uliyatli, tanqidiy va moslashuvchan tarzda qanday o‘qitish kerak. Mavjud yechimlar samarali ekanligi isbotlanganligi sababli, keyingi ishlar afzalroq boshqa sohalarni o‘rganishi va o‘zgartirishi, puxta o‘ylangan amalga oshirish va innovatsion moslashuv orqali o‘zaro taraqqiyotga hissa qo‘shishi kerak.

Kiberpedagogik amaliyotlarning dastlabki muhokamalarida ma’lumotlar maxfiyligi va himoyasi muhim mavzular sifatida paydo bo‘ldi (Novella-García & Cloquell-Lozano, 2021). Turli yurisdiktsiyalardagi barcha fuqarolarga nisbatan qo‘llaniladigan qoidalarni ta’lim kontekstida tushunish kerak, chunki voyaga yetmaganlarning (mavjud bo‘lganda) yuqori zaifligi va kengroq ishtirok modellari mavjud. Amaliyot iloji boricha ko‘proq ma’lumotlarni saqlashni va batafsil tahlillarni olishni rag'batlantirsa-da, yo‘naltiruvchi tizimlar unutilish huquqini ta’kidlaydi va anonimlashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi, to‘g'ridan-to‘g'ri xom ma’lumotlarni to‘plash o‘rniga bilvosita o‘zgaruvchilarni xulosa qiladi. AKTdan axloqiy foydalanish, shuningdek, amaldagi xulq-atvor qoidalariga rioya qilishni, tegishli xatti-harakatlarni modellashtirishni va talabalarga raqamli fuqarolik uchun axloqiy tamoyillarni shakllantirishda yordam berishni nazarda tutadi. Raqamli tafovutlar va noto‘g'ri qarashlarni yumshatish strategiyalari dizayn jarayonlariga kirishni joriy etishni, barcha materiallarning qobiliyatidan qat'i nazar, har qanday shaxs tomonidan foydalanish mumkinligini ta’minlashni va tor belgilangan imkoniyatlardan tashqariga e'tiborni kengaytirishni o‘z ichiga oladi.

Yevropa Komissiyasi tomonidan fuqarolikning raqamli o‘lchami va raqamli savodxonlik konsepsiyasi bo‘yicha Cebrián va Hine tomonidan ishlab chiqilgan doirada muhokama qilinganidek, ushbu qo‘llab-quvvatlashlar modulli o‘quv boshqaruv tizimi o‘quv dasturi, sun'iy intellekt tavsiyalari va shaxsiylashtirilgan o‘quv tahlili materiallari, immersiv virtual haqiqatda pedagogik darsdan tashqari rol o‘ynash simulyatsiyalari va bir nechta hamkorlik va ishtirok muhitlarini o‘z ichiga oladi.

Ta’lim sohasidagi ochiqlik va shaffoflikka qaratilgan muhim siyosat o‘zgarishi o‘qitish va o‘rganish amaliyotini o‘z ichiga olgan barcha jihatlarga -

maqsadlar va natijalar, usullar va yondashuvlar, mazmun va baholashga taalluqlidir. Ta'lim tashkilotlarining CCTV tasvirlarini keng ko'lamda kuzatish o'qituvchilar va talabalarning shaxsiy hayoti va qadr-qimmatiga putur etkazishi mumkinligi haqidagi xavotirlar tufayli yuzaga kelgan bunday axloqiy talablardan biri didaktik yordamni jamoaviy ravishda baham ko'rishga to'sqinlik qildi. Shuning uchun ichki fikr-mulohazaning biron bir shakli rivojlanish uchun oldindan aytib bo'ladigan talabni tashkil etadi, bunda yondashuvning asoslari va uni ongli ravishda qo'llashdagi oldingi tajriba shaxsiy mulohazalarda sezilarli darajada namoyon bo'ladi, bu esa Bouwer va Kraaijvanger kabi platformalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Kiberpedagogik kompetensiyalar "Marchandise kengaytmasi"ga aylandi va yanada ko'proq e'tirofga sazovor bo'ldi. Qabul qilishlar, tushunishlar, jalb qilishlar va o'zlashtirishlar kiberpedagogik kompetensiya doirasining analog-analog tuzilishini shakllantirdi, mazmun va vositaning jihatlari Eysenck va Ramseyning "O'qitishni rejalashtirish bo'yicha ishchi daftar"iga kengaytirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekchonova Sh.B. Dasturiy ta'minot vositalarini yaratish va kiberpedagogik kompetensiyasini takomillashtirish modeli. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, [2025-10]. ISSN: 2181-1458. ISSN: 2181-0427. journal.namdu.uz. 1071-1074 b.

2. Messias, I. & Loureiro, A. (2014). Competences for collaboration and knowledge sharing in digital society - a case study with an erasmus intensive programme. 8 p.

3. Melnikova, J., Grünwald, N., Ahrens, A., Pfaffenberger, K., & Zaščerinska, J. (2018). The search for an approach to develop educators' digital teaching competence. ISSN 2029-6894. ANDRAGOGIKA, 2017, 1 (7). DOI: http://dx.doi.org/10.15181/andragogy.v6i0.1213.

4. Nikolova, N., Stefanov, K., Todorova, C., Stefanova, E., Ilieva, M., Sligte, H., & Hernández-Leo, D. (2009). TENCompetence tools and I teach methodology in action: development of an active web-based teachers' community.

5. Nobre, A. (2018). DIGITAL: multidisciplinary and multidimensional in the classrooms. 34 pp.

6. Novella-García, C. & Cloquell-Lozano, A. (2021). The ethical dimension of digital competence in teacher training. ncbi.nlm.nih.gov.

7. Quadros-Flores, P., Flores, A., & Ramos, A. (2018). Factors that inhibit or promote the integration of ICT in education. The Turkish Online Journal of Educational Technology- November 2018, Special Issue for INTE-ITICAM-IDEC Volume 1. www.tojet.net. Copyright © The Turkish Online Journal of Educational Technology. 672-681 pp.

8. Napal Fraile, M., Peñalva Vélez, A., & Mendioroz Lacambra, A. (2018). Development of digital competence in secondary education teachers' training. *8*(3), 104; https://doi.org/10.3390/educsci8030104

UDK: 7.021.33

МЕТОДЫ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ФРЕЙМА В АНАЛИЗЕ ОБЪЕКТА ИСКУССТВА

Ералин Куандык Ералыулы,
доктор педагогических наук, профессор, Южно-Казахстанский педагогический университет имени У.Жанибековой

Сарсенова Гульнур Сарсеновна,
докторант Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза

Саймбетова Жанар Торекуловна,
заведующий кафедрой профессионального обучения и изобразительного искусства Южно-Казахстанского педагогического университета имени У.Жанибековой, доктор философии (PhD)

Дарменов Жанжайхан,
к.п.н, доцент кафедры изобразительного искусства Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза

Аннотация. В статье раскрывается сущность понятия фрейм. Рассмотрены аспекты познания, функции и особенности технологии фрейма. В результате исследования были даны понятия «искусствоведение», «искусствоведческий объект». Рассмотрены особенности и связи фреймовой технологии и цифровых технологий. Дана характеристика позиций последовательности, целостности, функциональности, индивидуальности, взаимосвязанности, периодичности в технологии фрейма. На примерах раскрываются слот рамки и их особенности. Были проанализированы работы художников А. Кастеева и Султана Иляева с точки зрения использования технологии фрейма.

Ключевые слова: фрейм, фрейм-технология, искусствоведческий фрейм, фрейм-принципы технологии, сущность фрейм-анализа, структура фрейма.

SAN'AT OBYEKTINI TAHLIL QILISHDA FREYM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH USULLARI

Предложенная модель передачи ИОМ обеспечивает реализацию психологического аспекта преемственности, гарантируя, что учителя начальной школы готовы к работе с ребенком с ОВЗ, владеют необходимыми компетенциями (например, в области трансформации учебного материала) и могут обеспечить индивидуальную траекторию, не допуская регресса. Как и в РФ, где эффективность повышается в образовательных кластерах, в Узбекистане необходима командная работа и наличие координатора инклюзии, обеспечивающего методическую поддержку и согласование действий.

Обеспечение преемственности инклюзивной образовательной среды между ДОО и начальной школой является необходимым условием для достижения целей инклюзивного образования, закрепленных в законодательстве Республики Узбекистан. Переходный кризис у детей с ОВЗ/ОПП требует устранения барьеров, которые возникают при смене уровня образования.

Ключевым инструментом, позволяющим обеспечить эту преемственность, является Индивидуальный образовательный маршрут (ИОМ), детально фиксирующий, какие конкретные адаптации (изменение подачи материала) и модификации (изменение содержания/сложности) необходимы ребенку.

Разработанная модель передачи ИОМ от ДОО в начальную школу обеспечивает непрерывность коррекционно-развивающей работы, позволяет учителям начальной школы заблаговременно подготовить образовательную среду и материалы, и, следовательно, минимизирует риски дезадаптации. Таким образом, преемственность переходит от декларативного принципа к управляемому, документированному процессу, обеспечивающему право каждого ребенка, в том числе в Узбекистане, на качественное и непрерывное инклюзивное образование.

Список литературы:

1. Гумирова Г.Ф. Проблемы социальной интеграции лиц с ограниченными возможностями // Преемственная система инклюзивного образования: мат-лы V Межд. науч.-практ. конференции, 1–2 марта 2017 г. Казань: Изд-во «Познание» Каз. инновац. ун-та, 2017. С. 18.

2. Романова Г.А. О модели развития социокультурной компетентности студентов в условиях инклюзивной образовательной среды // Проблемы современного педагогического образования (Серия «Педагогика и психология): сб. ст. Ялта: РИО ГПА, 2016. Вып. 53. Ч. 4. С. 180–187.

3. Смирнова О.Ю. Концептуальные основы инклюзивного образования школьников // Проблемы и перспективы инклюзивного образования в Ивановской области: мат-лы II науч.-практ. конф. (2–3 ноября 2016 г.). Шуя: Изд-во Шуйского филиала ИвГУ, 2016. С. 276–278.

4. Течнер С., Мартинсен Х. Введение в альтернативную и дополнительную коммуникацию: жесты и графические символы... М.: Теревинф, 2017. 432 с.

5. Усанина Н.С., Бугайчук Т.В. Развитие кадрового потенциала дошкольной образовательной организации в контексте инклюзивного образования // Инклюзивное образование: преемственность инклюзивной культуры и практики. М.: МГППУ, 2017.

6. Шеманов А.Ю. Значение понимания культуры для постановки задач инклюзии // Инклюзивное образование: преемственность инклюзивной культуры и практики. М.: МГППУ, 2017.

7. Козырева О.А., Иванова Е.А. и др. Оценка сформированности базовых коммуникативных учебных действий у обучающихся... // Инклюзивное образование: преемственность инклюзивной культуры и практики. М.: МГППУ, 2017.

8. Самсонова Е.В., Шеманов А.Ю. Методологические аспекты инклюзивного образования // Инклюзивное образование: преемственность инклюзивной культуры и практики. М.: МГППУ, 2017.

9. Индивидуализация процесса обучения в дошкольном образовании. Инклюзия детей с особыми потребностями. Ташкент: ЮНИСЕФ, 2020.

10. Вейдт В.П. Преемственность в системе общего образования: основные смыслы. Калининград: КОИРО, 2019.

UDK: 37.013:004

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI

Madraximova Inobat Bahodirovna,
Alfraganus universiteti dotsenti v.b.

Annotatsiya. Maqolada ta'lim tizimini modernizatsiyalashda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mobil ta'lim, bulutli texnologiyalar, onlayn ta'lim platformalari hamda gamifikatsiya elementlarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi va ularning ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari yoritib beriladi. Raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarning o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, raqamli texnologiyalar, mobil ta'lim, bulutli texnologiyalar, onlayn kurslar, gamifikatsiya, ta'lim sifatini oshirish, individual yondashuv, ta'lim jarayoni, innovatsion texnologiyalar.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. В статье анализируются роль и значение цифровых технологий в модернизации системы образования. Освещаются вопросы внедрения мобильного обучения, облачных технологий, образовательных онлайн-платформ и элементов геймификации в учебный процесс, а также их возможности в повышении качества и эффективности образования. Рассматриваются педагогические подходы, способствующие усилению мотивации учащихся к учебной деятельности на основе цифровых технологий.

Ключевые слова: Профессиональное образование, цифровые технологии, мобильное обучение, облачные технологии, онлайн-курсы, геймификация, повышение качества образования, индивидуальный подход, учебный процесс, инновационные технологии.

INNOVATIVE WAYS TO ENHANCE EDUCATIONAL EFFICIENCY THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

Abstract. The article analyzes the role and significance of digital technologies in the modernization of the education system. It highlights the implementation of mobile learning, cloud technologies, online learning platforms, and gamification elements into the educational process, as well as their potential to improve the quality and efficiency of education. Furthermore, the article examines

pedagogical approaches based on digital technologies that serve to enhance students' motivation for learning activities.

Keywords: Vocational education, digital technologies, mobile learning, cloud technologies, online courses, gamification, improving education quality, individual approach, educational process, innovative technologies.

Hozirgi davrda kechayotgan global integratsiya jarayonlari va raqamli iqtisodiyotga o‘tish bosqichi kasbiy ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi strategik vazifalarni qo‘ymoqda. Jamiyat hayotining barcha sohalarida kuzatilayotgan raqamlashtirish tendensiyasi ta’lim tizimini modernizatsiyalashning fundamental asosi va harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Ushbu jarayonda raqamli texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga keng ko‘lamda integratsiya qilish zamonaviy mehnat bozori kon’yunkturasiga moslashuvchan, yuqori intellektual salohiyatli va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning eng samarali mexanizmi sifatida e’tirof etilmoqda.

Ta’kidlash joizki, raqamli texnologiyalarning jamiyatga kirib borish sur’ati (diffuziyasi) insoniyat tarixidagi avvalgi barcha texnologik inqiloblarga nisbatan misli ko‘rilmagan darajada tez kechmoqda. Xalqaro tadqiqotlar va statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bor-yo‘g‘i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga ulgurdi va bu orqali ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ldi [3]. Bu holat ta’lim tizimidan tezkor va adekvat reaksiyani, ya’ni an’anaviy o‘qitish modellaridan innovatsion raqamli pedagogikaga o‘tishni taqozo etadi.

Zamonaviy mehnat bozoridagi talab va taklif mutanosibligi bugungi kunda bevosita mutaxassisning raqamli savodxonligi va axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llay olish ko‘nikmasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bitiruvchilarning raqobatbardoshligi endilikda nafaqat ularning nazariy bilimlari, balki "raqamli kompetensiya" (digital competence) darajasi bilan o‘lchanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim muassasalarining funksional vazifalari ham transformatsiyaga uchramoqda. Endilikda oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlarining asosiy missiyasi talabalarga tayyor bilimlarni translyatsiya qilish bilangina cheklanib qolmay, balki ularda global axborot makonida mustaqil orientatsiya olish, katta hajmdagi ma’lumotlarni (Big Data) izlash, saralash, verifikatsiya qilish va tahlil etish kabi analitik ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Ushbu jarayonda pedagogik faoliyatning mazmuni ham jiddiy o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. O‘qituvchining roli an’anaviy "bilim beruvchi" subyektdan ta’lim oluvchilarning individual kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiruvchi "fasilitator" va "mentor" darajasiga ko‘tarilmoqda. Pedagog raqamli vositalardan samarali foydalangan holda, har bir talabaning o‘zlashtirish tezligi va qiziqishlariga moslashtirilgan individual ta’lim traektoriyalarini ishlab chiqishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchilardan doimiy kasbiy rivojlanishni va raqamli didaktika bo‘yicha malakasini uzluksiz oshirib borishni talab qiladi.

Ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida raqamli ekotizimni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Oliy va kasbiy ta’lim muassasalarida

o‘quv jarayonining mazmun va sifatini yangilash uchun quyidagi innovatsion yechimlarni joriy etish maqsadga muvofiq:

elektron ta’lim platformalari (LMS): O‘quv jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlarini tatbiq etish orqali ta’lim sifatini monitoring qilish imkoniyatini kengaytirish;

virtual va to‘ldirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalari: Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar yordamida talabalarda amaliy ko‘nikmalarni xavfsiz va tejamkor muhitda shakllantirish;

masofaviy va gibrid ta’lim modellari: Ta’limning vaqt va makon cheklovlaridan holi bo‘lishini ta’minlash hamda uzluksiz ta’lim (Lifelong learning) konsepsiyasini ro‘yobga chiqarish.

Umuman olganda, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish va takomillashtirish shunchaki texnik yangilanish emas, balki davr talabi bo‘lgan strategik zaruratdir. Bu jarayon mamlakat inson kapitalini rivojlantirish, iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirish va global hamjamiyatda munosib o‘rin egallashning garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli ta’lim texnologiyalari – bu shunchaki axborotni uzatish vositasi emas, balki elektron platformalar va innovatsion axborot tizimlari negizida o‘quv jarayonini interfaol (interaktiv) tashkil etishning kompleks mexanizmidir. Ushbu texnologiyalar an’anaviy pedagogik yondashuvlarni transformatsiya qilib, ta’lim oluvchilarning kognitiv faolligini oshirish, ularda mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy integratsiyalashga xizmat qiluvchi yangi didaktik muhitni shakllantiradi.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida raqamli texnologiyalardan tizimli va maqsadli foydalanish ta’lim sifatini kafolatlashning hal qiluvchi omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayon o‘quvchi-talabalarda XXI asr ko‘nikmalari – tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv va raqamli savodxonlik kabi kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Raqamli vositalarning ta’lim tizimini modernizatsiyalashdagi roli shundaki, ular o‘quv jarayonining shaffofligini, moslashuvchanligini (flexibility) va individualizatsiyasini ta’minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalardan foydalanishning strategik maqsadi faqatgina o‘quv jarayonining texnologik ta’minotini yaxshilash bilan cheklanmaydi. Asosiy maqsad – o‘quv jarayonining sifati va pedagogik samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, talabalarni zamonaviy axborotlashgan jamiyatga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishdan (sotsializatsiya) iboratdir [2]. Zero, raqamli muhitda ta’lim olgan mutaxassis kelajakda professional jamoaga tezroq moslashadi va global mehnat bozoridagi raqobatga bardoshli bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim mazmunini yangilash bilan birgalikda u amalga oshirilishi kerak. Bunday yondashuv ta’lim sifatini keskin oshiradi. Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sabablari orasida ko‘plab tadqiqotchilar sinf yukining kamayishi va mustaqil ishlar ulushining ko‘payishini bildiradi. Shu bois, ta’lim sifatini saqlab qolish va oshirish maqsadida

o‘quvchilarning bilim olishidagi kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish maqsadida o‘qituvchi va talabaning o‘zaro hamkorligini ta’minlaydigan raqamli ta’lim texnologiyalari faol joriy etilmoqda [1].

Talabalarni tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- o‘quv materiallarining dinamikligini oshirish va topshiriqlarni samarali bajarish;
- talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish;
- ta’lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etish;
- o‘quv resurslarining vizuallashuvi va taqdimot sifatini yaxshilash;
- o‘qituvchidan tezkor fikr-mulohaza olish imkoniyatini yaratish;
- talabalarga bajarilgan topshiriqlar bo‘yicha natijalarga darhol kirish huquqini ta’minlash.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish oson kechadi. Chunki talabalar kundalik hayotlarida turli elektron qurilmalardan faol foydalanib, texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularga raqamli vositalar orqali axborotni tez va samarali qabul qilish hamda o‘quv materiallarini chuqur o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini individuallashtirishga xizmat qilib, har bir o‘quvchining ehtiyoj va tayyorgarlik darajasiga moslashtirilgan topshiriqlarni taqdim etish orqali ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Elektron vositalardan foydalanish esa talabalarni o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Passiv idrok jarayonidan chiqib, talaba mustaqil ravishda faol harakatlarga o‘tadi va topshiriqlarni bajarishga kirishadi. Ushbu maqolaning asosiy vazifasi – yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonida raqamli ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlarini har tomonlama ochib berishdan iborat.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi masalalarni hal etish lozim:

- Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning tutgan o‘rnini aniqlash;
- Ularning asosiy shakllarini tahlil qilish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish usullarini o‘rganish;
- Olingan ilmiy natijalarni chuqur tahlil va dalillarga asoslangan holda tadqiqot mazmuni sifatida taqdim etish.

Raqamli texnologiyalarning asosiy turlari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: mobil ta’lim, bulutli texnologiya, onlayn kurslar, gamifikatsiya va vebkvest . Mobil ta’lim texnologiyasi ta’lim sohasida eng ko‘p talabga ega. Undan foydalanish tufayli eng qulay va samarali hamkorlik, bilim almashish imkoniyati mavjud. O‘quv jarayoni sub’ektlari simsiz tarmoqlar, cho‘ntak shaxsiy kompyuterining infraqizil funktsiyalaridan foydalangan holda masofadan turib material almashishlar, mobil qurilmalarni talabalar guruhiga o‘tkazishlari mumkin [2].

Bulutli texnologiyalar tarmoqqa oson va tezkor ulanish imkoniyatini ta’minlab, foydalanuvchilarga katta hajmdagi ma’lumotlarni samarali saqlash va boshqarish imkoniyatini beradi. Ushbu texnologiya minimal boshqaruv harakatlari

bilan ma'lumotlarni uzatish, qayta ishlash va xavfsiz saqlashni amalga oshirishga imkon yaratadi.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash, masalan, uy guruhidagi tadqiqot loyihalari, hisobotlar va taqdimotlarni yaratish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda har bir talaba o'quv faoliyatining ma'lum bir bo'limiga mas'uliyatli bo'lsa-da, shu bilan birga boshqa bo'limlarga ham tahrirlar kiritish va o'zgartirishlar qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Har bir talaba tomonidan kiritilgan o'zgarishlar real vaqt rejimida umumiy hujjatga sinxronlashtiriladi. Bulutli texnologiyalar masofaviy ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishi mumkin. Masalan, o'qituvchi universitetning elektron tizimiga topshiriqlar, amaliy ishlar va boshqa yozma vazifalarni joylashtiradi, bunda talabaning vazifasi – o'qituvchi tomonidan yaratilgan hujjatdagi vazifalarni bajarishdan iborat bo'ladi. Ushbu vazifalar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: matn yoki jadvaldagi bo'sh joylarni to'ldirish, savollarga javob berish yoki fikrlarni davom ettirish.

Raqamli didaktika sharoitida o'quv jarayonining shaffofligi va nazorati yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, bulutli texnologiyalar (Cloud Computing) va hamkorlikdagi ishlash platformalari o'qituvchiga talabalar faoliyatini uzluksiz monitoring qilish imkonini beradi. Pedagog real vaqt rejimida talaba tomonidan bajarilayotgan topshiriqlarni kuzatish, hujjatlarga to'g'ridan-to'g'ri kirish va tahrir kiritish huquqiga ega bo'ladi. Bu jarayon nafaqat baholash, balki ta'lim oluvchining xatolarini o'z vaqtida aniqlash va korreksiyalash (tuzatish) orqali individual yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

Masofaviy ta'lim tizimining o'zagini tashkil etuvchi onlayn kurslar (MOOCs – Massive Open Online Courses) zamonaviy ta'lim texnologiyalarining yorqin namunasi hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning fundamental afzalligi uning "ta'lim oluvchi markazlashgan" (student-centered) paradigmasiga asoslanganligidir. Bu shuni anglatadiki, o'quv jarayoni qat'iy belgilangan vaqt va makon chegaralaridan holi bo'lib, talabaning individual kognitiv ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtiriladi. Bunday moslashuvchanlik talabalarga o'z kasbiy faoliyati yoki boshqa mashg'ulotlaridan ajralmagan holda, global miqyosdagi sifatli ta'lim resurslaridan foydalanish va malaka oshirish imkoniyatini taqdim etadi.

Didaktik jarayonni tashkil etishda raqamli kommunikatsiyaning ikki asosiy modeli – sinxron va asinxron ta'lim shakllari farqlanadi.

Sinxron ta'lim model o'qituvchi va talabaning virtual makonda bir vaqtning o'zida (real vaqt rejimida) o'zaro muloqotini nazarda tutadi. Videokonferensaloqa vositalari (Zoom, Google Meet va b.) orqali tashkil etiladigan vebinarlar, onlayn munozaralar va jonli ma'ruzalar shular jumlasidandir. Sinxron ta'limning pedagogik samaradorligi shundaki, u "bu yerda va hozir" tamoyili asosida tezkor qayta aloqa (feedback) olish, muammoli vaziyatlarni jamoaviy muhokama qilish va ijtimoiy mavjudlik hissini saqlab qolish imkonini beradi.

Asinxron ta'limda o'quv jarayoni vaqt bo'yicha chegaralanmagan bo'lib, talaba o'quv materiallarini o'zi uchun qulay bo'lgan vaqtda va sur'atda o'zlashtiradi. O'qituvchi o'quv kontentini (videodarslar, elektron adabiyotlar,

testlar) maxsus platformalarga (LMS – Learning Management System) joylashtiradi. Talaba esa ushbu resurslarga istalgan vaqtda murojaat qilib, topshiriqlarni mustaqil bajaradi. Asinxron ta'lim talabada o'z-o'zini boshqarish (self-regulation), vaqtni to'g'ri taqsimlash (time management) va axborot bilan mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas, sinxron va asinxron usullarning o'rinli kombinatsiyasi ta'lim sifatini oshirish va talabalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning eng maqbul yo'lidir.

Tadqiqot natijalari ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida raqamli texnologiyalarning muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tizimli va maqsadli joriy etish ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarda zamonaviy raqamli kompetensiyalarni shakllantirish hamda ularni mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlash imkonini beradi.

Mazkur jarayon samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, ta'lim tashkilotlarida raqamli ta'lim muhitini shakllantirish va elektron ta'lim platformalaridan muntazam foydalanishni yo'lga qo'yish; ikkinchidan, o'qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish; uchinchidan, o'quv jarayonida interaktiv raqamli resurslar, masofaviy ta'lim texnologiyalari va virtual laboratoriyalardan samarali foydalanish; to'rtinchidan, ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi raqamli vositalarni joriy etish va ularning natijalarini monitoring qilish tizimini ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ta'limni modernizatsiyalashning muhim sharti bo'lib, u ilmiy asoslangan yondashuvlar va amaliy mexanizmlar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, M., Gulyamov, S. S., Ayupov, R. H. (2020). Raqamli iqtisodiyot – kadrlar tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari. – Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti. Архив научных исследований, 1(23). https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2702.

2. Блинов В.И. Образовательный процесс в профессиональном образовании: учебное пособие для вузов / В. И. Блинов [и др.]; под общей редакцией В. И. Блинова. — Москва: Издательство Юрайт, 2021.

3. Mirzahmedova Nargiza Dilmurodovna. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Raqamli texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi.— Uzbekistan: 2022.

UDK: 372.36

ПЕСОЧНАЯ ТЕРАПИЯ В КОРРЕКЦИИ РЕЧЕВЫХ НАРУШЕНИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В ДОО РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН

Бекманова Жамиля Абдуллаевна,
доктор философии (PhD), доцент кафедры дошкольного воспитания и дефектологии НГПИ им.Ажинияза

Аннотация. В работе подробно рассматривается потенциал песочной терапии как нового и действенного подхода к исправлению речевых проблем у детей дошкольного возраста в детских садах Каракалпакстана. Подчёркивается важность применения этой методики в условиях двуязычия, характерных для этого региона. Анализируются теоретические принципы, лежащие в основе песочной терапии, и её воздействие на развитие речи, эмоциональной сферы, а также познавательных способностей детей. Описываются основные типы речевых нарушений, при которых песочная терапия показывает хорошие результаты. Подробно рассматриваются особенности организации коррекционных занятий в детских садах, а также методики и приёмы, используемые логопедами при работе с песком.

Ключевые слова: песочная терапия, коррекция речи, речевые нарушения, дети дошкольного возраста, логопедия, билингвизм, дошкольная образовательная организация, Каракалпакстан.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ BUZILISHLARINI KORREKSIYA QILISHDA QUM TERAPIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston hududidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy muammolarini bartaraf etishda qum terapiyasining yangi va samarali yondashuv sifatidagi imkoniyatlari batafsil ko‘rib chiqiladi. Ushbu metodikani mintaqaga xos bo‘lgan ikki tillilik sharoitida qo‘llashning ahamiyati ta’kidlanadi. Qum terapiyasining nazariy asoslari hamda uning bolalarning nutqi, emotsional sohasi va bilish qobiliyatlari rivojiga ta’siri tahlil qilinadi. Qum terapiyasi yaxshi natija beradigan asosiy nutq buzilish turlari yoritib beriladi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida korreksion mashg‘ulotlarni tashkil etish xususiyatlari hamda logopedlar tomonidan qum bilan ishlash jarayonida qo‘llaniladigan metod va usullar batafsil bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: qum terapiyasi, nutqni korreksiya qilish, nutq buzilishlari, maktabgacha yoshdagi bolalar, logopediya, ikki tillilik, maktabgacha ta’lim tashkiloti, Qoraqalpog‘iston.

SAND THERAPY IN THE CORRECTION OF SPEECH DISORDERS IN PRESCHOOL CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

Abstract. This paper thoroughly examines the potential of sand therapy as a new and effective approach to correcting speech disorders in preschool children in kindergartens of Karakalpakstan. The importance of applying this method in bilingual settings characteristic of the region is emphasized. The theoretical principles underlying sand therapy and its impact on speech development, emotional sphere, and cognitive abilities of children are analyzed. The main types of speech disorders in which sand therapy demonstrates positive results are described. Particular attention is paid to the organization of corrective sessions in preschool institutions, as well as to the methods and techniques used by speech therapists when working with sand.

Keywords: sand therapy, speech correction, speech disorders, preschool children, speech therapy, bilingualism, preschool educational organization, Karakalpakstan.

Современная система дошкольного образования ориентирована на создание условий для всестороннего развития ребёнка, включая своевременное выявление и коррекцию речевых нарушений. В условиях возрастания числа детей с различными формами речевой патологии особую значимость приобретает поиск эффективных, щадящих и мотивационно привлекательных методов логопедической работы. В этой связи песочная терапия рассматривается как один из перспективных инновационных подходов, активно внедряемых в практику дошкольных образовательных организаций.

В Республике Каракалпакстан проблема коррекции речевых нарушений у дошкольников приобретает особую актуальность в связи с билингвальной языковой средой, социально-культурными особенностями региона и необходимостью адаптации современных коррекционных технологий к национальному контексту. Использование песочной терапии позволяет учитывать данные особенности и создавать благоприятные условия для речевого и личностного развития детей. Актуальность использования песочной терапии в системе дошкольного образования Каракалпакстана обусловлена рядом факторов. Во-первых, метод отличается высокой степенью доступности и универсальности, что позволяет применять его в условиях как городских, так и сельских ДОО. Во-вторых, работа с песком создаёт эмоционально комфортную, безопасную среду, способствующую снижению тревожности, повышению уверенности ребёнка и формированию положительного отношения к логопедическим занятиям.

Песочная терапия представляет особый интерес в контексте билингвальной среды, типичной для Каракалпакстана, где дети с раннего возраста осваивают каракалпакский и узбекский языки. В этих условиях

часто встречаются случаи смешанных речевых расстройств, а также затруднения в развитии фонематического слуха, словарного запаса и грамматической структуры речи. Уникальность песочной терапии заключается в ее способности обходить языковые барьеры посредством невербальных форм самовыражения. Она помогает сформировать основные предпосылки для развития речи, независимо от конкретного используемого языка.

Метод песочной терапии строится на принципах игровой терапии, арт-терапии, сенсомоторного развития, а также на культурно-историческом подходе к развитию психики. В основе этого метода лежит естественная склонность ребенка к игре и потребность в тактильных ощущениях. Работа с песком стимулирует кожные рецепторы, особенно на кончиках пальцев. Нейропсихологические исследования показывают, что эта стимуляция тесно связана с развитием речевых зон в коре головного мозга. Научные данные подтверждают, что развитие мелкой моторики напрямую влияет на развитие речи, артикуляции и фонематического восприятия.

Песочная терапия создает мультисенсорную среду, которая задействует сразу несколько анализаторов: тактильный, зрительный, слуховой и кинестетический. Пионеры песочной терапии отмечали ее терапевтическую ценность, связанную с возможностью для ребенка символически выражать свои внутренние переживания, создавая образы и истории в песочнице. Это особенно важно для детей, которым сложно выражать свои мысли и эмоции словами.

Опыт дошкольных учреждений в Каракалпакстане показывает, что у детей дошкольного возраста наблюдается широкий спектр речевых нарушений. В этих случаях песочная терапия показала себя как довольно действенный инструмент коррекции. Например, педагоги отмечают улучшения в произношении звуков, расширении словарного запаса и формировании связной речи у детей, регулярно занимающихся песочной терапией. Кроме того, наблюдается положительная динамика в эмоциональном состоянии детей: они становятся более спокойными, уверенными в себе и охотно идут на контакт со сверстниками и взрослыми.

Важно отметить, что для достижения наилучших результатов песочная терапия должна проводиться квалифицированным специалистом, знакомым с особенностями речевого развития детей-билингвов. Перед началом занятий необходимо провести тщательную диагностику речевых нарушений, чтобы определить индивидуальные потребности каждого ребенка и разработать подходящую программу коррекции. Комплексный подход, сочетающий песочную терапию с другими методами логопедической работы, позволяет добиться стабильных и долговременных результатов в преодолении речевых трудностей у детей в билингвальной среде. При *дислалии* игры с песком способствуют автоматизации поставленных звуков в ненапряжённой игровой форме, что повышает качество и устойчивость результатов коррекции. У детей с *алалией* песочная терапия используется как средство формирования

предпосылок речи: развития общей и мелкой моторики, пространственных представлений, символической функции и познавательной активности. При *задержке речевого развития* метод стимулирует речевую инициативу, активизирует словарь и способствует формированию фразовой речи. *Заикание*, как нарушение темпо-ритмической организации речи, успешно корректируется за счёт релаксирующего воздействия песка, нормализации дыхания и снижения эмоционального напряжения. В работе с детьми с *дизартрией* песочная терапия применяется в комплексе с традиционными логопедическими методами и направлена на развитие координации движений, артикуляционной моторики и сенсорной интеграции.

Эффективная реализация песочной терапии в дошкольных образовательных организациях требует создания специально организованной предметно-развивающей среды. Песочница традиционно представляет собой ящик стандартных размеров (примерно 50×70 см, глубина 7–8 см), дно которого окрашивается в голубой цвет, символизирующий природные стихии и расширяющий игровые возможности. Песок должен соответствовать санитарно-гигиеническим требованиям: быть чистым, просеянным и регулярно обрабатываться. В условиях Каракалпакстана, где природный песок доступен, особое внимание уделяется его предварительной подготовке и безопасности использования.

Миниатюрные фигурки – это замечательный инструмент для развития детей, представляющий собой целый мир в миниатюре. В набор, как правило, входят изображения людей, представляющих различные профессии и социальные группы, фигурки животных, как домашних, так и диких, растения, от простых цветов до экзотических деревьев, предметы, окружающие нас в повседневной жизни, модели транспорта, от автомобилей до самолётов, и, наконец, архитектурные объекты, позволяющие познакомить ребёнка с разнообразием строений.

Особую ценность представляет собой включение в такие наборы элементов, отражающих национальную культуру каракалпакского народа. Юрты, как традиционное жилище, предметы быта, отражающие уклад жизни, национальные костюмы с их неповторимым колоритом – всё это позволяет сделать занятия не просто развлекательными, но и культурно ориентированными. Ребёнок не только играет, но и знакомится с историей и традициями своего народа, что, безусловно, повышает его интерес к занятиям и способствует формированию уважения к культурному наследию.

Использование таких наборов в педагогическом процессе открывает широкие возможности для развития у детей воображения, мелкой моторики, речи и познавательных способностей. Ребёнок может создавать собственные истории, разыгрывать сценки, изучать окружающий мир и знакомиться с культурой каракалпакского народа в увлекательной и доступной форме. Всё это делает миниатюрные фигурки не просто игрушкой, а ценным инструментом для всестороннего развития ребёнка.

Кроме того, игры с миниатюрными фигурками могут стать отличным способом для родителей провести время со своими детьми, вместе придумывая истории, обсуждая культуру и традиции. Это способствует укреплению семейных связей и созданию тёплой и доверительной атмосферы. Более того, такие занятия могут быть полезны и для детей с особыми потребностями, помогая им развивать социальные навыки, коммуникативные способности и эмоциональный интеллект.Таким образом, набор миниатюрных фигурок, особенно с включением элементов национальной культуры каракалпакского народа, представляет собой не только интересную игрушку, но и ценный инструмент для развития, обучения и воспитания детей. Его использование в педагогической практике и в семейном кругу может принести огромную пользу и способствовать формированию гармоничной и всесторонне развитой личности.В практике логопедов используются разнообразные приёмы песочной терапии. Пальчиковая гимнастика на песке, рисование линий, узоров, букв и символов способствует развитию мелкой моторики и графомоторных навыков. Артикуляционные упражнения сочетаются с рисованием на песке и вербализацией действий, что формирует устойчивые межанализаторные связи. Автоматизация звуков осуществляется через игровые задания на поиск, называние и классификацию предметов, построение песочных дорожек с проговариванием слогов и слов. Развитие лексико-грамматического строя речи и связной речи реализуется через сюжетно-ролевые игры, создание песочных композиций и рассказывание историй, что способствует формированию логического мышления и коммуникативных навыков.

Использование национально-культурного материала является важной особенностью песочной терапии в Каракалпакстане. Сюжеты из фольклора, легенды об Аральском море, традиционные праздники и элементы быта обогащают содержание занятий и способствуют формированию культурной идентичности ребёнка. Билингвальный подход позволяет гибко использовать каракалпакский и узбекский языки, развивая языковую компетентность и расширяя словарный запас детей.

Вовлечение семьи в коррекционный процесс значительно повышает его эффективность. Родителям предлагаются консультации, мастер-классы и рекомендации по использованию элементов песочной терапии в домашних условиях. Подчёркивается важность регулярности занятий и создания эмоционально поддерживающей среды.

Перспективы развития направления включают подготовку специалистов через курсы повышения квалификации, создание методических пособий с учётом специфики региона, обмен опытом между ДОО, исследование эффективности метода применительно к каракалпакоязычным детям.

Опыт применения песочной терапии в ДОО Каракалпакстана показывает положительную динамику в речевом и эмоциональном развитии

детей. Метод особенно эффективен при работе с детьми с повышенной тревожностью, гиперактивностью и аутистическими чертами. Перспективы развития включают систематическую подготовку специалистов, разработку регионально ориентированных методических пособий и дальнейшие научные исследования эффективности метода. Песочная терапия является эффективным и универсальным средством коррекции речевых нарушений у детей дошкольного возраста в условиях Республики Каракалпакстан. Интеграция метода в практику ДОО с учётом национально-культурных и языковых особенностей региона способствует гармоничному развитию личности ребёнка и повышению качества логопедической помощи.

Список литературы:

1. Акатов Л. И. Социальная реабилитация детей с ограниченными возможностями здоровья. Психологические основы. – М.: Владос, 2021.
2. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 2019.
3. Лурия А. Р. Основы нейропсихологии. – М.: Академический проект, 2020.
4. Шкловский В. М. Логопедия: теория и практика. – М.: Юрайт, 2022.
5. Зинкевич-Евстигнеева Т. Д., Грабенко Т. М. Песочная терапия. – СПб.: Речь, 2018.
6. Козлова С. А., Куликова Т. А. Дошкольная педагогика. – М.: Академия, 2021.
7. Мирзиёев Ш. М. Развитие системы дошкольного образования в Республике Узбекистан. – Ташкент, 2020.
8. Саидова Г. К. Коррекционная педагогика в условиях билингвизма. – Ташкент: Fan, 2019.
9. Axline V. Play Therapy. – New York: Ballantine Books, 2015.
10. Kalff D. Sandplay: A Psychotherapeutic Approach to the Psyche. – Boston: Sigo Press, 2003.

UDK:37.018.1

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA FAMILISTIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Nagmetova Nursulu Muratbaevna,
Ajiniyoz nomidagi NDPI "Boshlang‘ich ta’lim" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, familistik madaniyat shaxsning oilaviy qadriyatlar, mas’uliyat va ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan ongli munosabatini ifodalovchi muhim pedagogik kasbiy sifat komponenti sifatida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, oila instituti, familistik madaniyat, integrativ yondashuv, oilaviy qadriyatlar, oila va maktab hamkorligi, ijtimoiy-axloqiy rivojlanish.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ФАМИЛИСТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация. В данной статье проанализированы педагогико-психологические возможности развития фамилистической культуры у будущих учителей начальных классов на основе интегративного подхода. Также, фамилистическая культура обоснована как важный компонент педагогического профессионального качества, выражающий осознанное отношение личности к семейным ценностям, ответственности и социальным отношениям.

Ключевые слова: семья, институт семьи, фамилистическая культура, интегративный подход, семейные ценности, сотрудничество семьи и школы, социально-нравственное развитие.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING FAMILISTIC CULTURE IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Abstract. This article analyzes the pedagogical and psychological possibilities of developing familial culture in future primary school teachers based on an integrative approach. Also, the family culture is substantiated as an important component of pedagogical professional quality, expressing a conscious attitude of the individual towards family values, responsibility, and social relations.

Key words: family, family institution, familial culture, integrative approach, family values, family and school cooperation, social and moral development.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi va taraqqiyoti har tomonlama yetuk, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan barkamol shaxsni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayonda oilaning o'rni va ahamiyati juda katta bo'lib, undagi madaniyat, o'zaro munosabatlar va qadriyatlar jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev, "… bugungi tez o'zgarayotgan, murakkab davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o'rganmasdan turib ijtimoiy hayotdagi ko'plab murakkab savollarga javob topish qiyin. Shu bois, oila institutini mustahkamlash va oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lishi kerak", deb ta'kidlaydi [1]. Ushbu fikrlar oilaning nafaqat ijtimoiy, balki pedagogik ahamiyatini ham yaqqol ifodalaydi. Ayniqsa, ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan pedagog kadrlarning, xususan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining familistik madaniyati yuqori darajada shakllangan bo'lishi o'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarda oilaviy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarash, mas'uliyat va ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Yuqoridagi vazifalarni samarali amalga oshirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida familistik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, bunda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv pedagogik va psixologik bilimlar, nazariya va amaliy tajribalar, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali ta'lim mazmunini boyitadi. Aynan ushbu yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirish, ularning kasbiy tayyorgaligini ijtimoiy-axloqiy jihatdan takomillashtirishga xizmat qiladi.

Familistik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi muammosi ko'pchilik faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar va pedagoglarning asarlarida o'rganilgan bo'lib, bu izlanishlar uning fanlararo xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Ilmiy tadqiqotlarda oila madaniy qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlarini uzatuvchi fundamental ijtimoiy institut, shuningdek, shaxsning ijtimoiylashuvida hal qiluvchi muhit sifatida tahlil qilinadi. Jumladan, A.Antonov [2], V.Borisov [5], I.Egamberdieva [7], Yu.Volkov [9] kabi olimlar oilaning ijtimoiy mohiyati va uning hayotiy faoliyatiga doir, T.Afanaseva [3], A.Bodalev [4]lar oilada bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni, oila pedagogikasi va oilaning psixologik xususiyatlari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Pedagogika sohasida ham oilaviy ta'lim va ta'lim tashkiloti bilan oilaning o'zaro ta'siri masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Darhaqiqat, boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikning muvofiqlashtirilishi, shuningdek, o'qituvchining ota-onalar bilan birgalikda ishlashga tayyorligi bilan belgilanadi.

MDH mamlakatlari olimlarining [6, 8] asarlarida "oila madaniyati" tushunchasi shaxsning oila va oilaviy rollarga nisbatan mas'uliyatli ishtirokini belgilaydigan qadriyatli munosabatlari va bilimlari to'plami sifatida talqin qilinadi.

Mazkur tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida familistik madaniyatni integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini aniqlash va asoslashga qaratilgan. Integrativ yondashuv ta'lim jarayonida shaxs rivojini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy pedagogik konsepsiya bo'lib, u fanlararo bog'liqlik, nazariya va amaliyot uyg'unligi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslanadi. Mazkur yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirishda pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, etika va milliy-ma'naviy qadriyatlar mazmunini bir butun tizim sifatida qo'llash imkonini beradi.

Tadqiqotimiz davomida nazariy metodlar doirasida pedagogik, psixologik va falsafiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Ushbu metodlar orqali familistik madaniyat, integrativ yondashuv hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash masalalarining nazariy asoslari o'rganildi. Talabalarda familistik madaniyatning shakllanganlik darajasini aniqlash, ularning oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlarini, ijtimoiy mas'uliyati va kasbiy yo'nalganligini baholash maqsadida pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so'rovnomalari, testlar hamda diagnostik metodikalardan foydalanildi. Shuningdek, pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan ta'limni tashkil etish mazmuni va metodlarining samaradorligi tekshirildi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalarni qayta ishlash va tahlil qilishda sifat va miqdoriy tahlil metodlari qo'llanildi. Statistik tahlil vositalari yordamida tajriba-sinov ishlarining samaradorligi aniqlanib, xulosalar chiqarildi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari tahlili kasbiy tayyorgarlikning qadriyatli, kognitiv, faoliyatli komponentlari birligini nazarda tutuvchi integrativ yondashuv asosida amalga oshirildi. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarda oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik mohiyatini chuqur anglash, tarbiyaviy faoliyatda kompleks yondashuvni qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirish quyidagi pedagogik-psixologik imkoniyatlar orqali amalga oshiriladi:

- o'quv fanlari mazmuniga oilaviy tarbiya, ota-ona va farzand munosabatlari, milliy oilaviy qadriyatlar mavzularini integratsiya qilish;
- tarbiyaviy mashg'ulotlarda real oilaviy vaziyatlarga asoslangan pedagogik keyslarni tahlil qilish;
- pedagogik amaliyot jarayonida oila-maktab hamkorligini tashkil etishga yo'naltirilgan topshiriqlarni bajarish;
- talabalarda empatiya, refleksiya va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish;
- oilaviy munosabatlarga oid ijobiy ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirish;

- trening mashg‘ulotlari va rolli o‘yinlar orqali oilaviy vaziyatlarni psixologik modellashtirish;

- shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan psixologik mashqlarni qo‘llash.

Mazkur pedagogik imkoniyatlar talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash bilan birga, ularning oilaviy qadriyatlarga nisbatan mas’uliyatli munosabatini shakllantirsa, psixologik nuqtayi nazardan integrativ yondashuv shaxsning ichki ehtiyojlari, motivlari va qadriyatlar tizimiga ta’sir etish orqali familistik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot pedagogika oliy ta’lim tashkiloti talabalarida familistik madaniyat shakllanganligining dastlabki darajasini aniqlash, shuningdek, uning rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar samaradorligini baholashga qaratildi.

Tadqiqotning ta’kidlovchi bosqichida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aksariyatida familistik madaniyatning mohiyati va uning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati haqida aniq tasavvurlar mavjud emasligi aniqlandi. Oilaga nisbatan qadriyatli munosabat umuman olganda ijobiy xarakterga ega, biroq oilaviy qadriyatlarning pedagogik amaliyot va o‘qituvchining tarbiyaviy funksiyasi bilan bog‘liqligi yetarlicha anglanmagan. Kognitiv komponent oila psixologiyasi, maktab va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar pedagogikasi sohasidagi bilimlarning cheklanganligi bilan tavsiflanadi, bu esa ushbu bilimlarni haqiqiy kasbiy vaziyatlarda qo‘llashni qiyinlashtiradi.

Familitik madaniyatning faoliyatli komponenti asosan reproduktiv harakatlar darajasida namoyon bo‘lib, talabalarda yaqqol tashabbus va oila bilan o‘zaro munosabatlarni ongli ravishda loyihalashtirish ko‘nikmasi yetarlicha rivojlanmaganligi aniqlandi.

Tadqiqotning shakllantiruvchi bosqichida integrativ yondashuvga asoslangan pedagogik ta’sirlar tizimi amalga oshirildi. U psixologik-pedagogik fanlar mazmuniga familistik muammolarni singdirish, o‘qitishning interfaol metodlaridan foydalanish, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining oilalari bilan o‘zaro munosabatlarga qaratilgan pedagogik amaliyotni tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Talabalarning refleksiv faoliyati va ularning oilaga bo‘lgan o‘z qadriyatli munosabatini anglab yetishiga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu bosqichda amaliy ishlarning asosiy maqsadi pedagogik va psixologik omillarni uyg‘unlashtirgan holda talabalarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabat, tarbiyaviy mas’uliyat va kasbiy kompetensiyani shakllantirishdan iborat deb belgilab olindi.

Amaliy ishlar jarayonida “Pedagogika”, “Yosh va pedagogik psixologiya”, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi”, “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya” fanlari mazmuniga familistik madaniyat bilan bog‘liq mavzular integratsiya qilindi. Jumladan: “Oilaviy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati”, “oila va maktab hamkorligining psixologik asoslari”, “Milliy oilaviy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari”, “Sog‘lom oila muhitining bola shaxsiga ta’siri”. Amaliy asoslarning samaradorligini ta’minlash maqsadida quyidagi pedagogik metod va texnologiyalardan foydalanildi: **keys-stadi metodi** (real oilaviy va tarbiyaviy vaziyatlarni tahlil qilish orqali muammo yechish ko‘nikmalarini shakllantirish),

rolli o‘yinlar (“O‘qituvchi-ota-ona-o‘quvchi” munosabatlarini modellashtirish), **loyihaviy faoliyat** (“Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” mavzusida guruh loyihalarini ishlab chiqish), **munozara va davra suhbatlari** (oilaviy qadriyatlar yuzasidan mustaqil fikrlashni rivojlantirish), treninglar (empatiya va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlari). Ushbu metodlar talabalarning faolligini oshirish bilan birga, ularning psixologik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirdi.

Shuningdek, pedagogik amaliyot davomida talabalar boshlang‘ich sinflarda oilaviy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar va tarbiyaviy soatlar o‘tkazishdi. Pedagogik amaliyot jarayonida ota-onalar bilan suhbatlar tashkil etildi, oila va maktab hamkorligiga doir kuzatuvlar olib borildi, tarbiyaviy tadbirlar ssenariylari ishlab chiqildi. Bu jarayon bo‘lajak o‘qituvchilarda oilaviy tarbiya masalalarida amaliy tajriba hosil bo‘lishiga imkon yaratdi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichi natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirishning ijobiy dinamikasidan dalolat beradi. Oilaviy qadriyatlar va ularning kasbiy ahamiyatini anglash darajasini oshirish, oila psixologiyasi va oilaviy tarbiya pedagogikasi sohasidagi bilimlarni kengaytirish, shuningdek, ta’lim oluvchilarning ota-onalari bilan o‘zaro munosabatlar ko‘nikmalarini rivojlantirish qayd etildi. Talabalar o‘zlashtirgan bilimlarini pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishda dadilroq qo‘llay boshladilar, maktab va oila hamkorligini tashkil etishda tashabbuskorlik ko‘rsata boshladilar.

Olingan natijalar tahlili integrativ yondashuv bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining familistik madaniyatini yaxlit rivojlantirish uchun qulay pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratadi, degan xulosaga kelish imkonini berdi. Nazariy tayyorgarlik, amaliy faoliyat va kasbiy tajribani refleksiv anglashning birligi zamonaviy boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchining tarbiyaviy funksiyasini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barqaror qadriyatli munosabatlar, kasbiy ahamiyatga ega bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash tizimida integrativ yondashuvdan foydalanishning maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi va uning pedagogika oliy ta’lim tashkiloti sharoitida familistik madaniyatni rivojlantirishning samarali vositasi sifatidagi salohiyatini ochib beradi.

Исследователи также подчеркивают особенности восприятия и речевого развития учащихся с умственной отсталостью. Восприятие носит фрагментарный и замедленный характер, отличается недостаточной точностью и дифференцированностью, что затрудняет формирование целостных образов. Речь развивается с существенным отставанием и качественным своеобразием, проявляющимся в бедности словарного запаса, нарушениях грамматического строя, трудностях понимания и использования абстрактных понятий. Эти особенности обуславливают необходимость использования наглядных, многоканальных и повторяющихся форм подачи учебного материала.

В последние годы в научной литературе все чаще рассматривается потенциал цифровых технологий как средства коррекционно-развивающей работы с детьми с интеллектуальными нарушениями. Исследования указывают на высокую эффективность специализированного программного обеспечения, интерактивных приложений, обучающих игр и мультимедийных средств, способствующих активизации познавательной деятельности, развитию мотивации и формированию устойчивого интереса к обучению. Вместе с тем авторы подчеркивают, что успешность применения цифровых технологий зависит от их методически грамотного использования и соответствия психофизическим возможностям обучающихся.

Методологической основой данного исследования послужили положения специальной педагогики, коррекционной психологии и теории развивающего обучения, а также концепции цифровизации образовательного процесса. В ходе исследования использовались методы теоретического анализа и обобщения научной литературы, анализ педагогического опыта применения цифровых технологий в работе с учащимися с умственной отсталостью, а также методы сравнительного анализа результатов коррекционно-развивающей деятельности.

В рамках исследования рассматривались основные категории цифровых технологий, применяемых в специальном образовании: специализированное программное обеспечение, интерактивные обучающие приложения и игры, адаптивные образовательные платформы и мультимедийные средства обучения. Особое внимание уделялось анализу их функциональных возможностей, степени адаптированности к особенностям познавательной деятельности детей с умственной отсталостью и условиям практического использования в образовательных организациях.

Методология исследования также предполагала рассмотрение условий эффективности применения цифровых технологий, включая индивидуальный подбор программных средств, дозирование времени работы с цифровыми устройствами, сочетание цифровых и традиционных методов обучения, а также профессиональную готовность педагогов и участие родителей в коррекционно-развивающем процессе.

Анализ практики применения цифровых технологий в коррекционно-развивающей работе с учащимися с умственной отсталостью показывает, что

данные средства обладают значительным потенциалом для развития основных когнитивных функций. Использование компьютерных программ и интерактивных приложений позволяет эффективно развивать память, внимание, мышление, восприятие и речь за счет высокой степени наглядности, интерактивности и возможности многократного повторения заданий без эмоционального перенапряжения.

В частности, для развития памяти широко применяются цифровые тренажеры, направленные на тренировку зрительной и слуховой памяти, такие как игры на запоминание последовательностей, расположения объектов, звуков и слов. Исследования показывают увеличение объема и продуктивности памяти на 20–35 % после систематического использования таких программ, а также повышение устойчивости сохранения информации. Развитие внимания осуществляется посредством заданий на концентрацию, устойчивость, переключение и распределение внимания, при этом адаптивные программы позволяют постепенно увеличивать сложность заданий и уровень нагрузки.

Цифровые технологии также способствуют развитию мышления за счет использования заданий на классификацию, обобщение, установление причинно-следственных связей и решение логических задач. Визуализация абстрактных понятий и пошаговая демонстрация алгоритмов решения задач значительно облегчает понимание учебного материала. Мультимедийные и сенсорные приложения оказывают положительное влияние на развитие восприятия, а специализированные логопедические программы способствуют коррекции звукопроизношения, обогащению словарного запаса и формированию связной речи.

Важным результатом применения цифровых технологий является повышение учебной мотивации и общей познавательной активности учащихся. Экспериментальные данные свидетельствуют об увеличении показателей концентрации внимания на 25–40 %, росте времени устойчивого сосредоточения в 1,5–2 раза, а также снижении количества ошибок при выполнении логических заданий. Дети проявляют большую инициативу, настойчивость и заинтересованность в учебной деятельности, что положительно отражается на общей успеваемости.

Проведенный анализ позволяет сделать вывод о том, что использование цифровых технологий в развитии когнитивных способностей учащихся с умственной отсталостью является перспективным и научно обоснованным направлением современной коррекционной педагогики. Цифровые средства обучения обладают рядом существенных преимуществ, включая высокую степень наглядности и мультисенсорности, возможность индивидуализации обучения, обеспечение немедленной обратной связи и объективной фиксации результатов, а также повышение мотивации к обучению.

Вместе с тем успешное внедрение цифровых технологий требует соблюдения ряда условий: индивидуального подбора программного обеспечения с учетом степени выраженности нарушений, строгого

дозирования времени работы с цифровыми устройствами, сочетания цифровых и традиционных методов обучения, профессиональной подготовки педагогов и активного вовлечения родителей в коррекционно-развивающий процесс. Необходимо также учитывать существующие проблемы, связанные с недостаточным материально-техническим обеспечением образовательных организаций и ограниченным количеством специализированных программ на русском языке.

В качестве перспективных направлений дальнейших исследований можно выделить разработку и апробацию новых цифровых программ, изучение долгосрочных эффектов их применения, создание методических рекомендаций для педагогов, а также исследование возможностей использования технологий виртуальной и дополненной реальности в специальном образовании.

Цифровые технологии следует рассматривать не как вспомогательное, а как значимое средство развития когнитивных способностей учащихся с умственной отсталостью в системе специального образования. Их целенаправленное и научно обоснованное внедрение способствует повышению качества коррекционно-педагогической помощи, расширению образовательных возможностей детей с особыми образовательными потребностями и их более успешной социальной адаптации. Перспективы дальнейших исследований связаны с разработкой и апробацией новых цифровых программ, изучением долгосрочных эффектов их использования и созданием методических рекомендаций для педагогов специального образования.

Список литературы:

1. Акатов Л.И. Социальная реабилитация детей с ограниченными возможностями здоровья. Психологические основы. — М.: Владос, 2021. — 368 с.

2. Баряева Л.Б., Гаврилушкина О.П. Использование информационно-коммуникационных технологий в работе с детьми с интеллектуальными нарушениями // Специальное образование. — 2020. — № 3. — С. 12-25.

3. Выготский Л.С. Основы дефектологии. — СПб.: Лань, 2003. — 654 с.

4. Гончарова Е.Л., Кукушкина О.И. Цифровая трансформация специального образования: проблемы и перспективы // Дефектология. — 2021. — № 1. — С. 3-12.

5. Замский Х.С. Умственно отсталые дети: История их изучения, воспитания и обучения. — М.: НПО «Образование», 2005. — 365 с.

6. Кукушкина О.И. Применение информационных технологий в специальном образовании // Специальное образование. — 2019. — № 4. — С. 33-47.

7. Лубовский В.И. Специальная психология. — М.: Академия, 2019. — 560 с.

8. Малофеев Н.Н. Концепция развития образования детей с ОВЗ: основные положения // Альманах Института коррекционной педагогики. — 2019. — № 36. — С. 1-15.

9. 10. Пузанов Б.П., Коняева Н.П., Горскин Б.Б. Обучение детей с нарушениями интеллектуального развития (Олигофренопедагогика). — М.: Академия, 2018. — 272 с.

11. Kagohara D.M., van der Meer L., Ramdoss S. Using iPods and iPads in teaching programs for individuals with developmental disabilities: A systematic review // Research in Developmental Disabilities. — 2021. — Vol. 34(1). — P. 147-156.

UDK:37.026.9

TALABALARDA ZAMONAVIY KASBIY VA INNOVATSION TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Alyaminov Xayrulla Islamovich,
Qoraqalpoq davlat universiteti "Arxitektura" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Urazbaev Bektursin Tulibaevich,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tashkilotlarida, xususan, arxitektura ta'lim yo'nalishi talabalarida zamonaviy kasbiy va innovatsion tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan, bo'lajak me'morlarning nafaqat maxsus bilim va ko'nikmalari, balki kasbiy tamoyillar, qadriyatlar va e'tiqodlarini amaliy faoliyatda qo'llash layoqati tahlil qilingan. Shuningdek, mehnat bozorining bugungi talablaridan kelib chiqqan holda talabalarda kreativ g'oyalarni tijoratlashtirish, ya'ni innovatsion tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish omillari va uning samaradorligini oshirish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion tadbirkorlik, kasbiy kompetentlik, tadbirkorlik faoliyat, kasbiy ma'naviyat, kasbiy axloq, kasbiy madaniyat.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ И ИННОВАЦИОННЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье исследуются теоретические и практические аспекты развития современных профессиональных и инновационно-предпринимательских компетенций студентов высших учебных заведений, в частности, обучающихся по направлению «Архитектура». Проанализирована значимость не только специальных знаний и навыков будущих архитекторов, но и их способности применять профессиональные принципы, ценности и убеждения в практической деятельности. Также, исходя из современных требований рынка труда, освещаются факторы формирования способностей к коммерциализации креативных идей — инновационного предпринимательства — и пути повышения его эффективности в процессе обучения.

Ключевые слова: инновационное предпринимательство, профессиональная компетентность, предпринимательская деятельность, профессиональная духовность, профессиональная этика, профессиональная культура.

ISSUES OF DEVELOPING MODERN PROFESSIONAL AND INNOVATIVE ENTREPRENEURIAL COMPETENCIES IN STUDENTS

Abstract. This article explores the theoretical and practical aspects of developing modern professional and innovative entrepreneurial competencies among university students, specifically those majoring in Architecture. The study analyzes the importance of not only the specialized knowledge and skills of future architects but also their ability to apply professional principles, values, and beliefs in their practical activities. Furthermore, based on current labor market demands, the factors influencing the formation of innovative entrepreneurial skills—specifically the commercialization of creative ideas—and ways to enhance the effectiveness of this process are highlighted.

Keywords: innovative entrepreneurship, professional competence, entrepreneurial activity, professional spirituality, professional ethics, professional culture.

Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish davrida oliy ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifasi — bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan, yangilik yarata oluvchi, ijodkor va mas'uliyatli mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Ayniqsa, innovatsion tadbirkorlik kompetensiyalariga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu kontekstda oliy ta'lim jarayonining mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, uni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish va talabalarning innovatsion tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlik darajasini oshirish lozim bo‘ladi.

Innovatsion tadbirkorlik faoliyati — bu yangicha yondashuvlar asosida mavjud muammolarga yechim topish, ilm-fan yutuqlari va texnologiyalarni tijoratlashtirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy qiymat yaratish jarayonidir. Bunday faoliyat nafaqat iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, jamiyatda innovatsion tafakkurni qaror toptirish va barqaror taraqqiyotga zamin yaratishda muhim omildir. Shu bois, oliy ta'lim mazmuniga innovatsion tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga oid bilimlar, ko‘nikmalar va kompetensiyalarni kiritish zarur.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlarning iqtisodiy o‘sishini jadallashtirish va mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni istisodiy faollik bilan qamrab olish uchun ishbilormonlik, investitson muhitini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda va erkin tanlangan tadbirkorlik faoliyati turlaridan foydalanish huquqi qo‘llab-quvvatlanmoqda. Shuningdek, Mamlakatimizning OTMlarida innovatsion tadbirkorlik faoliyatni shakllantirish va uni ishlab chiqarish korxonalari bilan korporativ birga ishlash yo‘llarini aniqlashda o‘ziga xos imkoniyatlar eshigining ochilishi, ikki tomonning ya'niy ish beruvchi korxona bilan bo‘lajak ishchining talabalik davridan boshlab korxona buyurtmasini bajarishga qaratilgan ikki tomon manfaatlarini hisobga olish mexanizmlarining ishlab chiqilishi bugingi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda.

Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, kompleks va funktsional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik xalqimizga mos bo‘lgan an’anaviy xislatlardan biri sifatida qayta jonlandi. Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida asosga aylanmoqda. Mahalliy olimlarimiz ilmiy-nazariy tadqiqotlari asosida tadbirkor va tadbirkorlik kategoriyasiga turlicha ta’riflar berilgan. Jumladan, G‘.M. Qosimov “Tadbirkorlik pul topishning, boylik to‘plashning yaratuvchanlik, boylikni ko‘paytirishlik faoliyatidir, ya’ni ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, ijodkorlik faoliyatidir”-[3] deb keltirsa, T.Do‘stjanov va S.Salayevlar “Tadbirkorlik faqat iqtisodiy sohaning turli tuman darajalaridagi mahsulot ishlab chiqarish jarayoni, ya’ni sohibkorlik” - [2] deb keltiradi.

I.Y.Umarov “Tadbirkor- iqtisodiy rususrlardan unumli foydalanuvchi hamda muayyan iqtidor va ishbilarmonlik xususiyatiga ega bo‘lgan faol shaxs” [6] deb bergan ta’rifidan tadbirkorlik sarmoyasi va iqtisodiy imkoniyatlari ko‘pchilikda mavjud bo‘lishi mumkin, lekin undan unumli foydalana olish hammaning ham qo‘lidan kelmaydi. Shunday ekan, xususiy yoki boshqa turdagi mavjud sarmoyadan unumli foydalana olgan insongina haqiqiy tadbirkor bo‘lib yetishadi, kishilarni ish bilan ta’minlab, aholi bandligini ta’minlay oladi deyish mumkin.

Y.Shumpeter taniqli avstraliya iqtisodchi olimi “Tadbirkorlik-yaratuvchanlik, yangilikni izlash demakdir” deb keltirib tadbirkorlikning vazifasi yangi ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish orqali yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi xom ashyo turlarini o‘zlashtirish va yangi bozorlarni topish va tovarlarni sotishdan iborat” deb takidlaydi [8].

“Tadbirkorlik –kishining shaxsiy tashabbuslariga asoslangan, foyda olish va mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida tavakkalchilik bilan faoliyat yuritishga oid harakatlari majmuyi” deb takidlaydi olima V.M.Karimova. Ijtimoiy- iqtisodiy jarayonlarni inobatga olib olima quyidagicha ikkinchi tarifni beradi; “Tadbirkorlik- insonnong dadil ravishda muhim va og’ir maqsadlarni ruyobga chiqarishga qaratilgan shaxsiy sifatlari jamlamasidir” deb ta’kidlaydi o‘z asarlarida [4].

U.P. Umurzakov va A.J.Toshboyevlar tomonidan “Tadbirkorlik - ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovar va xizmatlarni ishlab chiqish va ayirboshlashni tashkil etish bo‘yicha mulkdorlarning yoki ularning vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir” – deb keltiradi [7].

Respublikamizda amalga oshirilayotgan mehnat bozoriga kerib kelayotgan yoshlarni va isloqatlarning iqtisodiy o‘sishini iqtisodiy faollik bilan qamrab olish uchun ishbilarmonlik, erkin tanlangan tadbirkorlik faoliyati turlaridan foydalanish huquqi qo‘llab quvvatlanmoqda va investitsion muhitini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidetimiz Sh. Mirziyoyev 2017 yilda Oliy Majlisga murojatnomasida “Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o‘rinlarini yaratish, nafaqat o‘zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbolarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori

texnologiyalar, ilm-fanning so‘ngi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kilish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo‘lishi shart. Kerak bo‘lsa, xorijdagi etakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish uchun ularga har tomonlama imkoniyat yaratish berishimiz lozim”- deya ta’kidlaydi [1].

Tadbikkorlikni- mavjud mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillshtirish, kapitalni yo‘naltirishning yangi sohalarini izlash va yangiliklarni yaratish, shaxsiy ustuvorlikni rivojlantirish, turli imkoniyatlardan daromat olish uchun foyalanish deya ta’riflash mumkin. Shuningdek, tadbirkorlik bozor uchun yangi mahsulot ishlab chiqarish, korxona yoki tarmoq barpo etishda majburiy foydalanish yoki faoliyat sohasining o‘zgartirilishi sifatida tavsiflanadi. Amerikalik iqtisodchi olimlardan R.Mak Konnell va S.Yu.Bryular tadbirkorlik mohiyatini idrok etishda tadbirkorlarning o‘zaro bog’lok to‘rt faoliyatini alohida ko‘rsatadi[5]. Ular:

- Tadbirkor yer, mablag’ va mehnat resusrslarini mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmat jarayoniga birlashtirish tashabbusini o‘z zimmasiga oladi;
- Tadbirkor biznes olib boorish jarayonida asosiy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishni, korxona faoliyati yani biznesni rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilovchi operatsiyalarni o‘z zimmasiga oladi;
- Tadbirkor yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga intiluvchi yoki biznesni tashkil qilishni va rivojllantirishning yangi shakllarini olib kiruvchi tashabbusgordir;
- Tadbirkor tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan xafni o‘z zimmasiga oladi. Sarf etilgan vaqt, harakat va qobiliyatlardan daromad olishi, ayrim vaqtlarda zarar ko‘rishiva mumkin, tadbirkor uchun daromad olish kafolatlanmagan.

Tadbirkor bunday vaqtlarda nafaqat o‘zining vaqti, ishbilarmonlik obro‘si va mehnati bilan, xattoki sarf etilgan mablag’i bilan ham tavakal qilishiga to‘g’ri keladi. Shunday ekan, ijodkorlik tadbirkorlik vazifalarining biri hisoblanib, tadbirkorlik faoliyatida doyim mavjud bo‘lishi kerak. Yangi g’oyalarni izlash va tadbiq etish eng murakkab va eng muhim vazifadir. Sababi, tadbirkordan nafaqat ijodiy fikrlash va yangi echimlarni toppish, balki istiqbolli fikrlash, kelajakdagi jamiyatning ehtiyojlarini ko‘ra olishi ham talab qilinadi. Innovatsiyalar-tadbirkorlikning maxsus quroli chunki innovatsiylar o‘z holicha emas, balki yangiliklarni yo‘naltirilgan tashkiliy izlash, ularga tadbirkorlik tarkiblarining muntazam qaratilganligida hisoblanadi.

Korxonalarda innovatsion yangiliklarni o‘z vaqtida va o‘z o‘rnida qo‘llash xarajatlarning keskin kamayishiga hamda mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi. Mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi uchun ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish milliy iqtisodiyotimiz barqarorligini ta’minlashning muhim mikroiqtisodiy omillaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirishda innovatsion yangiliklar yaratishni hamda ularning amaliyotda qo‘llanilishi juda ham muhim hisoblanadi. Yangilikka asoslangan innovatsion tadbirkorlik faoliyati

yangi mahsulot yoki asosan yangi tavsiflar va xususiyatlarga ega bo‘lgan yangi mahsulot yoki xususiyatlarga ega bo‘lgan yangi texnologiya yoki yangi mahsulot bo‘lishi mumkin. Bozorga oddiy mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarishdan tovar sifati tavsifi o‘zgerishi yoki ishlab chiqarishning texnik elementlari bilan bog’liq qanday da bir yangi elementlari yoki usullarini qo‘llash bilan bog’liq amalga oshirilishi mumkin.

Tadbirkorlikning eng muhim va murakkab vazifasi bu yangi g’oyani ishlash va ularni hayotga tadbiq etishdir, chunki bu hol tadbirkordan nafaqat ijodiy fikrlash, yangi yechimlarni toppish, balki kelajakda jamiyatning kelajagini ko‘ra olish xususiyatlari bilan birga istiqbolli fikrlashni ham talab etadi. Har qanday innovatsion faoliyat tadbirkorlik bo‘lishi mumkin, chunki u yangi g’oyalarni izlash; zarur resurslarni izlash; korxonani yaratish va boshqarish; uning natijasida shaxsan qoniqish va moddiy daromat olishga asoslanadi.

Yana bir aytish kerak bo‘lgan holat har qanday tadbirkorlik ham innovatsiya bo‘la olmaydi, faqatgina yaratilish natijasida tadbirkorlik daromadini, innovatsion mahsulotning diffuziyasini ishlatishga imkoniyat beruvchilarnigina innovatsiya deyish mumkin. Innovatsion tadbirkorlik sub’ektlari innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar hisoblanadi.

Oliy ta’lim tashkilotlarida asosan arxitektura ta’lim yo‘nalishi talabalarini zamonaviy kasbiy va innovatsion tadbirkorlik kompetensiyalari rivojlantirish, ular uchun doimiy daromat keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish dolzarblik kasb etadi. Kasbiy kompetentlik axloqiy fazilatlarning bir ko‘rinishi sifatida kognitiv jarayonning mohiyati va shaxsni rivojlantirishda uni amalga oshirish xususiyatlarini ochib berish lozim. Bo‘lajak tadbirkorlarning kasbiy kompetentligi uning bilimlari, ko‘nikmalar, tamoyillar va e’tiqoddan iborat bo‘lib, bu fazilatlarni amalga oshipish ko‘nikmalari va qobiliyatlari, bo‘lajak tadbirkorlarning kundalik faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy kompetentlikning o‘ziga xos xususiyatlari:

Birinchidan, uning mutaxassislik xususiyatiga ega ekanligida va kasbiy faoliyatning mazmuni bilan o‘z egallagan sohasiga kipisha olishida. Bundan tashqari, deyarli bo‘lajak tadbirkor hech bir ijtimoiy faoliyati uning ta’siridan tashqarida bo‘lmaydi. O‘zi yolg‘iz qolganda ham, inson o‘zining kasbiy kompetentlik ta’sirida o‘ylaydi va harakat qiladi.

Ikkinchidan, bo‘lajak tadbirkorning kasbiy kompetentligi uning ongi, hissi, irodasida ham namoyon bo‘lib, uni o‘z sohasiga doir qarorlar qabul qilishiga ta’sir ko‘rcatadi.

Uchinchidan, kasbiy kompetentlik shaxsning dunyoqarash darajasiga, shaxsiy javobgarlik hissiga bevosita bog‘liq.

Umumiy ma’noda bo‘lajak tadbirkorlarning kasbiy kompetentligi uch tapkibiy qism asosida shakllanadi. Bular – kasbiy ma’naviyat, kasbiy axloq va kasbiy madaniyatdir.

Biz tadqiq etgan tadqiqotimizda kasbiy kompetentlik, kasbiy faoliyat tarkibiy qismlarining o‘zaro uyg‘unligida bo‘lajak tadbirkor madaniyatining mohiyati o‘z ifodasini topadi. Shu sababli har bir bo‘lajak tadbirkor o‘zining kasbiy faoliyati

uchun shaxsiy ma'naviy javobgarlikni o'z zimmasiga olishi shart. Bo'lajak tadbirkor o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini o'zi belgilashi, qaror qabul qilishi, shaxsiy xulq-atvorni rejalashtirishi hamda o'ziga bog'liq bo'lgan kasbiy faoliyatning asosiy bo'g'inini anglab yetishi, yuksak professionallikni yuksak kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faollik, shaxsiy ishonch, ongli motiv va odatiy xatti-harakatlar normalariga aylantirish bugungi kunda oliy ta'lim tashkilotlarining asosiy tarbiyaviy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22 декабрь 2017 йил http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-20172.
2. Дўстжанова ва С.Салаев Иқтисодиёт ва тадбиркорлик асослари. Ўқув қўлланма.- Т.: «ИҚТИСОД-МОЛИЯ» 2006 й.
3. Қосимов Ғ.М.Менежмент: Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. Т.: Ўзбекистон, 2002.-312 бет.-11 бет)
4. Каримова В.М., Акрамова Ф.А. Иқтисодий психология. –Т.: 2002. 57-бет.
5. Мак Конелл К.Р., Брю С.Л. "Экономика: принципы, проблемы и политика" 21 –е издание. Архивная копия от 22 октября2019 на Wayback Machine//Инфра-М.- 2019.-29 мая
6. Умаров И. Ю. Озиқ-овқат саноатида тадбиркорлик фаолиятини ри вожлантириш (Андижон вилояти мисолида) // Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация авто реферати. –Т.: 2009
7. Умурзаков У.П., Тошбоев А.Ж. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. Ўқув қўлланма. Тошкент: «Сано-стандарт», 2014 й.480 б.-11б
8. Шумпетер Й. Теория экономического развития. - Moskva : Direkt-Media, 2007. – 400 s.

UDK: 373.5:37.013:37.02

UMUMTA'LIM FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Zaynitdinova Masuda Abduqadirovna,
Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim fanlarini o'qitishda qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarning nazariy-metodologik asoslari tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan hamda integrativ yondashuvlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada umumta'lim fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuvlarni tizimli joriy etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi xulosalangan.

Kalit so'zlar: umumta'lim fanlari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv, integrativ ta'lim, ta'lim samaradorligi, pedagogik innovatsiyalar.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-методологические основы современных педагогических подходов, применяемых в преподавании общеобразовательных предметов. В процессе исследования научно обоснованы роль и значение компетентностного, личностно-ориентированного, деятельностного и интегративного подходов в образовательном процессе. В статье делается вывод о том, что системное внедрение инновационных подходов в преподавание общеобразовательных дисциплин является важным фактором повышения эффективности образования.

Ключевые слова: общеобразовательные предметы, современные педагогические подходы, компетентностный подход, личностно-ориентированное обучение, деятельностный подход, интегративное обучение, эффективность образования, педагогические инновации.

MODERN APPROACHES TO TEACHING GENERAL EDUCATION SUBJECTS

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of modern pedagogical approaches used in teaching general education subjects. The research scientifically substantiates the role and significance of competence-based, student-centered, activity-based, and integrative approaches in

the educational process. The article concludes that the systematic implementation of innovative approaches in teaching general education subjects is a crucial factor in enhancing educational efficiency.

Keywords: general education subjects, modern pedagogical approaches, competence-based approach, student-centered education, activity-based approach, integrative education, educational efficiency, pedagogical innovations.

Hozirgi davrda kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning eksponensial rivojlanishi hamda insoniyatning "bilimlar iqtisodiyoti" bosqichiga o‘tishi milliy ta’lim tizimi oldiga fundamental strategik vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu makroiqtisodiy va sotsiomadaniy omillar umumta’lim fanlarini o‘qitish metodikasini tubdan isloh qilishni, ya’ni an’anaviy reproduktiv (bilimni shunchaki ko‘chirib olish) modeldan produktiv (yaratuvchanlikka asoslangan) ta’lim modeliga o‘tishni imperativ zaruratga aylantirdi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axborot oqimi tezlashgan zamonaviy sharoitda o‘quvchiga faqat tayyor bilimlarni uzatish o‘z samarasini yo‘qotmoqda. Shu bois, pedagogik jarayonning markaziy e’tibori o‘quvchining shaxsiy rivoji, uning intellektual salohiyati, mustaqil fikrlash ko‘nikmasi va kreativligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarga ko‘chirilmoqda [1]. Bu esa ta’lim mazmuni, shakli, vositalari va baholash mezonlarini tizimli ravishda qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Zamonaviy pedagogik nazariyalarda umumta’lim fanlarini o‘qitish jarayoni statik bilimlar majmuasini o‘zlashtirish emas, balki dinamik xarakterga ega bo‘lgan murakkab kognitiv jarayon sifatida talqin etilmoqda. Bunda asosiy maqsad – o‘quvchining bilish faoliyatini faollashtirish orqali unda tanqidiy (critical thinking) va ijodiy (creative thinking) tafakkurni shakllantirishdir.

Ta’lim jarayonining bunday transformasiyasi o‘quvchini real hayotiy muammolarni hal etishga, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga va o‘zgaruvchan muhitga tez moslashishga tayyorlash bilan chambarchas bog‘liqdir [2]. Demak, fan o‘qituvchisining funksiyasi "axborot tashuvchi"dan "o‘quv-bilish faoliyatini loyihalashtiruvchi va boshqaruvchi menedjer"ga o‘zgarmoqda.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun bugungi ta’lim amaliyotida quyidagi yondashuvlar metodologik asos sifatida ustuvorlik kasb etmoqda [3]:

kompetensiyaviy yondashuv: ta’lim natijasini o‘quvchi egallagan bilimlar hajmi bilan emas, balki ushbu bilimlarni amaliy faoliyatda, shaxsiy va ijtimoiy hayotda qo‘llay olish layoqati (kompetensiyasi) bilan o‘lchashni nazarda tutadi;

shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: ta’lim jarayonini har bir o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va iqtidoriga moslashtirish, ya’ni tabaqalashtirilgan ta’lim (differentiation) tamoyilini joriy etishni anglatadi;

faoliyatga asoslangan yondashuv: o‘quvchining bilim olish jarayonida passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishini, bilimlarni amaliy tajriba va tadqiqotlar orqali mustaqil egallashini ta’minlaydi;

integrativ yondashuv: fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish (masalan, STEAM ta’limi) orqali o‘quvchilarda olamning yaxlit ilmiy manzarasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umumta’lim fanlarini o‘qitishda mazkur yondashuvlarning integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning funksional savodxonligini oshirish va raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada umumta’lim fanlarini o‘qitishda qo‘llanilayotgan zamonaviy yondashuvlarning nazariy asoslari tahlil qilinib, ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri ilmiy jihatdan muhokama etiladi.

Zamonaviy yondashuvlarning asosiy yo‘nalishlari quyida keltirilgan.

1. Raqamli ta’lim texnologiyalari (darslarda multimedia, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va ta’lim platformalaridan foydalanish);
2. Interaktiv metodlar («Aqliy hujum», «Rolli o‘yinlar», «Keys-stadi» kabi usullar orqali o‘quvchilarning faolligini ta’minlash).
3. Loyihaga asoslangan ta’lim (o‘quvchilarga mustaqil tadqiqot olib borish, muammolarni hal qilish va loyihalar yaratish imkonini berish);
4. STEM yondashuvi (tegishli fanlarni integratsiyalashgan holda o‘qitish orqali amaliy bilimlarni shakllantirish);
5. Ta’lim klasteri (maktab, oliy ta’lim va ishlab chiqarish hamkorligini tashkil etish orqali ta’lim sifatini oshirish).

Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish o‘quv jarayonini individualizatsiya qilish, o‘quvchining qiziqish va ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Masalan, interaktiv darsliklar, onlayn platformalar, sun’iy intellekt asosidagi treninglar va simulyatsiyalar o‘quvchining mustaqil bilim egallashini rag‘batlantiradi hamda ularning analitik, mantiqiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [4].

Bundan tashqari, ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish o‘quvchining nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lishini, balki ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchining ijtimoiy faoliyati, muammolarni hal etish va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi [5].

Shuningdek, o‘qituvchining roli ham sezilarli darajada o‘zgaradi: u endi faqat bilim uzatuvchi emas, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi, mentor va o‘quv jarayonini boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Ta’limning mazmuni va metodlari esa ko‘proq interaktiv, masofaviy va loyiha asosidagi shakllarga o‘tmoqda, bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [6].

Natijada, zamonaviy ta’lim modeli o‘quvchining shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal etishga va zamonaviy jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlashga yo‘naltiriladi. Bu esa, o‘z navbatida,

mamlakatning raqamli iqtisodiyot va bilimlar jamiyatiga o‘tish jarayonida sifatli kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi.

Zamonaviy ta’lim yondashuvlarining markazida o‘quvchi shaxsining rivoji turadi. Kompetensiyaviy yondashuv umumta’lim fanlari mazmunini o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Bunda bilimlar yakuniy maqsad emas, balki amaliy faoliyatni amalga oshirish vositasi sifatida talqin qilinadi [1]. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, axborotni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [5].

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishni taqozo etadi. Bu yondashuv doirasida o‘qituvchi bilim manbai emas, balki o‘quv jarayonining tashkilotchisi va fasilitatori sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada o‘quvchi ta’lim jarayonining faol subyektiga aylanadi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv umumta’lim fanlarini o‘qitishda interfaol metodlar, loyihaviy ishlar, muammoli vaziyatlar va amaliy topshiriqlardan keng foydalanishni talab etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday metodlar o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga, ularni real hayot bilan bog‘lashiga va uzoq muddatli xotirada saqlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, integrativ yondashuv fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish orqali o‘quvchilarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi [4]. Umumta’lim fanlarining o‘zaro uyg‘unligi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning analitik va sintez qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda bilimlarning fragmentarligini bartaraf etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi, o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini kuchaytiradi va ta’lim natijalarining barqarorligini ta’minlaydi [6].

Shu bilan birga, mazkur yondashuvlar o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [8]. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatini kuchaytirib, bilimlarni ongli va chuqur o‘zlashtirishiga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini namoyon etish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish orqali shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirishga zamin yaratadi [9]. Natijada ta’lim jarayoni differensial va moslashuvchan xarakter kasb etib, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va mas’uliyat hissi ortadi.

Umuman olganda, zamonaviy pedagogik yondashuvlarning tizimli va maqsadli joriy etilishi umumta’lim fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning intellektual salohiyati va hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim pedagogik omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Umumta'lim fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish ta'lim tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi [7]. Kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va integrativ yondashuvlar o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning ijtimoiy moslashuvi, mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Umumlashtirib aytganda, zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni umumta'lim fanlari o'qitish amaliyotiga tizimli ravishda joriy etish nafaqat ta'lim mazmunini yangilash, balki pedagogik korpus oldiga mutlaqo yangi professional talablarni qo'ymoqda. Mazkur jarayon pedagog kadrlar tarkibidan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya, ilg'or metodik mahorat va innovatsion tafakkur tarziga ega bo'lishni imperativ shart sifatida talab etadi [10].

O'qituvchi faoliyatidagi bunday transformatsiya turli fundamental yo'nalishda namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, pedagoglarning innovatsion salohiyatini oshirish – bu shunchaki individual rivojlanish masalasi emas, balki butun ta'lim ekotizimining sifat ko'rsatkichlarini kafolatlovchi strategik resursdir. Zero, zamonaviy metodologik asoslarga tayangan ta'lim jarayoni nafaqat fan asoslarini o'rgatishga, balki o'zgaruvchan global muhitda o'z o'rnini topa oladigan, mustaqil va tanqidiy fikrlovchi, raqobatbardosh shaxsni (global citizen) shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, umumta'lim fanlari integratsiyasini raqamli va shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar bilan boyitish milliy ta'lim tizimining xalqaro ta'lim standartlari darajasiga ko'tarilishini ta'minlovchi eng muhim omil bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiyev M., Ziyomuhammedov B. Milliy pedagogik texnologiyalarning ta'lim-tarbiya jarayonida tatbiqi va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni. Monografiya. – Toshkent: UMIDZO'S, 2010. – 271 b.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000.–112 b.
3. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 160 b.
4. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar – puxta muhit yaratish omili. – Toshkent: YUNISEF, 2005. – 96 b.
5. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 184 b.
6. Sattorov E.A., Tashiev M. Pedagogik texnologiyalar: amaliy tajriba va tizimli-tahliliy yondashuv. – Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012. – 200 b.
7. Xodiev B.Yu., Golish L.V., Rixsiboev O.K. Keys-stadi asosida ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2009. – 148 b.
8. Qarshiboev X.K., Suvonov O., Qarshiboev J.X. Mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari. – Guliston, 2011. – 60 b.
9. Pedagogika/S.R.Rajabov tahriri ostida.–Toshkent: O'qituvchi, 1981.–320 b

10. Mirzayev N.E. O‘rta ta’lim tashkilotlarida fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – Guliston, 2010. – 128 b.

11. Akhmedov, B. A., Askarova, M. R., Xudayqulova, F. B., Tojiboeva, G. R., Artikova, N. S., Urinova, N. S., & Omonova, S. M. (2022). Pedagogical science education manegment in teaching science of pedagogical sciences. *Uzbek Sch. J*, *10*, 529-537.

UDK 159.922.72/.73:316.356.2

FARZANDNING EMOTSIONAL BARQARORLIGI VA INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIGA ONANING TA'SIR OMILLARI

Alimardanova Ra'no Narbayevna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika va texnologik ta'lim" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolamda farzandning emotsional barqarorligi va intellektual rivojlanishiga onaning ta'sir omillari nazariy jihatdan tahlil qilinadi va tadqiqot doirasida ona shaxsining emotsional yetukligi, muloqot uslubi, tarbiyaviy strategiyasi va kognitiv rag'batlantiruvchi faoliyati bolaning hissiy hamda aqliy o'sish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy manbalar asosida umumlashtirildi. Maqolamda onaning psixologik barqarorligi farzand rivojlanishining vositachi mexanizmi sifatida asoslab berildi va ushbu tadqiqot oilaviy psixologiya va tarbiya nazariyasida ona omilining markaziy ahamiyatini ko'rsatib beradi hamda kelgusida empirik izlanishlar uchun ilmiy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: emotsional barqarorlik, intellektual rivojlanish, onaning ta'siri, ota-ona muloqoti, kognitiv rag'bat, emotsional sezgirlik, ijro funksiyalari.

ВЛИЯНИЕ ФАКТОРОВ МАТЕРИ НА ЭМОЦИОНАЛЬНУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ РЕБЕНКА.

Аннотация. В данной статье теоретически анализируются факторы влияния матери на эмоциональную устойчивость и интеллектуальное развитие ребенка. В рамках исследования на основе научных источников обобщено влияние эмоциональной зрелости личности матери, стиля общения, воспитательной стратегии и когнитивно-стимулирующей активности на эмоциональный и интеллектуальный рост ребенка. Обосновано, что психологическая устойчивость матери выступает посредническим механизмом в развитии ребенка. Полученные выводы подчеркивают центральное значение материнского фактора в семейной психологии и теории воспитания, а также создают научную основу для дальнейших эмпирических исследований.

Ключевые слова: эмоциональная устойчивость, интеллектуальное развитие, влияние матери, родительское общение, когнитивная стимуляция, эмоциональная чувствительность, исполнительные функции.

MATERNAL FACTORS INFLUENCING THE EMOTIONAL STABILITY AND INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF THE CHILD.

Abstract. This article theoretically analyzes the factors of maternal influence on a child's emotional stability and intellectual development. Within the

framework of the study, the emotional maturity of the mother's personality, communication style, parenting strategies, and cognitive stimulation activities were examined and systematized based on scientific literature to determine their impact on the child's emotional and cognitive growth. The article substantiates the mother's psychological stability as a mediating mechanism in child development. The findings highlight the central role of the maternal factor in family psychology and educational theory and provide a theoretical foundation for future empirical research.

Keywords: emotional stability, intellectual development, maternal influence, parent-child communication, cognitive stimulation, emotional sensitivity, executive functions.

Bolalik davri shaxs shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning emotsional barqarorligi, o‘zini anglash darajasi hamda intellektual salohiyati poydevor sifatida shakllanadi. Bu jarayon tabiiy ravishda kechmaydi; u oilaviy muhit, tarbiya uslubi va kattalarning psixologik holati bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, ona shaxsining ichki dunyosi, emotsional yetukligi va bola bilan muloqot sifati farzand rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda ona-bola o‘rtasidagi munosabatlarning sifat darajasi bolaning ruhiy barqarorligi bilan uzviy aloqador ekani qayd etilmoqda [1].

Emotsional barqarorlik tushunchasi ko‘pincha hissiyotlarni nazorat qilish qobiliyati sifatida talqin qilinadi ammo, psixologik jihatdan u ancha kengroq mazmunga ega. U stressga chidamlilik, moslashuvchanlik, ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutish madaniyati va ichki xavfsizlik hissini o‘z ichiga oladi. Bola o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni mustaqil o‘rganmaydi balki, u bu jarayonni avvalo onaning namunasidan, uning munosabatidan va reaksiyalaridan kuzatish orqali egallaydi. Ijtimoiy o‘rganish mexanizmlariga ko‘ra, bola kattalarning xulq-atvorini model sifatida qabul qiladi va asta-sekin ichki me’yorlarga aylantiradi [2].

Shuning uchun onaning emotsional muvozanati farzand ruhiy barqarorligining muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi, intellektual rivojlanish masalasi ham faqat biologik omillar bilan cheklanmaydi. Kognitiv o‘sish bolaning fikrlash tezligi, muammoni hal qilish qobiliyati, nutq rivoji va mantiqiy tafakkurini o‘z ichiga oladi va tadqiqotlarim shuni ko‘rsatadiki, kognitiv rivojlanish uchun boy va qo‘llab-quvvatlovchi muhit zarur [3]. Ona tomonidan yaratilgan psixologik xavfsizlik maydoni, savollarga e’tibor bilan javob berish, mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish kabi omillar intellektual faollikni kuchaytiradi. Bola o‘z fikrini erkin ifoda eta olgan sharoitda tafakkur jarayoni izchil rivojlanadi. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar ona va bola o‘rtasidagi emotsional yaqinlik darajasi yuqori bo‘lgan oilalarda bolalarning akademik ko‘rsatkichlari ham yuqoriroq bo‘lishini ko‘rsatmoqda [4].

Bu holat emotsional xavfsizlik va kognitiv faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tasdiqlaydi. Agar bola o‘zini tushunilgan va qo‘llab-quvvatlangan his qilsa, u yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida faolroq ishtirok etadi lekin,

aksincha, doimiy tanqid yoki sovuqqon munosabat mavjud bo‘lgan sharoitda tashabbus susayishi mumkin. Ushbu maqolaning maqsadi farzandning emotsional barqarorligi hamda intellektual rivojlanishiga onaning ta’sir omillarini nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Ona shaxsining emotsional yetukligi, tarbiyaviy uslubi va muloqot madaniyati farzand rivojlanishida qanday mexanizmlar orqali namoyon bo‘lishi aniqlashtiriladi. Ushbu masalani chuqur o‘rganish oilaviy psixologiya va tarbiya nazariyasi uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Mazkur maqola nazariy xarakterga ega bo‘lib, farzandning emotsional barqarorligi va intellektual rivojlanishiga onaning ta’sir omillarini konseptual jihatdan tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot empirik ma’lumot yig‘ishga emas, balki mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish, tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va psixologik model ishlab chiqishga yo‘naltirildi. Shu bois metodologik asos sifatida integrativ yondashuv tanlandi. Bu yondashuv bir nechta nazariy konsepsiyalarni birlashtirish orqali muammoni kengroq kontekstda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Avvalo, ona-bola munosabatlari masalasida rivojlanish psixologiyasi yondashuvi asos qilib olindi. Rivojlanish jarayonini tizimli tarzda tushuntiruvchi nazariyalar shuni ko‘rsatadiki, bolaning ruhiy o‘sishi ijtimoiy muhit bilan faol o‘zaro ta’sir orqali amalga oshadi. Xususan, erta yoshdagi yaqin emotsional aloqalar keyingi psixologik barqarorlik uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi [5].

Ushbu yondashuv farzandning emotsional barqarorligini onaning sezgirligi va javob reaksiyasi bilan bog‘liq holda talqin qilishga imkon berdi. Ikkinchi metodologik tayanch sifatida o‘zaro ta’sirning sotsiokognitiv modeli qo‘llanildi. Bu modelga ko‘ra, bola tafakkuri faqat ichki biologik jarayonlar natijasi emas, balki ijtimoiy muloqot orqali shakllanadi. Ayniqsa, til rivoji va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati yaqin kattalar bilan hamkorlikda o‘sadi [6].

Onaning kognitiv rag‘batlantiruvchi faoliyati, savollar berishi, izohlashi va mustaqil fikrlashga undashi intellektual rivojlanishni tezlashtiruvchi omil sifatida ko‘rib chiqildi. Metodologik jihatdan yana bir muhim yo‘nalish – emotsional rivojlanish va o‘zini boshqarish nazariyalaridir. O‘zini regulyatsiya qilish qobiliyati bolaning maktabdagi muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan [7].

Ona tomonidan ko‘rsatilgan emotsional qo‘llab-quvvatlash, xavfsiz muloqot muhiti va izchil munosabat modeli bolaning ichki nazorat tizimini shakllantiradi. Bu jarayonni tushuntirishda ijtimoiy-emotsional kompetensiya tushunchasidan foydalanildi. Bundan tashqari, metodologik asosda oilaviy tizim yondashuvi ham inobatga olindi. Oila alohida shaxslar yig‘indisi emas, balki o‘zaro bog‘langan tizimdir. Tizimdagi bir a’zoning psixologik holati boshqalarga ta’sir qiladi. Onaning ruhiy barqarorligi yoki aksincha, zo‘riqishi farzandning emotsional foniga bevosita o‘tadi [8].

Shu nuqtai nazardan, maqolada onaning stressga munosabati, ichki resurslari va tarbiyaviy uslubi farzand rivojlanishining muhim determinantlari sifatida ko‘rib chiqildi.

Nazariy-metodologik tahlilda shuningdek, ijro funksiyalari va kognitiv nazorat nazariyasiga ham murojaat qilindi. Ijro funksiyalari – diqqatni boshqarish, rejalashtirish, impulslarni nazorat qilish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qo‘llab-quvvatlovchi va strukturali ota-ona muhitida bolalarda ushbu funksiyalar samaraliroq rivojlanadi [9].

Demak, onaning izchil va muvozanatli tarbiya uslubi nafaqat emotsional barqarorlikni, balki kognitiv boshqaruv jarayonlarini ham mustahkamlaydi. Umuman olganda, tanlangan metodologik asoslar farzand rivojlanishiga onaning ta’sirini ko‘p qirrali jarayon sifatida talqin qilish imkonini berdi. Emotsional sezgirlik, kognitiv rag‘batlantirish, ijtimoiy model bo‘lish va psixologik xavfsizlik muhiti bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan mexanizmlar sifatida qaraldi. Ushbu nazariy integratsiya maqolaning keyingi bo‘limida onaning ta’sir omillarini tizimli ravishda ajratish va model ko‘rinishida ifodalash uchun ilmiy asos yaratadi.

Nazariy tahlilim asosida farzandning emotsional barqarorligi va intellektual rivojlanishiga onaning ta’sirini bir yoqlama emas, balki o‘zaro bog‘langan bir nechta psixologik mexanizmlar orqali tushuntirish mumkinligi aniqlandi. Ona shaxsining ichki emotsional holati, muloqot uslubi, tarbiyaviy strategiyasi va kognitiv rag‘batlantirish darajasi bolada ikki muhim yo‘nalishda – hissiy barqarorlik hamda tafakkur rivojida – parallel tarzda namoyon bo‘ladi. Birinchi nazariy natija shuni ko‘rsatadiki, onaning emotsional sezgirligi bolaning ichki xavfsizlik hissini shakllantiradi. Agar ona bolani tinglay olsa, uning hissiyotlarini inkor etmay, nomlab bera olsa va mos reaksiya ko‘rsata olsa, bola asta-sekin o‘z hissiyotlarini boshqarishni o‘rganadi. Emotsional murabbiylik tushunchasi doirasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hissiy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi ota-ona modeli bolalarda past xavotir darajasi va yuqori ijtimoiy moslashuv bilan bog‘liq [10].

Bu jarayon bevosita namuna orqali o‘tadi. Bola onaning reaksiya mexanizmini ichkilashtiradi va shaxsiy strategiyaga aylantiradi. Ikkinchi natija kognitiv rivojlanish bilan bog‘liq. Ona tomonidan yaratilgan intellektual muhit bolaning tafakkur salohiyatini kengaytiradi va muloqotda savol-javob, muhokama va izohlash mavjud bo‘lsa, bola sabab-oqibat aloqalarini chuqurroq tushuna boshlaydi. Erta yoshdagi til boyligi va onaning nutq murakkabligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy izlanishlarda qayd etilgan [11].

Demak, intellektual rivojlanish passiv kuzatuv orqali emas, balki faol muloqot orqali amalga oshadi. Uchinchi muhim jihat – onaning psixologik barqarorligi va bola ijro funksiyalari o‘rtasidagi aloqadorlikdir. Izchil va muvozanatli tarbiya modeli bolaning diqqatni boshqarish, impulslarni nazorat qilish va rejalashtirish qobiliyatini kuchaytiradi [12]. Bu esa keyinchalik akademik muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biriga aylanadi.

To‘rtinchi natija sifatida ijtimoiy-madaniy omillar ta’siri qayd etildi. Ona faqat individual shaxs emas, balki ijtimoiy kontekst mahsulidir. Oila ichidagi muloqot madaniyati va qadriyatlar tizimi bolaning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantiradi [14].

Umuman olganda, nazariy natijalar onaning ta'siri ikki yo'nalishda – hissiy va kognitiv – bir vaqtning o'zida amalga oshishini ko'rsatdi va ular o'zaro uyg'unlashgan holda farzand rivojlanishining sifatini belgilaydi.

Nazariy natijalar shuni ko'rsatdiki, farzandning emotsional barqarorligi va intellektual rivojlanishi o'zaro mustaqil jarayonlar emas. Ular ko'pincha bir xil psixologik manbadan – yaqin kattalar bilan munosabat sifatidan oziqlanadi. Ayniqsa, onaning emotsional yetukligi va kognitiv faol pozitsiyasi bolaning ikki yo'nalishdagi o'sishini bir vaqtning o'zida qo'llab-quvvatlaydi. Shu nuqtai nazardan, muhokama jarayonida onaning ta'sirini oddiy "tarbiya omili" sifatida emas, balki rivojlanishning vositachi mexanizmi sifatida ko'rish zarur. Avvalo, emotsional barqarorlik masalasiga to'xtalish lozim. Zamonaviy tadqiqotlar ota-onaning emotsional mavjudligi va sezgirligi bolada xavfsiz bog'lanish shakllanishiga xizmat qilishini tasdiqlaydi [15].

Xavfsiz bog'lanish esa stress vaziyatlarida moslashuvchan reaksiya ko'rsatish qobiliyatini mustahkamlaydi. Agar bola hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlanayotganini his etsa, u salbiy tajribalarni ichki izdan chiqmasdan boshdan kechiradi. Bu jarayonni neyropsixologik nuqtai nazardan ham izohlash mumkin: barqaror emotsional muhitda bolaning stress tizimi haddan tashqari faollashmaydi, bu esa uzoq muddatli ruhiy sog'likka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Intellektual rivojlanish bilan bog'liq jihatlar ham alohida e'tibor talab qiladi. Kognitiv jarayonlar faqat individual aqliy salohiyat mahsuli emas, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir natijasidir. Tadqiqotlar ona tomonidan ko'rsatilgan kognitiv rag'bat va bolalarning akademik muvaffaqiyati o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi [16]. Ona savol berishga, fikr yuritishga, izohlashga undasa, bola mustaqil tafakkur qilishni o'rganadi. Bu jarayon davomida nafaqat bilim hajmi, balki mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish strategiyalari ham rivojlanadi. Muhokamada yana bir muhim omil – onaning ruhiy salomatligi. Parental depressiya yoki doimiy zo'riqish bolalarning emotsional va xulqiy muammolari bilan bog'liq ekani ilmiy manbalarda qayd etilgan [17].

Bu shuni anglatadiki, onaning ichki resurslari faqat o'zi uchun emas, balki farzand rivoji uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Onaning psixologik barqarorligi mavjud bo'lgan taqdirda, bola o'zini xavfsiz va qo'llab-quvvatlangan his qiladi. Shuningdek, muhokama doirasida ijro funksiyalarining shakllanishiga e'tibor qaratish zarur. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ota-onaning izchil va qo'llab-quvvatlovchi uslubi bolalarda o'zini boshqarish va diqqatni jamlash ko'nikmalarini kuchaytirishini ko'rsatmoqda [18].

Bu ko'nikmalar esa keyinchalik akademik muvaffaqiyat va ijtimoiy moslashuvning muhim prediktorlariga aylanadi. Yana bir muhim jihat – ijtimoiy tengsizlik va oilaviy resurslar ta'siri. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit bolalarning kognitiv rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin [19].

Biroq qo'llab-quvvatlovchi onalik modeli mavjud bo'lgan oilalarda salbiy tashqi omillarning ta'siri nisbatan yumshoqroq kechadi. Bu esa onaning emotsional va kognitiv vositachilik rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatdiki, onaning ta'siri ikki yo'nalishda – hissiy va

aqliy – bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘ladi va ular o‘zaro bir-birini mustahkamlaydi. Emotsional xavfsizlik mavjud bo‘lgan muhitda bola kognitiv jihatdan faolroq bo‘ladi. Intellektual faollik esa o‘z navbatida o‘ziga ishonchni kuchaytiradi. Shu tariqa, ona shaxsining psixologik yetukligi farzand rivojlanishining markaziy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur nazariy tahlil shuni ko‘rsatdiki, farzandning emotsional barqarorligi va intellektual rivojlanishi bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan, o‘zaro bog‘langan jarayonlardir. Bu ikki yo‘nalishning shakllanishida onaning roli markaziy o‘rin tutadi va ona shaxsining ichki muvozanati, muloqot madaniyati va tarbiyaviy pozitsiyasi bolaning nafaqat hissiy olamiga, balki tafakkur salohiyatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Emotsional xavfsizlik mavjud bo‘lgan muhitda bola o‘z fikrini erkin ifoda etadi, savol berishdan cho‘chimaydi va yangilikni qabul qilishga ochiq bo‘ladi. Aksincha, hissiy beqarorlik hukm surgan sharoitda ichki zo‘riqish kognitiv faollikni susaytirishi mumkin. Nazariy umumlashtirishlar onaning ta’siri bevosita emas, balki vositachi mexanizmlar orqali amalga oshishini ko‘rsatdi. Emotsional sezgirlik model vazifasini bajaradi, kognitiv rag‘bat esa tafakkur jarayonlarini faollashtiradi. Onaning izchil va muvozanatli munosabati bolaning o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bu esa keyinchalik akademik muvaffaqiyat, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy barqarorlik bilan namoyon bo‘ladi. Shuningdek, onaning ruhiy salomatligi va ichki resurslari farzand rivojlanishining muhim omili ekanligi tasdiqlandi. Ona o‘z hissiyotlarini boshqara olgan sari bola ham o‘z tajribalarini izchil tartibga sola boshlaydi. Bu jarayon ko‘pincha sezilmay kechadi, biroq uning natijalari uzoq muddatli rivojlanishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, onaning ta’siri farzand rivojlanishining hissiy va intellektual jihatlarini birlashtiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois oilaviy psixologiya amaliyotida onalarning emotsional barqarorligini mustahkamlash, kognitiv rag‘batlantirish ko‘nikmalarini rivojlantirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan empirik tadqiqotlar kelgusida ushbu nazariy xulosalarni yanada aniqlashtirish va amaliy tavsiyalarni boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Groh A.M., Fearon R.M.P., van IJzendoorn M.H., Bakermans-Kranenburg M.J., Roisman G.I. Attachment in the early life course: Meta-analytic evidence. Psychological Bulletin. 2017;143(8):770–806. DOI: https://doi.org/10.1037/bul0000106
2. Bernier A., Carlson S.M., Whipple N. From external regulation to self-regulation: Early parenting and executive functioning. Child Development. 2010;81(1):326–339. DOI: https://doi.org/10.1111/j.1467-8624.2009.01397.x
3. Blair C., Raver C.C. School readiness and self-regulation: A developmental psychobiological approach. Annual Review of Psychology. 2015;66:711–731. DOI: https://doi.org/10.1146/annurev-psych-010814-015221

4. Diamond A. Executive functions. Annual Review of Psychology. 2013;64:135–168. DOI: https://doi.org/10.1146/annurev-psych-113011-143750
5. Landry S.H., Smith K.E., Swank P.R. Responsive parenting and early cognitive development. Developmental Psychology. 2006;42(4):627–642. DOI: https://doi.org/10.1037/0012-1649.42.4.627
6. Hackman D.A., Farah M.J., Meaney M.J. Socioeconomic status and the brain. Nature Reviews Neuroscience. 2010;11:651–659. DOI: https://doi.org/10.1038/nrn2897
7. Goodman S.H., Rouse M.H., Connell A.M., Broth M.R., Hall C.M., Heyward D. Maternal depression and child psychopathology. Clinical Child and Family Psychology Review. 2011;14:1–27. DOI: https://doi.org/10.1007/s10567-010-0080-1
8. Luthar S.S., Cicchetti D., Becker B. The construct of resilience. Child Development. 2000;71(3):543–562. DOI: https://doi.org/10.1111/1467-8624.00164
9. Thompson R.A. Emotion regulation and development. Annual Review of Psychology. 1994;45:229–269. DOI: https://doi.org/10.1146/annurev.ps.45.020194.001305
10. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi; 2020.
11. Oila psixologiyasi Toshkent Sondor print nashriyoti 2024. R. Alimardanova 272 bet.
12. Nishonova Z.T. Bolalar psixologiyasi. Toshkent: Fan; 2019.
13. Karimova V.M. Oila va tarbiya psixologiyasi. Toshkent; 2017.
14. R.N.Alimardanova O`zbekistonda onalar va farzandlar o`rtasidagi munosabatlarning etnik xususiyatlari. Inter education & global study 3 (6), 541-550. 2025.
15. Yosh kelin-kuyovlar o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlar. Monografiya, 2023.
16. R.N Alimardanova. Onalar dunyoqarashi va farzandlar psixologik rivojlanishi / Inter education & global study, 440-446. 2024.
17. To‘xtayeva N.R. Onalik va bola rivojlanishining psixologik omillari. Oila va jamiyat. 2023;1:33–40.

UDK: 372.881.1

BASLAWISH KLASSLARDA ANA TILI HÁM OQIW SAWATXANLIǴIN OQITIWDA OQIW TAPSIRMALARINAN PAYDALANIW METODOLOGIYASI

Abdalieva P.I.,
NMPI, Ulıwma pedagogika hám psixologiya kafedrası úlken oqıtıwshisi

Annotaciya. Bul maqalada baslawısh klass oqıwshılarınıń ana tili hám oqıw sawatlılıǵın rawajlandırıwdıń zamanagóy ilimiy-metodologiyalıq mashqalaları analiz etiledi. Izertlew dawamında oqıwshılarda oqıp túsiniń hám tekst penen islesiw kónlikpelerin qáliplestiriwde innovaciyalıq oqıw tapsırmalarınıń áhmiyeti kórsetip berilgen. Maqalada sóylew iskerliginiń túrlerin integraciyalaw, oqıwshılardıń kognitiv belsendiliginiń arttırıw hám oqıw sawatlılıǵın xalıqaralıq bahalaw kriteriyaları (PIRLS) tiykarında rawajlandırıwdıń metodikalıq jolları dodalanadı. Alınǵan nátiyjeler baslawısh bilimlendiriw mazmunın jetilistiriw boyınsha ilimiy usınıslar beriwge xızmet etedi.

Tayanısh sózler: sóylew iskerligi, oqıw sawatlılıǵı, metodologiyalıq mashqalalar, oqıw tapsırmaları, kognitiv belsendilik, tekst analizi, baslawısh klass didaktikası, PIRLS bahalaw sisteması.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ И ЧТЕНИИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье анализируются современные научно-методологические проблемы развития родного языка и читательской грамотности учащихся начальных классов. В ходе исследования показано значение инновационных учебных заданий в формировании у учащихся навыков понимания прочитанного и работы с текстом. В статье обсуждаются методические пути интеграции видов речевой деятельности, повышения когнитивной активности учащихся и развития читательской грамотности на основе критериев международных программ оценивания (PIRLS). Полученные результаты служат основой для выработки научных рекомендаций по совершенствованию содержания начального образования.

Ключевые слова: речевая деятельность, читательская грамотность, методологические проблемы, учебные задания, когнитивная активность, анализ текста, дидактика начальных классов, система оценивания PIRLS.

METHODOLOGY OF USING LEARNING ASSIGNMENTS IN TEACHING NATIVE LANGUAGE AND READING IN PRIMARY CLASSES

Abstract. This article analyzes modern scientific and methodological problems in developing the native language and reading literacy of primary school students. The research demonstrates the importance of innovative educational tasks in forming students' reading comprehension and text-processing skills. The article discusses methodological ways of integrating types of speech activity, increasing students' cognitive engagement, and developing reading literacy based on international assessment criteria (PIRLS). The findings serve as a basis for providing scientific recommendations to improve the content of primary education.

Keywords: speech activity, reading literacy, methodological problems, educational tasks, cognitive engagement, text analysis, primary school didactics, PIRLS assessment system.

Tildiń sociallıq wazıypası sóylew iskerliginde, yaǵnıy sóylew sıpatında adamlar arasında baylanıs, pikirlesiw, sóylesiwdi ámelge asırıwda ayqın kórinedi. Túrli dáwirlerde ilimpazlar sóylew iskerligi anıqlamasına túrlishe qatnas jasaǵan. Ana tilin oqıtıw procesinde lingvistikalıq hám sóylew kompetenciyalarınıń óz ara ayırmashılıqların tereń túsiniw hám olardı oqıtıwda durıs qollanıw úlken áhmiyetke iye. Ana tili sabaqlarında tıńlap túsiniw, oqıp túsiniw, sóylew hám jazıw qábiletlerin jetilistiriw, ana tili talaplarına súyenip, zamanagóy usıllardı engiziwdi talap etedi. Máselen, sóylew qábileti basqa tillerdi úyreniwde áhmiyetli rol oynaydı. Ana tilinde sóylewshilerge sóylewdi úyretiw emes, olardıń óz pikirlerin durıs, anıq hám nátiyjeli jetkeriwge úyretiw kerek. Buǵan sóylew qábiletin rawajlandırıwǵa baǵdarlanǵan shınıǵıwlar arqalı erisiw múmkin.

Ana tili páni boyınsha milliy oqıw baǵdarlamasında sóylew hám tıńlap túsiniw qábiletlerine qoyılǵan talaplardı jetilistiriw, bul qábiletlerdiń standartların anıq belgilew zárúr. Tallawlar nátiyjesinde ulıwma orta bilim beriw mekteplerindegi «Ana tili hám oqıw sawatlılıǵı» sabaqlarında awızeki sóylewge arnalǵan oqıw tapsırmaları jazba sóylewge qaraǵanda oǵada az muǵdarda beriletuǵını anıqlandı.

Sh.Yusupova [1] hám N.Yuldasheva [2] izertlewlerinde ana tilin jańapedagogikalıq texnologiyalar tiykarında oqıtıw máselelerin izertlegen. A.Gulomov[3], M.Saidov[4] hám N.Alovuddinovalar [5] bolsa ana tilin oqıtıw arqalı ózbetinshe jumıslar, dóretiwshilik kónlikpelerin qálisplestiriw metodikası ústinde izertlewler alıp barǵan. Dál usı baǵdarda G.Yusupova[6] baslawısh klass oqıwshılarınıń kreativlik xızmetin qáliplestiriw sisteması baǵdarında ilimiy izertlewler alıp barǵan. A.Nawrızbaeva [7], A.Najimova[8], A.Emberganovalar [9] baslawısh klasslarda ana tilin oqıtıwǵa baǵdarlanǵan izertlewler alıp barǵan.

Filolog-metodist ilimpazlarımız A.Ǵulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Babamurodova, N.Allavutdinova hám V.Karimjanova "Ana tili oqıtıw metodikası" sabaqlıǵında berilgen didaktikalıq wazıypalardı, sóylew kompetenciyasın ósiriw boyınsha fonetika temasında kónlikpe hám tájiriybelerdi rawajlandırıwda, bul didaktikalıq wazıypanı orınlaw ushın óz betinshe bilim beriwde oqıw tapsırmaları kompleksinen paydalanıladı hám óz betinshe bilim beriw oqıw tapsırmaların kim oqıtıw prosesinde qollansa, oqıtıw quralı sıpatında,

kim onı qabıl etip orınlasa iskerlik predmeti wazıypasın atqaratuǵınlıǵın atap ótedi.

Izertlewshi A.Nawrizbaeva «Jańa Ózbekstan jaǵdayında baslawısh bilimlendiriw modernizaciyası dástúriy támiynatın jetilistiriwdiń metodologiyalıq tiykarları» (Tálim basqa tilde oqıtılatuǵın baslawısh klaslarda qaraqalpaq tilin oqıtıw mısalında) temasındaǵı (DSc) doktorlıq dissertaciyasında «Milliy oqıw baǵdarlaması» na qatnas bildirilgen, ulıwma bilim beriw mekteplerinde qaraqalpaq tili pánin oqıtıwdı rawajlandırıw, sonday-aq, leksikalıq kónlikpeler menen birge grammatikalıq kónlikpelerdiń ornı, qaraqalpaq tilinde durıs sóylewge arnalǵan kórgezbeli shınıǵıwlardan kóbirek paydalanıw zárúrligi atap ótilgen [10].

G.Bekimbetova: Tálimde oqıwshılardı awızeki hám jazba sóylew tájiriybesi, oqıw hám túsiniw, tıńlap túsiniwdi úyretiwdiń eń nátiyjeli jolı – bul oqıw tapsırmaların oqıwshı óz betinshe izertlewine qaratıp dúzip alıw mexanizmi islep shıǵılıwı kerekligin atap ótken [11].

Qaraqalpaq metodist ilimpazları N.A.Urumbayev, A.O.Umarov, G.Jumashevalardıń pikrine qaraǵanda, gáp dúziwge úyretiwde gáp modellerinen paydalanıwǵa tıykarlanıw, bunda dawıslardı tuwrı tańlaw hám aytıw, olardıń qollanılıwına ámel etiw talap etiledi.

A.S.Nawrizbaeva baslawısh bilimlendiriw modernizaciyasi dástúriy támiynatin integraciyalıq qatnas tiykarında jetilistiriw texnologiyaları, baslawısh bilimlendiriw modernizaciyası dástúriy támiynatın jetilistiriwdiń pedagogikalıq imkaniyatların, baslawısh bilimlendiriw modernizaciyası dástúriy támiynatınına baylanıslı oqıw ádebiyatınıń jańa awladın jaratıw mashqalasın úyrenilip shıqqan [12].

Baslawısh klasslarǵa ana tilin oqıtıwda sóz sóylew aǵzalarınıń háreketi procesinde payda boladı. Psixikalıq qubılıs bolǵan tildiń ańlatpa quralları sóylew ıqtıyarına ótkennen, haqıyqatqa aylanadı. Solay eken, sóz sóylew iskerliginiń óniminen, belgili formaǵa kiriwinen ibarat.

Birqatar shet el ilimpazlarınan A.Krivileva, A.Kucheryavıy, I.Mostovaya, N.Sagina hám A.Chizx óz betinshe tálim tapsırmaları ushın psixologiyalıq tayarlıqtıń jetispewi, ózin-ózi shólkemlestiriwdiń ulıwma qaǵıydaların bilmew, ilimiy ádebiyatlar menen islew qábiletleri hám qábiletlerdiń jetispewi hám kóplegen oqıw pánlerine jeterli joqarı dárejede qızıǵıwshılıqtıń joq ekenligin bildirgen. Ásirese G.Selixova oqıw tapsırmaları boyınsha, T.A.Sluxay oqıw procesinde tekstlik oylawdı rawajlandırıw, E.A.Baronenko sóylewdi didaktikalıq mexanizm tiykarında rawajlandırıw, L.T.Larinova, V.Ya.Bluxov orfografiyalıq kommunikaciyalıq qatnaslar tiykarında, T.M.Voiteleva, A.V.Koreneva, V.Korovina sóylew tájiriybelerin rawajlandırıwda kommunikaciyalıq qatnaslar tiykarında, R.I.Avanesov, A.P.Yeremeeva, E.I.Litnevskaya, V.A.Bogryanceva, E.S.Antonova, V.V.Babayceva, F.I.Buslaev, I.Yu.Gats, F.F.Fortunovlar sóylewdiń lingvometodikalıq áhmiyetin, lingvistikalıq terminler arqalı sóylewdi ósiriw arqalı sóylewdi rawajlandırıwda metodikalıq qatnaslarǵa tiykarlanadı.

V.P.Gluxovtıń kórsetiwi boyınsha, sóylew iskerligi aktiv, anıq bir maqsetke qaratılǵan, til jardeminde ámelge asırılatuǵın hám jaǵdaylardan kelip shıqqan halda insanlar arasında óz ara tásir etiw, ushırasıw procesi bolıp tabıladı. Sóylew iskerligi

basqa keńlew, mısalı, sociallıq-islep shıǵarıw, biliw iskerligine de kiriwi múmkin. Biraq ol ǵárezsiz iskerlik bolıwı múmkin. Sóylew iskerliginiń hárqaysı túri óziniń "kásiplik tımsalı"na iye boladı, mısalı, sóylew – bayanatshınıń, jazıw – jazıwshınıń kásiplik iskerligin kórsetedi [13].


F.de Sossyur til sóylew arqalı reallasıwdı kórsetip ótken. Alım sociallıq qubılıs bolǵan tildi múmkinshilik, sóylewdi bolsa júzege shıǵıwshı qubılıs sıpatında tildiń ańlatpa qurallarınan paydalanılıwın ayrıqsha aytıp otedi [14].

Sóylew iskerligi – adamlardıń bir-birlerine túsinikli bolǵan til jardeminde óz ara pikir almasıwları, sózlik baylanısqa kirisiwi bolıp tabıladı. Bul process eki formada ámelge asadı: awızeki hám jazba. Sóylew iskerligin verbal yamasa verbal emVes, tamamlanǵan yamasa tamamlanbaǵan, jeke shaxslar arasında yamasa toparlıq sıyaqlı birneshe túrlerge ajıratıw múmkin.

Sol orında sóylew kónlikpesi hám lingvistikalıq kompetenciyanıń óz ara parqına barıw oqıw procesin durıs joybarlaw, onıń wazıypaları hám nátiyjeliligin ańlawda zárúrli áhmiyetke iye ekenligin aytpaqshımız.

Sóylew kónlikpesi – óz pikirin sóylew jaǵdayına sáykes túrde awızeki hám jazba túrde tuwrı, tegis ańlatıw, ózgeler pikirin túsiniw hám qatnas bildire alıw sheberligi.

Sóylew kónlikpesi tómendegilerden payda boladı. (1-suwret)



tıńlap túsiniw – esitilgen, vizual qabıl etilgen maǵlıwmat mazmunın ańlaw kónlikpesi tájiriybesi bolıp, ol metod yamasa usıl emes;

oqıp túsiniw – verbal (hárip, sóz) jardeminde kórsetilgen tekst mazmunın túsiniw;

sóylew – pikirdi sóylew jaǵdayına iykemlestirip, awızeki formada tásirli bayanlaw kónlikpe tájiriybesi;

jazıw – pikirdi jazba formada sóylew jaǵdayına sáykes túrde durıs hám mazmunlı ańlatıw kónlikpe tájiriybesi.

Biz maqalamızda baslawısh klass oqıwshıları ushın «ana tili hám oqıw sawatxanlıǵı» pánlerinen mámleketlik milliy baǵdarlamasında kórsetilgen bilim kónlikpeler tiykarında oqıtıw prossesin shólkemlestiriletuǵınlıǵın atap ótpekshimiz.

Baslawısh klasslarda oqıw sawatxanlıǵı sabaqlarında tıńlap túsiniw kónlikpesi sóylew kónlikpesi menen tıǵız baylanıslılıqta rawajlanadı. Bul haqqında Sh.Yuldasheva tómendegishe bildiredi: "Belgili, tıńlap túsiniw quramalı sóylew iskerligi esaplanadı. Sebebi sóylewshiniń radio, magnitofon, televidenie arqalı

yamasa baylanıs waqtında ańlatılǵan sóylewin tıńlawshı demde qabıl etip, mazmunın túsinip, yadta saqlap qalıwı kerek. Bunday sóylewdi qaytadan oqıp alıw ushın múmkinshilik bolmaydı. Tıńlap túsiniw sóylew menen tıǵız baylanıslı. Tıńlap túsiniw kónlikpesi iyelengen bolsa, oqıwshıda sóylew kónlikpesi de jaqsı rawajlanadi" [15].

Áyyemnen jámiyetlik basqarıwda sóylew tiykarǵı qural bolıp xızmet etip kelgen. Hárbir shaxs óz múmkinshiliklerin, maqseti, árman-tileklerin sóylew arqalı jetkerip beredi, biraq nátiyjesi qanday bolıwı sol sóylewdiń dárejesi, orınlanıwı – aytılıwı, bayanlanıwı sesler sáykesligine baylanıslı. Jáhán tálim sistemasında oqıwshınıń óz sózin awızeki bayanlawına, sóylewine ayrıqsha itibar beriledi. Ásirese, xalıqaralıq tillerdi oqıtıwda qollanılıp atırǵan usıllar kóp jaǵdaylarda ózin aqlap atır. Atap aytqanda, inglis, rus tillerin ekinshi til sıpatında oqıtıwda anıq sóylew kónlikpelerin rawajlandırıwǵa arnalǵan jantasıw búgingi tájiriybelerde óz tastıyıǵın tappaqta. Usı orında sóz sóylew kónlikpesine qoyılatuǵın talap qaraqalpaq tilin mámleketlik tili sıpatında oqıtıwǵa arnawlı bir dárejede sáykes keledi, biraq ana tili tálimi ushın muwapıq kelmeydi.

Sol tiykarda metodist K.Mavlonova ana tili táliminiń búgingi jantasıwlarına sáykes túrde eń quramalı bolıp turǵan tekst ústinde islew, onı oqıy alıw, túsine alıw hám, eń áhmiyetlisi, tekst jarata alıw kónlikpelerin ádebiyat páni menen integraciyalaǵan halda rawajlandıratuǵın oqıw tapsırmaların islep shıqtı [16].

Ana tilinen bilimlerdi tańlawdıń bas kriteriyası onıń paydalılıq hám ámelde qollanıla alıw dárejesi bolıp tabıladı. Biz ana tilinen paydalı bilimler dep balalardıń sawatlı jazıw, dóretiwshilik pikirlew, pikir jemisin sóylew sharayatına sáykes túrde awızeki hám jazba kórinislerde tuwrı, tegis ańlatıw kónlikpelerin qáliplestiriw ushın xızmet etetuǵın, onı joqarı insanıy pazıyletler ruwxında tárbiyalaw hám rawajlandırıwdı támiyinleytuǵın bilimlerdi túsinemiz. Bunda oqıw tapsırmalar tálim mazmunın júzege shıǵarıwshı zárúrli faktor esaplanadı.

Ulıwma orta bilim beriw mektepleriniń "Ana tili hám oqıw sawatxanlıǵı» sabaqlıqlarında sóz sóylewdiń úyreniliwi ayırım jaǵdaylardı anıqlama hám sıpatlaw menen sheklenip qalıp atır. Al negizinde, qaraqalpaq tiliniń sóz sóylew qurılısı ózine tán quramalılıqqa iye bolıp, onı ózlestiriw tek ǵana shet ellilerden emes, al qaraqalpaqlardan da qunt penen islewdi talap etedi. Sebebi, búgingi kúnde ǵalaba xabar qurallarında ayırım telebaslawshılar, radioxabarshılardıń óz sóylewlerinde ǵayrıtábiyiy aytılıwlardan paydalanıwı adamnıń ashıwın keltiredi hám bul jaǵday olardıń kórkem oqıw normaların durıs ózlestire almaǵanın sezdirip turadı.

Negizinde, qaraqalpaq auditoriyasında oqıwshılarǵa seslerdi úyretiwde tek sóylew aǵzalarınıń sabaqlıqtaǵı ulıwma grafikalıq sızılması menen sheklenip qalmastan, seslerdiń aytılıw jaǵdayı sáwlelengen arnawlı sızılmalar tiykarında tálim beriw, sóz sóylew shınıǵıwlarına múmkinshiligi barınsha sabaqlarda kóbirek orın ajıratıw, joqarı klaslarda olardan sistemalı paydalanıw ádebiy til normaların iyelewdiń, tásirli sóz sóylewdiń zárúrli faktorı ekenligin usı orında ayrıqsha atap ótiw kerek.

Solay eken, búgingi kúnniń eń zárúrli máselesi – ana tili tálimin turmısqa jaqınlastırıw, ámeliy áhmiyetin kúsheytiw bolıp tabıladı. Ana tili arqalı oqıwshı oylawında álemniń tillik kórinisi, milliy mádeniyatlar qáliplesedi. Eger ana tili ápiwayı oqıw predmeti emes, qádiriyat sıpatında oqıtılsa, oqıwshılarda óz-ózinen tereń oylaw hám milliy namıs qáliplesedi. Sonda ana tilin úyreniwge oqıwshılarda úlken qızıǵıwshılıq oyanadı. Ana tili arqalı oqıwshılar milliy mentalitetti, turmıstı, xalıqtıń mádeniy miyrasların úyreniwi kerek. Álbette, bul pragmatikalıq xarakterdegi oqıw tapsırmaların islep shıǵıw arqalı ámelge asadı. Ana tili shınıǵıwlarında oqıwshılar soraw hám tapsırmalar tiykarında tildiń ámel etiw qaǵıydaların úyrenedi. Shınıǵıw quramında berilgen gápler, tekstler oqıwshınıń sózlik baylıǵın asırıwǵa xızmet etedi, biraq olar ústinde qalay jumıs alıp barıw ele mashqala túrinde qalıp atır. Ana tili sabaqlarında ańlaw, túsiniw, sóz sóylew, shıǵarma jazıwdı úyretip ǵana qalmastan, al tapsırmalar arqalı oqıw ádebiyatlarına baǵdarlasa, ana tiliniń janlı hám tábiyiy til ekenligine de isenim payda etedi.

Qaraqalpaq tilinde durıs hám tásirli sóz sóylew ushın aforizm, frazeologizmlerden, hikmet, hádis hám ráwiyatlardan nátiyjeli paydalanıwdı úyreniw kerek, sebebi siyasiy sóylewlerden tartıp, ápiwayı xojalıq sáwbeti, jıyınlardaǵı individuallıq sóylewge shekem barlıǵında xalıq tájiriybesinen ótken sáwbetlesler bir awız gápten túsinetuǵın naqıl hám aforizmlerden, obrazlı sóz dizbeklerinen paydalanıladı. Usı oqıw materialları da, álbette, oqıw tapsırmaları arqalı kónlikpege aylandırıladı.

Ana tilin oqıtıwda lingvistikalıq kompetenciyalar hám sóylew kompetenciyalarınıń ózara parqın ańlaw hám oqıtıw procesine durıs qollanıw kerek. Ana tilin oqıtıwda qollanılıp atırǵan tıńlap túsiniw, oqıp túsiniw, sóylew hám jazıw kónlikpelerinen ayırımların jetilistiriw, ana tili talaplarınan kelip shıǵıp jańasha jantasıwdı talap etedi. Mısalı, sóylew kónlikpesi ózge tildi úyreniwde sáykes keledi. Tildiń tasıwshıları ana tilinde sóylewge úyretilmeydi, ana tilin oqıtıw oqıwshıǵa óz pikirin sóylew jaǵdayına sáykes túrde durıs hám tegis ańlatıwdı úyretiwi kerek. Buǵan sóz sóylew kónlikpesin rawajlandırıw arqalı erisiw múmkin.

Ana tili pániniń milliy oqıw baǵdarlamasında awızeki sóylew hám tıńlap túsiniw kónlikpelerine qoyılǵan talaplardı jetilistiriw, bul kónlikpelerdiń standartın anıq belgilep alıw kerek. Ulıwma orta bilim beriw mektepleriniń "Ana tili" sabaqlıqlarında awızeki sóylewge tiyisli oqıw tapsırmalar jazba sóylewge salıstırǵanda júdá az muǵdarda berilgenligi analizler arqalı anıqlandı.

Oqıwshını durıs hám tásirli sóz sóylewge úyretiw ushın oǵan didaktikalıq áhmiyeti úlken bolǵan prozalıq tekstlerdi yadlatıw hám yadtan qátesiz aytıp beriw shınıǵıwın shólkemlestiriw, bul proceste fonetikalıq shınıǵıwlar, leksikalıq shınıǵıwlar, orfoepiyalıq shınıǵıwlardı usınıw kerek.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Yusupova Sh. Ona tili ta'limi samaradorligini oshirish va ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish: ped. fan. nomz. ... diss. TDPI. – Toshkent, 1998. – 137 b.
2. Yuldasheva N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida lug'aviy sinonimlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi: ped. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2002. – 123 b.
3. Гулямов А. Методика развития учебно-позновательной активности учащихся в процессе преподования родного (узбекского) языка: дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент: ТГПИ, 1991. – 37 с.
4. Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. TDPU. – Toshkent, 2000. – 25 b.
5. Alavuddinova N. Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi: ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. TDPU. – Toshkent, 2008. – 24 b.
6. Yusupova Gulshiraxan Zinatdinovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirish tizimi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Nukus – 2022.
7. Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna. Yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'lim modernizatsiyasi dasturiy ta'minotini takomillashtirishning metodologik asoslari (Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan boshlang'ich sinflarda qoraqalpoq tilini o'qitish misolida). Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Nukus – 2024.
8. Najimova A.D. Ona tili darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi (ta'lim qoraqalpoq va o'zbek tillarida olib boriladigan boshlang'ich sinflar misolida): Ped. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Nukus, 2022. – 54 b.
9. Yembergenova A.A. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy savodxonligini takomillashtirish metodikasi (ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar misolida): Ped. fan. fals. dok. (PhD). … diss. avtoref. – Nukus, 2023. – 52 b.
10. Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna. Yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'lim modernizatsiyasi dasturiy ta'minotini takomillashtirishning metodologik asoslari (Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan boshlang'ich sinflarda qoraqalpoq tilini o'qitish misolida). Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Nukus – 2024.
11. Bekimbetova G. Tálim basqa tillerde alıp barılatuǵın mekteplerde qaraqalpaq tilin oqıtıw mexanizmlerin jetilistiriw. Pedagogika ilimleriniń doktorı (Doctor of Science) ilimiy dárejesin alıw ushın tayarlanǵan dissertaciya. Nókis – 2024. – 217 b.
12. Глухов В. П. Основый психолингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. – М.: АСТ: Астрель, 2008. – С. 33.
13. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – С. 52—53.

UDK: 373.3.015.31:17.022.1

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MAS’ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASH

Madatova Zaynabjon Habibulla qizi,
Alfraganus universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi kichik maktab yoshidagi bolalarning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularda ijtimoiy burch va majburiyatlarni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Maqolada mas’uliyat hissini uyg‘otishda o‘yin texnologiyalari, interfaol mashg‘ulotlar va maqsadli ish yuritish metodlarining samaradorligi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish va o‘z faoliyati natijalari uchun javobgarlikni his qilishiga qaratilgan bir nechta amaliy tajriba namunalari taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: mas’uliyat, kichik maktab yoshi, yosh xususiyatlari, o‘yin mashg‘uloti, maqsadli faoliyat, ijtimoiy moslashuv, pedagogik yondashuv, mustaqillik.

ПОДГОТОВКА К ФОРМИРОВАНИЮ ЧУВСТВА ОТВЕТСТВЕННОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические и педагогические основы формирования чувства ответственности у учащихся начальных классов. Основная цель исследования заключается в развитии навыков осознания социального долга и обязательств с учетом индивидуально-психологических особенностей детей младшего школьного возраста. В статье научно обоснована эффективность игровых технологий, интерактивных занятий и методов целевой деятельности в пробуждении чувства ответственности. Также представлены примеры практических экспериментов, направленных на развитие у учащихся способности принимать самостоятельные решения и нести ответственность за результаты своей деятельности в процессе обучения.

Ключевые слова: ответственность, младший школьный возраст, возрастные особенности, игровая деятельность, целевая деятельность, социальная адаптация, педагогический подход, самостоятельность.

PREPARATION FOR DEVELOPING A SENSE OF RESPONSIBILITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article analyzes the psychological and pedagogical foundations of developing a sense of responsibility in primary school students. The primary objective of the study is to develop skills for recognizing social duties and obligations, taking into account the individual psychological characteristics of primary school-age children. The article scientifically substantiates the effectiveness of game technologies, interactive activities, and purposeful task management methods in awakening a sense of responsibility. Furthermore, several practical experimental examples are presented, focusing on encouraging students to make independent decisions and feel accountable for the results of their activities within the educational process.

Keywords: responsibility, primary school age, developmental features, game-based activity, purposeful activity, social adaptation, pedagogical approach, independence.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas'uliyat hissini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mas'uliyat – bu shaxsning o‘z xatti-harakatlari, qarorlari va ularning oqibatlari uchun javobgarlik his qilish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirishga tayyorlash — bu ularni nafaqat darsga, balki hayotga ham puxta tayyorlash degani, chunki boshlang’ich sinf bu kelajakdagi hayot uchun asosiy poydevor-bilimlar manbaidir. Bu xususiyat bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida, keyingi hayoti muhim o‘rin tutadi va muvaffaqiyatli hayot faoliyatining asosini tashkil etadi. Ayniqsa, boshlang’ich sinfda o‘rgangan bilimlari uchun muhim hisoblanadi, bola yoshligidan nimani o‘rgansa va odatlansa bu albatta kelajakda takrorlanadi xususan, mas’ulyatli bo‘lishi ham shu jumladandir. Bugungi kunda mas’ulyatli bo‘lish kelajakda juda muhimdir, chunki mas’ulyatli inson hayotini reja orqali davom ettiradi, maqsadli ish yuritish bu muvaffaqiyatga yetaklaydi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirish jarayoni nafaqat ularning bilim olish jarayonini samarali qiladi, balki ularni ijtimoiy jihatdan ham tayyorlaydi. Mas’uliyatni his qiladigan bola o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni anglaydi, qaror qabul qilishda ehtiyotkor bo‘ladi va boshqalar bilan munosabatlarda adolatli bo‘lishga harakat qiladi. Shu sababli, maktab va uy muhitida mas’uliyatni rag‘batlantiruvchi faoliyatlarni tashkil etish juda muhimdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mas’uliyatni shakllantirish bir qator metod va vositalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, kichik topshiriqlarni bajarish, o‘z narsalariga g‘amxo‘rlik qilish, sinf ichidagi navbat va majburiyatlarni bajarish orqali bolalar asta-sekin o‘z zimmasiga javobgarlik olishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, o‘qituvchining shaxsiy namunasi va doimiy qo‘llab-quvvatlashi bolalarning mas’uliyat hissini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Psixologlar ta’kidlashicha, mas’uliyat hissi kichik yoshdan shakllantirilsa, u o‘sib ulg‘aygan sari barqaror xulq-atvorga aylanadi. Boshlang‘ich sinfda bu jarayonni boshlash orqali biz nafaqat o‘quvchilarning akademik yutuqlariga, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlariga ham xizmat qilamiz. Mas’uliyatli

bola o‘zining xatolarini tan olishga, o‘rganishga va o‘z ustida ishlashga tayyor bo‘ladi, bu esa kelajakda muammolarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shu bois, pedagoglar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratishlari kerak. Bu jarayon doimiy, izchil va bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilsa, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Kelajakda mas’uliyatli va mas’uliyatni his qiladigan inson jamiyatda faol, ishonchli va muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib yetishadi.

Mas’uliyat hissini shakllantirishni quyida bir nechta yo‘nalishlarga ajratib chiqamiz:

1. Yosh va psixologik xususiyatlarni hisobga olish; Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq taqlid orqali o‘rganadi ya’ni qaysidir ertak qahramonlaridagi ijobiy obrazlarga taqlid qiladi yoki bo‘lmasa hayotda yaxshi ko‘rgan insonlariga taqlid qiladi. Shu sababli o‘qituvchi va ota-onaning shaxsiy namunalari juda muhim hisoblanadi. Ota-onaning o‘zi avvalo xatti-harakatlarida chiroyli namuna bo‘la olishi zarur. Bundan tashqari ota-onalar farzandlariga oddiy vazifalar berishi, buyurishi zarur va bu har doim ta’kidlanib kelinsa shunga odatlanadi va bu odatga aylangandan keyin o‘z-o‘zidan bemalol mas’ulyatni his qilgan holda bajaradigan bo‘lib qoladi.

2. Endi maktab jarayonida ham xuddi shunday kichik vazifalar orqali mas’uliyatni singdirish zarur bo‘ladi;

Bolaga yoshi va imkoniyatiga mos mas’uliyat yuklash ya’ni sinf navbatchiligi, kitoblarni tartibga solish, uy vazifasini o‘z vaqtida bajarish kabi vazifalar. Agar bu vazifalar o‘z vaqtida bajarilmasa o‘quvchilarni jazolash ham zarur hisoblanadi. Bu vazifalar orqali bola “menga ishonishmoqda” degan tuyg‘uni his qiladi.

3. Rag‘bat va ijobiy baholash;

Mas’uliyatli xatti-harakatni darhol e’tirof etish muhim:

- Og‘zaki maqtov
- Rag‘batlantiruvchi belgilar (yulduzcha, smaylik ☺)
- Sinf oldida e’tirof

Haddan tashqari tanbeh berish esa aks ta’sir ko‘rsatadi.

4. O‘yin va rolli mashg‘ulotlar

Mas’uliyatni o‘yin orqali o‘rgatish juda samarali:

- “Men navbatchiman” o‘yini
- Rolli sahnalar (o‘qituvchi, shifokor, haydovchi va boshqalar)

Bu orqali bola mas’uliyatning hayotdagi ahamiyatini his qiladi.

5. Ota-ona bilan hamkorlik

Mas’uliyat faqat maktabda emas, uyda ham mustahkamlanadi:

- Uy yumushlariga jalb qilish
- O‘z buyumlariga javobgar bo‘lishga o‘rgatish
- Ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi

Agar o‘quvchilarda mas’ulyat hissi rivojlanadigan bo‘lsa bu qanday natijalarga olib keladi

- Bola o‘z vazifalarini tushunadi
- Mustaqillik va intizom shakllanadi
- Jamoadagi o‘rnini anglaydi
- O‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qiladi.

Boshlang'ich sinf o‘quvchilarida mas'uliyat hissini shakllantirish murakkab, ko‘p bosqichli va uzluksiz jarayon hisoblanadi.. Mas'uliyat hissi yetti-o‘n yosh oralig'ida juda tez va kuchli shakllanadi va bu davrda olingan tajriba bolaning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Muvaffaqiyatli natijaga erishish uchun oila, maktab va mahallaning hamkorlik qilishi zarur. Ota-onalar o‘z farzandlariga demokratik tarbiya uslubini qo‘llab, ularga to‘g'ri namuna ko‘rsatishlari va ularning mustaqilligini qo‘llab-quvvatlashlari kerak. O‘qituvchilar mas'uliyat hissini rivojlantirish uchun turli pedagogik usullar va texnologiyalardan foydalanishlari, bolalarga ishonch bildirishlari va ularning har bir yutuqlarini e'tirof etishlari lozim. Mas’uliyat hissini shakllantirish jarayonida eng muhim omillardan biri — bolalarni faoliyatga jalb qilishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari turli xil vazifalar, o‘yinlar, loyihalar va jamoaviy ishlarda qatnashish orqali o‘z zimmasiga javobgarlik olishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, o‘quvchilarga kichik, ammo aniq belgilangan maqsadlar qo‘yish ham muhimdir, chunki bu ularga o‘z ishlarini rejalashtirish va natijaga erishish jarayonini boshdan kechirish imkonini beradi.

O‘quvchilarda mas’uliyatni shakllantirishda muhim vositalardan biri — ularga tanlov erkinligini berishdir. Masalan, sinf ichidagi ishlarni taqsimlashda, sinf hayotidagi mas’uliyatli vazifalarni bajarishda bolalarga o‘z qarorlarini qabul qilish imkoniyati berilsa, ular o‘z harakatlari natijasi uchun javobgarlikni his qiladilar. Shu tarzda, bola faqat buyruq bajaruvchi emas, balki faol qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida o‘sadi.

Bundan tashqari, psixologik yordam va qo‘llab-quvvatlash ham katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilar va ota-onalar bolaning harakatlaridagi muvaffaqiyatlarini doimiy ravishda e’tirof etib, ijobiy rag‘batlantirish orqali mas’uliyat hissini mustahkamlashlari mumkin. Masalan, sinf ichidagi kichik mukofotlar, minnatdorchilik so‘zlari yoki oilaviy muhitda maqtovlar bola uchun motivatsiya vazifasini bajaradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, mas’uliyat hissini shakllantirish faqat nazariy tushuntirishlar bilan cheklanmasligi lozim. Bolalar o‘z hayotlarida real vazifalarni bajarish orqali o‘z xatti-harakatlarining natijasini sezadilar. Shu sababli, sinfda va uyda beriladigan kichik vazifalar — masalan, stolni tartibga keltirish, daftarlarni tartibga solish, sinfdagi navbatni bajarish yoki oila ichidagi mas’uliyatli ishlarni bajarish — ularning mas’uliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirish murakkab, ammo tizimli yondashuv orqali samarali amalga oshiriladi. Bu jarayon oila, maktab va mahalla birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi. Shu bilan

birga, bolalar o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilishni o‘rganib, kelajakda mustaqil, mas’uliyatli va ijtimoiy jihatdan faol shaxs bo‘lib yetishadilar.

Mas'uliyat hissini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak: oddiy vazifalardan murakkablarga, qisqa muddatli topshiriqlardan uzoq muddatli loyihalarga, tashqi motivatsiyadan ichki motivatsiyaga o‘tish. Har bir yosh bosqichining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va bolalarga ularning imkoniyatlariga mos vazifalar berish muhim. Doimiy rag'batlantirish, ijobiy qo‘llab-quvvatlash va konstruktiv fikr-mulohazalar mas'uliyat hissini mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, loyihali faoliyat, jamoa ishlari va o‘z-o‘zini boshqarish elementlari mas'uliyat hissini amaliy shakllantirishning samarali vositalari hisoblanadi. Bolalar faqat o‘quvchi sifatida emas, balki jamoa a’zosi, do‘st, farzand va fuqaro sifatida turli sohalarda mas'uliyatni o‘zlashtirishlari kerak. Shundagina ular hayotning turli vaziyatlarida mas'uliyatli qarorlar qabul qilish va o‘z harakatlari uchun javob bera olishadi. Mas’uliyat hissini shakllantirishda muhim jihatlardan biri — bolalarni faol ishtirok etishga jalb qilishdir. O‘quvchilarga kichik qarorlar qabul qilish imkoniyatini berish, sinf ichidagi vazifalarni o‘zlari tanlashga ruxsat berish ularni o‘z harakatlari natijasini anglashga o‘rgatadi. Shu bilan birga, bolalar o‘z xatolarini tanlashga va ularni tuzatishga imkon beradigan xavfsiz muhitda bo‘lishlari zarur. Bu esa ichki motivatsiyani rivojlantiradi va mas’uliyatni mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, bolalarning ijtimoiy tajribasi ham mas’uliyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Jamoaviy ishlarda qatnashish, o‘yinlar va loyiha faoliyati orqali bola nafaqat o‘z vazifasini bajarishni, balki boshqalarning ishlariga hurmat bilan qarashni, yordam berishni va mas’uliyatli bo‘lishni o‘rganadi. Shu tarzda, mas’uliyat hissi shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashadi.

Ota-onalar va o‘qituvchilar doimiy ravishda bolalarning yutuqlarini e’tirof etishlari, ijobiy rag‘batlantirish va konstruktiv mulohazalar berishlari lozim. Masalan, bola o‘z vazifasini vaqtida va sifatli bajarganida, uni maqtash, kichik mukofotlar yoki rag‘batlantiruvchi so‘zlar bilan rag‘batlantirish uning mas’uliyat hissini oshiradi. Shu bilan birga, xatolar yuzaga kelganda ularni tanqid qilish emas, balki tuzatishga yo‘naltirish muhimdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, masalan, interaktiv darslar, loyihaviy faoliyat va o‘z-o‘zini baholash tizimlari mas’uliyat hissini amaliy tarzda rivojlantirishga imkon beradi. Bular o‘quvchilarga o‘z harakatlarini rejalashtirish, natijalarni kuzatish va o‘z ustida ishlashni o‘rgatadi. Shu tarzda, bolalar nafaqat bilim egallashadi, balki hayotiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradilar.

Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirish — bu doimiy, tizimli va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishining poydevorini tashkil etadi. Mas’uliyatli bola kelajakda o‘z hayotini reja asosida olib boradigan, qarorlarining oqibatlarini anglaydigan, jamoada va jamiyatda faol va ishonchli shaxs bo‘lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: АСТ, 2005. – 670 с.
2. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл, 1975. – 352 с.
3. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – СПб.: Питер, 2008. – 400 с.
4. Akbarov, R. (2020). Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: Universitet nashriyoti.
5. Boboev, T. & Karimova, N. (2019). Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.
6. Vygotskiy, L.S. (2002). O‘quv faoliyati va rivojlanish psixologiyasi. Moskva: Prosveshcheniye.
7. Davronov, S. (2021). Boshlang‘ich sinf pedagogikasida mas’uliyatni shakllantirish usullari. Toshkent: Fan va Ta’lim.
8. Zaytseva, M. (2017). O‘quvchilarni ijtimoiy va shaxsiy mas’uliyatga o‘rgatish metodikasi. Moskva: Akademiya nashriyoti.
9. Kholmurodov, F. (2016). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy ko‘nikmalar bilan tarbiyalash. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.

UDK: 37.013:37.091.33

TARBIYA FANINI O‘QITISHNING DIDAKTIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Sabirova Mavluda Gaipbaevna,
Nukus davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotasiya. Mazkur maqolada tarbiya fanining zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni, uni samarali o‘qitishda didaktik ta’minotning ahamiyati tahlil etilgan. Dars jarayonini boyitish maqsadida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar va vizual vositalardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalarga tayangan holda, fan o‘qituvchisining didaktik yondashuvlari qanday takomillashtirilishi lozimligi haqidagi tavsiyalar berilgan. Ushbu maqola tarbiya fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik asos sifatida e’tiborga molikdir.

Kalit so‘zlar: tarbiya fani, didaktik ta’minot, ta’lim sifati, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar, o‘quv materiallari, tarbiyaviy jarayon, o‘quvchi faolligi, o‘qitish samaradorligi, vizual vositalar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ "ВОСПИТАНИЕ"

Аннотация. В данной статье анализируется роль предмета воспитания в современном образовательном процессе и значение дидактического обеспечения в его эффективном преподавании. Обоснована необходимость использования интерактивных методов, инновационных технологий и визуальных средств для обогащения учебного процесса. Также, опираясь на зарубежный опыт, даны рекомендации о том, как следует совершенствовать дидактические подходы учителя-предметника. Данная статья заслуживает внимания как методическая основа, служащая повышению эффективности преподавания предмета воспитания.

Ключевые слова: дисциплина воспитания, дидактическое обеспечение, качество образования, интерактивные методы, педагогические технологии, учебные материалы, воспитательный процесс, активность учащихся, эффективность обучения, визуальные средства.

IMPROVEMENT OF DIDACTIC SUPPORT OF TEACHING THE SUBJECT "EDUCATION"

Annotation. This article analyzes the role of the subject of education in the modern educational process and the significance of didactic support in its effective teaching. The necessity of using interactive methods, innovative technologies, and visual aids to enrich the learning process has been substantiated. Additionally,

based on international experience, recommendations are provided on how to improve the didactic approaches of subject teachers. This article merits attention as a methodological foundation for increasing the effectiveness of teaching the subject of education.

Keywords: education discipline, didactic support, quality of education, interactive methods, pedagogical technologies, teaching materials, educational process, student engagement, learning effectiveness, visual aids.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan "Tarbiya" fanining mazmuni va uni o'qitish metodikasi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir.

"Tarbiya" fanini samarali o'qitishda didaktik ta'minot muhim o'rin tutadi. An'anaviy yondashuvlar bugungi zamon talablari darajasida yetarli samara bermayotganligi sababli, didaktik ta'minotni takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida qayta ko'rib chiqish dolzarb masalaga aylangan.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi "Tarbiya" fanini o'qitishda didaktik ta'minotni takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil – pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish orqali didaktik ta'minotning mazmuni va mohiyatini aniqlash; qiyosiy tahlil – an'anaviy va innovatsion o'qitish usullarini solishtirish; pedagogik kuzatish – "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan didaktik vositalarni tahlil qilish; so'rovnoma va suhbat – o'qituvchilar va o'quvchilarning fikrlarini o'rganish; tajriba-sinov ishlari – interfaol metodlar va zamonaviy didaktik vositalarni dars jarayoniga tatbiq etish. Tadqiqot umumta'lim maktablarining 5–7-sinflarida olib borildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, "Tarbiya" fanini o'qitishda didaktik ta'minotni takomillashtirish quyidagi ijobiy natijalarga olib kelishi aniqlandi:

- o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va faolligi oshdi;
- tarbiyaviy mavzularni ongli ravishda o'zlashtirish darajasi yaxshilandi;
- o'quvchilarda kommunikativ, ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalar shakllandi;
- interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, munozara, rolli o'yinlar) dars samaradorligini oshirdi;
- raqamli va vizual didaktik vositalardan foydalanish tarbiyaviy ta'sirni kuchaytirdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, yangilangan didaktik ta'minot "Tarbiya" fanining mazmunan boyitilishiga va ta'lim sifati oshishiga xizmat qiladi.

Olingan natijalar pedagogik adabiyotlarda ilgari surilgan fikrlar bilan hamohangdir. Xususan, zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida tarbiyaviy jarayonda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik ta'minotni takomillashtirish orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali pedagogik hamkorlik yuzaga keladi.

Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish "Tarbiya" fanining faqat nazariy emas, balki amaliy ahamiyatini ham oshiradi. Bu esa yoshlarning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir [3]. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida qo'llaniladigan chora-tadbirlar majmuasi tarbiyani tashkil qiladi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda "tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar va intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari va san'atning barcha turlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020 yilda o'zbek "Pedagogika" fani tarixida ilk bor "Tarbiya" yangi fani ishlab chiqildi. Bu borada o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-sonli "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi va mazkur Qaror bilan "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani Kontsepsiyasi" tasdiqlandi [2]. Qarorga binoan "Tarbiya" fani amaldagi quyidagi fanlarni qo'shish hisobiga tashkil etildi:

1. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "Odobnoma" va "Vatan tuyg'usi" o'quv fanlari;
2. Yuqori sinflarda o'qitiladigan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslar" hamda "Dunyo dinlari tarixi" o'quv fanlari.

Buning natijasida yangi fan shakllantirildi. Ushbu "Tarbiya" fanining metodologik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- ta'lim-tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlar;
- tarbiya asoslari va manbalari;
- tarbiya qonuniyatlari, metodlari va texnologiyalari;
- tarbiyaning amaliy masalalari.

Aynan mazkur asoslar o'quv fanining negizini tashkil etadi.

Tarbiyaning o'zi inson kamolotining negizi bo'lib, yosh avlodni har tomonlama sog'lom, axloqan barkamol, vatanparvar shaxs qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Tarbiya fanining o'quv jarayonida alohida o'rin tutishi, uning samarali o'qitilishi uchun zarur bo'lgan didaktik ta'minotning mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

Didaktik ta'minot – bu o'quv fanini o'qitish jarayonida zarur bo'lgan nazariy, amaliy va texnik resurslar majmuasidir. Didaktik ta'minot deganda o'quv-metodik qo'llanmalar, slaydlar, jadval va diagrammalar, testlar, elektron resurslar, amaliy mashg'ulotlar ssenariylari, interaktiv metodlar to'plami kabi o'qituvchining faoliyatini yengillashtiradigan vositalar tushuniladi. Bugungi kunda bu ta'minotni yangilash, uni interaktiv va innovatsion elementlar bilan boyitish zarur.

A. Muxitdinova "Ta'lim sifati o'qituvchining nafaqat bilimiga, balki u foydalanayotgan didaktik vositalarning zamonaviyligiga bog'liq" deb ta'kidlab o'tadi [3].

Hozirgi vaqtda tarbiya fanini o'qitishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan an'anaviy metodlarning ustuvorligi, interaktiv va multimediya vositalarining yetishmaslig, darsliklarning zamon talabiga javob bermasligi, talabalar faolligini oshiradigan topshiriqlarning cheklanganligi va h.k.larni keltirib o'tishimiz mumkin.

B. Saidov bu borada shunday fikr bildiradi: "O'quv jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etish didaktik ta'minot sifatini oshirishning muhim omilidir" [4].

Tarbiyani o'qitishda qo'llaniladigan metodlar orasida "Bosh miya shturmi", "Aqliy hujum", "Rol o'ynash", "Munozara", "Kichik guruhlarda ishlash" kabi usullar mavjud. Bular o'quvchilarni faollashtiradi, mustaqil fikrlashga undaydi, bahs-munozarali muhit yaratadi. Bu esa bilimlar mustahkamlanishiga va tarbiyaviy g'oyalarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Ta'lim – bu, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning aqliy, ma'naviy va axloqiy sifatlarini boyitish va rivojlantirish amalga oshadi. Darslarda ta'lim beruvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida ta'lim oluvchilarga yetkazadi, ular esa berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Birgina umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari misolida qarasak, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida Ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, Ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Yurtimizda Ta'lim- tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi.

Bu Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz Ta'lim tizimini yanada takomillashtirish - zarur vazifadir" degan dono fikrlarida ham o'z aksini topgan. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundankunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil

qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ta’lim tashkilotlarida tarbiya fanini o‘qitishda bir xil, an’anaviy usullar, o‘quv qo‘llanmalarga tayanish hollari uchrab turadi. Bu esa darslarning samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli interaktiv texnologiyalar, multimediya vositalari, mobil ilovalar va platformalardan foydalanish dolzarbdir.

Xorijiy tajribaga murojaat qilsak, Finlandiya, Yaponiya, Singapur ta’lim tizimida tarbiya fani interaktiv mashg‘ulotlar, hayotiy vaziyatlar modellashtirilgan muhokamalar orqali o‘rgatiladi. Bu esa darsni jonlantirish, mavzularni chuqurroq anglatishda samarali bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkin-ki, tarbiyaviy fan o‘qitilishida zamonaviy didaktik ta’minotdan foydalanish o‘quvchilarning faolligi, bilim darajasi va tarbiyaviy g‘oyalarga munosabatini ijobiy o‘zgartiradi. O‘qituvchi har bir mavzuga mos didaktik materiallar, o‘yinlar, testlar, taqdimotlar bilan darsni boyitmog‘i lozim. Tadqiqotlardan kelib chiqib quyidagicha tavsiyalarni ishlab chiqdik.

- Tarbiya faniga oid multimediya qo‘llanmalar yaratilishi;

-O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar, ssenariylar to‘plami nashr etilishi;

- Fan darslarida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi g‘oyalarni interaktiv usullar bilan yetkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. // www. Ziyonet.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-sonli umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖gi Qarori. // www. Ziyonet.uz
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-Tom. –T., 2004. 270-bet.
4. Бордовская Н., Реян А. Педагогика. –Санкт-Петербург, 2001. –С.32.
5. Muxitdinova A. "Didaktik tizim va uning rivojlanishi". Toshkent, 2020.- 45 bet.
6. Saidov B. "Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi va amaliyoti". Toshkent, 2019.

UDK: 378.147:72:7.01

TASVIRIY SAN'AT VOSITASIDA BO'LAJAK ARXITEKTORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Sarsenbaev Timur Teńelbaevich,
Berdaq nomidagi QQDU o'qituvchisi

Urazbaev Bektursin Tulibaevich,
Berdaq nomidagi QQDU o'qituvchisi

Saparova Lola Polatovna,
Berdaq nomidagi QQDU o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san'at namunalarini arxitektura ta'limiga kengroq joriy etish hamda bo'lajak arxitektorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qo'shadigan hissasi tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida aks ettirish amaliyoti, tasviriy savodxonlik va hissiy ongning xalqaro nazariyalari, shuningdek, O'zbekiston va Markaziy Osiyoda so'nggi yillarda erishilgan ilmiy yutuqlar tahlil qilindi. Mazkur asosda arxitektura ta'limi tashkilotlarida tasviriy san'atni ta'lim jarayoniga uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan samarali pedagogik strategiyalar hamda takomillashtirilgan o'quv dasturlari taklif etildi

Kalit so'zlar: arxitektura ta'limi; tasviriy san'at; kasbiy kompetensiya; pedagogika, fazoviy, ijodkorlik.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ АРХИТЕКТОРОВ С ПОМОЩЬЮ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье исследуется вклад в более широкое внедрение образцов изобразительного искусства в архитектурное образование и развитие профессиональной компетентности будущих архитекторов. В ходе исследования были проанализированы практика отражения, международные теории изобразительной грамотности и эмоционального сознания, а также научные достижения, достигнутые в последние годы в Узбекистане и Центральной Азии. На этой основе были предложены эффективные педагогические стратегии и усовершенствованные учебные программы, направленные на интеграцию изобразительного искусства в образовательный процесс в архитектурных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: архитектурное образование; изобразительное искусство; профессиональная компетенция; педагогика, пространство, творчество.

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE ARCHITECTURES USING FINE ARTS

Abstract. This article examines the wider introduction of examples of fine art into architectural education and their contribution to the development of professional competence of future architects. In the research process, the practice of reflection, international theories of visual literacy and emotional consciousness, as well as scientific achievements in recent years in Uzbekistan and Central Asia, were analyzed. Based on this, effective pedagogical strategies and improved curricula aimed at integrating fine arts into the educational process in architectural educational institutions have been proposed.

Keywords: architectural education; fine arts; professional competence; pedagogy, space, creativity.

Zamonaviy arxitektura ta'limi bo'lajak mutaxassislarni faqat texnik bilimlar (konstruktiv yechimlar, ekologik yondashuvlar, qurilish texnologiyalari) bilan emas, balki dizaynerlik fikrlash, vizual va moddiy savodxonlik, estetik sezgirlik, tanqidiy fikrlash hamda samarali muloqot kompetensiyalari bilan ham qurollantirishni talab etadi.Tarixan tasviriy san'at (chizmachilik, rangtasvir, haykaltaroshlik, material bilan ishlash, kollaj) arxitektura ta'limining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Biroq bugungi kunda ko'plab arxitektura o'quv dasturlarida tasviriy san'at fanlari ikkinchi darajali yoki ixtiyoriy fan sifatida qaralmoqda. Bu holat bo'lajak arxitektorlarning ijodiy tafakkuri va vizual kompetensiyalarining yetarli darajada shakllanmasligiga olib kelishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — tasviriy san'at vositalarini arxitektura ta'limiga integratsiya qilish orqali bo'lajak arxitektorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini nazariy va pedagogik jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak arxitektorlarni tayyorlash jarayonida tasviriy san'at fanlari (akademik rasm, rangtasvir, kompozitsiya, chizmachilik va boshqalar) orqali ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish masalalari o'rganiladi. Tadqiqotda tasviriy savodxonlik, hissiy ong, reflektiv amaliyot nazariyalari hamda arxitektura ta'limiga oid kompetensiya standartlari metodologik asos sifatida olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi: nazariy tahlil — arxitektura va tasviriy san'at ta'limiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarni o'rganish; pedagogik tahlil — arxitektura ta'limida tasviriy san'at modullarining o'rni va imkoniyatlarini baholash; taqqoslash metodi — O'zbekiston va Markaziy Osiyo san'at ta'limi an'analarini xalqaro tajribalar bilan qiyoslash; kompetensiyaviy yondashuv — tasviriy san'at mashg'ulotlari orqali shakllanadigan kasbiy kompetensiyalarni aniqlash; refleksiv yondashuv — san'atga asoslangan portfellar va refleksiv jurnallar orqali talabalarning o'sishini baholash metodlaridan foydalanildi:

Tasviriy san'at modullarini arxitektura dizayn studiyalariga integratsiya qilish zamonaviy arxitektura ta'limining muhim pedagogik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, arxitektor kasbiy faoliyatida badiiy-estetik tafakkur va vizual idrok texnik bilimlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanishi zarur Shu bois tasviriy san'atni dizayn studiyalari bilan integratsiyalash ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Tasviriy san'at modullari orqali talabalar rasm, rangtasvir, kompozitsiya va perspektiva qonuniyatlarini chuqur o'zlashtiradilar. Ushbu ko'nikmalar dizayn studiyalarida bajariladigan loyihaviy ishlarda me'moriy g'oyalarni eskizlar va grafik ifodalar orqali aniq aks ettirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vizual savodxonlik arxitektorlarning kasbiy muloqot kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Tasviriy san'at mashg'ulotlari talabalarning erkin fikrlashi, badiiy tajriba o'tkazishi va kreativ yondashuvini kuchaytiradi. Dizayn studiyalarida esa ushbu ijodiy salohiyat real loyihaviy muammolarni hal etishda namoyon bo'ladi.

Fazoviy tafakkurni rivojlantirish arxitektura ta'limining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tasviriy san'at modullari, xususan hajmiy-kompozitsion mashqlar, uch o'lchamli makonni idrok etish va shakl-makon munosabatlarini anglash ko'nikmalarini rivojlantiradi [2]. Bu esa dizayn studiyalarida ishlab chiqilayotgan me'moriy loyihalarning funksional va estetik sifatini oshiradi.

Tasviriy san'at vositalaridan foydalanish talabalarning hissiy ongini va estetik sezgirligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Rang, yorug'lik va faktura bilan ishlash orqali talabalar inson psixologiyasi va makon o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq anglay boshlaydilar. Arnheim [1] fikriga ko'ra, vizual idrok inson tafakkurining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ijodiy qarorlar qabul qilishda asosiy rol o'ynaydi.

Shuningdek, O'zbekiston va Markaziy Osiyo olimlarining tadqiqotlarida ham tasviriy san'at va arxitektura ta'limining integratsiyasi bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil sifatida e'tirof etilgan [3;.4]. Ushbu yondashuv milliy me'moriy an'analar va zamonaviy dizayn tendensiyalarini uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Tasviriy san'at modullarini arxitektura dizayn studiyalariga integratsiya qilish zamonaviy arxitektura ta'limining muhim pedagogik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, arxitektor kasbiy faoliyatida badiiy-estetik tafakkur va vizual idrok texnik bilimlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanishi zarur. Shu bois tasviriy san'atni dizayn studiyalari bilan integratsiyalash ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Tasviriy san'at modullari orqali talabalar rasm, rangtasvir, kompozitsiya va perspektiva qonuniyatlarini chuqur o'zlashtiradilar. Ushbu ko'nikmalar dizayn studiyalarida bajariladigan loyihaviy ishlarda me'moriy g'oyalarni eskizlar va grafik ifodalar orqali aniq aks ettirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni

ko‘rsatadiki, vizual savodxonlik arxitektorlarning kasbiy muloqot kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Integratsiyalashgan ta’lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Tasviriy san’at mashg‘ulotlari talabalarning erkin fikrlashi, badiiy tajriba o‘tkazishi va kreativ yondashuvini kuchaytiradi. Dizayn studiyalarida esa ushbu ijodiy salohiyat real loyihaviy muammolarni hal etishda namoyon bo‘ladi

Fazoviy tafakkurni rivojlantirish arxitektura ta’limining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tasviriy san’at modullari, xususan hajmiy-kompozitsion mashqlar, uch o‘lchamli makonni idrok etish va shakl-makon munosabatlarini anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi [2]. Bu esa dizayn studiyalarida ishlab chiqilayotgan me’moriy loyihalarning funksional va estetik sifatini oshiradi.

Tasviriy san’at vositalaridan foydalanish talabalarning hissiy ongini va estetik sezgirligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Rang, yorug‘lik va faktura bilan ishlash orqali talabalar inson psixologiyasi va makon o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq anglay boshlaydilar. Arnheim [1] fikriga ko‘ra, vizual idrok inson tafakkurining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ijodiy qarorlar qabul qilishda asosiy rol o‘ynaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo olimlarining tadqiqotlarida ham tasviriy san’at va arxitektura ta’limining integratsiyasi bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil sifatida e’tirof etilgan (3;,4]. Ushbu yondashuv milliy me’moriy an’analar va zamonaviy dizayn tendensiyalarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Arxitektura ta’limida qalam tasviri, rang, material va uch o‘lchovli shakl bilan ishlash bo‘lajak arxitektorlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Ushbu faoliyat turlari orqali talabalar nafaqat badiiy ifoda vositalarini o‘zlashtiradilar, balki me’moriy loyihalarda moddiy va estetik qarorlarni ongli, asosli va tizimli ravishda qabul qilishni o‘rganadilar. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, arxitektura loyihalash jarayoni texnik va badiiy qarorlarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi [2].

Qalam tasviri arxitektura ta’limida fikrni tez va aniq vizuallashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Eskizlar orqali talabalar shakl, proporsiya, masshtab va kompozitsion yechimlarni sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu jarayon me’moriy g‘oyaning dastlabki bosqichidayoq uning estetik va funksional jihatlarini baholashga yordam beradi.

Rang bilan ishlash talabalarda estetik sezgirlikni, muhitni hissiy idrok etish va inson psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatish omillarini chuqurroq anglashni rivojlantiradi. Ranglarning uyg‘unligi, kontrasti va funksional ahamiyatini o‘rganish orqali talabalar me’moriy makonning vizual sifatini baholash va ongli ravishda rang tanlash ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Tadqiqotlar rangning makon idrokiga ta’siri me’moriy qarorlarning estetik qiymatini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Material bilan ishlash esa talabalarni moddiylik tushunchasi bilan bevosita tanishtiradi. Turli qurilish va bezak materiallarining teksturasi, rang xususiyatlari,

fizik va estetik sifatlarini o‘rganish loyihaviy qarorlarning asoslangan bo‘lishini ta’minlaydi. Material tanlash jarayonida talabalar texnik imkoniyatlar, ekologik omillar va estetik talablarni uyg‘unlashtirishga intiladilar. Bu esa ularning kasbiy mas’uliyatini va ongli qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Uch o‘lchovli shakl bilan ishlash, xususan maket yaratish va hajmiy modellashtirish jarayoni, talabalarning fazoviy tafakkurini yanada chuqurlashtiradi. Hajm, makon va shakl o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni amaliy tarzda anglash orqali talabalar me’moriy yechimlarning real muhitdagi ta’sirini baholashni o‘rganadilar. Ching [2] ta’kidlaganidek, uch o‘lchamli modellashtirish me’moriy fikrlashni rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Refleksiv portfolio yuritish arxitektura ta’limida bo‘lajak mutaxassislarning professional mulohaza yuritish, tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Portfolio ta’lim jarayonida talabalar tomonidan bajarilgan ijodiy va loyihaviy ishlarni tizimli ravishda jamlash, tahlil qilish hamda o‘z rivojlanish dinamikasini anglash imkonini beradi. Tadqiqotchilar refleksiya jarayoni talabaning bilim va tajribani ongli ravishda qayta ko‘rib chiqishiga yordam berishini ta’kidlaydilar [5].

Refleksiv portfolio orqali talabalar o‘z loyihalarining kuchli va zaif tomonlarini mustaqil tahlil qilishga o‘rganadilar. Ushbu jarayon professional mulohazaning shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarda qaror qabul qilishda asosli yondashuvni rivojlantiradi. Arxitektura dizayn studiyalarida bajarilgan ishlar yuzasidan yozma va vizual refleksiya olib borish talabalarni nafaqat natijaga, balki jarayonning o‘ziga ham e’tibor qaratishga undaydi. Bu esa tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Tanqidiy fikrlash refleksiv portfoliolar orqali muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni solishtirish va o‘z qarorlarini dalillar bilan asoslash jarayonida shakllanadi. Talabalar o‘z ishlarini o‘qituvchi va guruhdoshlarining fikrlari bilan taqqoslab, konstruktiv tanqidni qabul qilish va undan xulosa chiqarish ko‘nikmasini egallaydilar. Bu jarayon kasbiy faoliyatda muhim bo‘lgan refleksiv amaliyotning shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, refleksiv portfolio yuritish o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Talabalar o‘z ishlarini belgilangan mezonlar asosida baholab, shaxsiy kasbiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga intiladilar. Ushbu yondashuv o‘quv jarayonida mas’uliyatni oshirib, mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini shakllantiradi.

Arxitektura ta’limi kontekstida refleksiv portfolio nafaqat baholash vositasi, balki talabaning professional identifikatsiyasini shakllantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi. U bo‘lajak arxitektorning ijodiy yo‘nalishi, estetik qarashlari va kasbiy qadriyatlarini aniqlashga yordam beradi. Schön (1983) ta’kidlaganidek, refleksiv amaliyot professional faoliyatda uzluksiz takomillashuvning asosi hisoblanadi.

Milliy hunarmandchilik va amaliy san’at an’analariga asoslangan loyihalar arxitektura ta’limida bo‘lajak mutaxassislarning madaniy o‘ziga xosligini anglash

va kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Arxitektura milliy madaniyat, tarixiy meros va estetik qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan soha bo‘lib, ta’lim jarayonida ushbu jihatlarni hisobga olish talabalarni nafaqat texnik jihatdan, balki madaniy-ma’naviy jihatdan ham yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, madaniy kontekstga asoslangan loyihaviy faoliyat professional identifikatsiyani mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Milliy hunarmandchilik namunalari — naqsh, bezak, ranglar tizimi, materiallardan foydalanish usullari — talabalarga xalqning estetik dunyoqarashi va an’anaviy makon tushunchasini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu elementlarni arxitektura loyihalarida qo‘llash jarayonida talabalar milliy me’moriy tafakkur va zamonaviy dizayn tamoyillari o‘rtasidagi uyg‘unlikni izlashga intiladilar. Bu jarayon talabalarda madaniy o‘ziga xoslikni anglash va uni ijodiy tarzda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy san’at an’analariga tayangan loyihalar talabalarning estetik didini shakllantirib, makon va bezakning ramziy ma’nolarini anglashga yordam beradi. Masalan, an’anaviy o‘zbek me’morchiligida keng qo‘llaniladigan geometrik va o‘simliksimon naqshlar, ranglar uyg‘unligi va material tanlovi nafaqat bezak vazifasini bajaradi, balki muayyan madaniy va falsafiy mazmunni ham ifodalaydi. Ushbu jihatlarni o‘rganish va loyihalarda qo‘llash talabalarning kasbiy fikrlash doirasini kengaytiradi [6].

Milliy asosga ega loyihaviy faoliyat talabalarda kasbiy identifikatsiyani shakllantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Talabalar o‘zlarini milliy me’moriy maktabning davomchisi sifatida anglab, kelajak kasbiy faoliyatida milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish mas’uliyatini his etadilar. Bu esa globalizatsiya sharoitida arxitektor shaxsining o‘ziga xosligini saqlab qolish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo hududida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda milliy hunarmandchilik va amaliy san’at elementlarini arxitektura ta’limiga integratsiya qilish talabalarning madaniy ongini va kasbiy motivatsiyasini oshirishi ta’kidlangan [4;.7]. Ushbu yondashuv tarixiy merosni zamonaviy arxitektura orqali qayta talqin qilish imkonini beradi.

Kompetensiyaga asoslangan baholash rubrikalaridan foydalanish san’atga oid mashg‘ulotlarda baholash jarayonining shaffofligi va adolatliligini ta’minlashda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. An’anaviy baholash usullarida, ayniqsa tasviriy san’at va dizayn fanlarida, natijalarni baholashda sub’ektivlik unsurlari yuqori bo‘lishi mumkin. Kompetensiyaga asoslangan rubrikalar esa baholash mezonlarini oldindan aniq belgilab, talabalar faoliyatini ob’ektiv tahlil qilish imkonini yaratadi.

Baholash rubrikalari har bir topshiriq uchun muayyan kompetensiyalar — ijodkorlik, vizual ifoda, texnik bajarilish, konseptual yondashuv va refleksiya — bo‘yicha darajali mezonlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv talabalarga o‘z ishlaridan nimalar kutilayotganini aniq tushunishga yordam beradi hamda baholash jarayonida shaxsiy did yoki individual qarashlarning ta’sirini kamaytiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mezonlarga asoslangan baholash san’at ta’limida baholashning ishonchliligini oshiradi.

Kompetensiyaga asoslangan rubrikalar talabalarning o‘z-o‘zini baholash va refleksiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Talabalar rubrikalar orqali o‘z ishlarini mustaqil tahlil qilib, qaysi kompetensiyalar yetarli darajada shakllanganini va qaysilarini rivojlantirish zarurligini anglaydilar. Bu esa o‘quv jarayonida mas’uliyat va mustaqillikni kuchaytiradi.

San’atga oid mashg‘ulotlarda sub’ektivlikni kamaytirish nafaqat baholash natijalarining adolatliligini ta’minlaydi, balki o‘qituvchi va talaba o‘rtasida ishonchli pedagogik muhitni shakllantiradi. Baholash mezonlarining ochiq-oydinligi talabalarda motivatsiyani oshirib, ijodiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatni kuchaytiradi. Biggs va Tang [8] ta’kidlaganidek, konstruktiv uyg‘unlikka asoslangan baholash tizimi ta’lim natijalarining sifatini oshiradi.

Arxitektura va tasviriy san’at mashg‘ulotlarida kompetensiyaga asoslangan rubrikalar loyihaviy ishlarni baholashda ayniqsa samarali hisoblanadi. Rubrikalar yordamida ijodiy g‘oya, badiiy ifoda va texnik bajarilish o‘rtasidagi muvozanatni aniq mezonlar asosida baholash mumkin bo‘ladi. Bu esa baholash jarayonida shaxsiy estetik didning haddan tashqari ustun bo‘lishini cheklaydi va sub’ektivlikni sezilarli darajada kamaytiradi.

Mazkur tadqiqot natijalari tasviriy san’at vositalarini arxitektura ta’limiga integratsiya qilish bo‘lajak arxitektorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Qalam tasviri, rang, material va uch o‘lchovli shakl bilan ishlash orqali talabalar me’moriy loyihalarda moddiy va estetik qarorlarni ongli ravishda qabul qilish, vizual fikrlash va fazoviy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Tasviriy san’at modullarini dizayn studiyalariga uyg‘unlashtirish talabalarning ijodkorlik salohiyatini oshirib, vizual muloqot va professional mulohaza yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi. Refleksiv portfolio yuritish esa tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini baholash va kasbiy o‘sishga bo‘lgan ongli munosabatni kuchaytirdi. Shuningdek, milliy hunarmandchilik va amaliy san’at an’analariga asoslangan loyihalar talabalarda madaniy o‘ziga xoslikni anglash va kasbiy identifikatsiyani mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Kompetensiyaga asoslangan baholash rubrikalaridan foydalanish san’atga oid mashg‘ulotlarda baholash jarayonining shaffofligini ta’minlab, sub’ektivlikni kamaytirishga xizmat qildi. Natijada talabalarning kasbiy tayyorgarligi tizimli va ob’ektiv mezonlar asosida baholandi. Umuman olganda, tadqiqotda taklif etilgan pedagogik yondashuvlar arxitektura ta’limi mazmunini boyitib, zamonaviy, madaniy jihatdan yetuk va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arnheim, R. *Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye*. — Berkeley: University of California Press, 2004.

2. Ching, F. D. K. *Architecture: Form, Space, and Order*. — New York: Wiley, 2015.
3. Rahimov, A. A. Arxitektura ta'limida tasviriy san'at fanlarining ahamiyati // *Pedagogik ta'lim*, 2020.
4. Karimova, D. S. Bo'lajak arxitektorlarni tayyorlashda integrativ yondashuvlar // *Markaziy Osiyo ta'lim muammolari*, 2021.
5. Schön, D. A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. — New York: Basic Books, 1983.
6. Ismailov, M. M. O'zbek amaliy san'ati va zamonaviy arxitektura uyg'unligi // *San'at va madaniyat*, 2019.
7. Abdullayeva, N. A. Milliy hunarmandchilik an'analarining ta'limiy ahamiyati // *Markaziy Osiyo madaniy merosi*, 2021.
8. Biggs, J., & Tang, C. *Teaching for Quality Learning at University*. — Maidenhead: Open University Press, 2011.

UDK: 378.147:37.091.33:808.2

TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM VA YOZISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Tangirbergenova Mexriban Kóshkinbaevna,
Nukus davlat pedagogika instituti assistent o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarda mustaqil ta'lim yozish kompetensiyasini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida yozma ishlarni rejalashtirish, mazmunan asoslash va mantiqiy bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tahlil, taqqoslash, pedagogik kuzatuv va diagnostika metodlaridan foydalanildi. O'rganish natijalariga ko'ra, mustaqil ta'lim yozish kompetensiyasini shakllantirishda muammoli topshiriqlar, yo'naltiruvchi metodik ko'rsatmalar va refleksiv yondashuv samarali ekanligi aniqlandi. Tadqiqot xulosalari oliy ta'lim amaliyotida talabalarning akademik savodxonligini oshirish va mustaqil ta'lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, yozish kompetensiyasi, akademik savodxonlik, talaba faoliyati, pedagogik yondashuv, refleksiv ta'lim, oliy ta'lim.

ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ И ПИСЬМЕННОЙ РАБОТЫ У СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы формирования компетенции письменного выполнения самостоятельной работы у студентов высших учебных заведений. Цель исследования заключается в выявлении педагогических механизмов, способствующих развитию у студентов умений планировать, аргументировать и логически излагать письменные работы в процессе самостоятельного обучения. В ходе исследования были использованы методы анализа, сравнения, педагогического наблюдения и диагностики. Результаты исследования показали, что применение проблемных заданий, методических рекомендаций и рефлексивного подхода способствует эффективному формированию компетенции письменной самостоятельной работы. Полученные выводы могут быть использованы в практике высшего образования для повышения уровня академической грамотности студентов и качества самостоятельного обучения.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, письменная компетенция, академическая грамотность, учебная деятельность студентов, педагогический подход, рефлексивное обучение, высшее образование.

DEVELOPING STUDENTS' COMPETENCE IN INDEPENDENT LEARNING AND WRITING

Abstract: This article examines the issue of developing students' competence in writing independent learning assignments in higher education institutions. The aim of the study is to identify pedagogical mechanisms that contribute to the development of students' abilities to plan, substantiate, and logically present written work within the framework of independent learning. The research employs methods of analysis, comparison, pedagogical observation, and diagnostic assessment. The findings indicate that the use of problem-based tasks, structured methodological guidance, and a reflective approach significantly enhances the formation of independent writing competence. The results of the study can be effectively applied in higher education practice to improve students' academic literacy and the overall quality of independent learning.

Keywords: independent learning, writing competence, academic literacy, student learning activity, pedagogical approach, reflective learning, higher education.

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv sharoitida oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy strategik vazifalardan biri — talabalarda mustaqil ta'lim olish va o'z bilimini akademik yozma shaklda tizimlashtirish kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Zamonaviy mehnat bozori bitiruvchilardan nafaqat statik kasbiy bilimlarni, balki "umrbod ta'lim olish" (*lifelong learning*) tamoyili asosida tahliliy fikrlash, axborot oqimidan zarurini saralash hamda yozma nutq orqali argumentlangan xulosalar bera olish malakalarini talab etmoqda. Shu sababli, mustaqil ta'lim jarayonida yozish kompetensiyasini rivojlantirish shunchaki texnik mahorat emas, balki talabaning intellektual salohiyatini namoyon etuvchi dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

Mustaqil ta'lim — talabaning shaxsiy faolligi, kognitiv mas'uliyati va ijodiy sub'ektivligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik platformadir. Biroq, ta'limiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab talabalar yozma ishlarni (esse, referat, kurs ishi) bajarishda "axborotni shunchaki ko'chirish" (*plagiat*) va "mazmuniy tahlil" o'rtasidagi farqni anglashda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Xususan, manbalar bilan ishlashda sintez qilish ko'nikmasining yetishmasligi, fikrlarning mantiqiy uzilishi va ilmiy xulosalash jarayonidagi zaifliklar talabalarda yozish kompetensiyasining past darajada ekanligini ko'rsatadi.

Bu holat oliy ta'lim muassasalarida talabalarning yozish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodikani joriy etishni taqozo etadi. Bu jarayonda **"Scaffolding"** (bosqichma-bosqich qo'llab-quvvatlash) texnologiyasidan foydalanish, talabaga yozma ishning strukturaviy modellarini o'rgatish va o'z-o'zini tahrir qilish (*self-editing*) malakalarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Yozish kompetensiyasi shakllangan talaba nafaqat fanni yaxshi o'zlashtiradi, balki o'zining metakognitiv qobiliyatlarini — o'z fikrini boshqarish va nazorat qilish san'atini ham egallaydi.

Natijada, mustaqil ta'lim jarayonida yozma nutqning rivojlanishi talabaning professional nutq madaniyatini yuksaltiradi va uning kelgusida raqobatbardosh

mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim sifatini baholashning xalqaro mezonlariga mos keluvchi tizimli yondashuvni talab etadi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda yozish kompetensiyasi akademik savodxonlikning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. U bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, tahlil qilish va yozma nutq orqali ifodalash ko‘nikmalarining majmuasini o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, talabalarda mustaqil ta’lim yozish kompetensiyasini shakllantirish samarali pedagogik yondashuvlar, metodlar va didaktik vositalarni aniqlashni talab etadi.

Mazkur maqolada oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarda mustaqil ta’lim yozish kompetensiyasini shakllantirish masalasi tahlil qilinib, ushbu jarayonning pedagogik asoslari va samarali yo‘llari yoritiladi.

Mazkur tadqiqot oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarda mustaqil ta’lim jarayonida yozish kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini o‘rganish va takomillashtirishga qaratildi. Tadqiqot ob’yektining ko‘p qirrali ekanligini inobatga olgan holda, jarayonda o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi nazariy va empirik metodlar majmuasidan tizimli foydalanildi.

Nazariy-metodologik tahlil bosqichida mustaqil ta’lim sub’yektivligi, akademik yozish (academic writing) va kognitiv savodxonlikka oid fundamental pedagogik, psixolingvistik va metodik adabiyotlar chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotda mavjud ilmiy yondashuvlar qiyosiy-tanqidiy o‘rganilib, yozish kompetensiyasining strukturaviy komponentlari (kognitiv, lingvistik, pragmatik) aniqlab olindi. Bu bosqich tadqiqot muammosining kontseptual apparatini shakllantirishga va o‘rganilayotgan jarayonning pedagogik modelini yaratishga xizmat qildi.

Empirik tadqiqot metodlari doirasida jarayonning haqiqiy holatini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatuv, suhbat va diagnostik baholash (test va amaliy topshiriqlar) usullaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatuv bevosita o‘quv jarayonida amalga oshirilib, talabalarning mustaqil yozma ishlarni (esse, tahliliy referat) bajarishdagi motivatsiyasi, axborotni qayta ishlash darajasi va yozma nutqdagi mantiqiy izchillik malakalari qayd etib borildi. Bu metod talabalarning o‘quv faoliyatidagi tipik xatoliklarni va "ijodiy turg‘unlik" holatlarini aniqlash imkonini berdi.

Suhbat va so‘rovnoma metodlari orqali talabalar va professor-o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishga bo‘lgan sub’yektiv munosabatlari tahlil qilindi. Bunda asosiy e’tibor talabalarning yozma ishlarni bajarishdagi psixologik to‘siqlari, manbalar bilan ishlashdagi qiyinchiliklari va pedagogik qayta aloqaning (feedback) samaradorligiga qaratildi [4]. Shuningdek, diagnostik baholash bosqichida talabalarning yozma ishlari maxsus ishlab chiqilgan kriteriyalar (mazmun aniqligi, strukturaviy yaxlitlik, ilmiy uslub va savodxonlik) asosida tahlil qilinib, mavjud holatning statistik ko‘rsatkichlari shakllantirildi.

Bunday kompleks metodologik yondashuv tadqiqotning validliligi (haqqoniyligi) va ishonchliligini ta’minlash bilan birga, oliy ta’limda yozish

kompetensiyasini rivojlantirishning optimal pedagogik shart-sharoitlarini belgilashga zamin yaratdi.

Diagnostik baholash doirasida talabalarning yozish kompetensiyasini aniqlash uchun mezonlar ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar yozma ishning tuzilishi, mazmuni, mantiqiy izchilligi, manbalar bilan ishlash darajasi va xulosalash ko‘nikmalarini qamrab oldi. Tajriba-sinov jarayonida muammoli topshiriqlar, metodik ko‘rsatmalar va refleksiv mashg‘ulotlar joriy etilib, ularning samaradorligi tahlil qilindi.

Olingan natijalar sifat va miqdoriy tahlil asosida qayta ishlanib, tadqiqot maqsadiga muvofiq xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot davomida oliy ta’lim tashkilotidagi 3 ta kurs talabalari ishtirok etdi va ularning mustaqil ta’lim yozish kompetensiyasi kuzatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

1. **Yozma ishlarning tuzilishi va mantiqiy ketma-ketligi** Talabalarning 68% mustaqil yozma ishlarini mavzu talablariga mos tuzib, mantiqiy ketma-ketlikda ifodalashdi. Biroq qolgan 32% talabalarda kirish, asosiy qism va xulosani to‘g‘ri ajrata olish qiyinchiliklari kuzatildi.

2. **Mazmuniy asoslash va manbalar bilan ishlash** Talabalarning 60% mavzu bo‘yicha asosiy fikrlarni to‘g‘ri keltirdi, lekin manbalarni ishlatish va ularni tahlil qilish ko‘nikmalari zaif edi. Shu bilan birga, refleksiv mashg‘ulotlar joriy etilgan guruhda bu ko‘rsatkich 78% ga oshdi.

3. **Yozma nutq va xulosalash ko‘nikmalari** Talabalarning 70% yozma ishlarida fikrlarni aniq va qisqa ifodalay olishdi. Refleksiv va yo‘naltiruvchi metodlar qo‘llangan guruhda bu ko‘rsatkich 85% ga yetdi, ya’ni talabalarning akademik yozish malakasi sezilarli darajada oshdi.

4. **Muammoli topshiriqlar samaradorligi** Muammoli topshiriqlar talabalarning tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali bo‘ldi. Shu usul orqali talabalar mavzuni chuqurroq tahlil qilib, o‘z fikrini mantiqan asoslab bera olishdi.

Tadqiqot natijalari mustaqil ta’lim yozish kompetensiyasini shakllantirishda yo‘naltiruvchi metodik ko‘rsatmalar, refleksiv mashg‘ulotlar va muammoli topshiriqlar samaradorligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, yozish malakalarini rivojlantirish uchun talabalarga qo‘shimcha metodik yordam va manbalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini oshirish tavsiya etiladi [3].

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, talabalarda mustaqil ta’lim yozish kompetensiyasini shakllantirishda metodik ko‘rsatmalar, refleksiv mashg‘ulotlar va muammoli topshiriqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari boshqa ilmiy ishlar bilan mos keladi: masalan, Nazarova (2020) va Karimov (2021) tadqiqotlarida ham refleksiv va muammoli yondashuvlar talabalarning akademik yozish malakasini oshirishda samarali ekanligi qayd etilgan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning yozma ishlarini mantiqiy tartibda tuzish va manbalarni tahlil qilish ko‘nikmalari ular o‘rganayotgan fanning mazmuni va metodik yordam darajasiga bog‘liq. Refleksiv mashg‘ulotlar joriy

etilgan guruhda yozma ish sifatining oshishi, talabalarning o‘z ishini baholash va tahlil qilish imkoniyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, muammoli topshiriqlar talabalarning tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, barcha talabalar bir xil darajada natija ko‘rsatmaydi, bu esa individual pedagogik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Shu asosda, mustaqil ta’lim yozish kompetensiyasini shakllantirish jarayonida quyidagi tavsiyalar samarali hisoblanadi:

1. Talabalarga yozma ishlarni bajarish uchun aniq va bosqichma-bosqich yo‘naltiruvchi ko‘rsatmalar berish.
2. Refleksiv mashg‘ulotlar orqali talabalarning o‘z ishini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
3. Muammoli topshiriqlarni qo‘llash orqali talabalarning tanqidiy fikrlashini rag‘batlantirish.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, talabalarda mustaqil ta’lim yozish kompetensiyasini shakllantirish faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi, balki amaliy metodik yondashuvlar va individual qo‘llab-quvvatlash orqali samarali amalga oshirilishi kerak.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarda mustaqil ta’lim yozish kompetensiyasini shakllantirish samarali pedagogik yondashuvlar va metodik vositalar orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarish mumkin:

1. Talabalarning mustaqil yozma ishlarini mantiqiy tuzish va mavzuga mos ifodalash ko‘nikmalari metodik ko‘rsatmalar va refleksiv mashg‘ulotlar bilan sezilarli darajada yaxshilanadi.
2. Muammoli topshiriqlar talabalarning tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish malakalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.
3. Talabalarning akademik yozish malakasi ularning mavzu bilan ishlash, manbalarni tahlil qilish va xulosalash ko‘nikmalari bilan bevosita bog‘liq.

Shu bilan birga, tadqiqot amaliy jihatdan oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarning akademik savodxonligini oshirish va mustaqil ta’lim sifatini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari asosida o‘qituvchilar uchun individual yondashuv, refleksiv mashg‘ulotlar va muammoli topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarova, D. (2020). Talabalarda mustaqil yozma ish kompetensiyasini shakllantirish metodikasi. Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti.
2. Karimov, S. (2021). Akademik savodxonlik va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Samarkand: Pedagogika nashriyoti.
3. Xolmatov, A. (2019). Talabalarda mustaqil ta’lim jarayonida yozish malakalarini rivojlantirish. Pedagogika va psixologiya jurnali, 3(12), 45–53.
4. Islomov, B. (2018). Mustaqil ta’lim metodikasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya.

5. Abdullayev, R., & Saidova, L. (2022). Talabalarda yozma ish kompetensiyasini shakllantirishda refleksiv yondashuvning samaradorligi. Oliy ta'lim pedagogikasi, 5(2), 23–31.
6. Johnson, D., & Smith, P. (2017). Developing Academic Writing Skills in Higher Education. New York: Routledge.

UDK: 372.881.1

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KITOB O'QISHGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Ilyasova Zamira Uzakbaevna,
Nukus davlat pedagogika instituti assistent o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qishga qiziqishni shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarining pedagogik-psixologik asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida kitobxonlikka qiziqishning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, o'qituvchi va ota-onaning roli, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan samarali mexanizmlar hamda ularni rivojlantirish choralari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'limda kitob o'qishga motivatsiyani oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, o'qish motivatsiyasi, boshlang'ich ta'lim, o'quvchi qiziqishi, pedagogik mexanizmlar, o'qish faoliyati.

СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕРЕСА К ЧТЕНИЮ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье исследуются педагогико-психологические основы механизмов формирования и развития интереса к чтению у учащихся начальных классов. В ходе исследования были проанализированы факторы, влияющие на формирование интереса к чтению, роль учителей и родителей, эффективные механизмы, используемые в образовательном процессе, и меры по их развитию. Результаты исследования позволяют разработать практические рекомендации, служащие повышению мотивации к чтению в начальном образовании.

Ключевые слова: чтение, мотивация к чтению, начальное образование, интерес учащегося, педагогические механизмы, учебная деятельность.

CONTENT OF FORMING INTEREST IN READING BOOKS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article examines the pedagogical and psychological foundations of the mechanisms for forming and developing reading interest in primary school students. During the study, factors influencing the formation of reading interest, the role of teachers and parents, effective mechanisms used in the educational process, and measures for their development were analyzed. The research results allow for the development of practical recommendations that serve to increase reading motivation in primary education.

Keywords: reading, reading motivation, primary education, student interest, pedagogical mechanisms, learning activity.

Zamonaviy ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual, ma'naviy va ijodiy rivojlanishida kitob o'qish muhim omillardan biri hisoblanadi. Kitob o'qish nafaqat bilim manbai, balki bolalarda tafakkur, nutq, tasavvur va mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Biroq globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivoji natijasida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishi pasayib borayotgani kuzatilmoqda.

Biroq globalizatsiya jarayoni, raqamli texnologiyalarning jadal rivoji va axborot maydonining kengayishi natijasida maktab yoshidagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishi pasayib borayotgani kuzatilmoqda. Bugungi sharoitda ekran oldida o'tkaziladigan vaqtning ortishi bolalarning an'anaviy kitob o'qishga bo'lgan e'tiborini kamaytirmoqda, bu esa ularning o'qish madaniyati, tasviriy tafakkuri va bilimlarni chuqur o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf davri – bu shaxsda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat va barqaror o'quv motivatsiyasi shakllanadigan muhim bosqichdir. Bu davrda bolalar o'qish faoliyatini ijobiy tajriba sifatida qabul qilganda, ularning kelajakdagi o'qish motivatsiyasi mustahkamlanadi. Shu sababli mazkur davrda kitob o'qishga qiziqtirish mexanizmlarini to'g'ri tashkil etish, ular orqali ijobiy o'quv odatlarini mustahkamlash va tizimli rivojlantirish pedagogik hamda psikologik tadqiqotlarda dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ham bolalarda kitob o'qish madaniyatini shakllantirishga katta e'tibor qaratilishini alohida ta'kidlagan. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish Dasturi"da Prezident Mirziyoyev shunday degan edilar: "Biz har bir maktabda, har bir sinfda bolalarimizni kitob o'qishga jalb etish, ularni o'qishga qiziqtirish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'ymog'imiz kerak. Chunki kitob – bu inson tafakkurining boshlanishi, bilim va ma'naviyatning poydevori" [1]. Prezidentimizning bu nutqida maktab va sinflarda bolalarni kitob o'qishga jalb qilish faqat o'quv jarayoni sifatida emas, balki ularning shaxsiy intellektual va ma'naviy rivojlanishini ta'minlovchi muhim vosita sifatida qaralishi lozim ekanligini anglashimiz mumkin. Shunigdek, "tizimli ishlarni yo'lga qo'yish" ifodasi, kitob o'qish jarayonini tasodifiy faoliyat emas, balki pedagogik reja va strategiya asosida tashkil etish zarurligini anglatadi. Shu bilan birga, "kitob – bu inson tafakkurining boshlanishi, bilim va ma'naviyatning poydevori" degan jumla, kitobni bolalarda nafaqat ma'lumot manbai, balki fikrlash qobiliyati, tafakkur kengayishi va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi asosiy omil sifatida ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitob o'qishga qiziqtirish mexanizmlarini aniqlash hamda ularni rivojlantirish choralari bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodlari o'zaro mantiqiy bog'liqlikda tizimlashtirilib, olingan natijalarning ishonchliligini ta'minlash maqsadida nazariy

va empirik usullarning sintezidan foydalanildi. Avvalo, nazariy-qiyosiy tahlil metodi orqali kitobxonlik madaniyati va mutolaa motivatsiyasini shakllantirishga oid fundamental pedagogik hamda psixologik manbalar konseptual jihatdan o‘rganildi, bu esa muammoning nazariy asoslarini belgilash imkonini berdi. Pedagogik kuzatuv metodi yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars jarayonidagi va darsdan tashqari mutolaa faoliyati tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning o‘qishga bo‘lgan real munosabati va xulq-atvori o‘rganildi.

Sotsiologik-diagnostik metod (so‘rovnoma) doirasida o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida kitob o‘qishga bo‘lgan subyektiv munosabatni, motivatsion omillarni va mavjud to‘siqlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazildi. Yakuniy bosqichda esa taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida to‘plangan barcha empirik ma’lumotlar statistik tahlil qilinib, tegishli ilmiy-metodik xulosalar shakllantirildi. Tadqiqot obyekti sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mutolaa faoliyati va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayoni belgilangan bo‘lsa, tadqiqot predmeti sifatida o‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqtirishning pedagogik mexanizmlari, shakl va metodlari asoslab berildi.

Ushbu yondashuv tadqiqotning metodologik yaxlitligini ta’minlab, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning mutolaaga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish bo‘yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga xizmat qildi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kitob o‘qish faqatgina ma’lumot olish vositasi emas, balki ular ongini rivojlantirish, tafakkurini kengaytirish va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishdagi eng muhim omillardan biridir. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarda kitobga qiziqishni uyg‘otish va mustahkamlash pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar kitob o‘qishga qiziqishni birinchi navbatda o‘qituvchining motivatsion yondashuvi orqali shakllantiradi. Shu bilan birga, ota-onaning roli ham muhim bo‘lib, ularning o‘qish odatlari, uyda kitobga bo‘lgan munosabati bolalarga model bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli kitobga qiziqishni shakllantirish ikki asosiy tizim orqali amalga oshiriladi: maktabdagi pedagogik jarayon va uydagi tarbiyaviy muhit.

Maktabdagi pedagogik jarayonda o‘quvchilarda kitob o‘qishga qiziqishni uyg‘otish uchun bir qator metodlar qo‘llaniladi. Masalan, interaktiv o‘qish mashg‘ulotlari orqali bolalar matn bilan faol ishlashga jalb qilinadi. Bu jarayonda so‘rov-javoblar, hikoya asosida rolli o‘yinlar, dramatizatsiya va vizual yordamlar ishlatiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarga matnni tahlil qilish, asosiy g‘oyani aniqlash va qisqacha qayta bayon qilish ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Bu metodlar o‘quvchilarda kitob bilan faol muloqot va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Uy muhitida esa kitob o‘qishga qiziqishni shakllantirishda ota-onaning pedagogik roli juda katta. Ota-ona farzand bilan birga kitob o‘qishi, o‘qilgan matn bo‘yicha suhbat qurishi, savol-javob mashqlari o‘tkazishi bolaning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Shu bilan birga, uyda kitobni ko‘rinarli joyda saqlash, turli mavzularda rangli va vizual jozibali nashrlarni taqdim etish bolalarda kitobga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kitobga qiziqishni shakllantirishda raqamli vositalar ham samarali bo‘lishi mumkin. Masalan, interaktiv elektron kitoblar, multimediali hikoyalar va o‘quv dasturlari orqali bolalar matn bilan o‘zaro faoliyatni rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu vositalar o‘quvchilarda o‘qish jarayonini qiziqarli va motivatsiyalashgan qiluvchi qo‘shimcha omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitob o‘qishga qiziqish quyidagi mexanizmlar orqali samarali rivojlanadi:

motivatsion mexanizm – o‘quvchida ichki ehtiyoj va qiziqish uyg‘otish orqali kitob o‘qishga undash;

emotsional-ta’sirchan mexanizm – ertak, hikoya va she’rlarni ifodali o‘qish, rolli o‘yinlar orqali qiziqishni oshirish;

ijtimoiy-pedagogik mexanizm – o‘qituvchi, ota-ona va tengdoshlarning kitobxonlikdagi shaxsiy namunasi;

faoliyatga yo‘naltirilgan mexanizm – mustaqil o‘qish, kitob taqdimoti, kitobxonlik klublarini tashkil etish.

Shuningdek, kitob o‘qishga qiziqishni rivojlantirishda quyidagi choralarning samaradorligi aniqlandi:

- yosh xususiyatiga mos va rang-barang adabiyotlardan foydalanish;
- dars jarayonida interaktiv o‘qish usullarini qo‘llash;
- oilada kitobxonlik muhitini shakllantirish;
- rag‘batlantirish va ijobiy baholash tizimidan foydalanish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitob o‘qishga qiziqtirish jarayoni ko‘p omilli pedagogik hodisa bo‘lib, u shaxsning psixologik xususiyatlari, ta’lim muhiti hamda ijtimoiy ta’sirlar bilan chambarchas bog‘liqdir [2]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitob o‘qishga qiziqtirish jarayoni pedagogika va ta’lim psixologiyasi nuqtai nazaridan murakkab, ko‘p komponentli tizim sifatida talqin etiladi. Mazkur jarayonning samaradorligi, avvalo, o‘quvchi shaxsining individual-psixologik xususiyatlari, xususan, yoshga xos kognitiv rivojlanish darajasi, emotsional-irodaviy holati hamda o‘qish faoliyatiga nisbatan shakllangan motivatsion struktura bilan belgilanadi. Kichik maktab yoshida idrok va tafakkurning obrazli xarakteri ustuvor bo‘lgani sababli, kitob mazmunining hissiy-ta’sirchanligi va didaktik mosligi o‘quvchida barqaror qiziqishning yuzaga kelishida muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, kitob o‘qishga qiziqtirish jarayoni ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari o‘quvchining o‘qish faoliyatiga subyektiv munosabatini shakllantiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagog tomonidan yaratilgan qulay psixologik muhit, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv hamda interaktiv o‘qitish texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quvchilarda kitob o‘qishni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilishga zamin yaratadi.

Mazkur jarayonda ijtimoiy omillar ham muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Oila, tengdoshlar guruhi va keng ijtimoiy-madaniy muhit o‘quvchining kitobxonlikka bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi tashqi determinantlar sifatida

namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ota-onaning shaxsiy namunalari va oilaviy kitobxonlik an’analari o‘quvchining o‘qish faoliyatiga bo‘lgan ijtimoiy-motivatsion munosabatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitob o‘qishga qiziqtirish jarayoni individual-psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarning o‘zaro integratsiyasi asosida shakllanadigan, tizimli va uzluksiz pedagogik ta’sirni talab etuvchi murakkab didaktik hodisa sifatida tavsiflanadi.

Motivatsion mexanizmning ustuvorligi kichik maktab yoshidagi bolalarda o‘qishga bo‘lgan ichki ehtiyoj hali barqarorlashmaganligi bilan izohlanadi [3]. Muallifning fikricha, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan ichki ehtiyojning yetarli darajada barqarorlashmaganligi ularning psixologik rivojlanish bosqichi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu davrda faoliyatni qo‘zg‘atuvchi asosiy omil sifatida tashqi motivatsiya yetakchi o‘rin egallaydi. Shu sababli ta’lim jarayonida motivatsion mexanizmning ustuvor qo‘llanilishi o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish va uni bosqichma-bosqich ichki ehtiyoj darajasiga ko‘tarishning muhim pedagogik sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologik tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, ushbu yosh davrida tashqi rag‘batlar orqali ichki motivatsiyani shakllantirish muhim hisoblanadi [4]. Shu bilan birga, pedagogik jihatdan maqsadli va me’yorida qo‘llangan tashqi rag‘batlar asta-sekin ichki motivatsiyaning mustahkamlanishiga yordam beradi. Biroq olim A.K. Markova “…rag‘batlantirish vositalarining haddan ziyod qo‘llanilishi bolada faqat tashqi omillarga tayanish holatini yuzaga keltirishi mumkin” [5] degan fikrlarni keltirib o‘tadi.

Emotsional-ta’sirchan mexanizm boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlariga to‘liq mos keladi. Ilmiy manbalarda ifodali o‘qish, dramatizatsiya va obrazli tasavvur orqali o‘qish jarayoni bolalarda matnni chuqurroq idrok etish va eslab qolishni kuchaytirishi isbotlangan [6]. Mahalliy olimlar tomonidan bu kitobga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi- degan qarashlarni paydo qildi [7].

Zamonaviy axborot texnologiyalarining kitobxonlikka ta’siri masalasida esa qarama-qarshi fikrlar mavjud. Ayrim tadqiqotlarda raqamli vositalar diqqatni susaytirishi qayd etilsa [8], boshqa manbalarda elektron va audio kitoblar to‘g‘ri tashkil etilgan taqdirda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirishi ta’kidlanadi [8]. Demak, an’anaviy va raqamli o‘qish vositalari o‘rtasida muvozanatni saqlash pedagogik zarurat hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitob o‘qishga qiziqtirish jarayoni ta’lim tizimida alohida e’tibor talab etadigan dolzarb pedagogik muammo ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, kitobxonlikka bo‘lgan qiziqish o‘quvchilarda tabiiy ravishda shakllanmaydi, balki u maqsadli, tizimli va uzluksiz pedagogik ta’sir natijasida rivojlanadi.

Olib borilgan tahlillar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitob o‘qishga qiziqtirishda motivatsion, emotsional-ta’sirchan, ijtimoiy-pedagogik hamda faoliyatga yo‘naltirilgan mexanizmlar asosiy omillar sifatida belgilandi. Ushbu

mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llanishi o‘quvchilarda barqaror o‘qish ehtiyoji va ijobiy kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy mahorati, ijodiy yondashuvi va pedagogik innovatsiyalarni qo‘llay olish qobiliyati kitob o‘qishga qiziqishni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, oilada kitobxonlik muhitini yaratish mazkur jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharoitida kitob o‘qishga qiziqtirish jarayonini an’anaviy va raqamli o‘qish vositalarini uyg‘unlashtirgan holda tashkil etish zarur. Bu esa boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning intellektual salohiyati, nutq madaniyati va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim amaliyotida kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishda, shuningdek, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ilmiy-nazariy asos sifatida foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. https://president.uz/oz/lists/view/8834
2.Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – М.: Просвещение, 2008. – 214–216-betlar.
3.Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 2011. – 56–58-betlar.
4.Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 2005. – 121–123-betlar.
5.Маркова А.К. Формирование мотивации учения. – М.: Просвещение, 2009. – 44–46-betlar.
6.Elkonin D.B. Psychology of Play. – Moscow: Pedagogika, 2012. – 88–90-betlar.
7.G‘afforov O., Xudoyberdiyeva M. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 132–134-betlar.
8.Abdullaeva Q. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslari metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2021. – 98–101-betlar.
9.Slavin R.E. Educational Psychology: Theory and Practice. – Boston: Pearson, 2015. – 164–166-betlar.

UDK: 376.36:81'23

BOLALAR NUTQ RIVOJLANISHINING LOGOPEDIK-PSIXOLINGVISTIK MOHIYATI

Esnazarova Zulfiya Oljabaevna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Maktabgacha tarbiya va defektologiya" kafedrasi assistent o'qitivchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar nutq rivojlanishining logopedik va psixolingvistik mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Nutq rivojlanishi bolaning psixik rivoji, tafakkuri, kommunikativ ehtiyojlari hamda ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq murakkab jarayon sifatida yoritiladi. Tadqiqotda nutq rivojlanishining fonetik-fonematik, leksik, grammatik va bog'lanishli nutq komponentlari logopedik-psixolingvistik yondashuv asosida ko'rib chiqilgan. Olingan natijalar nutq rivojlanishidagi kamchiliklar ko'pincha tizimli xarakterga ega ekanini hamda ularni aniqlash va bartaraf etishda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Maqola materiallari logopedik diagnostika va korreksion-ta'limiy ishlarni takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: bolalar nutq rivojlanishi, logopediya, psixolingvistika, fonetik-fonematik rivojlanish, leksik rivojlanish, grammatik rivojlanish, bog'lanishli nutq, logopedik korreksiya.

ЛОГОПЕДИКО-ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ РАЗВИТИЯ РЕЧИ ДЕТЕЙ

Аннотация. В данной статье научно-теоретически анализируется логопедическая и психолингвистическая сущность развития речи у детей. Развитие речи рассматривается как сложный процесс, неразрывно связанный с психическим развитием ребенка, его мышлением, коммуникативными потребностями и социальной средой. В исследовании рассматриваются фонетико-фонематические, лексические, грамматические и связные речевые компоненты развития речи на основе логопедико-психолингвистического подхода. Полученные результаты показывают, что недостатки в развитии речи часто носят системный характер и требуют комплексного подхода к их выявлению и устранению. Материалы статьи имеют научно-практическое значение в совершенствовании логопедической диагностики и коррекционно-образовательной работы.

Ключевые слова: развитие речи детей, логопедия, психолингвистика, фонетико-фонематическое развитие, лексическое развитие, грамматическое развитие, связная речь, логопедическая коррекция.

LOGOPEDICAL-PSYCHOLINGUISTIC ESSENCE OF CHILDREN'S SPEECH DEVELOPMENT

Annotation. This article analyzes the logopedic and psycholinguistic essence of children's speech development from a scientific and theoretical perspective. Speech development is highlighted as a complex process inextricably linked with the child's mental development, thinking, communicative needs, and social environment. The study examined the phonetic-phonemic, lexical, grammatical, and connected speech components of speech development based on a logopedic-psycholinguistic approach. The obtained results show that shortcomings in speech development are often systemic in nature and require a comprehensive approach to their identification and elimination. The materials of the article have scientific and practical significance in improving speech therapy diagnostics and correctional-educational work.

Keywords: speech development, speech therapy, phonetic-phonemic development, lexical development, grammatical development, coherent speech, speech therapy correction.

Nutq insonning bilish faoliyati, ijtimoiy munosabatlari hamda shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab psixofiziologik jarayondir. Bolalik davrida nutqning to‘liq va me’yoriy rivojlanishi keyingi ta’lim jarayoni, kognitiv rivojlanish va ijtimoiy moslashuvning asosiy sharti hisoblanadi. Shu sababli nutq rivojlanishi muammosi logopediya fanining markaziy tushunchalaridan biri sifatida qaraladi. Logopediya fanida “nutq rivojlanishi” tushunchasining shakllanishi va ilmiy muomalaga kirib kelishi XX asrning birinchi yarmi bilan bog‘liq. Dastlabki davrlarda, ya’ni XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, nutq buzilishlari asosan tibbiy nuqtai nazardan o‘rganilib, nutq tayyor funksiyaning buzilishi sifatida talqin etilgan. Ushbu yondashuvda nutq rivojlanishining ontogenez jarayoni va uning bosqichlari yetarli darajada e’tiborga olinmagan.

XX asrning 20–30-yillaridan boshlab, madaniy-tarixiy va faoliyat yondashuvining rivojlanishi natijasida nutq bolaning ijtimoiy tajribasi, kommunikativ ehtiyojlari hamda amaliy faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadigan jarayon sifatida talqin etila boshlandi. Aynan shu davrdan e’tiboran “nutq rivojlanishi” tushunchasi logopediyada mustaqil ilmiy kategoriya sifatida shakllandi. Ushbu yondashuv nutqni tug‘ma hodisa emas, balki ijtimoiy muhitda, muloqot va faoliyat jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanadigan murakkab tizim sifatida izohlash imkonini berdi. Keyingi bosqichlarda, xususan XX asrning 50–70-yillarida, nutq rivojlanishi tushunchasi logopediya fanida yanada chuqurlashtirilib, nutqning fonetik-fonematik, leksik-grammatik va bog‘lanishli nutq komponentlari asosida tizimli ravishda o‘rganila boshlandi. Bu davrda nutq rivojlanishidagi buzilishlar alohida kamchilik sifatida emas, balki nutq tizimining barcha tarkibiy qismlarini qamrab oluvchi murakkab holat sifatida talqin qilindi. Mazkur ilmiy yondashuv logopedik diagnostika va korreksion ishlarning nazariy asoslarini belgilab berdi [2]. Logopediyada “nutq rivojlanishi” tushunchasi faqat til birliklarining shakllanishi bilan cheklanib qolmay, balki nutqning fonetik-fonematik, leksik-grammatik va kommunikativ jihatdan tizimli rivojlanishini

qamrab oladi. Bolalar nutq rivojlanishi logopedik va psixolingvistik nuqtai nazardan murakkab, ko‘p komponentli hamda bosqichma-bosqich kechadigan jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayon til tizimining shakllanishi, nutq faoliyatining rivoji hamda bolaning bilish va kommunikativ ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Psixolingvistika nutq rivojlanishini til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni sifatida izohlasa, logopediya ushbu jarayonning me’yoriy va buzilgan ko‘rinishlarini o‘rganib, ularni aniqlash va korreksiya qilish masalalariga e’tibor qaratadi [1]. Psixolingvistik yondashuvga ko‘ra, bolaning nutq rivojlanishi nutqni idrok etish, nutqiy kodlash va dekodlash, til birliklarini ongli va avtomatik qo‘llash kabi jarayonlar orqali amalga oshadi. Bu jarayonda eshitish idroki, xotira, diqqat va tafakkur muhim psixik mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi [5]. Nutq rivojlanishining psixolingvistik mohiyati shundan iboratki, bola nutqni tayyor shaklda emas, balki faol muloqot va ijtimoiy tajriba asosida bosqichma-bosqich o‘zlashtiradi.

Logopedik nuqtai nazardan esa bolalar nutq rivojlanishi fonetik-fonematik, leksik, grammatik va bog‘lanishli nutq komponentlarining izchil va o‘zaro bog‘liq holda shakllanishi sifatida qaraladi. Ushbu komponentlardan birining yetarli darajada rivojlanmasligi nutq tizimining umumiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli logopediya fanida nutq rivojlanishidagi buzilishlar ko‘pincha tizimli xarakterga ega bo‘lib, kompleks diagnostika va korreksion yondashuvni talab etadi. Bolalar nutq rivojlanishining logopedik-psixolingvistik mohiyati, avvalo, nutqning kommunikativ funksiyasini ta’minlashga qaratilganligi bilan tavsiflanadi [7]. Nutq rivojlanishidagi kamchiliklar bolaning ijtimoiy moslashuvi, ta’lim jarayonida faol ishtiroki va shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois bolalar nutq rivojlanishini o‘rganishda logopedik va psixolingvistik yondashuvlarning integratsiyasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning ob’ekti bolalar nutq rivojlanishining logopedik va psixolingvistik mohiyati hisoblanadi. Tadqiqot predmeti sifatida bolalarda nutq rivojlanish jarayonining psixolingvistik mexanizmlari (nutqni idrok etish, til birliklarini o‘zlashtirish, nutqiy faoliyatni rejalashtirish) hamda nutqning fonetik-fonematik, leksik-grammatik va bog‘lanishli nutq komponentlarining logopedik jihatdan shakllanish xususiyatlari tanlandi [4]. Tadqiqot davomida bolalar nutq rivojlanishi nutq va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, kommunikativ ehtiyojlar va ijtimoiy muhit ta’siri nuqtai nazaridan o‘rganildi. Psixolingvistik yondashuv nutq rivojlanishini tilni ongli va avtomatik o‘zlashtirish jarayoni sifatida talqin etish imkonini bersa, logopedik yondashuv ushbu jarayonning me’yoriy va buzilgan ko‘rinishlarini aniqlash hamda tahlil qilishga yo‘naltirildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlar qo‘llanildi:

- logopediya, psixolingvistika va maxsus pedagogika sohasidagi ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish;
- bolalar nutq rivojlanishiga oid ilmiy qarashlarni taqqoslash va tizimlashtirish;

• nutq rivojlanishining logopedik va psixolingvistik talqinlarini analitik tahlil qilish;

• umumlashtirish va xulosalash metodlari.

Metodologik asos sifatida tizimli yondashuv, faoliyat nazariyasi hamda bolalar nutqining ontogenetik rivojlanish modeli qabul qilindi. Ushbu yondashuv bolalar nutq rivojlanishini murakkab, ko‘p bosqichli va o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida ilmiy asosda yoritishga imkon berdi [10]. A.N. Leontyev nutqni faoliyatning alohida turi sifatida ko‘rib, nutq rivojlanishini bolaning kommunikativ ehtiyojlari va amaliy faoliyati bilan bog‘laydi. Uning fikricha, nutq rivojlanishi maqsadli faoliyat jarayonida shakllanadi va ijtimoiy tajriba asosida boyib boradi. Shuningdek, T.B. Filicheva nutq rivojlanishini maktabgacha yoshda bolaning o‘qishga tayyorgarligini belgilab beruvchi asosiy omil sifatida baholaydi hamda logopedik ishlarda erta korreksiyaning muhimligini ta’kidlaydi. N.I. Jinkin esa nutq rivojlanishini tafakkur va til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida talqin qilib, nutq rivojlanishi bolaning intellektual salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini asoslaydi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, nutq rivojlanishi logopediyada biologik, ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillar ta’siri ostida kechadigan murakkab, ko‘p bosqichli jarayon sifatida talqin etildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolalar nutqining rivojlanishi logopedik-psixolingvistik jihatdan ko‘p qirrali va integrativ jarayon bo‘lib, u nutq faoliyatining psixik mexanizmlari hamda til tizimining tarkibiy qismlari (fonetika, leksika, grammatika) uyg‘un rivojlanishini taqozo etadi. Mazkur jarayon shunchaki artikulyatsion apparatning takomillashishi yoki so‘z boyligining miqdoriy ortishi bilan cheklanib qolmay, balki nutqni neyrofiziologik idrok etish, ichki nutqda dasturlash (rejalashtirish) va aniq kommunikativ vazifaga muvofiq sintaktik shakllantirish kabi murakkab bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Psixolingvistik tahlillar shuni tasdiqlaydiki, nutqiy kompetentsiyaning asosi — bu nutqiy xabarni generatsiya qilish (yaratish) va dekodlash (tushunish) qobiliyatlarining muvozanatidir. Bunda kognitiv jarayonlar, xususan, xotira, diqqat va mantiqiy tafakkur nutqiy faoliyatning drayveri sifatida namoyon bo‘ladi. Nutqning logopedik korreksiyasi faqatgina tovush talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etishga emas, balki bolaning umumiy nutqiy tizimini, uning semantik (ma’no) va pragmatik (qo‘llanilish) jihatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Shu sababli, bolalar nutqini diagnostika qilish va rivojlantirishda kompleks yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi. Nutqiy rivojlanishning muvaffaqiyati bolaning ijtimoiy muhitda muloqotga kirisha olishi, o‘z fikrini mantiqiy izchillikda bayon etishi va nutqiy vaziyatga mos ravishda til vositalarini tanlay olishi bilan belgilanadi. Bu esa logopedik ish jarayonida nafaqat sensor-motor ko‘nikmalarni, balki psixolingvistik operatsiyalarni — so‘z tanlash, gap tuzish va nutqiy nazorat mexanizmlarini ham faollashtirish zarurligini ko‘rsatadi [3].

Tahlil natijalariga ko‘ra, fonetik-fonematik rivojlanish nutq rivojlanishining dastlabki va muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, fonemalarni farqlash va nutqni eshitib idrok etish ko‘nikmalari

shakllanadi [6]. Fonetik-fonematik rivojlanishdagi buzilishlar keyingi bosqichlarda leksik va grammatik rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Leksik rivojlanish natijalari shuni ko'rsatdiki, bolaning so'z boyligi nafaqat so'zlar sonining ortishi, balki ularning mazmunini to'g'ri anglash va nutqda faol qo'llash bilan belgilanadi. Leksik rivojlanishning yetarli darajada shakllanmaganligi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishда qiyinchiliklar tug'diradi.

Grammatik tizim va bog'lanishli nutqning shakllanishi bolaning kognitiv va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi fundamental ko'rsatkichlardir. Ushbu jarayonlarning ilmiy-pedagogik tahlili asosida kengaytirilgan matnni taqdim etaman:

Grammatik rivojlanish tahlili shuni ko'rsatdiki, tilning morfologik va sintaktik qonuniyatlarini o'zlashtirish nutqning mantiqiyligi, strukturaviy yaxlitligi va axborotning tushunarliligini ta'minlovchi asosiy mexanizmdir. Grammatik tizim shunchaki so'z o'zgartish qoidalari yig'indisi emas, balki fikrni mantiqiy qoliplarga solish usulidir. Ushbu tizimning yetarlicha shakllanmasligi (agrammatizm) nutqda tizimli xatolarning yuzaga kelishi, gapdagi so'zlararo aloqalarning buzilishi hamda fikrni izchil, grammatik jihatdan to'g'ri ifodalashda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning nutqiy xabarni kodlash va uzatish jarayonidagi samaradorligini pasaytiradi.

Bog'lanishli nutq rivojlanishi bo'yicha olingan natijalar ushbu komponentning nutq taraqqiyotidagi yakuniy va eng murakkab integrativ bosqich ekanligini tasdiqladi. Bog'lanishli nutq — bu bolaning barcha til vositalarini (fonetik, leksik, grammatik) yagona bir maqsad yo'lida birlashtira olish qobiliyatidir. U bolaning o'z fikrini mantiqiy ketma-ketlikda, mazmuniy izchillikda va aniq kommunikativ maqsadga muvofiq bayon etish imkoniyatini belgilaydi. Ushbu bosqichda yuzaga kelgan kamchiliklar, xususan, matnni rejalashtira olmaslik yoki voqealar o'rtasidagi bog'liqlikni yo'qotish, bolaning nafaqat muloqot jarayonida, balki o'quv faoliyatida, darslarni o'zlashtirishda va ijtimoiy muhitga moslashishida to'sqinlik qiluvchi asosiy omilga aylanadi.

Binobarin, bog'lanishli nutqni rivojlantirish bolaning kognitiv salohiyatini (xotira, diqqat, tahlil) va nutqiy kreativligini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Grammatik jihatdan mukammal va bog'lanishli nutqqa ega bo'lgan bola ta'lim jarayonining faol sub'ekti sifatida o'z bilimlarini namoyish eta oladi, savollarni aniq shakllantiradi va murakkab nutqiy konstruksiyalardan foydalangan holda o'z pozitsiyasini himoya qiladi. Shu bois, logopedik va pedagogik ta'sir choralari nutqning ushbu tarkibiy qismlarini uyg'un holda takomillashtirishga yo'naltirilishi strategik ahamiyat kasb etadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, bolalar nutq rivojlanishidagi kamchiliklar ko'pincha alohida komponent bilan cheklanmay, tizimli xarakterga ega bo'ladi. Shu bois logopedik-psixolingvistik yondashuvda nutq rivojlanishini baholash va korreksiya qilish jarayoni kompleks tashkil etilishi zarur [9]. Bu holat logopedik diagnostika va korreksion ishlarni rejalashtirishda barcha nutq komponentlarini o'zaro bog'liqlikda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, olingan

natijalar erta yosh davrida nutq rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash va o‘z vaqtida logopedik yordam ko‘rsatish bolalarning nutq rivojlanishini muvaffaqiyatli korreksiya qilishda muhim omil ekanini tasdiqladi. Erta aralashuv nutq buzilishlarining chuqurlashib ketishining oldini oladi hamda bolaning keyingi ta’lim faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar nutq rivojlanishi logopedik va psixolingvistik jihatdan murakkab, ko‘p komponentli hamda bosqichma-bosqich kechadigan jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon nutq faoliyatining psixik mexanizmlari, til tizimining tarkibiy qismlari hamda bolaning kommunikativ ehtiyojlari va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari nutq rivojlanishini faqat talaffuz yoki so‘z boyligining ortishi bilan cheklab bo‘lmasligini, balki uni nutqni idrok etish, rejalashtirish va amalga oshirish jarayonlarining yaxlit tizimi sifatida ko‘rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi. Mazkur tadqiqotda bolalar nutq rivojlanishining fonetik-fonematik, leksik, grammatik va bog‘lanishli nutq komponentlari logopedik-psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Olingan natijalar ushbu komponentlarning o‘zaro chambarchas bog‘liqligini hamda ulardan birining yetarli darajada rivojlanmasligi butun nutq tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. Bu holat nutq rivojlanishidagi buzilishlarning ko‘pincha tizimli xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi [5]. Shuningdek, tadqiqot natijalari erta yosh davrida nutq rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash va o‘z vaqtida logopedik yordam ko‘rsatish bolalarning nutqiy, kognitiv va kommunikativ rivojlanishini samarali ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Logopedik va psixolingvistik yondashuvlarning integratsiyasi nutq rivojlanishini baholash va korreksiya qilish jarayonining ilmiy asoslanganligini oshiradi hamda logopedik amaliyot samaradorligini ta’minlaydi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, bolalar nutq rivojlanishining logopedik-psixolingvistik mohiyatini chuqur o‘rganish zamonaviy logopediya va maxsus pedagogika oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar ta’lim amaliyotini takomillashtirishga va bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elkonin, D. B. (1989). Psikhologiya razvitiya rechi rebenka [Psychology of child speech development]. Moscow: Pedagogika.

2. Filicheva, T. B., & Chirkina, G. V. (2015). Logopediya. Vospitanie i obuchenie detey s narusheniyami rechi [Speech therapy: Education and teaching of children with speech disorders]. Moscow: Vlados.

3. Khvatsev, M. E. (2009). Narusheniya rechi u detey [Speech disorders in children]. Moscow: Prosveshchenie.

4. Leontiev, A. A. (2003). Psycholinguistics. Moscow: Smysl.

5. Leontiev, A. N. (1981). Problems of the development of the mind. Moscow: Progress Publishers.

6. Levina, R. E. (2005). Osnovy teorii i praktiki logopedii [Fundamentals of speech therapy theory and practice]. Moscow: Akademiya.

7. Luria, A. R. (1979). Language and cognition. New York, NY: Wiley.

UDK: 37.013:37.02

VITAGEN TÁLIM HÁM ONI ÁMELGE ASIRIWDÍŃ METODOLOGIYALÍQ TIYKARLARI

Dawletnazarova Dilnaza,
Nókis mámleketlik pedagogika institutı "Pedagogika" kafedrası assistent oqıtıwshısı

Annotaciya. Mazkur maqalada vitagen bilimlendiriw tushunigi, onıń teoriyalıq tiykarları hám bilimlendiriw procesindegi áhmiyeti sáwlelendirilgen. Vitagen bilimlendiriw oqıwshılardıń jeke turmıslıq tájiriybesine tayanǵan halda bilimlerdi nátiyjeli ózlestiriwge xızmet etiwi menen túsindiriledi. Maqalada vitagen jantasıwdıń dástúriy oqıtıw usıllarınan ayırmashılıǵı, oqıw motivaciyasın arttırıwdaǵı roli hám de óz betinshe hám sın kózqarastan pikirlewdi rawajlandırıwdaǵı imkaniyatları talqılanǵan. Sonday-aq, vitagen bilimlendiriwdi ámeliyatqa engiziw jolları hám pedagogikalıq processte onnan paydalanıw boyınsha usınıslar berilgen. Izertlew nátiyjeleri vitagen bilimlendiriw zamanagóy bilimlendiriw nátiyjeliligin arttırıwda áhmiyetli faktor ekenligin kórsetedi.

Tiykarǵı sózler: oqıwshı, muǵallim, bilimlendiriw, tárbiya, talaba, vitagen texnologiya, kompetenciya.

ВИТАГЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЕГО ПРОВЕДЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается концепция витагенного образования, его теоретические основы и значение в образовательном процессе. Витагенное образование определяется как эффективное усвоение знаний на основе личного жизненного опыта учащихся. В статье анализируются различия между витагенным подходом и традиционными методами обучения, его роль в повышении мотивации к обучению и его потенциал в развитии самостоятельного и критического мышления. Также приводятся рекомендации по практическому применению витагенного образования и его использованию в образовательном процессе. Результаты исследования показывают, что витагенное образование является важным фактором повышения эффективности современного образования.

Ключевые слова: Ученик, учитель, образование, воспитание, студент, витагенная технология, компетенция.

VITAGENIC EDUCATION AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ITS IMPLEMENTATION

Abstract. This article examines the concept of vitagenic education, its theoretical foundations and its importance in the educational process. Vitagenic

education is defined as the effective acquisition of knowledge based on students' personal life experiences. The article analyzes the differences between the vitagenic approach and traditional teaching methods, its role in increasing motivation for learning, and its potential to develop independent and critical thinking. It also provides recommendations for the practical application of vitagenic education and its use in the educational process. The results of the study show that vitagenic education is an important factor in increasing the effectiveness of modern education.

Keywords: student, teacher, education, upbringing, student, vitagenic technology, competence.

Tálim natiyjeliligin asırıwda ayrıqsha zamanagóy jantasıwlarınan biri bul innovciyalıq jantasıw bolıp, bunda oqıtıw processlerin shólkemlestiriwde forma, metod hám qurallardıń óz-ara muwapıqlıǵın esapqa alǵan halda tańlaw tiykarında oqıtıwshı hám tálim alıwshılardıń sherikligidegi iskerligin rawajlandırıw esaplanadi. Jáhán standartları talaplarına juwap beretuǵın zamanagóy shınıǵıwlar processinde dástúriy sabaq yaǵnıy túsindiriw, lekciya, ámeliy hám laboratoriya sabaqları menen bir qatarda oqıwshılar, talabalar bilimin asırıwda oyın texnologiyaları, mashqalalı máselelerdi sheshiw, keys- stadi (keys- study) texnologiyaları hám basqalardan nátiyjeli paydalanıw múmkin.

Ulıwma bilim beriw processinde vitagen tálim tiykarında oqıwshılardıń turmıslıq tájiriybesinen paydalanıp bilimlerdi ózlestiriw processi bolıp tabıladı. Izertlewde oqıwshılardıń jeke tájiriybesi, kúndelik turmısta toplaǵan bilim hám tájriybeleri tálim mazmunı menen integraciyalaw procesi úyrenildi. Vitagen tálim jantasıwınıń tálim processtegi pedagogikalıq múmkinshilikleri, vitagen texnologiyalar tiykarında sabaqlardı shólkemlestiriw forma hám metodları hám de olardıń oqıwshılardıń biliw aktivligi hám erkin pikirlewine tásirin anıqlawdan ibarat. Izertlew temasın úyreniwde pedagogikalıq hám psixologiyalıq ádebiyatlardı analiz qılıw, vitagen tálimge tiyisli ilimiy dereklerdi úyreniw, salıstırıw, ulıwmalastırıw hám sistemalastırıw, funktsional analiz usıllarınan paydalanıldı.

Zamanagóy tálimde informacion-analitik kompetenciyalar yaǵnıy maǵlıwmattı toplaw, analiz qılıw hám ámeliyatta qollay alıw qábileti, studentlerdi erkin pikirlewge hám zamanagóy ilimiy-texnologiyalıq jaqtan rawajlanıwǵa iykemlesiwge tayarlawda úlken áhmiyetke iye. Informaciyalar ásirinde, oqıwshılardıń informaciya hám maǵlıwmatlardı analiz qılıw, bahalaw hám ámeliy máselelerdi sheshiw kónlikpelerin rawajlandırıw tálim sistemasınıń eń zárúrli wazıypalarınan biri esaplanadı. Bul processte vitagen (integraciyalanǵan) tálim sisteması tiykarında studentler kompetenciyalardı rawajlandırıw jańa metodlar hám jantasıwlardı engiziwge múmkinshilik jaratadı.

Informacion-analitik kompetenciyalardı rawajlandırıwda kóplegen ilimiy izertlewler hám ádebiyatlar bar. Birinshi náwbette, studentlerdiń maǵlıwmatlardı toplaw, analiz qılıw hám sintez qılıw kónlikpelerin rawajlandırıwda integraciyalanǵan tálimniń natiyjeliligi tastıyıqlanǵan. Mısalı, Ózbekstannıń tálim sistemasında informatika hám texnologiyalardı úyretiw metodları, sonıń menen

birge, pedagogikalıq jantasıwlardıń integraciyası oqıwshılarda maǵlıwmattı analiz qılıw hám islep shıǵıw boyınsha kónlikpelerdi qáliplestiredi.

Sonıń menen birge, vitagen tálimi arqalı studentlerdi jedellestiriw hám olardıń dóretiwshilik pikirlewlerin rawajlandırıwǵa bólek itibar qaratılǵan. Izertlewshilerdiń, integraciyalanǵan tálimdi úyreniwde, studentlerge túrli pánler arasındaǵı baylanısıwdı kórsetiw arqalı olardıń ulıwma dúnyaqarasın keńeytiw hám maǵlıwmattı analiz qılıw qábiletlerin asırıwǵa járdem beriwin aytıp ótken.

Bizińilimiy izertlew jumısımızda informacion-analitik kompetenciyalardı rawajlandırıwdıń nátiyjeli usılların anıqlaw ushın vitagen táliminiń túrli metodları uyreniledi. Sonıń menen birge, tálimde informatika, matematikalıq modeller, onlayn resurslar hám sımulyatsiyalar sıyaqlı texnologiyadan qanday paydalanıw múmkinligi uyreniledi.

Vitagen tálimi integraciyalanǵan hám ınteraktiv tálimdi óz ishine alǵan jantasıw bolıp, ol studentlerdi bir waqıttıń ózinde bir neshe ilimlerdi úyreniwge tartadı. Bul jantasıw arqalı studentler tekǵana individual pánler boyınsha bilimlerdi iyeleydi, bálki olar arasında baylanısıwlardı kóredi hám real turmıstaǵı mashqalalardı sheshiwde analitikalıq jantasıwdı rawajlandıradı. Vitagen táliminiń natiyjeliligi studentlerdiń pikirlew procesin jáne de tereńlestiredi hám olardıń maǵlıwmattı analiz islewdegi tabısların arttıradı.

Ádette oqıw procesine alıp kirilip atırǵan jańalıqlar bilim alıwshı tárepinen aktiv qızıǵıwshılıq penen kútip alınadı, ásirese bul jańalıqlar interaktivlik hám oyın kórinisinde bolsa. Usınıń menen birgelikte ılım- texnika jetiskenliklerinen sabaq processinde paydalanıw tálim beriw procesi múmkinshiliklerin keskin keńeytiwi múmkin.

Házirgi kúnde tálim processine vitagen jantasıwdıń ózgesheligi aktuallasıp barmaqta. Xosh, vitagen tálim degenimizdiń ózi ne? Bul qanday jantasıw?

Vitagen – vita (lat.) – turmıs, genesis (lat.) – tuwılıw (payda bolıw), yaǵnıy turmıstan tuwılǵan. Vitagen tálim – shaxs (oqıwshı, talaba)tıń turmıslıq tájiriybesin aktuallastırıw (talap), onıń intellektuallıq hám psixologiyalıq potencialınan oqıw maqsetlerinde paydalanıw tiykarında oqıtıw bolıp tabıladı. Túsinikler arasındaǵı ayırmashılıq vitagenge baǵdarlanǵan tálimniń maqseti shaxstıń intellektuallıq hám psixologiyalıq potencialında sáwleleniwinen ibarat. Bunda shaxstıń turmıs tájiriybesin turmıslıq tájiriybege ózgertiwdi názerde tutadı. Turmıs tájiriybesi - bul insan tárepinen jasamaytuǵın, tek gana oniń sanası menen baylanıslı informaciya. Turmıslıq tájiriybe - insan ózi (sonıń ishinde, talaba) basınan keshirgen, ol sezgen, oylaǵan, úgit-násiyatlaǵan hám uzaq múddetli yadında saqlanıp, ol ushın jeke áhmiyetli bolıp qalgan maglıwmat bolıp esaplanadı. Talabanıń roli,onıń biliw procesiniń teń huqıqlı qatnasıwshısı yagniy tek obyektiv emes, al biliw iskerliginiń subyekti de bolıp tabıladı.

Rossiyalı pedagog A. S. Belkin vitaminli bilim beriw texnologiyasın islep shiqtı hám sınaqtan ótkerdi. Vitagen bilimlendiriw insannıń turmıslıq tájiriybesin, pedagogikalıq maqsetler ushın jeke hám intellektuallıq potencialın aktuallastırıwǵa tiykarlanǵan bilimlendiriw bolıp esaplanadı. Vitamin bilimlendiriw sheńberinde

turmıslıq tájiriybe úlken áhmietke ie. Biraq, turmıs tájiriybesi hám turmıs tájiriybesin parıqlaw kerek.

A. S. Belkinnin sózlerine qaraǵanda, bul túrli mazmunǵa iye bolgan pútkilley basqa túsinikler bolip tabıladı. turmıslıq tájiriybe-bul ǵárezsiz túrde qolga kirgizilmegen, biraq insannıń ómir hám iskerliktiń belgili bir táreplerin túsiniwine tiykarlangan turmıslıq málimleme bolip tabıladı. vitagen tálim texnologiyasınıń tiykargı wazıypası tómendegilerden ibarat [1].

Vitaminlı tálim texnologiyasınıń konceptual qaǵıydaları tómendegilerden ibarat: golografik ong - hár bir insan rawajlanıwınıń (hárekettiń) kóplep táreplerinin kombinaciyası sıpatında qaraladı. Hár qanday bilimlendiriwdiń tiykarın insan ómiri (vita) quraydı. Pedagogikalıq mashqalalardı tabıslı sheshiw ushın balanıń barlıq qábiletlerin anıqlaw hám rawajlandırıwdan ibarat.Bilim beriw procesiniń nátiyjeliligi kóp tárepleme oqıtıwshı hám oqıwshınıń birge islesiwine baylanıslı. Oqıtıwshı hám oqıwshı sıpatında shaxstıń turmıslıq tájiriybesine súeniw. Vitagen tálimdi ámelge asırıw jolları tómendegilerden ibarat bolıp esaplanadı:

1. Vizualizaciya járdeminde vitagen tájiriybesiniń quramın anıqlaw.
2. Túrli sorawlar arqalı vitagen tájiriybesin anıqlaw.
3. Vitagen tájiriybesin oqıw procesiniń barlıq qatnasıwshıları tárepinen tastıyıqlaw arqalı anıqlaw.
4. Vitagen tájiriybesin analizlew. Onıń tábiyatı hám kólemin ashıp beriw, olar arasında baylanıstı ornatiw.
5. Vitagen tájiriybesin klassifikaciyalaw ushin tiykarın anıqlaw, onı klassifikaciyalaw. Hár qıylı bilim tarawındaǵı vitagenge tán bolǵan maǵluwmatlardı birlestiriw.
6. Maqsetli pedagogikalıq tásir ótkeriw imkaniyatın anıqlaw integraciyalasqan bilim, kónlikpe hám qatnasıqlardı qáliplestiriw.
7. Túrli tarawlarda ilimiy bilimlerdi qurıwda vitagen tájiriybesinen paydalanıw shártlerin anıqlaw.

Zamanagóy bilimlendiriw paradigmasında oqıwshı hám talabalardıń intellektual potencialın arttırıw tek ǵana teoriyalıq bilimlerdi jetkeriw emes, bálki olardı turmıslıq tájiriybe menen sintezlewdi talap etedi. Bul processte tómendegi metodologiyalıq ústinlikler áhmiyetli orın iyeleydi.

Bilimlendiriw procesine turmıslıq tájiriybesi joqarı bolǵan qatnasıwshılardı, yaǵnıy óz salasınıń jetik qánigelerin hám ámeliyatshılardı tartıw talabalardıń kóz-qarasın keńeytiwdiń strategiyalıq mexanizmi esaplanadı. Bul jantasıw teoriyalıq bilimlerdiń turmıslıq reallıq penen úzliksizligini tamiynlep, bilimlendiriw alıwshılarda máselelerge multidissiplinar jantasıwdı qáliplestiredi.

Oqıtıwshınıń jeke hám professional turmıslıq tájiriybesine súyeniwi — bilimlerdi qádriyatqa aylantırıwdıń tiykarǵı jolı bolıp tabıladı. Pedagog óz tájiriybesi arqalı bilimlerdiń "janlı" ekenligin kórsetip beredi, bul bolsa talabalarda úyrenilip atırǵan temaǵa qarata emocional-qunlılıq munasábátti hám joqarı oqıw motivaciyasın payda etedi.

Shaxstıń turmıslıq (tirishilik) tájiriybesi bilim alıw procesinde onıń jasırın (potenciallıq) qábiletlerin júzege shıǵarıwshı katalizator xızmetin atqaradı. Oqıwshı jańa maǵlıwmatlardı óziniń bar bolǵan subyektiv tájiriybesi menen salıstırǵanda, onda óz betinshe analizlew hám intellektual jańalıqlar ashıw imkaniyatı keńeyedi.

Bilimlendiriwde turmıslıq tájiriybelerden tek ǵana mısallar dárejesinde emes, bálki mashqalalı situaciyalardı sheshiw, joybar jumısları hám keys-stadi (case-study) formalarında kóp ólshemli paydalanıw kerek. Bul oqıwshıǵa bir waqıttıń ózinde hám teoriyashı, hám ámeliyatshı, hám sın kózqarastan pikirlewshi retinde qáliplesiw imkanın beredi.

Oqıwshınıń aqılıy (intellektual) potencialın jedellestiriw shaxstı húrmet etiwge tiykarlanıwı kerek. Pedagogikalıq process subyekt-subyekt munasábetleri tiykarında shólkemlestirilgende ǵana, oqıwshı óz turmıslıq tájiriybesin erkin kórsete aladı hám processtiń aktiv qatnasıwshısına aylanadı. Bul bolsa bilimlendiriwdıń gumanistlik mazmunın ashıp beredi.

Vitagen texnologiyasın ámelge asırıwda tálim procesine kompetensiyalıq jantasıw. Tálim strategiyalıq wazıypası bolıp oqıw jaǵdaylarınan sırtta nátiyjeli háreket ete alatuǵın, óz kásiplik iskerliginde júzege keletuǵın úlgili hám mashqalalı máselelerdi sheshe alatuǵın kompetentli qánigeniń tayarlıǵı esaplanadı. Komepetentli tayarlıq modeline ótiw shárayatında joqarı mektepte kompetentli jantasıwdı qollaytuǵın oqıtıw texnologiyaların anıqlaw ayrıqsha aktuallıqqa iye boladı. Kompetenciyalardıń jıyındısın (berilgen pán salasında nátiyjeli iskerlik ushın zárúr bolǵan bilim hám tájiriybeniń bar ekenligi) kompetentlik dep ataydı. Kasiplik tálimde kompetentlik ol yamasa bul tarawda bilim hám tájiriybelerdiń jıyındısı yamasa anıq jumıs ornı yamasa atqarılıp atırǵan jumıstıń ózgerip turatuǵın talaplarına uyqas tásir etiwge múmkinshilik beretuǵın ulıwma hám kásiplik tayarlıq dárejesi bolıp tabıladı. Kompetentlik hám kompetenciyalar arasında tuwrı hám inversiyalıq (keri) baylanıslılıq bar. Muslimov N.A bir qansha kásiplik kompetenciyalar túrlerin ajratadı, olar kásiplik iskerlikte adam jetikligin kórsetedi: Kompetenciya atı mazmunı arnawlı jeterli joqarı dárejede óz kásiplik iskerligin iyelew; talabalardıń tabısqa erisiw ushın jaǵdaylar jaratıw; kognitiv (biliw) qızıǵıwshılıqlardı rawajlandırıw ilimiy dúńyaǵa kóz- qaras tiykarların tabıslı qáliplestiriw; qarım- qatnas mádeniyatın qáliplestiriw; óz- ózin baqlaw hám bahalawdı qáliplestiriw hám taǵı basqa [2].

Ye. S. Zair-Bektiń izertlew jumısında kásiplik kompetentliktiń qáliplesiwine qaratılǵan tómendegi kompetenciyalar anıqlanǵan:

- oqıtıw hám oqıtıw metodikası bilimin integraciyalaytuǵın kásip tálimi pedagogınıń arnawlı kompetenciyaları;
- maqsetli kompetenciya - pedagogtıń ulıwma kásiplik hám arnawlı kásiplik pánlerdi oqıtıw maqsetlerin anıqlay alıwı;
- mazmunlıq kompetenciya – ulıwma kásiplik hám arnawlı kásiplik pánlerdi oqıtıw mazmunın anıqlay alıw;
- monıtoringli kompetenciya - oqıtıw nátiyjelerin baqlay alıw.

Ilimpaz A. Shayusufova "Vitagen tálim oqıtıwda teoriya hám ámeliyatta úyqaslıǵın támiyinlew procesi subyektleriniń birgeliktegi xızmetin shólkemlestiriw ushın eń tuwrı jol bolıp, onda auditoriya hám óz betinshe tálim aralasıp ketedi. Subyekt- obyekt qatnasıqlarına golografikalıq qatnas úlken kólemdegi materiallardı ózlestiriw tiykarında vitagen tálimdi ámelge asırıwdan ibarat. Vitagen maǵluwmatlar tirishilik tájiriybeniń bir neshe basqishların óz ishine aladı; 1. Maǵlıwmatlar parıqlanbay qabıl etiledi. 2. Bahalawshı- filtrlewshi shaxs. 3. Qatań tártipke iye boliw- maǵlıwmatlar sanalı túrde yadlap qalıwǵa qaratılgan boladı"- degen pikirlerdi bildiredi [2].

Izertlew nátiyjelerin ulıwmalastırıp sonı aytıwımız múmkin, búgingi kúni joqarı bilimlendiriw sistemasında vitagen tálim múmkinshiliklerin keń kólemde qollanıw hám onıń metodologiyalıq tiykarların jetilistiriw áhmiyetli ámeliy áhmiyet talap etpekte. Talabalardı kásiplik iskerlikke tayarlawdıń strategiyalıq determinanti retinde, olardıń subyektiv turmıslıq tájiriybesin anıqlaw hám usı tájiriybe sheńberinde nazariy bilimlerin jetilistiriw joqarı nátiyjelilikke alıp keledi. Bul jantasıw talabanı bilimlendiriw procesiniń passiv obyekti emes, bálki óziniń bar bolǵan tájiriybesin jańa maǵlıwmatlar menen integraciya qılıwshı aktiv subyektine aylantıradı.

Turmıslıq tájiriybe hám ámeliy kónlikpelerdiń oqıw procesine sińdiriliwi tálimniń sapasın hám mazmunın fundamental jaqtan jaqsılawǵa xızmet etedi. Vitagen tálim texnologiyası studentlerdiń kognitiv belsendiligin arttırıw menen birge, olarda professional kompetentlik hám adaptivlik sıpatların qáliplestiredi. Yaǵnıy, student tek ǵana abstrakp teoriyalardı úyrenip qalmastan, bálki olardı real turmıslıq situaciyalarda qollanıw metodikasın da ózlestiredi. Bul bolsa, keleshekte miynet bazarında raqabátke shıdamlı kadrlar tayarlawdıń tiykarǵı jolı esaplanadı.

Usı sebepten, búgingi kúni hár bir zamanagóy pedagog vitagen tálim texnologiyasın túsiniwi, onıń metodikalıq apparatın erkin meńgergen bolıwı hám óziniń kásiplik iskerliginde bul texnologiyadan sistemalı túrde paydalanıwı kerek. Vitagen jantasıwdı bilimlendiriw procesine aktiv engiziw — bilimlerdiń "janlı" bolıwın, talabalardıń motivaciyalıq salasın bekkemlewdi hám tálim hám ámeliyat arasındaǵı "boslıqtı" saplastırıwdı támiyinleydi.

Paydalanǵan ádebiyatlar:

1.Белкин А. С., Жукова Н. К. (1999) Витагенное образование: голографический подход. Екатеринбург;

2.Шаюсупова А. "Замонавий таълимда витаген технологиялардан фойдаланиш" //Образование и инновационные исследования 2021. №5

3.Muslimov N.A vaboshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: «Sano-standart», 2015. 208-b.

4.Бордовская Н., Реян А. Педагогика. –Санкт-Петербург: 2001. С.32

5.Педагогика /А.Қ.Мунавваровнинг умум. таҳ. остида. – Т.: "Ўқитувчи", 1996. 200-б.

UDK: 37.013.43:39:37.014.5

ETNOMADANIYAT ASOSIDA O‘QUVCHILARNI ESTETIK JIHATDAN TARBIYALASHDA JAHON TAJRIBALARI TAHLILI

Bekbosinov Dinmuxammatdiyin Abíllaevich,
Nukus davlat pedagogika instituti assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada etnomadaniyat asosida o‘quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash masalasi jahon pedagogik tajribalari asosida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Turli mamlakatlarda milliy madaniyat, xalq ijodi, urf-odat va an’analar orqali estetik tarbiya berishning samarali mexanizmlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari etnomadaniy yondashuv o‘quvchilarda estetik did, milliy o‘zlikni anglash va madaniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: etnomadaniyat, estetik tarbiya, jahon tajribasi, milliy qadriyatlar, madaniy meros, o‘quvchi shaxsi.

АНАЛИЗ МИРОВОГО ОПЫТА ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ЭТНОКУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье научно-теоретически проанализирован вопрос эстетического воспитания учащихся на основе этнокультуры на основе мирового педагогического опыта. В разных странах изучены эффективные механизмы эстетического воспитания через национальную культуру, народное творчество, обычаи и традиции. Результаты исследования показывают, что этнокультурный подход является важным фактором формирования эстетического вкуса, национального самосознания и уважения к культурным ценностям у учащихся.

Ключевые слова: этнокультура, эстетическое воспитание, мировой опыт, национальные ценности, культурное наследие, личность учащегося.

ANALYSIS OF WORLD EXPERIENCE IN THE AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS BASED ON ETHNOCULTURE

Abstract: In this article, the issue of aesthetic education of students based on ethnoculture is analyzed from a scientific and theoretical point of view based on world pedagogical experience. Effective mechanisms of aesthetic education through national culture, folk art, customs, and traditions have been studied in various countries. The research results show that the ethnocultural approach is an important factor in the formation of aesthetic taste, national identity, and respect for cultural values in students.

Keywords: ethnoculture, aesthetic education, world experience, national values, cultural heritage, student personality.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, xususan, ularning estetik dunyoqarashini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Estetik tarbiya shaxsning go'zallikni his etishi, san'at va madaniyatga ongli munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda etnomadaniyat, ya'ni xalqning tarixiy-madaniy merosi, urf-odatlari, milliy san'ati va an'analari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy jahon ta'lim amaliyotida etnomadaniyat prizmasi orqali estetik tarbiya berish tendensiyasi globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlab qolishning strategik mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida milliy-madaniy merosni asrash va uni yosh avlodning qadriyatlar tizimiga integratsiyalash estetik tarbiyaning fundamental komponenti sifatida e'tirof etiladi. Ushbu maqolada xalqaro pedagogik tajribalarni qiyosiy tahlil qilish orqali etnomadaniy muhitda o'quvchilarning estetik didini shakllantirishning samarali yo'llari va konseptual modellari tadqiq etiladi.

Mazkur tadqiqot jarayonida tizimli-strukturaviy yondashuv, qiyosiy-pedagogik komparativistika, retrospektiv-tarixiy tahlil hamda pedagogik hodisalarni umumlashtirish va iyerarxik tizimlashtirish metodlaridan kompleks foydalanildi.

Tadqiqot davomida etnomadaniyat asosida estetik tarbiyani tashkil etishning quyidagi o'ziga xos xalqaro modellari aniqlandi va tizimlashtirildi:

Yaponiya tajribasi (an'anaviylik va zamonaviylik sintezi). Yaponiya ta'lim paradigmasida milliy san'at turlari (origami, ikebana, choy marosimi — "Sado") shunchaki amaliy mashg'ulot emas, balki shaxsning ichki uyg'unligini (Zen falsafasi) va estetik intuitsiyasini rivojlantiruvchi meditativ jarayon sifatida qaraladi. Bu orqali o'quvchilarda tabiat va jamiyat go'zalligini "mono no aware" (narsalarning g'amgin jozibasi) tamoyili asosida his qilish ko'nikmasi shakllantiriladi.

Finlyandiya tajribasi (fenomenologik va ijodiy yondashuv). Fin ta'lim modelida estetik idrok xalq og'zaki ijodi (Kalevala eposi), milliy musiqa va hunarmandchilik turlari orqali rivojlantiriladi. Bu yerda asosiy e'tibor o'quvchining erkin ijodiy faoliyatiga va estetik obyektlarni kundalik turmush bilan uyg'unlashtirishga (disayn-fikrlash) qaratiladi.

Janubiy Koreya tajribasi (milliy o'zlikni anglash va etika). Janubiy Koreyada an'anaviy liboslar (Hanbok), raqs (Buchaechum) va klassik musiqa orqali milliy o'zlikni anglash estetik tarbiyaning o'zagi hisoblanadi. Bu jarayon konfutsiychilik odobi bilan integratsiyalashgan bo'lib, go'zallik va axloqning birligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Fransiya tajribasi (muzey pedagogikasi va san'at loyihalari). Fransiyada estetik tarbiya "madaniy merosni o'zlashtirish" konsepsiyasiga tayanadi. Muzey pedagogikasi vositasida o'quvchilar jahon va milliy san'at durdonalari bilan bevosita muloqot qiladilar. Maktablarda san'at loyihalari (projets artistiques) orqali o'quvchilarning tanqidiy-estetik tafakkuri va badiiy didi rivojlantiriladi.

Turkiya tajribasi (sivilizatsiyalararo meros va qadriyatlar). Turkiya ta'lim tizimida Islomiy madaniyat, Usmonli imperiyasi me'morchiligi va xalq

amaliy san'ati (Ebru, xattotlik) asosida estetik tarbiya berish yo'lga qo'yilgan. Bu yondashuv o'quvchilarda tarixiy davomiylik hissini va milliy qadriyatlarga bo'lgan estetik hurmatni shakllantiradi.

Xalqaro pedagogik tajribalarning komparativ tahlili shuni ko'rsatadiki, etnomadaniyat estetik tarbiya tizimida nafaqat yordamchi vosita, balki ta'lim oluvchining ma'naviy-axloqiy va badiiy-estetik qiyofasini shakllantiruvchi universal didaktik platforma bo'lib xizmat qiladi. Etnomadaniyatning estetik tarbiyadagi imkoniyatlari o'quvchining kognitiv va affektiv sohalariga kompleks ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi. Bu jarayon zamonaviy pedagogikada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim subyektining individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, unda milliy va umumbashariy qadriyatlarga nisbatan estetik munosabatni shakllantirishni nazarda tutadi.

Jahon ta'lim amaliyotining tahliliy natijalari estetik tarbiya jarayonida milliy madaniyat elementlari — xalq og'zaki ijodi, amaliy san'at, milliy musiqa va an'analardan foydalanishning bir qator ustuvor yo'nalishlarini ochib beradi. Birinchidan, bu yondashuv o'quvchilarning badiiy-estetik didini rivojlantirib, ularda go'zallikni milliy o'ziga xoslik prizmasi orqali idrok etish layoqatini yuzaga chiqaradi. Ikkinchidan, etnomadaniy muhit ta'lim oluvchining madaniy identifikatsiyasini (cultural identity) ta'minlovchi eng muhim omil bo'lib, globallashuv sharoitida shaxsning o'z milliy ildizlariga sodiqligini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, etnomadaniy qadriyatlar asosida tashkil etilgan estetik faoliyat o'quvchining ijtimoiy moslashuvini (social adaptation) jadallashtiradi. Chunki milliy an'analar va estetik me'yorlar o'zida avlodlararo ijtimoiy tajribani mujassamlashtirgan bo'lib, o'quvchining jamiyatdagi ijtimoiy rollarni samarali egallashiga ko'maklashadi. Shu nuqtayi nazardan, etnomadaniyat asosidagi estetik tarbiya shunchaki san'at turlarini o'rgatish emas, balki shaxsning madaniy-ma'naviy yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion pedagogik strategiya sifatida e'tirof etilishi lozim [1].

Amerikalik pedagog va faylasuf Jon Dyui tomonidan ilgari surilgan progressiv ta'lim nazariyasiga ko'ra, ta'lim jarayoni o'quvchining real hayotiy faoliyati va shaxsiy madaniy tajribasi bilan uzviy bog'liqlikda tashkil etilgandagina kutilgan natijani beradi. Mazkur konseptual qarash etnomadaniyat asosida estetik tarbiya berishning pedagogik-psixologik mohiyatini fundamental darajada asoslovchi muhim omildir. Zero, Dyui ta'limotida bilim olish "hayotga tayyorgarlik" emas, balki "hayotning o'zi" sifatida talqin etiladi, bu esa estetik tarbiyani bevosita o'quvchi yashab turgan ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog'lash zaruratini keltirib chiqaradi.

Etnomadaniy yondashuv doirasida xalq amaliy san'ati, milliy urf-odatlar va asriy qadriyatlar o'quvchining kognitiv hamda hissiy olamiga eng yaqin bo'lgan estetik tajribani taqdim etadi. Akademik darsliklardagi mavhum tushunchalardan farqli o'laroq, etnomadaniyat elementlari o'quvchi uchun tushunarli, hayotiy va emotsional jihatdan yaqin bo'lgan vizual va ma'naviy obrazlar tizimidir. Masalan,

milliy hunarmandchilik namunalaridagi naqshlar yoki xalq kuylaridagi ritmik tuzilishlar o‘quvchida o‘z madaniy ildizlariga nisbatan faxr tuyg‘usini uyg‘otish bilan birga, unda estetik obyektni "ichkaridan" his qilish va tushunish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, estetik tarbiya jarayoniga etnomadaniy komponentlarning kiritilishi ta’limning hayotiylik (pragmatizm) tamoyilini ta’minlaydi. Bu esa o‘quvchida go‘zallikni faqat muzey yoki ko‘rgazmalardagi alohida hodisa emas, balki o‘z turmush tarzi, milliy qadriyatlari va ijtimoiy muloqotining ajralmas qismi sifatida idrok etish layoqatini yuzaga chiqaradi. Natijada, estetik tarbiya nazariy bilimlardan amaliy hayotiy ko‘nikmalar va qadriyatlar tizimiga transformatsiya bo‘ladi [2].

Yevropa ta’lim makonida, xususan, Fransiya va Finlyandiya pedagogik tizimlarida estetik tarbiya jarayoni madaniy meros ob’ektlari bilan polifunksional integratsiyalashuv tamoyili asosida tashkil etiladi. Zamonaviy tadqiqotchilar va pedagog-komparativistlarning xulosalariga ko‘ra, madaniy meros shunchaki o‘tmish yodgorligi emas, balki o‘quvchi shaxsining badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantiruvchi faol didaktik muhit sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu mamlakatlar tajribasida muzey pedagogikasi va xalq amaliy san’ati elementlaridan foydalanish o‘quv jarayonining vizuallashuvi va hissiy boyishini ta’minlaydi. Muzey muhitida tashkil etilgan darslar o‘quvchida san’at asari bilan bevosita muloqot qilish, uning tarixiy-madaniy kontekstini his etish hamda estetik ob’ektni tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim oluvchilarda obrazli tafakkurni (visual thinking) hamda san’at namunalarini mustaqil ravishda estetik baholash ko‘nikmalarini fundamental darajada rivojlantiradi.

Xususan, Finlyandiya ta’lim modelida milliy hunarmandchilik va amaliy san’at darslari "qo‘l mehnati orqali intellektni rivojlantirish" konsepsiyasiga tayanadi. Fransiya tajribasida esa muzeylar maktab o‘quv dasturining uzviy davomi — ochiq osmon ostidagi laboratoriya vazifasini o‘taydi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarda nazariy estetik bilimlarning amaliy badiiy ko‘nikmalarga aylanishini ta’minlaydi va ularda milliy madaniyatga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantiradi [3].

Sharq pedagogik tafakkuri va ta’lim falsafasining o‘ziga xosligi shundaki, u estetik tarbiyani shaxsning axloqiy va ma’naviy yetukligi bilan bir butunlikda (sinkretik tarzda) ko‘rib chiqadi. Bu borada Yaponiya ta’lim modeli jahon pedagogikasi uchun "an’anaviylik va innovatsiya" simbiozining eng muvaffaqiyatli namunasi hisoblanadi. Yaponiya ta’lim tizimida milliy etnomadaniyat elementlari shunchaki qo‘shimcha mashg‘ulot emas, balki shaxsning dunyoqarashini shakllantiruvchi fundamental vositadir.

Yapon maktablarida an’anaviy san’at turlarining didaktik vazifalari quyidagicha tahlil qilinadi:

Ikebana (gullar san’ati). O‘quvchilarda tabiat bilan muloqot qilish, ranglar va shakllar uyg‘unligini his etish orqali estetik intuitsiyani rivojlantiradi. Bu jarayon o‘quvchini atrof-muhitdagi nozik go‘zallikni payqashga va unga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi.

Origami (qog‘oz buklash san’ati). Ushbu mashg‘ulot matematik aniqlik, diqqatni jamlash (kontsentratsiya) va nozik motorikani rivojlantirish bilan birga, oddiy narsadan murakkab va go‘zal asar yaratish orqali kreativ tafakkurni shakllantiradi.

Choy marosimi (Sado). Bu an’ana o‘quvchilarda ichki uyg‘unlik, xotirjamlik va o‘zaro hurmat kabi etik-estetik qadriyatlarni tarbiyalaydi. Choy marosimi jarayonidagi har bir harakat tartibi (ritm) o‘quvchida intizom va estetik me’yorlarni hayotiy ko‘nikmaga aylantiradi.

Binobarin, Sharqona yondashuvda etnomadaniyat orqali beriladigan estetik tarbiya o‘quvchini nafaqat san’atni tushunishga, balki "go‘zallik ichida yashash" va milliy madaniy kodlarni asrashga yo‘naltiradi. Bu tajriba ta’limda vizual savodxonlikni oshirish va milliy o‘zlikni anglashni ta’minlashda yuqori pedagogik samaradorlikka ega [4].

Rus pedagog-olim va faylasufi B.T. Lixachyov o‘zining fundamental tadqiqotlarida estetik tarbiyani shaxs ma’naviy kamolotining ajralmas va tizimli qismi sifatida talqin etadi. Uning konseptual yondashuviga ko‘ra, milliy madaniyat shaxsning estetik ongi va badiiy dunyoqarashini shakllantiruvchi bazaviy omil (determinanta) bo‘lib xizmat qiladi. Lixachyov estetik tarbiyani shunchaki tashqi ta’sir emas, balki insonning ichki ma’naviy dunyosini boyituvchi kognitiv-affektiv jarayon sifatida baholaydi.

Ushbu nazariya doirasida xalq og‘zaki va amaliy ijodi, milliy san’at namunalari hamda etnomadaniy an’analarga tayangan tarbiya o‘quvchining estetik ehtiyojlarini barqaror shakllantirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Lixachyovning fikricha, milliy-madaniy meros o‘zida avlodlararo estetik tajribani mujassamlashtirgan bo‘lib, o‘quvchining hissiy-irodaviy sohasiga ta’sir ko‘rsatadi va unda atrofdagi voqelikni go‘zallik qonuniyatlari asosida tahlil qilish ko‘nikmasini yuzaga chiqaradi.

B.T. Lixachyovning mazkur nazariy qarashlari jahon ta’lim amaliyotida (xususan, Yaponiya, Finlyandiya va Fransiya tajribalarida) qo‘llanilayotgan etnomadaniy modellarining ilmiy jihatdan asoslanganligini hamda pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi. Bu yondashuv estetik tarbiyaning universalligini milliy o‘ziga xoslik bilan uyg‘unlashtirib, o‘quvchini nafaqat san’at muxlisi, balki boy madaniy merosning faol tashuvchisi va davomchisi sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi [5].

Shuningdek, UNESCO tomonidan ilgari surilgan “Madaniyat orqali ta’lim” konsepsiyasida etnomadaniyatning ta’limdagi roli alohida e’tirof etilgan. Mazkur hujjatlarda madaniy xilma-xillikni saqlash va yosh avlodni estetik jihatdan tarbiyalash global ta’limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan [6]. Bu esa etnomadaniyat asosida estetik tarbiya berishning nafaqat milliy, balki umuminsoniy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Demak, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, jahon tajribalarida etnomadaniyatga tayangan estetik tarbiya o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvni milliy ta’lim tizimiga

moslashtirish orqali o‘quvchilarda estetik did, madaniy ong va ijodiy tafakkurni shakllantirish mumkin.

O‘tkazilgan ilmiy-nazariy tahlillar shundan dalolat beradiki, etnomadaniyat asosida o‘quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash zamonaviy ta’lim jarayonining muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon ta’lim tajribalarini o‘rganish natijasida milliy madaniyat, xalq ijodi, urf-odat va an’analarni ta’lim mazmuniga integratsiya qilish o‘quvchilarda estetik did, madaniy ong va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalari etnomadaniy yondashuv estetik tarbiyani shaxsning ma’naviy-axloqiy rivoji bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirish imkonini berishini ko‘rsatdi. Xususan, xalq san’ati va madaniy merosga tayangan tarbiyaviy faoliyat o‘quvchilarning estetik idrokini chuqurlashtirib, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini mustahkamlaydi. Bu jarayon o‘quvchilarda madaniy identifikatsiya va ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jahon ta’lim amaliyotining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, etnomadaniyat asosida estetik tarbiya berish jarayonida interfaol pedagogik metodlar, loyihaviy faoliyat va muzey pedagogikasi texnologiyalaridan foydalanish yuqori didaktik samaradorlikni ta’minlaydi. Bunday yondashuvlar ta’lim jarayonini an’anaviy axborot uzatish shaklidan faol bilish va ijodiy izlanish bosqichiga olib chiqadi. Xususan, san’atga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari o‘quvchining nafaqat vizual savodxonligini oshiradi, balki unda estetik obyektlarni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda o‘quvchi shunchaki kuzatuvchi emas, balki milliy qadriyatlarni qayta anglovchi va o‘z ijodida aks ettiruvchi faol estetik subyekt sifatida shakllanadi. Loyihaviy faoliyat esa o‘quvchilarga etnomadaniy meros namunalarini zamonaviy kontekstda qayta ishlash imkonini berib, ularning ijodiy tafakkurini kengaytiradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, etnomadaniyat asosida o‘quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash bo‘yicha ilgari jahon tajribalarini milliy ta’lim tizimimizning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirgan holda tatbiq etish strategik pedagogik ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvni ta’lim amaliyotiga integratsiya qilish orqali nafaqat o‘quvchilarning estetik didi va badiiy dunyoqarashini boyitish, balki ularda kuchli madaniy identifikatsiya va ma’naviy barkamollikni shakllantirish imkoniyatlari yuzaga keladi. Jahon ta’lim modellarining eng maqbul jihatlarini milliy qadriyatlarimiz bilan uyg‘unlashtirish, yosh avlodni o‘z madaniy ildizlarini qadrlaydigan, shu bilan birga global madaniy muhitda erkin muloqot qila oladigan ijodiy shaxs sifatida kamol toptirishning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh.A. Estetik tarbiya nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 45–48-betlar.

2. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – pp. 25–27.
3. Sahlberg P. Finnish Lessons 2.0. – New York: Teachers College Press, 2015. – pp. 112–115.
4. Sugimoto Y. An Introduction to Japanese Society. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – pp. 164–168.
5. Лихачёв Б.Т. Теория эстетического воспитания. – Москва: Педагогика, 1985. – 72–76-бетлар.
6. UNESCO. Education through Culture. – Paris: UNESCO Publishing, 2018. – pp. 9–12.

UDK:37.026.9

4-SINFDA O‘QIB TUSHUNISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIIY ASAR MATNLARNING AHAMIYATI

Abdijamilova Mahfuza Maxmudovna,
Nukus davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim, xususan, 4-sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda badiiy asar matnlari bilan ishlashning pedagogik ahamiyati tadqiq etiladi. Tadqiqotda o‘quvchilarning kognitiv jarayonlarini faollashtirishda innovatsion ta’lim texnologiyalari, xususan, Blum taksonomiyasi iyerarxiyasiga asoslangan yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilingan. Maqolada badiiy matnni tahlil qilish orqali o‘quvchilarda axborotni analiz va sintez qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish hamda matnning g‘oyaviy-badiiy mohiyatini anglash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘qib tushunish malakasi, badiiy matn tahlili, boshlang‘ich ta’lim didaktikasi, kognitiv rivojlanish, Blum taksonomiyasi, analiz va sintez, nutqiy kompetensiya, mantiqiy tafakkur, innovatsion metodika.

ЗНАЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ ПОНИМАНИЯ ПРОЧИТАННОГО В 4-Х КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье исследуется педагогическая значимость работы с художественными текстами в развитии компетенции понимания прочитанного у учащихся начальных классов, в частности, 4-х классов. В исследовании анализируется эффективность подходов, основанных на иерархии таксономии Блума, в активизации когнитивных процессов учащихся. В статье освещается методика формирования у учащихся навыков анализа и синтеза информации, построения логических выводов и понимания идейно-художественной сути текста через анализ художественных произведений.

Ключевые слова: навык понимания прочитанного, анализ художественного текста, дидактика начального образования, когнитивное развитие, таксономия Блума, анализ и синтез, речевая компетенция, логическое мышление, инновационная методика.

THE IMPORTANCE OF LITERARY TEXTS IN DEVELOPING READING COMPREHENSION SKILLS IN THE 4TH GRADE

Abstract. This article examines the pedagogical significance of working with literary texts in developing reading comprehension competence among primary school students, specifically in the 4th grade. The research analyzes the

effectiveness of approaches based on Bloom's taxonomy hierarchy in activating students' cognitive processes. The article highlights the methodology of forming skills for analyzing and synthesizing information, drawing logical conclusions, and understanding the ideological and artistic essence of the text through the analysis of literary works.

Keywords: reading comprehension skill, literary text analysis, primary education didactics, cognitive development, Bloom's taxonomy, analysis and synthesis, speech competence, logical thinking, innovative methodology.

Yurtimiz ta'lim sohasida olib borilayotgan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha jabhalarini zamonaviy innovatsiyalar bilan boyitish bilan bir qatorda ularni amaliyotda qo'llash zarurligini talab qilmoqda, qolaversa kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni har tomonlama intelektual salohiyatli, ilimli shaxs qilib tarbiyalashda ta'lim tizimida berilayotgan bilim, malaka va ko'nikmalarning ahamiyati juda dolzarb ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarlarni o'qish va o'rganish orqali savodxonligini rivojlantirish, badiiy tajriba orttirishga imkon yaratadi. Bu maqolada, metodikada o'qish savodxonligini shakllantirish qanchalik dolzarb va ahamiyatli mavzu ekanligini hisobga olgan holda Ona tili va O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning o'qib tushunish malakasini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha badiiy asarlardan topshiriqlar keltirib o'quvchilarning badiiy asardan olgan tajribasini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, o'qish savodxonligi malakasining shakllanganlik darajasini aniqlashda badiiy asar matnlari orqali tuzilgan topshiriqlar dolzarb ahamiyatga ega, qolaversa jahon ta'limi tizimida joriy qilingan

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro baholash dasturi zamonaviy boshlang'ich ta'lim tizimini transformatsiya qilishda strategik metodologik baza bo'lib xizmat qiladi. Ushbu dastur doirasida o'quvchilarning o'qish savodxonligini yuksak darajada rivojlantirish nafaqat akademik o'zlashtirishni, balki shaxsning axborotli jamiyatda mustaqil faoliyat yuritish kompetensiyasini ham belgilab beradi. PIRLS tadqiqotlarining o'ziga xosligi shundaki, u yosh o'quvchilarning mutolaa faoliyatini ikki yirik konseptual yo'nalishga, ya'ni badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish maqsadlariga yo'naltiradi. Birinchi yo'nalishda o'quvchi badiiy matn bilan muloqot qilish orqali estetik zavq olishni va qahramonlar dunyosi orqali hayotiy tajribasini boyitishni o'rgansa, ikkinchi yo'nalish olingan bilimlarni tahlil qilish va ularni kundalik hayotdagi muammolarni hal etishda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi.

Ushbu jarayonlarning samarali amalga oshirilishi PIRLS tomonidan belgilangan to'rtta iyerarxik tushunish jarayonining o'zaro uyg'unligiga bevosita bog'liqdir. Bunda dastlab o'quvchining diqqatni jamlash va matnda aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni qidirib topish layoqati sinovdan o'tkaziladi, bu esa kognitiv tahlilning poydevori hisoblanadi. Keyingi bosqichda o'quvchi matndagi turli elementlar o'rtasida mantiqiy bog'liqlik o'rnatish orqali to'g'ridan-to'g'ri

xulosalar chiqarish darajasiga ko‘tariladi. Jarayonning murakkablashishi bilan o‘quvchidan g‘oyalar va mavjud axborotni o‘zining hayotiy tushunchalari bilan integratsiya qilish, ularni talqin etish hamda uyg‘unlashtirish talab etiladi. Nihoyat, o‘qish savodxonligining eng yuqori darajasi sifatida o‘quvchi matnning kontenti, muallif uslubi va tuzilish elementlarini tanqidiy baholash, ularga nisbatan o‘zining shaxsiy munosabatini bildirish layoqatiga ega bo‘ladi. Binobarin, PIRLS tizimi o‘quvchilarni shunchaki matnni takrorlovchi emas, balki chuqur tahlil qiluvchi, mantiqiy xulosa chiqaruvchi va mustaqil fikrlovchi kognitiv shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi [1].

Badiiy matnlar nafaqat badiiy adabiyotda aks etgan voqealar, harakatlar va ularning oqibatlari haqida ma’lumot beruvchi vosita, balki o‘quvchilarda obyektiv borliqni estetik idrok etish, voqelikni tasavvur qilish va sodir bo‘layotgan vaziyatlarni emotsional his qilish layoqatini shakllantiruvchi fundamental manba hisoblanadi. Badiiy asar mutolaasi jarayonida o‘quvchining ichki dunyosida kechadigan psixologik transformatsiyalar unda hayotiy vaziyatlarni modellashtirish va amaliy ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik metodika talablariga ko‘ra, ta’lim tizimidagi ustuvor vazifa o‘quvchini ona tilining boy xazinalari bilan ongli ravishda tanishtirishdan iboratdir. Bu jarayonda asosiy sifat ko‘rsatkichi sifatida an’anaviy "o‘qish tezligi" emas, balki kognitiv tahlilga asoslangan "tushunish tezligi" e’tirof etiladi.

Badiiy matn bilan ishlashda mustaqil mutolaa mashqlarining tizimli tashkil etilishi o‘quvchining intellektual salohiyatini yuzaga chiqaruvchi asosiy omildir. Mashhur metodist olim M.R. Lvov ta’kidlaganidek, matn tarkibidagi turli lisoniy hodisalar va leksik birliklarning mazmuniy qatlamlarini tizimli o‘rganish o‘quvchilarda nafaqat til boyligini oshiradi, balki mustaqil tahlil qilish hamda voqelikning tub mohiyatini "anglash" ko‘nikmalarining shakllanishiga zamin yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, badiiy matn tahlili didaktik jarayonda shunchaki o‘qish mashqi emas, balki o‘quvchining mantiqiy tafakkurini, emotsional intellektini va estetik didini yagona maqsad yo‘lida birlashtiruvchi murakkab kognitiv faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv o‘quvchini matn ustida ongli ishlashga yo‘naltirib, unda muallif maqsadini tushunish, asar qahramonlari harakatini baholash va olingan axborotni shaxsiy tajriba prizmasidan o‘tkazish mahoratini shakllantiradi [2].

O‘qish savodxonligini shakllantirishga oid xorijiy yondashuvlar bilan tanishish jarayonida o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani uyg‘ota olish, o‘qish jarayonining maroqli o‘tishini ta’minlash, biror ma’lumotni o‘zlashtirish va unga ko‘ra, biror amaliy topshiriqni bajara olishga erishish, bolalarga fonetika, akustika, lug‘at boyligi, tez o‘qish, anglash va mustaqil o‘qiy olish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan turli metodik usullarni ishlab chiqish, kichik yoshdagi bolalarga mustaqil o‘qiy olishni o‘rganish uchun muayyan vaqt berish, bolalarni yuqori sifatli turli janrlarga oid bo‘lgan adabiyotlar bilan ta’minlash, o‘quvchining lug‘at boyligini oshirishga, unda mavjud tushunchalar va

bilimlar bilan bog‘liqlikni ta’minlab beruvchi mazmunga ega bo‘lgan matnlardan foydalanishga oid samarali tavsiyalar berilgan.

Bundan tashqari biz tadqiqot ishlarimiz jarayonida qadimgi faylasuflardan biri D.Didroning ilmiy nazariy ko‘z-qarashlariga ham e’tibor qaratganimizda “Mutolaa qilishdan to‘xtagan inson o‘ylashdan ham to‘xtaydi” [3]. Shuning uchun ko‘p yillardan buyon turli mamlakatlarning olimlari va pedagoglari o‘quvchilar uchun o‘qish jarayonini qiziqarli va samarali olib borish masalasida bosh qotirib kelganlar. Bu esa yillar davomida o‘qish jarayonini qanday tashkillashtirish mumkinligi, matn bilan ishlashda qanday strategiyalarni qo‘llash zarurligi yuzasidan bir qancha ilmiy xulosa va tavsiyalarning ishlab chiqilishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, badiiy matnlar ustida ishlashda “Assotsiatsiyalar to‘ri”, “Nuqtayi nazaring bo‘lsin”, “To‘xtamlar yordamida o‘qish”, “Qaydlar yordamida o‘qish”, “Kalit so‘zlar”, “Hikoyani tartibga keltiring” kabi innovatsion usullardan foydalanish yaxshi samara beradi.

O‘rganishlarimiz davomida yillar o‘tishi bilan mazkur malakaning qanchalik muhimligi, o‘qish savodxonligining mavjudligi insonning yuksalishi, jamiyatda o‘z o‘rinini topishida beqiyos ahamiyatga ega ekani soha mutaxassislari tomonidan yanada chuqurroq anglanganini va har bir davrning metodist olimlari, pedagog va psixologlari tomonidan alohida metodik muammo sifatida o‘rganilayotgani ma’lum bo‘ldi. Shu bois o‘qish jarayoni bilan bog‘liq atama ham har tomonlama mukammal shaklga keltirildi. Endilikda u o‘quvchining harf tanish va matnda berilgan turli grafemalarni o‘zaro bog‘lagan holda so‘z shakliga keltirib talaffuz eta olish ko‘nikmasi degan tushunchadan ancha keng ma’nodagi tushunchaga aylangan.

Ayniqsa 4-sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirishdan ko‘zlangan yana bir maqsad axborotlarni o‘zlashtirish va undan foydalanish bilan bog‘liq amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish sanaladi. Shu ma’noda til ta’limida aynan shunday mazmunga ega bo‘lgan matnlar badiiy va ilmiy matnlar bilan tanishish, ular ustida ishlashga doir topshiriqlar berilgan.

Biz tahlillarimiz jarayonida boshlang‘ich 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligidagi bir qator materiallarni diqqatimizni qaratganmiz, masalan 2023-yil “Novda” nashiryoti tomonidan chiqarilgan darslikning 4-qism 5-sahifasining 1-bo‘limi “Manguga muhrlanganlar” deb nomlangan, 1-mavzusi “Yerga chizilgan rasm”[4] nomli rivoyat keltirilgan. Bu rivoyatni o‘qishdan oldin o‘quvchilar rassomlik san’ati haqida qisqacha ma’lumotga ega bo‘lishi uchun qisqa ko‘rinishda buyuk musavvir rassom haqida ma’lumotga ega bo‘ladi, nafaqat rassom bilan balki rassaomlik san’ati bilan ham tanishib o‘tadi. Bu orqali o‘quvchilarda kasbga oid bilimlar shakllantiriladi. O‘qish savodxonligi darslarida matnni o‘qib berish emas, balki o‘quvchilarda ezgulikni qadrlash, xalq og‘zaki ijodiga mehr uyg‘otish, mustaqil fikrlash va nutqiy rivojlanishni ham ta’minlashdan iboratdir.

Badiiy asar matnlari o‘quvchilarning nafaqat lug‘at boyligini oshiradi balki, nutqini rivojlantiradi hamda mustaqil fikrlashga undaydi. Ertak, hikoya, she’r va rivoyatlar orqali o‘quvchilar hayotiy voqealarni, ijobiy va salbiy xatti-harakatlarni

farqlashni o‘rganadilar shuningdek qahramonlar timsolida yaxshilik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirishdan ko‘zlangan yana bir maqsad axborotlarni o‘zlashtirish va undan foydalanish bilan bog‘liq amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish sanaladi. Shu ma’noda til ta’limida aynan shunday mazmunga ega bo‘lgan matnlar bilan tanishish, ular ustida ishlash bo‘yicha bir qator mutaxassislarning quyidagicha ilmiy ko‘z qarashlarini keltirib o‘tishimiz mumkin:

1. Media-matnlarni tahlil qilish, tanqidiy anglash va yaratish;
2. Media-mahsulotlarning manbalarini (siyosiy, iqtisodiy, madaniy) topish, xususiyatlarini aniqlash va ularning asl mazmun-mohiyatini o‘rganish;
3. Media-mahsulotni tushunish;
4. Shaxsiy media-mahsulotlarni yaratish, tarqatish va ularga qiziqadigan auditoriyaga ega bo‘lish;
5. O‘rganish hamda yaratilgan mahsulotning hayot tarzini aniqlash [4].

Shuningdek, mazkur tadqiqotda o‘qish savodxonligi bilan bog‘liq ko‘nikmalar, albatta, maxsus ko‘rsatmalar asosida shakllanishi haqida salmoqli fikrlarni keltiradi. Kitobni mustaqil shaklda mutolaa qiluvchining har birida turli vaziyatlarda qanday mazmundagi kitobga murojaat qilish, dunyoda ushbu mavzuga oid qanday kitoblar borligi haqida ma’lumotga ega bo‘lish, bir qancha variantlar ichidan to‘g‘ri tanlovni amalga oshira olish, kitob mazmunini o‘qish, uning mazmuni va g‘oyasini anglash ana shunday ko‘rsatmalar sirasida keltiriladi.

Haqiqatan, o‘qish savodxonligini shakllantirish alohida yondashuvni talab qiluvchi jarayon bo‘lib, uning samarali kechishi nafaqat maqsadli metodik tadbirlarning tashkillashtrilishi, balki o‘quvchi, o‘qituvchi va matn bilan bog‘liq bir qancha muhim omillar ta’sirida ro‘y beradi.

O‘qish savodxonligini shakllantirish jarayoni ko‘pqirrali pedagogik tizim bo‘lib, uning samaradorligi bir qator strategik va ijtimoiy-muhitga bog‘liq omillarning o‘zaro uyg‘unligiga tayanadi. Eng avvalo, ta’lim tizimidagi o‘quv dasturlarining o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi ushbu jarayonning fundamental asosini tashkil etadi. Bunda nafaqat maktab muhiti, balki ota-onalarning ta’lim maqsadlari atrofida birlashishi va o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayoniga faol jalb etilishi muhim ijtimoiy drayver bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim jarayoni kechadigan makon, xususan, maktab, sinfxonasi va kutubxonalarda jonli o‘quv muhitini yaratish, bolalar uchun maxsus asarlar ko‘rgazmasi, soddalashtirilgan diagramma va devoriy gazetalar hamda sinf kutubxonalarini tashkil etish o‘quvchining mutolaaga bo‘lgan qiziqishini vizual va moddiy jihatdan rag‘batlantiradi.

O‘qituvchining dars jarayonida o‘qish savodxonligiga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim strategiyalaridan unumli foydalanishi, qo‘shimcha metodik qo‘llanmalar va to‘garak mashg‘ulotlarida kompleks shakldagi matnli topshiriqlarni qo‘llashi o‘quvchilarda tahliliy fikrlashni shakllantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Shu bilan birga, jarayonning natijadorligini ta’minlash uchun monitoring va muntazam nazorat tizimining mavjudligi, o‘quvchilarga matndan

foydalanishning turli usullarini bosqichma-bosqich o‘rgatib borish pedagogik ahamiyat kasb etadi. O‘qishga bo‘lgan qiziqishni barqarorlashtirishda har bir o‘quvchining xonadonida shaxsiy kutubxonasi bo‘lishiga erishish va bu ko‘nikmalarni poydevorini maktabgacha ta’lim davridayoq shakllantirish lozim. Yakuniy natijada o‘quvchilarni turli ijodiy tanlov va ma’rifiy tadbirlarga jalb etish orqali ularning mutolaaga bo‘lgan intilishlarini doimiy rag‘batlantirish o‘qish savodxonligini yuksak darajaga ko‘tarish imkonini beradi.

Xususan, o‘qib tushunish malakasini shakllantirishning eng muhim jihatlardan biri bu – matn tanlash ekanini qayd etishgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun har qanday shakl va mazmunga ega matnlarni tanlash va ularni ta’lim jarayoniga olib kirish mumkin emasligini, shu sababli ushbu jarayonda muayyan mazmunga ega bo‘lgan tavsiyalarning ishlab chiqilishiga ehtiyoj borligini angladik.

Mavzu bilan bog‘liq manbalar o‘rganilganda har qanday ta’lim vositasini tanlashning o‘ziga xos mezoni mavjud bo‘lganidek, matn tanlashda ham e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan jihatlar mavjud. Bunda quyidagilarni hisobga olish kerakligi alohida ta’kidlanadi:

o‘quvchilarning mavjud bilim darajasi;

matnning hajmi va mazmuni;

ushbu matn orqali qaysi ko‘nikmani shakllantirish maqsad qilib olingani;

darsning umumiy maqsadi va ushbu maqsadning qancha qismi o‘qish savodxonligini shakllantirishga qaratilgani;

o‘quvchilarning yoshi, jinsi, millati, qaysi mamlakatda istiqomat qilayotgani, qiziqishlari;

matnning uslubi va ushbu uslub bilan bog‘liq savol va topshiriqlarni ishlab chiqa olish imkoniyatining borligi [5].

Xulosa qilib aytganda, bitiruvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish malakalarini rivojlantirishda badiiy asar matnlarining mazmuni va ular bo‘yicha berilayotgan topshiriqlar o‘quvchilarning tilga oid bilimlarini boyitish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

2. Львов М.Р. Методика преподавания русского языка в начальных классах // В.Г. Горецкий, М.Р Львов, О.В. Сосновская. – М.: Академия, 2012. – 15 с.

3. Дидро Д. Избранные атеистические произведения [Текст] // Д. Дидро; пер. Д.И. Ириновой. – М.: Издательство Академии наук СССР, 1956. – 475 с.

4. Aydarova U.B., Azizova N.K. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. IV qism. Edutainment, 2023y. 80 bet.

UDK 338.48:28(575.1)

O‘ZBEKISTONDA HALOL TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Saydaliyeva Go‘zalxon,
“Profi University” devonxona mudiri, “Turizm” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekistonda halol turizmni rivojlantirishning hozirgi holati va istiqbollari tahlil qilingan. Jahon turizm bozorida musulmon sayyohlar segmentining jadal o‘sishi, ularning ehtiyojlari va xulq-atvori statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning Global Muslim Travel Index reytingidagi o‘rni, mamlakatda olib borilayotgan turizm sohasidagi islohotlar, halol turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: halol turizm, musulmon sayyohlari, turizm infratuzilmasi, Global Muslim Travel Index, turizm industriyasi, O‘zbekiston turizmi.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ХАЛЯЛЬНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной научной статье проанализировано текущее состояние и перспективы развития халяльного туризма в Узбекистане. Рассмотрено стремительное развитие сегмента мусульманских туристов на мировом туристическом рынке, их потребности и поведение на основе статистических данных. Кроме того, проанализированы позиции Узбекистана в рейтинге Global Muslim Travel Index, проводимые в стране реформы в сфере туризма, а также мероприятия по развитию инфраструктуры халяльного туризма.

Ключевые слова: халяльный туризм, мусульманские туристы, туристическая инфраструктура, Global Muslim Travel Index, туристическая индустрия, туризм в Узбекистане.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF HALAL TOURISM IN UZBEKISTAN

Abstract. This scientific article provides analysis of the current state and prospects for the development of halal tourism in Uzbekistan. It examines the rapid growth of the Muslim tourist segment in the global tourism market, their needs, and behavior based on statistical data. Furthermore, the article analyzes Uzbekistan’s position in the Global Muslim Travel Index, ongoing tourism reforms in the country, and measures taken to develop halal tourism infrastructure.

Keywords: halal tourism, Muslim tourists, tourism infrastructure, Global Muslim Travel Index, tourism industry, Uzbekistan tourism.

Bugun mamlakatimizda zamon talablariga javob beradigan turizm infratuzilmasini tarkib toptirish va rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar o‘zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. 2025 yil 26 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida keyingi besh yilda xorijiy turistlar sonini 2 karra – 11 million nafardan 20 million nafarga oshirish, turizm xizmatlari hajmini esa 20 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha katta marra olayotganimiz, shu maqsadda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratayotganimiz ta’kidlab o‘tdilar. 2025-yilda yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni 11 milliondan oshib, turistik xizmatlar eksporti 4,8 milliard dollarga yetdi, shuningdek, vizasiz tartib joriy etilgan davlatlarning soni 94 taga ko‘paydi [1]. Shunday qilib, bugungi kunda O‘zbekistonda turizm biznesini takomillashtirish maqsadida turizm industriyasini keng taraqqiy ettirish va tashrif buyurayotgan xorijiy turistlar oqimini yanada ko‘paytirish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bugungi kunda jahon turizm bozorida musulmon iste’molchilar segmenti eng dinamik rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Dunyo bo‘ylab musulmon aholisining soni 2 mlrd kishidan oshgan bo‘lib, ularning qariyb 50 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Ushbu "demografik dividend" nafaqat son jihatidan, balki sifat jihatidan ham turizm industriyasini o‘zgartirmoqda: yangi avlod sayyohlari (Millennials va Gen Z) raqamli texnologiyalardan faol foydalanuvchi, yuqori xarid qobiliyatiga ega va o‘z e’tiqodiy qadriyatlariga mos keluvchi "smart-halol" xizmatlarni afzal ko‘radigan qatlamdir.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda xalqaro miqyosda sayohat qilgan musulmon sayyohlar soni 160 mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2028-yilga kelib bu ko‘rsatkich 230 mln kishiga yetishi prognoz qilinmoqda [2]. Bu o‘sish sur’ati halol turizm industriyasining global iqtisodiyotdagi ulushini yanada oshirib, uning yillik bozor hajmini 260 milliard AQSh dollaridan yuqori darajaga olib chiqdi. Bunday ulkan iqtisodiy salohiyat nafaqat Islom dunyosi davlatlarini, balki Yevropa va Osiyoning g‘arbiy mamlakatlarini ham ushbu segment uchun kurashishga undamoqda.

Halol turizm (yoki *Muslim-friendly tourism*) tushunchasi mazmunan keng qamrovli bo‘lib, u shunchaki "ruxsat etilgan" oziq-ovqat bilan cheklanmaydi. Bu – sayyohning safar davomida o‘z e’tiqodiy ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishi uchun yaratilgan kompleks ekotizimdir. Uning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

halol ovqatlanish (Halal Food) - barcha mahsulotlar va ularni tayyorlash jarayonlarining Shariat me’yorlariga (alkogol va cho‘chqa go‘shtisiz) muvofiqligi;

ibodat sharoitlari - mehmonxonalar, aeroportlar va savdo markazlarida namozxonalar hamda tahorat olish uchun qulayliklarning mavjudligi;

infratuzilmaviy xizmatlar - ayollar va erkaklar uchun alohida suzish havzalari, fitnes zallari va sog‘lomlashtirish markazlari (SPA);

etika va muhit - oilaviy qadriyatlarga asoslangan, ko‘ngilochar dasturlarda nomaqbul elementlar mavjud bo‘lmagan muhit.

Hozirgi vaqtda Turkiya, Malayziya, BAA va Misr kabi davlatlar halol turizm infratuzilmasini yaratishda jahon yetakchilari hisoblanadi. Biroq O‘zbekiston o‘zining boy islomiy merosi, tarixiy shaharlari (Buxoro, Samarqand, Xiva) va buyuk allomalari bilan bu bozorda kuchli raqobatdosh bo‘lish imkoniyatiga ega. Global Muslim Travel Index (GMTI) reytingida O‘zbekistonning o‘rni yildan-yilga yuksalib borayotgani mamlakatimizning halol turizm markazlaridan biriga aylanish istiqbolini yanada mustahkamlamoqda.

Natijada, halol turizmni rivojlantirish nafaqat sayyohlar oqimini ko‘paytiradi, balki mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy servis standartlarini xalqaro darajaga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi xususiyatlarga qo‘shimcha ravishda, Halol mehmonxona va dam olish joylarida maxsus ibodatxonalari, hattoki masjidlari ham bo‘ladi va namoz vaqtlari e’lon qilinadi. Shuningdek, mehmonlarga Islom tarixi bilan bog‘liq qadamjolarga maxsus ekskursion dasturlar taklif etiladi. Kechqurungi vaqtda esa Islom normalari doirasida o‘yin-kulgi va tadbirlar tashkil etiladi.

Global Muslim Travel Index (GMTI) — bu dunyo bo‘ylab musulmon sayyohlari uchun mamlakatlarning qay darajada qulay ekanligini belgilovchi eng nufuzli va tan olingan reyting tizimidir. MasterCard va CrescentRating tomonidan har yili e’lon qilinadigan ushbu hisobot mamlakatlarni **ACRES** (Access, Communication, Environment, Services — Kirish, Kommunikatsiya, Muhit, Xizmatlar) modeli asosida 40 dan ortiq ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholaydi.

O‘zbekistonning ushbu reytingda **28-o‘rinni** (54,1 ball bilan) egallashi mamlakatning ziyorat turizmi salohiyati xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilayotganidan dalolat beradi. Biroq, ko‘rsatkichlarni chuqurroq tahlil qilish strategik o‘sish nuqtalarini aniqlash imkonini beradi:

1. Barqaror ustunliklar (Strengths):

Sayohat xavfsizligi (84,0 ball). Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonning siyosiy barqarorligi va sayyohlar uchun xavfsiz muhit yaratilganini ko‘rsatadi. Musulmon oilalari uchun xavfsizlik — manzil tanlashdagi eng ustuvor mezondir.

Ibodat joylariga qulay kirish (80,0 ball). Mamlakatimizdagi boy islomiy meros, tarixiy masjidlar va ziyoratgohlarning ko‘pligi, shuningdek, jamoat joylarida namozxonalarning mavjudligi O‘zbekistonni "Muslim-friendly" (musulmonlar uchun do‘stona) yo‘nalish sifatida mustahkamlaydi.

2. Strategik rivojlanishni talab etuvchi sohalar (Weaknesses):

Kommunikatsiya qulayligi (19,0 ball). Bu past ko‘rsatkich xizmat ko‘rsatish sohasida tillarni (ayniqsa, ingliz va arab tillarini) bilish darajasi pastligi, raqamli marketingning yetishmasligi va musulmon sayyohlar uchun mo‘ljallangan mobil ilovalarning kamligini ko‘rsatadi.

Infratuzilma (21,2 ball). Bu yerda gap nafaqat yo‘llar, balki aeroportlardagi kutish jarayonlarining soddaligi, transport logistikasining raqamlashtirilgani va halol standartlariga javob beruvchi ixtisoslashgan mehmonxonalar tarmog‘i haqida bormoqda.

3. Global yetakchilar tajribasi. Reytingda uchinchi yildirki Malayziya (82,5 ball) peshqadamlik qilmoqda. Malayziya va Indoneziya (72,6 ball) tajribasi shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyat garovi faqat tarixiy obidalarda emas, balki to‘liq ekotizimda (aeroportdan tortib to kichik kafelargacha halol sertifikatiga ega bo‘lishi) va yuqori darajadagi raqamli xizmatlardadir. Birlashgan Arab Amirliklari (76,9 ball) esa hashamatli halol turizm va xalqaro aviatsiya logistikasi bo‘yicha yetakchidir.

Singapurning (Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo bo‘lmasa-da) kuchli o‘nlikka kirishi e’tiborga molik. Bu shuni anglatadiki, musulmon bo‘lmagan davlatlar ham o‘z infratuzilmasini musulmonlar ehtiyojiga moslashtirish orqali ulkan turistik oqimni jalb qilmoqda.

O‘zbekiston o‘zining xavfsizlik va ma’naviy meros borasidagi yuqori ballarini saqlab qolgan holda, kommunikatsiya va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini raqamlashtirish (Smart Tourism) orqali reytingning birinchi o‘nligiga kirish uchun real imkoniyatga ega. Bu nafaqat iqtisodiy foyda, balki mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘tkazilgan tadqiqot yosh musulmonlarning sayohatlardagi odatlari, ehtiyojlari va motivatsiyalarini qamrab olgan:

- so‘rov natijasiga ko‘ra, dam olish va bayram safarlari (93%) dan tashqari, musulmonlar mahalliy madaniyat va an’analarni o‘rganish (63%), shuningdek, do‘stlari va qarindoshlarini ko‘rish uchun (43%) sayohat qilishadi;
- ko‘p yosh musulmonlar faol sayyohlardir. Ular yiliga ikki martadan besh martagacha (46%) va 4-6 kun (41%) sayohat qilishadi;
- musulmonlar – tejamli sayohatchilardir. O‘rtacha sayohat harajatlari (reyslar, turar joylar, ovqatlanish, xaridlar va boshqa harajatlar) 101 dollardan 500 dollargacha;
- so‘ralganlarning ko‘pchiligi mustaqil sayohat qilishni afzal ko‘rishadi (72%), chunki ular o‘z sayohatlarini boshqarishni qadrlashadi. Yosh musulmonlar texnik jihatdan savodli bo‘lib, ular sayohatni rejalashtirish uchun ishonch bilan onlayn resurslardan foydalanadilar. Faqat besh foizigina tashkiliy sayohatlarni tanlaydi;
- so‘rovnomada qatnashganlarning ko‘pchiligi sayohatni rejalashtirishga online va offline manbalarni sinchikovlik bilan o‘rganib va tahlil qilib, 1-6 oy (61%) vaqt sarflashlarini aytishgan;
- parvoz va joylashtirish narxi, xavfsizlik masalalari, shuningdek, halol oziq-ovqatlarning mavjudligi – sayohatni rejalashtirishdagi uchta asosiy omillar qatoriga kiritilgan.

Halol turizmni rivojlantirish afzalliklari:

- umumiy aholi orasida musulmonlar soni ortib bormoqda. Bugungi kunda umumiy aholining 23 foizi, ya’ni dunyodagi har to‘rtinchi inson musulmondir;
- Yevropada ham musulmonlar soni o‘smoqda. Bugun musulmonlar Yevropaning umumiy aholisining 6 foizini tashkil qiladi. 2030 yilga borib,

Yevropa aholisining 8 foizini tashkil etadi, ya'ni har o'n ikkinchi yevropalik musulmon bo'ladi;

- dunyo yoshlarga tayanadi - musulmonlar butun dunyoda qolgan aholidan yoshroq. Misol uchun, Yevropadagi musulmonlarning o'rtacha yoshi 32 yosh, bu o'rtacha yevropaliklardan 8 yil kichikroqdir (40);
- "Musulmonlarning yangi avlodi" ning holati – ular, asosan, jamiyatning barcha jabhalariga integratsiyalash va zamonaviy tendensiyalarga rioya etishga intilayotgan yosh va yuqori malakali odamlardir.

O'zbekistonda turizmning bu turini yanada rivojlantirishga, uni 28-o'rindan birinchi uchtalikka kiritishga hamma sharoitlar mavjud. Bunga mazkur yilda «O'zstandart» agentligi tomonidan tadbirkorlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida «Halol» standarti joriy etilishini misol tariqasida keltirsak bo'ladi.

Bundan tashqari, qurilishi 8 yil davom etgan, 2026-yilning mart oyida ochilishi kutilayotgan yana bir diqqatga sazovor joyimiz Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi bilan faxrlansak bo'ladi. Islom sivilizatsiyasi markazida o'tmish va bugun qanday uyg'unlashgani namoyon qilingan: noyob qadimiy qo'lyozmalar va nodir tarixiy yodgorliklardan tortib zamonaviy raqamli va interaktiv ko'rgazmalargacha. Uning tarkibidan 2000 ta eksponatli muzey, Usmon Qur'oni ("Toshkent Qur'oni" nomi bilan mashhur "Usmon Mushafi")ni ko'rish mumkin bo'lgan namoyish zali, nodir qo'lyozmalar fondi, keng qamrovli kutubxona, ilmiy-ma'rifiy maydonlar o'rin olgan. Markazning missiyasi islomni ilm-ma'rifat, bunyodkorlik va taraqqiyot dini sifatida namoyish etish, shuningdek, mintaqaning qadimgi davrlardan hozirgi kungacha bo'lgan tamadduni rivojlanish yo'lini yoritib berishdan iborat.

O'zbekistonda halol turizmni rivojlantirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- boy islomiy-madaniy meros (Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband majmualari va boshqalar);
- musulmon aholining yuqori ulushi;
- milliy oshxonaning halollik tamoyillariga mosligi;
- transport va mehmonxona infratuzilmasining bosqichma-bosqich rivojlanishi.

Halol turizm bugungi kunda jahon turizm industriyasining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli segmentlaridan biri hisoblanadi. Musulmon aholining son jihatdan o'sib borayotgani, ularning sayohatga bo'lgan qiziqishi va xarajatlar hajmining ortib borishi halol turizm bozorining barqaror kengayishini ta'minlamoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xalqaro miqyosda musulmon sayyohlar sonining yaqin yillarda 200 milliondan oshishi kutilmoqda, bu esa mazkur segmentning global turizm daromadlaridagi ulushini sezilarli darajada oshiradi.

O'zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, infratuzilmaning bosqichma-bosqich rivojlanishi, vizasiz rejimlarning joriy etilishi va xizmatlar eksportining o'sishi mamlakatni musulmon sayyohlar uchun jozibador yo'nalishga aylantirmoqda. Global Muslim Travel Index

reytingida O‘zbekistonning 28-o‘rinni egallashi va xavfsizlik hamda ibodat joylariga qulay kirish bo‘yicha yuqori baholanishi bu boradagi salohiyatni yaqqol tasdiqlaydi.

Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston o‘zining geografik joylashuvi va boy islomiy sivilizatsiya merosi bilan halol turizm bo‘yicha dunyo yetakchisiga aylanish uchun barcha tabiiy va tarixiy resurslarga ega. Biroq, mavjud salohiyat va real natijalar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun faqatgina tarixiy obidalarga tayanib qolmasdan, zamonaviy turizm ekotizimini shakllantirish talab etiladi.

Kommunikatsiya qulayligi borasidagi past ko‘rsatkichlar (19,0 ball) sohada "Smart Halal" konsepsiyasini joriy etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bu nafaqat til to‘siqlarini bartaraf etish (gid-tarjimonlar tayyorlash), balki musulmon sayyohlar uchun maxsus mobil ilovalar, interaktiv xaritalar va real vaqt rejimida halol obyektlarni topish imkonini beruvchi raqamli platformalarni yaratishni ko‘zda tutadi. Xalqaro marketing strategiyasi esa O‘zbekistonni shunchaki "tarixiy maskan" emas, balki "xavfsiz, zamonaviy va ma’naviy hordiq maskani" sifatida brendlashga yo‘naltirilishi lozim.

Hozirgi kunda global halol turizm bozorining drayveri hisoblangan 30 yoshgacha bo‘lgan musulmon sayyohlar segmenti uchun innovatsion mahsulotlar yaratish kechiktirib bo‘lmas vazifadir. Bu qatlam uchun e’tiqodiy me’yorlar bilan birga, zamonaviy qulayliklar, "Instagrammable" (vizual jozibador) manzillar va faol turizm turlari (eko-turizm, etno-turizm) muhim. Ularning talablariga mos keluvchi "lifestyle" turizm paketlarini ishlab chiqish O‘zbekistonga yosh va to‘lov qobiliyati yuqori bo‘lgan auditoriyani jalb qilish imkonini beradi.

Halol turizmning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun davlat, xususiy sektor va ilmiy hamjamiyatning o‘zaro integratsiyasini ta’minlovchi kompleks strategiya zarur. Bu strategiya quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi lozim:

-halol sertifikatlashtirish tizimini xalqaro (SMIIC) standartlar bilan uyg‘unlashtirish;

-turizm xodimlarining musulmon sayyohlar bilan ishlash bo‘yicha madaniy va professional kompetensiyalarini oshirish;

-aeroportlar, vokzallar va magistral yo‘llarda halol standartlariga mos xizmat ko‘rsatish nuqtalarini (namozxonalar, tahoratxonalar) tizimli tashkil etish.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbekistonning GMTI reytingidagi xavfsizlik va ziyorat obyektlari bo‘yicha yuqori ballari mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi. Agar ushbu poydevorga zamonaviy servis, raqamli marketing va innovatsion yondashuv qo‘shilsa, mamlakatimiz yaqin besh yillikda nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosdagi eng jozibador beshta halol yo‘nalishdan biriga aylanishi muqarrar. Bu esa o‘z navbatida, milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga va xalqaro maydonda O‘zbekistonning ijobiy imijini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. — Toshkent, 2025.
2. CrescentRating & Mastercard. Global Muslim Travel Index (GMTI) Report. — Singapore, 2024.
3. Pew Research Center. The Future of World Religions: Population Growth Projections. — Washington, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi rasmiy statistik ma’lumotlari. — www.tourism.uz
5. Battour M., Ismail M. Halal Tourism: Concepts, Practices and Challenges. — Tourism Management Perspectives, 2021.
6. Henderson J.C. Islamic Tourism Reviewed. — Tourism Recreation Research, 2020.

UDK:37.018.43

MASOFAVIY TA'LIMDA INTERFAOL METODLAR VA RAQAMLI PLATFORMALARNING KOMMUNIKATIV IMKONIYATLARI

Genjeeva Ulzada Tanatarovna,
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada masofaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlar va raqamli platformalardan foydalanish orqali talabalarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda onlayn ta'lim muhitida muloqotning didaktik imkoniyatlari, interfaol metodlarning kommunikativ samaradorligi hamda raqamli platformalarning ta'limiy salohiyati ochib berilgan. Olingan natijalar masofaviy ta'limda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishda interfaol yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, interfaol metodlar, raqamli platformalar, kommunikativ kompetentsiya, onlayn muloqot, raqamli pedagogika.

КОММУНИКАТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ И ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ В ДИСТАНЦИОННОМ ОБУЧЕНИИ

Аннотация. В данной статье научно-теоретически и практически проанализированы вопросы развития коммуникативной компетенции у студентов посредством использования интерактивных методов и цифровых платформ в процессе дистанционного обучения. В исследовании раскрыты дидактические возможности общения в онлайн-образовательной среде, коммуникативная эффективность интерактивных методов и образовательный потенциал цифровых платформ. Полученные результаты показывают, что интерактивный подход имеет важное значение в развитии коммуникативной компетенции в дистанционном обучении.

Ключевые слова: дистанционное обучение, интерактивные методы, цифровые платформы, коммуникативная компетенция, онлайн-общение, цифровая педагогика.

INTERACTIVE METHODS AND COMMUNICATIVE CAPABILITIES OF DIGITAL PLATFORMS IN DISTANCE LEARNING

Abstract. This article analyzes from a scientific-theoretical and practical point of view the issues of developing students' communicative competence through the use of interactive methods and digital platforms in the process of distance learning. The study reveals the didactic possibilities of communication in the online educational environment, the communicative effectiveness of interactive methods,

and the educational potential of digital platforms. The obtained results indicate the importance of an interactive approach in the development of communicative competence in distance learning.

Keywords: distance learning, interactive methods, digital platforms, communicative competence, online communication, digital pedagogy.

Raqamlashtirish jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda masofaviy ta'lim ta'lim tizimining muhim shakllaridan biriga aylandi. Ayniqsa, oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim orqali ta'lim jarayonini tashkil etish talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, onlayn ta'lim sharoitida talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish muammosi dolzarb pedagogik masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kommunikativ kompetentsiya shaxsning samarali muloqot qilish, fikrini aniq ifodalash, hamkorlikda ishlash va ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Masofaviy ta'lim sharoitida mazkur kompetentsiyani rivojlantirish interfaol metodlar va raqamli platformalarning to'g'ri tanlanishi va samarali qo'llanilishiga bevosita bog'liqdir.

Mazkur maqolaning maqsadi masofaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlar va raqamli platformalarning kommunikativ imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Masofaviy ta'lim - bu axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) va raqamli platformalar yordamida o'quv jarayonining an'anaviy dars maydonidan tashqarida tashkil etilishi bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi jismoniy ravishda bir joyda bo'lmasdan ta'lim jarayonini amalga oshirishga imkon beradi. Raqamli texnologiyalar va Internet tarmog'i orqali interfaol o'quv materiallari, virtual seminarlar, onlayn testlar, distantsion muxokamalar va hamkorlikdagi loyihalar orqali o'quvchilarning faol o'rganish jarayoniga jalb etilishi ta'minlanadi. Bu pedagogik model an'anaviy ta'lim jarayonini to'ldirib, shaxslararo kommunikatsiyani kengaytiradi hamda individual o'rganish imkoniyatlarini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining eng muhim ta'lim siyosatini belgilovchi huquqiy hujjati - "O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni bo'lib, u ta'limning shakllari va tashkil etilishi bo'yicha asosiy tamoyillarni belgilaydi. Qonunning yangi tahriri loyihasida masofaviy ta'lim shakli ham ta'lim olishning rasmiy formasi sifatida kiritilishi nazarda tutilmoqda, bu esa masofaviy ta'limning normativ-huquqiy bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu asosda masofaviy ta'lim orqali olingan diplomlar va o'quv jarayonlari qonuniy huquqiy maqomga ega bo'lishi uchun shartlar yaratiladi.

Raqamli platformalar (masalan, Learning Management Systems, Zoom, Microsoft Teams, Moodle kabi tizimlar) masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etishning texnologik poydevorini ta'minlaydi. Ular orqali sinxron (real vaqtda) va asinxron (oldindan yozilgan) darslar, interfaol mashqlar, virtual guruh ishlari va baholash tizimlari joriy etiladi. Mazkur vositalar o'quv jarayonida o'quvchi va

o‘qituvchi o‘rtasidagi kommunikativ aloqani mustahkamlashga, bilim almashish va hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga yordam beradi.

Interfaol metodlar esa ta’lim jarayonini faollashtirib, talabalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodiy yondashuv va guruh bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’limda interfaol metodlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirib, ta’lim jarayonining samaradorligini kuchaytiradi.

Shu sababli, masofaviy ta’limda interfaol metodlar va raqamli platformalarning kommunikativ imkoniyatlarini ilmiy asosda o‘rganish bugungi ta’lim sohasidagi ustuvor masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada tadqiqot ob’ekti sifatida masofaviy ta’lim jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentsiyasi olindi. Bu ob’ekt ta’lim jarayonida talabalarning muloqotga kirishish darajasi, fikr almashish madaniyati, yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, masofaviy ta’lim sharoitida interfaol metodlar va raqamli platformalarning didaktik imkoniyatlari tadqiqotning markaziy ob’ekti sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqotda masofaviy ta’lim jarayonida talabalarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishni o‘rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Nazariy tahlil yordamida mahalliy va xorijiy pedagogika manbalari, ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar tahlil qilinib, kommunikativ kompetentsiya va masofaviy ta’limdagi interfaol metodlar o‘rganildi. Qiyosiy tahlil an’anaviy va masofaviy ta’lim jarayonidagi muloqot metodlari samaradorligini solishtirishga xizmat qildi. Pedagogik kuzatish orqali talabalarning interfaol metodlar va raqamli platformalardan foydalanganda muloqotga kirishish faolligi aniqlanib, eksperimental usul yordamida interfaol vazifalar va jamoaviy loyihalar orqali kommunikativ kompetentsiya rivoji sinovdan o‘tkazildi. Olingan ma’lumotlar statistika va umumlashtirish metodlari yordamida tahlil qilinib, interfaol metodlar va raqamli platformalarning pedagogik samaradorligi ilmiy asosda baholandi. Shu tarzda, tadqiqot metodlari talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini tizimli ravishda rivojlantirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, masofaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlar va raqamli platformalardan foydalanish talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi. Xususan, videokonferensiyalar va onlayn muhokama forumlari talabalarning og‘zaki va yozma nutqini faollashtirsa, jamoaviy loyihalar va interfaol vazifalar ularni fikr almashish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalariga jalb qiladi. Tadqiqot davomida kuzatilgan ma’lumotlarga ko‘ra, interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirilgan raqamli platformalarda o‘qitilgan guruhlar an’anaviy masofaviy ta’lim sharoitida o‘qigan guruhlarga nisbatan muloqotga kirishish faolligi va kommunikativ qobiliyat ko‘rsatkichlarida sezilarli ijobiy farq ko‘rsatdi. Shuningdek, talabalar o‘zaro fikr almashish, savol berish va bahs-munozara jarayonlarida qatnashish orqali kommunikativ kompetentsiyaning barcha tarkibiy qismlarini – tinglash, tushunish,

ifodalash va ijtimoiy-madaniy moslashuvni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Natijalar shuni tasdiqladiki, interfaol pedagogik yondashuv va zamonaviy raqamli vositalar masofaviy ta’lim jarayonida talabalarning kommunikativ rivojini tizimli ravishda oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan mos keladi. Xususan, konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilim va kompetentsiyalar talabalarning faol muloqoti va hamkorligi jarayonida shakllanadi. Masofaviy ta’lim sharoitida interfaol metodlardan foydalanish talabaning passiv tinglovchi emas, balki muloqot sub’ekti sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Raqamli platformalar esa kommunikativ jarayonni tashkil etish, boshqarish va monitoring qilishda didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri tanlangan platforma va metodlar uyg‘unligi masofaviy ta’limda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning samarali mexanizmini yaratadi.

Masofaviy ta’lim jarayonida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogikaning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar va raqamli platformalar uyg‘unligi talabalarning muloqotga kirishish faolligini oshirish, fikr almashish madaniyatini shakllantirish hamda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi [1].

Konstruktivistik ta’lim nazariyasiga ko‘ra, bilim tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchining faol ijtimoiy-muloqot jarayonida shakllanadi [2]. Ushbu nazariya nuqtai nazaridan qaralganda, masofaviy ta’limda interfaol metodlardan (munozara, debat, case-study, loyihaviy ta’lim) foydalanish talabaning passiv tinglovchi emas, balki muloqot sub’ekti sifatida shakllanishiga imkon yaratadi. Bu esa kommunikativ kompetentsiyaning asosiy tarkibiy qismlari – tinglash, fikr bildirish, dalillash va bahs yuritish ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Masofaviy ta’lim jarayonida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish masalasi O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb pedagogik tadqiqot mavzusiga aylangan. Mahalliy olimlar fikricha, masofaviy ta’lim jarayonida pedagogik kommunikatsiya samaradorligi ta’lim sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi [1]. Mohimbegim Xasanova tadqiqotida pedagogik kommunikatsiya shakllari, o‘zaro axborot almashinuvi va interaktiv usullarning ta’lim jarayonidagi roli chuqur tahlil qilingan bo‘lib, aynan interfaol aloqalar orqali talabalarning onlayn muloqotga jalb etilishi samaradorligini oshiradi [2]. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, masofaviy og‘zaki va yozma muloqot vositalari — forumlar, chatlar va videokonferensiyalar — kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishda faollikni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotchilar kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish masalasini keng kontekstda ko‘rib, uni shaxsning lingvistik, pragmatik va sotsial kommunikativ qobiliyatlari bilan uzviy bog‘laganlari haqida ta’kidlab o‘tadi [5]. X. Nuritdinova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muloqotning verbal va noverbal aspektlarini ham didaktik jarayonning ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqadi[6]. Bu yondashuv interfaol metodlarning kommunikativ potentsialini yanada chuqurroq anglashga olib keladi, chunki onlayn ta’limda noverbal

indikatorlar (masalan, talabaning faolligi, faqat yozma balki muloqotdagi psixologik holati) ham muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlar va raqamli platformalarning samarali integratsiyasi talabalar o‘rtasida ijtimoiy o‘zaro ta’sir va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, jamoaviy loyihalar va virtual seminarlar o‘quvchilarni bir-biri bilan fikr almashishga, qarorlarni birgalikda qabul qilishga va guruh ichidagi muloqot madaniyatini shakllantirishga jalb qiladi.

Tadqiqot davomida kuzatilgan amaliy holatlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar (Moodle, Zoom, Microsoft Teams) bilan integratsiyalangan interfaol metodlardan foydalanilgan guruhlar, an’anaviy masofaviy ta’lim sharoitida o‘qigan guruhlarga nisbatan, quyidagi ko‘rsatkichlarda sezilarli ijobiy farq ko‘rsatdi:

Muloqotga kirishish faolligi – talabalarning og‘zaki va yozma nutq orqali o‘z fikrlarini ifodalash qobiliyati oshdi.

Hamkorlikdagi ishlash ko‘nikmalari – jamoaviy loyihalarda va interfaol mashqlarda talabalar bir-biriga yordam berish, vazifalarni bo‘lishish va muammolarni birgalikda hal qilishga o‘rgandi.

Kognitiv va metakognitiv rivojlanish – talabalar o‘z fikrlarini tizimli ravishda dalillash, bahs-munozarada qatnashish va kritik fikrini shakllantirish imkoniga ega bo‘ldi.

Shuningdek, interfaol metodlar yordamida tashkil etilgan masofaviy ta’lim jarayonida verbal va noverbal kommunikatsiya elementlari ham didaktik jarayonning muhim qismi sifatida qo‘llaniladi. Misol uchun, videokonferensiya va interfaol chatlarda talabalarning faolligi, savol-javoblar, yuz ifodalari va ovoz intonatsiyalari pedagoglar tomonidan o‘quv jarayonining samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan indikator hisoblanadi.

O‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, masofaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlar va raqamli platformalardan foydalanish talabalarda kommunikativ kompetentsiyani tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol pedagogik yondashuvlar, jumladan debat, loyiha ishlari, muhokama va case-study metodlari, talabalarning og‘zaki va yozma nutqini faollashtiradi, fikr almashish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, raqamli platformalar – videokonferensiya vositalari, forumlar, chatlar va hamkorlikka mo‘ljallangan onlayn dasturlar – muloqotni texnologik jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi va talabalarning kommunikativ faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirilgan raqamli vositalar talabalarning muloqotga kirishish faolligini oshiradi, ularni passiv tinglovchi emas, balki faol kommunikator sifatida shakllantiradi. Shu tariqa, masofaviy ta’lim jarayonida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish nafaqat bilim uzatish bilan cheklanmay, balki ijtimoiy-madaniy, lingvistik va pragmatik qobiliyatlarni ham mustahkamlaydi. Ushbu yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, oliy ta’lim tashkilotlarida interfaol metodlar va raqamli platformalardan

samarali foydalanish orqali talabalarning kommunikativ tayyorgarligi, o‘zaro hamkorlik va muloqot madaniyati sezilarli darajada oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, tadqiqot interfaol pedagogik metodlar va zamonaviy raqamli vositalar integratsiyasining masofaviy ta’lim sifatini oshirish, talabalarda kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish va ularning ijtimoiy-madaniy rivojini ta’minlashdagi muhimligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hymes D. On Communicative Competence. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – pp. 269–272.
2. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – pp. 33–36.
3. Xasanova M. O‘zbekistonda masofaviy ta’lim jarayonida pedagogik kommunikatsiya samaradorligini oshirish omillari. — Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi, Vol. 15, 2025, 138–141-betlar. DOI: 10.54613/ku.v15i.1217.
4. Axmedov N. R. Masofaviy ta’limda pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: O‘qituvchi, 2021, 148 b.
5. Soliyev A. T. Pedagogik kommunikatsiya nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan, 2020, 192 bet.
6. Nuritdinova X. N., Bozorova D. M. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmuni. — Educational Research in Universal Sciences, 2025, (erus.uz)

UDK: 373.5:37.013.42

UMUMIY O‘RTA TA’LIM TASHKILOTLARI O‘QUVCHILARINI BAG‘RIKENGLIKKA TARBIYALASH MASALALARI

Doshanov Boburjon Maxmudovich,
Nukus shahri BBM Nukus biologiya nodavlat talim tashkiloti direktori o‘rinbosari

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida o‘quvchi-yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik zarurati va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalqimizning azaliy qadriyatlari hisoblangan hamjihatlik, bag‘rikenglik va mehmondo‘stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, yosh avlodning milliy ongi va milliy g‘ururini yuksaltirish, ularni ma’naviy jihatdan sog‘lom va komil inson qilib voyaga yetkazishda etnomadaniy qadriyatlarning o‘rni ilmiy asoslab beriladi. Maqola yakunida insonparvarlik tamoyillari asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga doir metodik tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: insonparvarlik, ijtimoiy hamjihatlik, bag‘rikenglik (tolerantlik), mehmondo‘stlik, milliy ong, milliy g‘urur, ma’naviy barkamollik, pedagogik etika, milliy qadriyatlar.

ВОПРОСЫ ВОСПИТАНИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. В данной статье анализируются педагогическая необходимость и социальная значимость воспитания учащейся молодежи в духе гуманизма на современном этапе развития нашей страны. В исследовании освещаются вопросы интеграции в учебно-воспитательный процесс таких высоких человеческих качеств, как сплоченность, толерантность и гостеприимство, исконно присущих нашему народу. Также научно обоснована роль этнокультурных ценностей в повышении национального самосознания и национальной гордости подрастающего поколения, в их становлении духовно здоровыми и гармонично развитыми личностями. В завершение статьи выдвинуты методические рекомендации по формированию духовно-нравственного облика учащихся на основе принципов гуманизма.

Ключевые слова: гуманизм, социальная сплоченность, толерантность, гостеприимство, национальное самосознание, национальная гордость, духовное совершенство, педагогическая этика, национальные ценности.

ISSUES OF EDUCATING TOLERANCE IN STUDENTS OF GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. This article analyzes the pedagogical necessity and social significance of educating student youth in the spirit of humanism at the current stage of the country's development. The study highlights the issues of integrating high human qualities such as solidarity, tolerance, and hospitality—inherent in our people since ancient times—into the educational process. Furthermore, the role of ethno-cultural values in enhancing the national identity and national pride of the younger generation, as well as in their development as spiritually healthy and "perfect humans" (komil inson), is scientifically substantiated. At the conclusion of the article, methodological recommendations are proposed for shaping the spiritual and moral character of students based on the principles of humanism.

Keywords: humanism, social solidarity, tolerance, hospitality, national identity, national pride, spiritual perfection, pedagogical ethics, national values.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatda tinchlik, ijtimoiy barqarorlik va o‘zaro hurmatni ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda yosh avlodni insonparvarlik va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash muhim pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, maktab ta’limi bosqichida o‘quvchilarda boshqalarga nisbatan hurmat, sabr-toqat va empatiya tuyg‘ularini shakllantirish kelajak jamiyatining ma’naviy poydevorini belgilaydi. Bag’rikenglikning rivojlanishi oddiy insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardan tortib, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan barcha jarayonlar uchun muhim zaruriyatga aylanib bormoqda. Bag’rikenglik qanchalik rivojlansa, insoniyatning bexavotir hayot kechirish imkoniyati shuncha ortadi. Millatlararo va xalqaro munosabatlar tizimida bag’rikenglikni rivojlantirish va mustahkamlash mamlakatlar taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun insoniyat ko‘plab muammolarga to‘qlashgan holda yashamoqda. Ularning echimini topishda davlatlar, xalqlar, millatlar transmilliy hamkorlik aloqalarini kengaytirishga majdur. Bag’rikenglik ikki xalq, millat o‘rtasidagi ziddiyat, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishda emas, balki davlatlararo munosabatlarda ham o‘ta muhim.

Bag’rikenglik universal huquq va insonning asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllanadigan faol munosabatdir. Hech bir holatda bag’rikenglik ushbu asosiy qadriyatga bo‘lgan tajobuzni oqlashga xizmat qilishi mumkin emas; bag’rikenglikni ayrim kishilar, guruhlar va davlatlar ham ko‘rsatishi zarur.

Bag’rikenglik- fuqarolik jamiyatining ajralmas me’yori va qadriyatlardir. Unga misol sifatida mahalalarida tashkil topgan mehr- oqibar, o‘z-o‘zini boshqarish xislatlarini keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ma’naviy yuksalish borasida ulkan shart- sharoitlar yaratilgan. Yoshlarda yangi jamiyatga xos innovatsion tafakkur vujudga kelmoqda. Bugungi glaballashuv sharoitida Yangi O‘zbekistonda ma’naviy va ijtimoiy bag’rikenglik tamoyillari ro‘yobga chiqib, jamiyatda barqarorlik asoslarini ta’minlash tizimida ahamiyati oshmoqda.

Bag'rikenglik umuminsoniy qadriyat bo'lib, insoniyat ma'naviy taraqqiyotida muhim tamoyil hisoblanadi. Uning ijtimoiy hayotda amal qilishi butun insoniyatning osoyishta, tinch va barqaror yashashiga xizmat qiladi.

Xalq milliy ongi, ma'naviyatning yuksalishi, bag'rikenglik kabi fazilatlarni har qanday rivojlanish jarayonining bosh maqsadidir. Chunki bu hollar insoniyat tarixiy taraqqiyoti haqiqat ekanligi isbotlab berildi.

Sharqning taniqli mutafakkiri Boiz al-Koshifiy bag'rikenglikni quyidagicha izohlaydi: "Yaxshi xulq mamlakatning tuzi, ya'ni mazmunini belgilovchi omildir. Chunki har bir taom tuzsiz bemaza bo'lgani kabi, axloqsiz jamiyat va axloqsizlik bilan o'tayotgan umr mazmunsizdir" [1]. Bag'rikenglikni mutafakkir jamiyat, xalq uchun har bir rivojlanish davrida qilingan ishlar bilan baholab o'tadi.

Alisher Navoiy odamlarni insofli, sahovatli va adolatli bo'lishga, bir-birlari bilan ahil bo'lish, yordam berish, qaramli bo'lishga da'vat qilib, ehsonli bo'lishga chorlagan [2].

Bag'rikenglikni ifodalovchi xususiyatlarga hamma ham ongli ravishda yondashmaydi, bir qism kishilar ko'pchilikka taqlid qilgan holda masala mohiyatini etarlicha his etmasdan turib ham amal qilaverradilar. Natijada ekstremistik yoki diniy aqidaparastlikka yo'l qo'yiladi.

Milliy o'zlikni anglash jarayonisiz bag'rikenglik bo'lishi mumkin emas. Chunki o'zlikni anglagan insongina ozod shaxs hisoblanadi va shundagina boshqalarni anglay oladi, hamjihatlikda faoliyat yuritadi. Boshqalarni anglagan shaxsgina ongli ijtimoiylashuv jarayonlarida ishtirok eta oladi. Ijtimoiylashuv madaniyatlilikka asos hisoblanadi. Milliy o'zlikni anglash xalq madaniy- ma'naviy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning o'z madaniy mulkiga vorislik huquqini mustahkamlaydi. Natijada madaniy yodgorliklar, qadriyatlar vorislik asosida avloddan-avlodga o'tib, boyib boradi.

Milliy-madaniy qadriyatlar tolerantlik rivojlanishida muhim o'rin tutib, bag'rikenglik, osoyishtalik, mehr-muruvvat g'oyalarini o'zida mujassamlashtiradi. Milliy qadriyatlarning negizini tashkil etuvchi xushhmuomalilik, mehr muruvvat, ahillik kabi fazilatlar bag'rikenglik namayon bo'lishining omili hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar qotib qolgan hodisalar emas, ular ham tarixan rivojlanib, yangilanib borar ekan, yangidan-yangi qadriyatlarning kelib chiqishi uchun asos hisoblanadi. Shu sababli, bir tomondan, qadriyatlar ma'naviyatni, ma'rifatni rivojlantirish masalasiga qaratilgan bo'lib, ayniqsa, madaniy merosga ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab etgan holda ularni avaylab-asrashni taqoza etsa, ikkinchi tomondan, ularga tanqidiy yondashish zarurligini talab qiladi va tanqidiy tahlil orqali ilmiy asoslangan yangicha qadriyatlarni qaror toptirishni talab etadi. Bunday hollar qadriyatlarning yangilanib borishi tolerantlik yo'nalishlarining ham yangilanib, yangi mazmun-mohiyat kasb etishini ko'rsatadi. Shu o'rinda istiqlol g'oyalari o'tmishga tariyxiy yondashish, ulardan kelajak uchun zarurlarini tanqidiy o'rganib, tanlash orqali kelajakka xizmat qilishga qaratilganligini ifodalash bag'rikenglik xususiyatlariga ham shunday qarash zarurligini tasdiqlaydi. Ya'ni o'tmishni o'rganib, milliy taraqqiyot yo'lini topish, bu borada hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyot oqimidan chetga surilib ketmaslik, ma'naviyat va ma'rifat

taraqqiyotga xizmat qilish zaruriyatini tushungan holda faoliyat yuritish komil insonni tarbiyalashga yaqindan yordam beradi. Shunday qilib, ma'naviyatga, madaniy- ma'naviy merosga to'g'ri munosabatda bo'lish mustaqillikni mustahkamlashga qaratilgan dolzarb vazifalardan biri, yangicha shakllangan bugungi milliy ongimizning o'zgacha ifodasi bo'lgan oldingi davrlarga tanqidiy yondashgal holda, yangi yo'nalishdagi bag'rikenglik xususiyatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Ma'naviyat insonning ijtimoiy- madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati demak, Ya'ni insonning mehr- muruvvatli, adolatli, to'g'ri bo'lishi sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi bir qator asl insoniy xislatlar va fazilatlarni birlashtirishni kasb etgan ijobiy mazmundagi bag'rikenglikka yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi [3].

Ma'naviyat — inson shaxsiyatining mohiyatini belgilovchi yuksak fazilatlar, ijobiy xislatlar va ma'rifiy dunyoqarashning yaxlit tizimi bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarda eng avvalo bag'rikenglik (tolerantlik) belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Ma'naviyatning mazmun-mohiyatini tashkil etuvchi axloqiy va estetik ideallar jamiyat taraqqiyoti davomida takomillashib, asta-sekinlik bilan barqaror qadriyat darajasiga ko'tariladi. Bu qadriyatlar shaxs tomonidan o'zlashtirilishi (internalizatsiya) jarayonida insonning ichki dunyosida ijtimoiy mas'uliyat, o'zgalar fikriga hurmat va insonparvarlik kabi fazilatlar qaror topadi.

Qadriyatlarni o'zlashtirish — bu shunchaki ma'lumot to'plash emas, balki shaxsning ma'naviy-ruhiy transformatsiyasi bo'lib, u insonning ongi, ilmiy salohiyati, falsafiy mushohadasi va diniy tasavvurlarini yagona bir maqsad — ijtimoiy uyg'unlikka yo'naltiradi. Natijada, bag'rikenglik tamoyillari shaxsning dunyoqarashiga shunchalik singib ketadiki, u inson ongidagi ma'naviyatning to'laqonli ko'zgusi va oliy ifodasiga aylanadi.

Ma'naviy yetuk inson uchun bag'rikenglik — bu shunchaki murosasozlik emas, balki o'zga madaniyatlar, qarashlar va e'tiqodlarning rang-barangligini boylik sifatida qabul qilish layoqatidir. Ushbu jarayonda shakllangan insoniy fazilatlar jamiyatda o'zaro ishonch va hamjihatlik muhitini yaratadi. Shunday qilib, ma'naviyat qadriyatlar orqali shakllanib, bag'rikenglik orqali o'zining ijtimoiy funksiyasini to'liq namoyon etadi va shaxsni ma'naviy barkamollikning yangi bosqichiga ko'taradi.

Ma'naviyat tez o'zgarmaydi, u tarixiy, madaniy ildizlarga ega bo'lgani holda, davr taqozasiga ko'ra o'zgarib, boyib borish xususiyatini kasb etadi. Ma'naviat aqliy bilimlar tizimi sifatida insonning aqli, ongi, bag'rikenglik xususiyatlarining mazmun- mohiyatini belgilaydi. Shu bilan birga, ma'naviyat har bir millatning o'zligini anglash jarayoni sifatida insonlarning milliy ongiga xos bag'rikenglik ifodasi hamdir.

Maktab o'quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida bag'rikenglikni rivojlantirish uzluksiz, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni talab etadi. Ushbu jarayon faqat alohida tarbiyaviy tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, balki ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, pedagogik

munosabatlar hamda maktabning umumiy ijtimoiy-psixologik muhitiga chuqur integratsiya qilinishi lozim.

Qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi zamonaviy pedagogikada shunchaki bilim berish vositasi emas, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi fundamental tizim hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarning universalligi va milliy qadriyatlarning o‘ziga xosligi uyg‘unlashtirilib, ularda inson sha’ni hamda qadr-qimmatini anglash kabi yuksak axloqiy tuyg‘ular tizimli ravishda qaror toptiriladi. Bunday ta’lim muhitida qadriyat shunchaki nazariy tushuncha sifatida emas, balki shaxsning kundalik xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayonidagi ichki mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv esa ushbu jarayonning gumanistik poydevorini tashkil etadi. Bu yondashuv ta’lim oluvchini pedagogik jarayonning markaziga qo‘yish orqali, uning individualligi, psixologik xususiyatlari va shaxsiy dunyoqarashini e’tiborga olishni taqozo etadi. Shaxsga yo‘naltirilgan muloqot muhitida o‘quvchining fikr va qarashlariga nisbatan bag‘rikeng (tolerant) munosabatda bo‘lish, uning o‘zligini namoyon etishi uchun xavfsiz psixologik makon yaratadi. Natijada o‘quvchi o‘zgalarning ham individualligini qadrlashni o‘rganadi, bu esa jamiyatdagi ijtimoiy uyg‘unlikning birlamchi shartidir.

Shu bilan birga, nazariy bilimlarni hayotiy pozitsiyaga aylantirishda faol pedagogik metodlarning o‘rni beqiyosdir. Ilmiy asoslangan munozaralar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar tahlili (case-study) va ijtimoiy loyihalar o‘quvchilarni real ijtimoiy munosabatlar muhitiga olib kiradi. Masalan, ijtimoiy loyihalar ustida ishlash jarayonida o‘quvchi turli qarashlarga ega bo‘lgan tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga, umumiy maqsad yo‘lida murosaga kelishga va o‘zaro yordam berishga odatlanadi. Bunday interfaol metodlar bag‘rikenglikni quruq tushunchadan hayotiy ko‘nikma (soft skills) darajasiga ko‘tarib, o‘quvchini nafaqat bilimli, balki ijtimoiy moslashuvchan va insonparvar shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘qituvchining shaxsiy namunasi, adolatli va demokratik ta’lim muhitini yaratishi, o‘quvchi–o‘qituvchi–ota-ona hamkorligining yo‘lga qo‘yilishi bag‘rikenglik tarbiyasining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Natijada, turli qarash va dunyoqarashlarga hurmat bilan yondasha oladigan, ijtimoiy mas’uliyatni his qiluvchi, nizoli vaziyatlarni tinch yo‘l bilan hal etishga qodir, ma’naviy yetuk va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxslar shakllanadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, o‘zaro hamjihatlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. 20-bob-B.77. Toshkent, 2011, O‘zME.
2. Alisher Navoiy. Mahbul ul qulub.- T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.—B.55.
3. Пазилова М.Е. Ўқувчи маънавиятини ҳадислар воситасида шакллантиришнинг педагогик асослари: Пед. фан. ном. …дисс.-Т.: 2004.156 б.

UDK: 37.013:39

MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI ROLI

Madraximov Yaxyo Bahodirovich,
Talaba va o'quvchilarni ijtimoiy faolligini oshirish markazi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy urf-odat va an'analarning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni hamda ularning shaxs kamolotiga ta'siri ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Milliy an'analar jamiyatning madaniy va ma'naviy poydevori sifatida yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirishning asosiy vositasi ekanligi asoslab berilgan. Tadqiqotda ushbu qadriyatlarni oilaviy muhit, ta'lim muassasalari va ijtimoiy tadbirlar orqali yoshlar ongiga tizimli singdirish mexanizmlari muhokama qilinadi. Shuningdek, globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlash va yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda xalq og'zaki ijodi, marosimlar va milliy qadriyatlarning pedagogik imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy urf-odatlar, an'analar, yoshlar tarbiyasi, madaniy meros, axloqiy va ma'naviy rivojlanish, ijtimoiy mas'uliyat, milliy o'zlik, mafkuraviy immunitet, jamiyat va tarbiya.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ И ТРАДИЦИЙ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В данной статье анализируется роль национальных обычаев и традиций в воспитании молодого поколения, а также их влияние на развитие личности. Обосновано, что национальные традиции, являясь культурно-духовным фундаментом общества, служат основным средством формирования у молодежи чувств патриотизма, гуманизма и национальной гордости. В исследовании обсуждаются механизмы систематического внедрения этих ценностей в сознание молодежи через семейную среду, образовательные учреждения и общественные мероприятия. Также освещены педагогические возможности фольклора, обрядов и национальных ценностей в сохранении национальной идентичности и укреплении идеологического иммунитета у молодежи в условиях глобализации.

Ключевые слова: Национальные обычаи, традиции, воспитание молодежи, культурное наследие, нравственное и духовное развитие, социальная ответственность, национальная идентичность, идеологический иммунитет, общество и воспитание.

THE ROLE OF NATIONAL CUSTOMS AND TRADITIONS IN THE UPBRINGING OF YOUTH

Abstract. This article analyzes the role of national customs and traditions in the upbringing of the younger generation and their impact on personality development from a socio-psychological perspective. It is substantiated that national traditions, acting as the cultural and spiritual foundation of society, serve as the primary means of forming feelings of patriotism, humanism, and national pride in youth. The study discusses the mechanisms for systematically instilling these values into the minds of young people through the family environment, educational institutions, and social events. Furthermore, the pedagogical potential of folklore, rituals, and national values in preserving national identity and strengthening the ideological immunity of youth in the context of globalization is highlighted.

Keywords: National customs, traditions, youth upbringing, cultural heritage, moral and spiritual development, social responsibility, national identity, ideological immunity, society and education.

Yoshlar tarbiyasi har bir jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va madaniy merosining davomiyligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, milliy urf-odat va ananalar yoshlarning axloqiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston kabi ko'p millatli va boy madaniy merosga ega davlatlarda, an'ana va urf-odatlarning avloddan-avlodga yetkazilishi yoshlarning shaxsiyati, jamiyat bilan bog'lanishi va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Milliy urf-odat va an'analar – bu shunchaki o'tmish merosi emas, balki xalqning ko'p asrlik tarixiy tajribasini, ijtimoiy qadriyatlar tizimini va o'ziga xos dunyoqarashini mujassam etgan murakkab ijtimoiy-madaniy hodisalardir. Ular yosh avlod tarbiyasida fundamental ahamiyatga ega bo'lib, shaxsning axloqiy va madaniy me'yorlarini, odob-axloq qoidalarini, hamjihatlik hamda keksalar va ota-onaga bo'lgan cheksiz hurmat tuyg'ularini shakllantirishning asosiy mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, milliy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish yoshlarning nafaqat intellektual, balki ma'naviy yetuk shaxs bo'lib kamol topishida strategik ahamiyat kasb etadi.

Milliy urf-odatlar har bir millat, elat va etnik guruhning o'ziga xos madaniy qiyofasini, uning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini belgilovchi bosh mezon hisoblanadi. Ular jamiyatning kundalik turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy ehtiyojlari asosida tarixiy taraqqiyot bosqichlarida sayqallanib boradi. Masalan, o'zbek xalqining qudachilik, qo'shnichilik (mahalla) va jamoat ishlari (hashar) bilan bog'liq an'analari ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi o'ziga xos "maktab" vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar orqali yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat va o'zaro yordam ko'rsatish ko'nikmalari tabiiy ravishda shakllanadi.

Tarixiy jarayonlarga nazar tashlasak, sho'rolar davrida milliy o'zlikni ifodalovchi ko'plab marosimlar, jumladan, "Beshik to'yi", "Sunnat to'yi" kabi urf-

odatlar "eskilik sarqiti" sifatida sun'iy ravishda inkor etilganiga guvoh bo'lamiz. Biroq, bunday mafkuraviy tazyiqlarga qaramay, xalq o'zining madaniy kodlarini saqlab qola oldi. Bugungi kunda ushbu an'analarni qayta tiklash va ularning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish yoshlarda milliy o'zlikni anglash (self-identity) va globallashuv sharoitida yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Milliy urf-odatlarni zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etish – bu shunchaki o'tmishni qo'msash emas, balki kelajak avlodning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash va ularni o'z xalqining haqiqiy vorislari qilib tarbiyalash demakdir.

Har bir millatda milliy urf-odatlar va an'analar o'ziga xos tizimni tashkil etadi va xalq tomonidan kundalik hayotning zaruriy sharti sifatida qabul qilinadi. Bu qadriyatlarga befarqlik esa nafaqat shaxsni, balki butun millatni o'zligidan uzoqlashtiradi. Milliy urf-odatlar orqali vatanga, millatga bo'lgan hurmat, e'tibor va sadoqat kabi qadriyatlar namoyon bo'ladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari o'z urf-odat va an'analarini saqlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ldi. Bu jarayon nafaqat millatlararo do'stlik va totuvlikni mustahkamlashga, balki ijtimoiy birdamlik va madaniy merosning davomiyligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Milliy urf-odat va ananalarni yoshlar tarbiyasida qo'llash bir necha asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi: oilaviy tarbiya, maktab va oliy ta'lim tashkilotlari, shuningdek, jamoat tashkilotlari va madaniy tadbirlar orqali.

1. **Oilaviy tarbiya**: Oila – milliy qadriyatlar va urf-odatlarni avlodlarga yetkazuvchi birinchi maktabdir. Oila a'zolari tomonidan meros sifatida uzatiladigan odatlar, bayramlarni nishonlash tartibi, hurmat va mehr-oqibat qadriyatlari yoshlarning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil bo'ladi. Masalan, mehmondo'stlik, kattalarni hurmat qilish, oilaviy qadriyatlarni saqlash kabi odatlar bolalarda jamiyatga moslashuvchanlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiradi.

2. **Ta'lim tashkilotlarida tatbiq etish**: Maktab va oliy ta'limda milliy urf-odat va ananalarni o'quv dasturlariga kiritish yoshlar ongini milliy qadriyatlar bilan boyitadi. Masalan, tarixiy va adabiy darslarda o'zbek xalqining urf-odatlari, bayramlari, folklori, badiiy merosi haqida bilim berish orqali talabalar milliy o'zlikni anglashi va hurmat qilishini ta'minlash mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar bilan tanishgan yoshlar ijtimoiy muhitga tezroq moslashadi, ma'naviy qadriyatlar tizimi barqaror bo'ladi.

3. **Jamoat va madaniy tadbirlar**: Yoshlar markazlari, klublar, festivallar va madaniy tadbirlar orqali milliy an'ana va urf-odatlarni amaliyotda qo'llash ularning hayotiy tajribasini boyitadi. Masalan, Navro'z, Ramadan va boshqa milliy bayramlarni o'tkazish jarayonida yoshlar qadriyatlar bilan tanishadi va ularni amalga oshirish ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Bu esa nafaqat ma'naviy tarbiya, balki ijtimoiy faoliyatga jalb qilishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

4. **Natijalar**: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy urf-odat va an'analar asosida tarbiyalangan yoshlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- Axloqiy qadriyatlar tizimi rivojlangan bo‘ladi;
- Milliy o‘zlik va identifikatsiya hissi kuchayadi;
- Ijtimoiy va madaniy hayotga faol integratsiyalashadi;
- Jamiyatdagi barqarorlik va hamjihatlikni qo‘llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, milliy an’ana va urf-odatlar yoshlarni shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyorlaydi, ularni ma’naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy urf-odat va ananalar yoshlar tarbiyasida nafaqat madaniy merosni saqlash, balki ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy rivojlanishni ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Ular oilaviy tarbiya, maktab va oliy ta’lim tashkilotlari hamda jamoat va madaniy tadbirlar orqali tizimli tarzda yoshlar ongiga singdirilishi kerak. Shu yo‘l bilan yoshlar milliy qadriyatlarni anglab, hurmat qiladigan, jamiyatga foydali va ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllanadi.

Shu bois, davlat va jamiyat darajasida milliy urf-odat va ananalarni targ‘ib qilish, ularni ta’lim jarayonlariga integratsiyalash yoshlar tarbiyasining muhim strategik vazifasi sifatida qaralishi lozim.

Shuningdek, milliy urf-odat va ananalarni yoshlar tarbiyasida qo‘llash ularning shaxsiy fazilatlari, mas’uliyat hissi va ijtimoiy faoliyatga jalb qilinishini mustahkamlaydi. Bu jarayon orqali yoshlar nafaqat o‘z milliy identifikatsiyasini anglaydi, balki jamiyatning umumiy qadriyatlariga hurmat bilan qarash, jamoat hayotida faol ishtirok etish va madaniy merosni asrab-avaylash ko‘nikmalarini egallaydi.

Milliy urf-odat va an’analarni tizimli ravishda targ‘ib qilish nafaqat bir millat doirasida, balki ko‘p millatli O‘zbekiston sharoitida millatlararo bag‘rikenglik (tolerantlik), o‘zaro do‘stlik va totuvlik muhitini mustahkamlashning eng samarali ijtimoiy mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Zero, har bir xalqning o‘ziga xos qadriyatlarini hurmat qilish orqali yoshlarda umuminsoniy madaniyat, birdamlik va ijtimoiy hamjihatlik tuyg‘ulari shakllanadi. Bu jarayon yoshlarni nafaqat o‘z millatining sodiq vakili, balki turli madaniyatlar muloqotiga tayyor, ma’naviy barkamol ва madaniyatli shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi.

Shu sababli, milliy urf-odat va an’analarni o‘quv dasturlariga shunchaki nazariy ma’lumot sifatida emas, balki interfaol ta’lim texnologiyalari hamda geymifikatsiya usullari orqali integratsiya qilish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas vazifasidir. Oilaviy tarbiya, maktab ta’limi va mahalla institutining uzviyligini ta’minlash, madaniy tadbirlarni yoshlarning zamonaviy talablariga mos (kontent-media, vizual san’at) shaklda tashkil etish ularni ma’naviy yetuklikka yetaklaydi. Bu borada yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy rolini kuchaytirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik dasturlarni ishlab chiqish, ayniqsa, axborot xurujlari ko‘paygan davrda yoshlar ongidagi "ma’naviy bo‘shliq"ni to‘ldirishning yagona yo‘lidir.

Umuman olganda, milliy urf-odat va an’analarni yoshlar tarbiyasiga keng tatbiq etish – bu milliy o‘zlikni anglashning oliy bosqichi, bebaho madaniy merosni asrab-avaylash va jamiyatning ma’naviy poydevorini granitdek

mustahkamlash yo‘lidagi hal qiluvchi strategik vositadir. Bunday yondashuv mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minlab, kelajak avlodning global maydonda o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islomov, B. (2019). Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: Fan.
2. Karimova, G. (2021). Madaniy meros va axloqiy tarbiya. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Tursunov, A. (2020). O‘zbek xalqining urf-odatlari va jamiyat tarbiyasi. Samarkand: SamDU nashriyoti.
4. Raxmatova, N. (2018). Oilada tarbiya va milliy qadriyatlar. Toshkent: Ma’naviyat.
5. Aliyev, F. (2020). Ta’lim tashkilotlarida milliy an’analarni tatbiq etish. Toshkent: Ilm.
6. Sultonova, M. (2022). Madaniy tadbirlar orqali yoshlar tarbiyasi. Toshkent: Yoshlar nashriyoti.
7. Abdurahmonov, O. (2017). O‘zbek milliy an’analari va urf-odatlari tarixi. Toshkent: Sharq.
8. Qodirov, Sh. (2019). Milliy o‘zlik va yoshlar tarbiyasi masalalari. Toshkent: Universitet nashriyoti.
9. Madraximov, Y. (2023). Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish. Toshkent: Ilm-fan.

UDK: 378.147:37.013.43

OLIY TA'LIM SHAROITIDA BADIIY-ESTETIK SAVODXONLIK TUSHUNCHASINI ILMIY-NAZARIY TAKOMILLASHTIRISH

Jo'rayeva Mohigul Uyg'un qizi,
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim tizimida badiiy-estetik savodxonlik tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan qayta talqin qilish va takomillashtirish masalalari yoritilgan. Badiiy-estetik savodxonlik shaxsning estetik ongini, qadriyatlarga munosabatini hamda ijodiy faoliyatini belgilovchi kompleks pedagogik sifat sifatida asoslab berilgan. Tadqiqotda akseologik, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar asosida mazkur tushunchaning tarkibiy komponentlari aniqlashtirilgan.

Kalit so'zlar: badiiy-estetik savodxonlik, oliy ta'lim, estetik ong, akseologik yondashuv, ijodiy tafakkur, milliy madaniyat.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПОНЯТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы научно-теоретического переосмысления и совершенствования понятия художественно-эстетической грамотности в системе высшего образования. Художественно-эстетическая грамотность обоснована как комплексное педагогическое качество, определяющее эстетическое сознание личности, её ценностные ориентации и творческую деятельность. На основе аксиологического, компетентностного и интегративного подходов определены структурные компоненты данного понятия и раскрыта их роль в образовательном процессе высшей школы.

Ключевые слова: художественно-эстетическая грамотность, высшее образование, эстетическое сознание, аксиологический подход, творческое мышление, национальная культура.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL IMPROVEMENT OF THE CONCEPT OF ARTISTIC AND AESTHETIC LITERACY IN HIGHER EDUCATION

Abstract. The article examines the issues of scientific and theoretical reinterpretation and improvement of the concept of artistic and aesthetic literacy in the higher education system. Artistic and aesthetic literacy is substantiated as a complex pedagogical quality that determines an individual's aesthetic consciousness, value orientation, and creative activity. Based on axiological, competency-based, and integrative approaches, the structural components of this

concept are identified and their significance in the higher education process is revealed.

Keywords: artistic and aesthetic literacy, higher education, aesthetic consciousness, axiological approach, creative thinking, national culture.

Zamonaviy sivilizatsiyaning global taraqqiyot bosqichida oliy ta'lim tashkilotlarining strategik missiyasi nafaqat tor doiradagi malakali mutaxassislarni tayyorlash, balki intellektual salohiyatli, estetik jihatdan yetuk, mustaqil va tanqidiy tafakkurga ega bo'lgan gumanistik shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Bugungi kunda inson kapitalining sifat ko'rsatkichlari orasida uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi va madaniy qadriyatlarga sodiqligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa oliy ta'limning mazmuni va tarkibiy qismlarini axborotlashgan jamiyat talablariga muvofiq qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi axborotlashgan makonda vizual axborot oqimining eksponensial o'sishi va "ommaviy madaniyat" (mass culture) elementlarining agressiv tarzda keng tarqalishi yosh avlodning dunyoqarashiga, xususan, ularning badiiy didi va estetik ideallariga bevosita transformatsion ta'sir ko'rsatmoqda. Vizual kontentning ustuvorligi ko'p hollarda yuzaki estetik qarashlarning shakllanishiga, milliy va umuminsoniy badiiy merosga bo'lgan qiziqishning pasayishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda talabalarning badiiy-estetik savodxonligini rivojlantirish shunchaki qo'shimcha bilim berish emas, balki ularda axborot xurujlariga qarshi "estetik immunitet"ni shakllantirishning fundamental mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Badiiy-estetik savodxonlik tushunchasini takomillashtirish zarurati bir qancha obyektiv omillar bilan asoslanadi. Birinchidan, estetik ongning rivojlanganligi shaxsning kreativlik salohiyatini oshiradi, bu esa professional faoliyatda nostandart va innovatsion yechimlarni topishda muhim kognitiv vosita bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, badiiy tahlil ko'nikmasiga ega bo'lgan mutaxassis voqelikni yaxlit tasavvur etish, go'zallik va uyg'unlik tamoyillari asosida o'z atrof-muhitini tartibga solish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim tizimida badiiy-estetik savodxonlik kontsepsiyasini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda aksiologik, kognitiv-analitik yo'nalishlar va integrativ metodologiyaga e'tibor qaratish dolzarb hisoblanadi. Bunda san'at asarlari va madaniy obyektlarni qadriyat sifatida anglash hamda ularning ijtimoiy ahamiyatini baholash malakasini oshirish, vizual axborotni shunchaki iste'mol qilishdan uning badiiy-ma'noviy qatlamlarini tahlil qilish va tanqidiy baholash darajasiga o'tish nazarda tutiladi. Ayni vaqtda umumkasbiy fanlarni o'qitish jarayonida estetik elementlarni (dizayn, ergonomika, professional etika va estetika) uyg'unlashtirish orqali mutaxassisning madaniy paradigmasini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

Akseologiya (yunoncha axios – qadriyat, logos – ta'limot) – qadriyatlar tabiati, tuzilishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'rni haqidagi falsafiy ta'limotdir. Ayniqsa pedagogika va tasviriy san'at ta'limida akseologik yondashuv talabaning

badiiy-estetik savodxonligini shakllantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Badiiy-estetik savodxonlikni shakllantirish jarayonida aksiologik tahlil shaxsning ma’naviy-madaniy dunyoqarashini tizimlashtiruvchi fundamental metodologiya sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan to‘rtta tarkibiy komponentni o‘z ichiga olgan yaxlit model asosiga qurilgan bo‘lib, u talabaning estetik rivojlanish trayektoriyasini belgilab beradi. Ushbu modelning kognitiv komponenti estetik qadriyatlar, badiiy qonuniyatlar va san’at tarixi haqidagi fundamental bilimlar bazasini shakllantirsa, emotsional-aksiologik komponent san’at asarlariga nisbatan subyektiv hissiy-baholovchi munosabatni va estetik idrokning chuqurligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, faoliyat komponenti talabaning bevosita ijodiy amaliyot orqali qadriyatlarni anglashini hamda nazariy bilimlarni kreativ faoliyatga transformatsiya qilishini ifodalaydi. Jarayonning yakuniy va boshqaruvchi bo‘g‘ini bo‘lgan refleksiv komponent esa shaxsning o‘z estetik pozitsiyasini, badiiy didini va qadriyatlar tizimini tahliliy jihatdan qayta ko‘rib chiqishi hamda o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun zamin yaratadi. Bunday kompleks yondashuv talabalarda badiiy-estetik savodxonlikni shunchaki ma’lumotlar majmuasi sifatida emas, balki barqaror shaxsiy kompetensiya darajasida shakllantirish imkonini beradi.

Aksiologiyaning zamonaviy ta’lim paradigmasidagi dolzarbligi bugungi kunda kuzatilayotgan global qadriyatlar inqirozi, iste’molchilik mentalitetining ustuvorligi va madaniy fragmentatsiya kabi murakkab sotsiomadaniy jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu ziddiyatli muhitda aksiologik yondashuv yoshlarda yot g‘oyalar va "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta’sirlariga nisbatan mustahkam ma’naviy immunitetni shakllantirishning asosiy vositasiga aylanmoqda. Shu bilan birga, u milliy o‘zlikni anglash va madaniy identifikatsiyani barqarorlashtirish orqali talabaning dunyoqarashini umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg‘unligida boyitishga xizmat qiladi. Binobarin, aksiologiya ta’lim jarayonini quruq texnologik va axborot uzatish tizimidan ma’naviy-axloqiy mazmun bilan yo‘g‘rilgan, shaxs kamolotiga yo‘naltirilgan jonli pedagogik tizimga aylantiruvchi strategik resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim jarayoni faqat bilim berish emas, balki shaxsning qadriy pozitsiyasini shakllantirish maydonidir. Agar ta’lim mazmuni qadriy asosga tayanmasa, u texnik va instrumental xarakter kasb etib qoladi.

Wilhelm Windelband qadriyatlarni normativ mezon sifatida talqin qilib, madaniyat taraqqiyoti aynan qadriy mezonlar bilan belgilanadi, degan g‘oyani ilgari surgan. Bugungi pedagogik islohotlar ham shaxsga yo‘naltirilgan, qadriy asoslangan ta’lim konsepsiyasini talab qilmoqda.

Shu jihatdan akseologiya ta’lim mazmunini ma’naviylashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, estetik ongni rivojlantirish, shaxsning madaniy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Akseologiya qadriyatlarning nazariy tahlili bilan bir qatorda, ularni pedagogik amaliyotga tatbiq etish imkonini beruvchi metodologik platformadir. Oliy ta’lim tashkilotlarida, xususan tasviriy san’at ta’limida akseologik yondashuv

talabalarning badiiy-estetik savodxonligini oshirishda konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi. Qadriy yo‘nalganlikni shakllantirish — zamonaviy pedagogikaning strategik vazifasidir.

Badiiy-estetik savodxonlik — bu shaxsning san’at asarlarini idrok etish, tahlil qilish, baholash hamda estetik qadriyatlarni anglash va ulardan hayot faoliyatida ongli ravishda foydalana olish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- estetik bilim va tushunchalar;
- badiiy did va estetik baholash malakasi;
- san’at turlarini farqlash va tahlil qilish qobiliyati;
- milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlarga hurmat.

Ilmiy manbalarda badiiy-estetik savodxonlik ko‘pincha san’at asarlarini idrok etish va baholash bilan bog‘liq tushuncha sifatida izohlanadi. Biroq bunday yondashuv mazkur tushunchaning pedagogik imkoniyatlarini to‘liq ochib bera olmaydi. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko‘ra, badiiy-estetik savodxonlik shaxsning estetik ong darajasi, qadriyatlarga munosabati va ijodiy faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab integrativ sifatdir.

Mualliflik yondashuviga ko‘ra, badiiy-estetik savodxonlik — bu talabaning san’at va madaniyat hodisalarini ongli tahlil qilishi, estetik mezonlar asosida baholashi hamda ijodiy faoliyat jarayonida estetik qarashlarini namoyon eta olishi bilan tavsiflanadi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, badiiy-estetik savodxonlik tushunchasi ko‘pincha estetik did, badiiy tafakkur, san’atni idrok etish kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Biroq mazkur tushuncha faqat bilim va ko‘nikmalar majmui bilangina cheklanmay, balki shaxsning qadriyatlar tizimi, estetik munosabati va ijodiy faolligini ham o‘z ichiga oluvchi kompleks pedagogik sifat sifatida qaralishi lozim. Shu jihatdan akseologik yondashuv badiiy-estetik savodxonlikni shakllantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi davrda oliy ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda doimiy ravishda yangilanib, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan strategik vazifalarni amalga oshirmoqda. Ta’lim jarayonida talabalarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, balki ularning estetik dunyoqarashi, badiiy tafakkuri va qadriyatlar tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois oliy ta’lim sharoitida badiiy-estetik savodxonlikni oshirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Badiiy-estetik savodxonlik shaxsning san’at va madaniyat hodisalarini ongli idrok etishi, ularni tahlil qilishi, baholashi hamda estetik mezonlar asosida ijodiy faoliyatda namoyon eta olishi bilan tavsiflanadi. Ushbu savodxonlik darajasi talabaning estetik ongini, go‘zallikka bo‘lgan ehtiyojini va badiiy qadriyatlarga munosabatini belgilaydi. Oliy ta’lim tashkilotlarida mazkur sifatni rivojlantirish talabalarning intellektual va ma’naviy kamolotini ta’minlashda muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Oliy ta'lim sharoitida badiiy-estetik savodxonlikni oshirish jarayoni tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Avvalo, ta'lim mazmunida san'at, madaniyat va milliy meros bilan bog'liq bilimlarning yetarli darajada integratsiyalashuvi ta'minlanishi lozim. Fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari talabalarning estetik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jumladan, tasviriy san'at, dizayn, madaniyatshunoslik, falsafa va pedagogika fanlarining o'zaro uyg'unligi badiiy-estetik savodxonlikni oshirishda samarali natija beradi.

Mazkur jarayonda akseologik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Aksiologik yondashuv talabalarda estetik qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish, milliy va umuminsoniy badiiy merosga hurmat tuyg'usini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabaning shaxsiy pozitsiyasini, estetik ideallarini va madaniy identifikatsiyasini mustahkamlaydi. Natijada badiiy-estetik savodxonlik shaxsning ichki ehtiyoji va hayotiy tamoyiliga aylanadi.

Badiiy-estetik savodxonlikni oshirishda kompetensiyaviy yondashuv ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, estetik bilimlar faqat nazariy darajada emas, balki amaliy faoliyat orqali o'zlashtirilishi zarur. Talabalarning ijodiy loyihalarda ishtirok etishi, badiiy ishlanmalar yaratishi, san'at asarlarini tahlil qilishi va baholashi ularning estetik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, mustaqil va tanqidiy fikrlash, ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Oliy ta'lim sharoitida badiiy-estetik savodxonlikni oshirishda o'qituvchining pedagogik mahorati va innovatsion yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli ta'lim va loyiha asosida o'qitish usullaridan foydalanish talabalarning estetik faolligini oshiradi. Ayniqsa, vizual materiallar, raqamli san'at resurslari va multimediali vositalardan foydalanish estetik idrokni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida milliy madaniyat va san'at namunalariga tayanish badiiy-estetik savodxonlikni oshirishning muhim omillaridan biridir. Milliy an'analar, xalq amaliy san'ati, me'morchilik va tasviriy san'at namunalarini o'rganish talabalarda milliy g'urur va estetik mas'uliyatni shakllantiradi. Bu jarayon global madaniyat bilan uyg'un holda tashkil etilganda, talabalarning estetik dunyoqarashi yanada boyiydi va kengayadi.

Badiiy-estetik savodxonlikni oshirish faqat auditoriya mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmasligi lozim. Ta'limdan tashqari faoliyat, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ko'rgazmalar, ijodiy uchrashuvlar va san'at festivallari talabalarning estetik tajribasini boyitadi. Bunday faoliyatlar talabaning ijodiy salohiyatini ochishga, san'atga bo'lgan qiziqishini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida badiiy-estetik savodxonlikni rivojlantirish ehtiyoji bir qator ijtimoiy-pedagogik omillar bilan belgilanadi. Jumladan:

- globallashuv jarayonida milliy estetik qadriyatlarning transformatsiyalanishi;
- raqamli muhitda vizual madaniyatning ustunlik qilishi;

- talabalarda tanqidiy estetik tafakkurning yetarli darajada shakllanmaganligi.
- Mazkur omillar oliy ta'lim jarayonida estetik tarbiyaga tizimli va maqsadli yondashishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning badiiy-estetik savodxonligini rivojlantirish jarayoni ko'p qirrali metodologik yondashuvlar sinteziga tayanadi. Bu borada aksiologik yondashuv fundamental asos bo'lib xizmat qiladi; ta'kidlanganidek, u talabalarda barqaror estetik qadriyatlar tizimini qaror toptirishga yo'naltirilgan. Mazkur yondashuv doirasida milliy va umuminsoniy san'at durdonalari shunchaki o'quv materiali emas, balki shaxsning dunyoqarashini boyituvchi asosiy ma'naviy-tarbiyaviy fenomen sifatida talqin etiladi. Natijada, talabalarda badiiy borliqqa va san'at asarlariga nisbatan yuzaki emas, balki chuqur anglangan, ongli subyektiv munosabat hamda estetik did shakllanadi.

Zamonaviy ta'limning talabi sifatida kompetensiyaviy yondashuv badiiy-estetik savodxonlikni nazariy doiradan amaliy faoliyat tekisligiga olib chiqadi. Ushbu yondashuv ta'lim oluvchilarda san'at asarlarining estetik mohiyatini tahlil qilish, ularni professional darajada baholash va kutilmagan vaziyatlarda kreativ ijodiy yechimlar ishlab chiqish layoqatini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, integrativ yondashuv fanlararo aloqadorlik tamoyili asosida tasviriy san'at, adabiyot, tarix va falsafa kabi fanlar o'rtasidagi uzviy kognitiv bog'liqlikni ta'minlaydi. Bunday tizimli integratsiya talabaning estetik tafakkurini fragmentar (bo'laklangan) holatdan yaxlit va universal ko'rinishga o'tkazadi.

Oliy ta'lim muassasalarida badiiy-estetik savodxonlikni rivojlantirishning amaliy strategiyasi quyidagi ustuvor pedagogik mexanizmlar orqali realizatsiya qilinadi:

-barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar strukturasiga estetik komponentlarni tizimli ravishda integratsiya qilish;

-san'at asarlari bilan ishlashga, badiiy tahlil va diskussiyalarga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

-milliy madaniyat, tarixiy xotira va an'analarni ta'lim jarayoniga singdirish orqali ma'naviy o'zlikni anglash darajasini oshirish;

-talabalarning individual va jamoaviy ijodiy loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun qulay muhit yaratish;

-nazariy bilimlarni bevosita san'at namunalari bilan boyitish maqsadida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ko'rgazmalar, muzey ekskursiyalari va teatr tomoshalarini o'quv jarayonining uzviy qismi sifatida tashkil etish.

Ushbu metodologik va amaliy chora-tadbirlar majmuasi bo'lajak mutaxassisning nafaqat professional bilimlarini, balki uning umummadaniy va estetik dunyoqarashini ham yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim sharoitida badiiy-estetik savodxonlik tushunchasini takomillashtirish talabaning shaxsiy, madaniy va kasbiy rivojiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida tashkil etilgandagina estetik tafakkur va ijodiy salohiyatni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashidov A.A. Estetik tarbiya va san'at pedagogikasi. – Toshkent, 2020.
2. Ashurov R.N. Tasviriy san'at ta'limida estetik tafakkur. – Nukus, 2021.
3. Sultonov I. Pedagogik qadriyatlar va akseologiya. – Toshkent, 2019.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2018.

UDK: 37.02:004

GEYMIFIKATSIYA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA

Kamalova Gulzada Zakirovna,
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilar motivatsiyasini rivojlantirishga erishishning eng samarali yo'li – o'qitish tizimiga geymifikatsiyani tadbiq etish masalasi yoritib berilgan. Shuningdek, geymifikatsiya ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchida o'yin elementlari yordamida axborot muhitida "to'g'ri harakatlanish" ko'nikma, malakalarini, u tomonidan tarqatilayotgan ma'lumotlarni qiziq, ongli, oqilona o'zlashtirishdagi ahamiyati keng ochib berilgan.

Kalitli so'zlar: mediata'lim, geymifikatsiya, axborot muhiti, videoo'yinlar, simulyatorlar, axborot texnologiyalari, o'yin elementlari.

ГЕЙМИФИКАЦИЯ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается наиболее эффективный способ развития мотивации учащихся общеобразовательных учреждений - внедрение геймификации в систему обучения. Также широко раскрывается значение геймификации в повышении эффективности обучения, умений и навыков "правильного поведения" в информационной среде с помощью игровых элементов, интересного, осознанного, рационального усвоения распространяемой им информации.

Ключевые слова: медиаобразование, геймификация, информационная среда, видеоигры, симуляторы, информационные технологии, игровые элементы.

GAMEIFICATION AS A MEANS OF INCREASING THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION

Abstract. This article highlights the most effective way to achieve the development of student motivation in general secondary education institutions - the issue of implementing gamification in the education system. Also, the importance of gamification in increasing the effectiveness of education, the student's skills and abilities of "correct movement" in the information environment using game elements, and the interesting, conscious, and rational assimilation of the information disseminated by him is widely revealed.

Keywords: media education, gamification, information environment, video games, simulators, information technologies, game elements.

Axborotlashuv jarayonlarining shiddatli kechishi va axborot oqimining bevosita inson omili bilan bog‘liqligi zamonaviy mediata’lim tizimida o‘quvchi psixologiyasini birinchi o‘ringa olib chiqmoqda, zero cheksiz va jozibador raqamli makonda an’anaviy dars tushunchasining raqobatbardoshligini ta’minlash o‘qituvchidan yuksak sezgirlik va pedagogik mahoratni talab etmoqda. Yosh avlodning videoo‘yinlar hamda murakkab simulyatorlarga bo‘lgan tabiiy moyilligini inobatga olgan holda, ta’lim jarayoniga geymifikatsiya elementlarini tizimli ravishda tatbiq etish nafaqat o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish, balki uni demokratik tamoyillarga zid bo‘lgan cheklovlar orqali bezdirishning oldini olishda ham hayotiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, globallashuv sharoitida geymifikatsiya mexanizmlaridan foydalanish shunchaki texnik vosita emas, balki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi, yoshlarning intellektual salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltiruvchi hamda ta’lim samaradorligini kafolatlovchi muhim ijtimoiy-pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun ham o‘quvchini geymifikatsiya orqali ta’limga jalb qilish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, axborot makonining globallashuvi sharoitida geymifikatsiyaning o‘rni nihoyatda muhim bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy, psixologik va pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar va olimlarimizning axborot texnologiyalari, o‘yin elementlaridan ta’lim jarayonida foydalanish borasidagi fikrlariga qaramay, ta’limni geymifikatsiyalash mexanizmini ishlab chiqish va yo‘lga qo‘yish masalasi juda dolzarb. XXI asrda ta’limni axborotlashtirish, ochiq ta’lim resurslari hamda ta’limiy dasturlar paketlarining keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq ravishda gamifikatsiya yoki geymifikatsiya atamasi paydo bo‘ldi.

Geymifikatsiya atamasi amerikalik pedagoglar 2008 yilda M. Porenski, 2012 yilda K. Kappalarning monografiyalari nashr etilgandan so‘ng pedagogikada keng tarqaldi. K. Kappning fikriga ko‘ra, gemifikatsiya - bu «o‘yin texnologiyalarini o‘yindan tashqari jarayonlarga, shu jumladan ta’limga joriy etish, shuningdek, «turli xil muammolarni o‘rganish va hal qilishga odamlarni jalb qilish va ularning motivatsiyasini oshirish uchun o‘yin mexanikasi, estetikasi va o‘yin tafakkuridan foydalanish» [1]. Oksford lug‘atida esa geymifikatsiyaga quyidagicha ta’rif berilgan: «Mahsulot yoki xizmat bilan aloqani oshirish uchun odatiy o‘yin marketing elementlaridan (masalan, fikrlar, raqobat elementlari, o‘yin qoidalari) boshqa faoliyat sohalarida, ko‘pincha onlayn marketing texnikasi sifatida foydalanish” [5].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, «geymifikatsiya» tushunchasi va «o‘yin» tushunchasi aslida bir xil emas. Geymifikatsiya o‘yinning ba’zi elementlaridan professional, ammo qisman ko‘ngilochar maqsadlarida foydalanishni o‘z ichiga oladi [3]. O‘yin esa, tizim bo‘lsada, abstrakt vaziyat bo‘lib, unda ishtirokchilar ma’lum bir rolga va qoidalarga ega bo‘ladilar, ma’lum bir natijaga erishadilar. Odatda bunday o‘yinlardan olingan natija ta’lim yoki mehnat maqsadlari bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Geymifikatsiya, hozirgi ta’lim metodikasida mavjud bo‘lgan ko‘plab o‘yin amaliyotlaridan (masalan, an'anaviy o‘yin, rol o‘ynash, simulyatsiya)

ham farq qiladi, chunki bunda dars, ya'ni reallik o'yinga aylanib qolmaydi, aksincha realligicha qoladi, ammo shu bilan birga o'quvchiga reallikka aloqador o'yin munosabatlari beriladi [3].

Geymifikatsiya o'quvchi uchun faqatgina ball to'plash jarayoniga aylanib qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun geymifikatsiya davomida ham ta'lim, ham o'yin vazifalari qo'yiladi. Shuningdek, o'yin vazifalari ustuvor ta'lim vazifalarini bajarish uchun ichki motivatsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Boshqa o'yin amaliyotlaridan farqli ravishda, geymifikatsiya faoliyatga taqlid qilish xususiyatiga ega bo'lmay, ta'lim mazmuni va ta'limni tashkil etish usullarini sifat jihatidan o'zgartirishga imkon beradi.

Geymifikatsiyani ta'lim texnologiyasi va ta'lim muhiti sifatida joriy etish tajribasi katta qiziqish uyg'otmoqda.

Geymifikatsiya va raqamli pedagogikada ta'lim taraqqiyotida muhim burilish yasashi mumkin. Shu sababli ham AQSh Ta'lim vazirligi 2013 yildan beri ta'limni geymifikatsiyalashtirish sohasidagi ishlanmalarni moliyalashtirib kelmoqda. Shvetsiyadagi maktablarda qurilish muhandislik tushunchalarini o'rgatadigan Minecraft o'yini, Rossiyada geymifikatsiya elementlarini o'z ichiga olgan eng taniqli ta'lim loyihalaridan biri bo'lgan ingliz tilini o'rganish uchun LinguaLeo onlayn-resursi, Kanadada Shon Yang tomonidan yaratilgan ClassCraft dars-o'yinlari bunga yaqqol misoldir. Ushbu resurslar dunyo davlatlarida katta mashhurlikka erishdi hamda ta'lim bozorida juda yaxshi mavqega ega.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilar motivatsiyasini rivojlantirishga erishishning eng samarali yo'li – o'qitish tizimiga geymifikatsiyani tadbiq etish sanaladi. Geymifikatsiya ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchida o'yin elementlari yordamida axborot muhitida "to'g'ri harakatlanish" ko'nikma, malakalarini, u tomonidan tarqatilayotgan ma'lumotlarni qiziq, ongli, oqilona o'zlashtirish, shuningdek, ushbu o'yin elementlari orqali o'quvchilarni real hayotga tayyorlash muhitini yaratish bilan bog'liq.

Raqamli texnologiyalar sharoitida o'quvchilarga geymifikatsiya yordamida ingliz tilini o'rgatish kelgusi mehnat faoliyatiga yo'naltirilgan kreativ qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini o'lchash va monitoring asosida tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi [4]. Ammo bizning fikrimizcha, geymifikatsiya elementlari bilan boyitilgan darslarni uzluksiz ta'limning 8-9 sinflarida olib borish maqsadga muvofiq, chunki bu bolaning darsga motivatsiyasini stimullashtiradi. Shuningdek, mazkur tadqiqot ishi ob'ekti umumiy o'rta ta'lim maktabi ekanligi ham bizning tadqiqotimizdan tubdan farqli ekanini ko'rsatdi.

Ta'limni geymifikatsiyalashda butun sinf uchun mukofot tizimini joriy etish lozim. Bu o'yinni samarali amalga oshirishning vositasi sifatida xizmat qiladi. O'quvchilar jamoa bo'lib biror natijaga erishadigan mukofot tizimini yaratish orqali ular o'rtasida do'stlikni rag'batlantirish lozim. [2]. Bu jarayon nafaqat raqobat va do'stlik, shuningdek, o'sib kelayotgan shaxsning to'g'ri ijtimoiylashuvi uchun ham juda muhim hisoblanadi. Bunda tashkil etilgan "birlashmalar" o'ziga xos ijtimoiy institut vazifasini o'taydi. Masalan, bu jarayonda o'qituvchi butun

sinfga, aytaylik, 85% ballga loyiq nazorat ishi yozish yoki 10 ta savolli test topshiriqlarida 2 tadan ortiq xato qilmaslik kabi shart qo‘yishi mumkin. Bunda butun sinf yuqoridagi shartga moslashish uchun bir-biriga yordam beradi, o‘zlashtirishi past o‘quvchini talab doirasida javob berishini o‘zaro nazoratga oladi, ayrim hollarda, darsdan tashqari vaqtda bolalar mustaqil guruh bo‘lib darsga tayyorlana boshlaydilar. Natijada, mukofot sifatida sinfdagi barcha o‘quvchilarga qo‘shimcha bonus ballar berilishi yoki muzey, xiyobon, bolalar maydonchalariga ekskursiya tashkil etilishi mumkin. Buning o‘rniga maqtov yorliqlari, sertifikat kabilarni joriy etish ham yaxshi samara beradi. Bunda berilgan topshiriq mavzusini ham hisobga olish va ovozga qo‘yish lozim.

Ta’lim jarayoniga geymifikatsiyani kiritishda, o‘yin mexanizmidan foydalanish zaruriyati mavjud. Bu mexanizm geymifikatsiya nazariyasining bir qismi hisoblanadi. Bunda o‘yin texnologiyasini ta’limga joriy etishga harakatlarning aksariyati bilan bog‘liq muammo shundaki, o‘qituvchilar o‘yinning yakuni asosan muhim, o‘quvchi g‘alaba nishoni bilan taqdirlanishning o‘zigina o‘yinlardan foydalanish hisoblanadi, deb noto‘g‘ri qarashadi. Bu qarashlar tubdan noto‘g‘ri, chunki, o‘yin nazariyotchilari o‘yinlarda o‘quvchilarni qatnashishga chinakam rag‘batlantirishning 24 usulini ochib berishgan. O‘quvchini istalgan o‘yinga samarali jalb qilish uchun o‘qituvchi o‘yin mexanizmini tushunishi kerak [6]. O‘yin mexanizmi o‘yin printsipini, undagi asosiy sabablardan kelib chiqadigan munosabatlarini nazarda tutadi. Bunda ma’lum bir tarzda harakat qilibgina o‘quvchi kutilgan bir nechta variantdagi natijaga erishadi. Masalan, o‘yin orqali tashkil etilgan testlarni topshirishda o‘quvchilar yangi qobiliyatlarga ega bo‘lishlari mumkin, bunda to‘plangan resurslarning ma’lum miqdori o‘quvchiga ilgarilash imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, o‘quvchilarning barcha harakatlari oldindan belgilangan ma’lum natijalarga olib kelishi kerak va voqealarning kechishi ularning tanloviga bog‘liq bo‘lishi kerak. Bunda siz samarali, ammo ko‘p vaqt talab qiladigan texnikalardan ham foydalanishingiz mumkin. Agar siz minoralarga borish kerak bo‘lgan vazifani eslayotgan bo‘lsangiz, undagi syujetni shunday tashkil etishingiz kerakki, har bir begona kishi bilan bo‘ladigan suhbatning natijasi o‘yinning keyingi rivojlanishiga ta’sir qiladigan bo‘lsin.

Ta’limni geymifikalashda dars jarayoni shunchaki o‘yin-kulgi va hordiq chiqarishga aylanib qoladi, deb o‘ylash noto‘g‘ri, lekin har qanaqasiga o‘yinlar bir qator boshqa ta’lim faoliyatlari bilan birlashtirilganini ham ta’kidlash lozim. Geymifikatsiya usullari ma’ruzalar, muhokamalar, hisobotlar, uy vazifalari, sayohatlar va testlar kabi an'anaviy ta’lim vositalari safini birmuncha kengaytiradi va ularni odatiy zerikarli muhitdan noan'anaviy qiziqarli, g‘ayratni uyg‘otadigan muhitga o‘tkazishga xizmat qiladi.

Geymifikatsiya ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchida o‘yin elementlari yordamida axborot muhitida “to‘g‘ri harakatlanish” ko‘nikma, malakalarini, u tomonidan tarqatilayotgan ma’lumotlarni qiziq, ongli, oqilona o‘zlashtirish, shuningdek, ushbu o‘yin elementlari orqali o‘quvchilarni real hayotga tayyorlash muhitini yaratish bilan bog‘liq. Qanday nomlanishidan qat’iy nazar geymifikatsiya - jamiyatda barkamol shaxsda kreativ kompetensiyalarni shakllantirishga

yo‘naltirilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat, uning tashkil etilish jarayonining huquqiy masalalari deklaratsiya, konsepsiya, qonun, model, davlat ta’lim standartlari, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasida esa, milliy dastur yoki milliy o‘quv reja shaklida ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кавтарадзе Д.Н. Обучение и игра: введение в интерактивные методы обучения / Д.Н. Кавтарадзе. - 2-е изд. -М.: Просвещение, 2009.
2. Kapp K. The Gamification of Learning and Instruction. John Wiley & Sons, 2012.
3. Орлова О.В., Титова В.Н. Геймификация как способ организации обучения // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2015. № 9. С. 60-64.
4. Шавкиева Дилфуза. Рақамли технологиялар шароитида талабаларга геймификация ёрдамида инглиз тилини ўргатишнинг педагогик – концептуал асослари. «Хорижий тилларни ўрганишнинг инновацион технологиялари» мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. (16-17октябр 2020 йил) – Самарқанд.: СамДЧТИ, 2020.75-б.
5. English Oxforf Living Dictionnaries online. URL: https://en.oxforddictionaries.com/definition/gamification
6. Платформа Mathletics. (2021). URL: http://www.mathletics.eu/

UDK: 373.3:37.016:811.111

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI TEZKOR O'ZLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Saparbaeva Sulıwxan Ken'esbay qızı,
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining boshlang'ich ta'lim tizimida ingliz tilini tezkor o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv mazmunining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Ingliz tilini tezkor o'zlashtirish tushunchasi ta'lim sur'ati bilan emas, balki yoshga mos, kommunikativ va tizimli tashkil etilgan o'quv mazmuni bilan izohlanadi. Tadqiqot kommunikativ til o'qitish, kirish (input) nazariyasi va integratsiyalashgan nutq ko'nikmalarini rivojlantirish tamoyillariga asoslangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ingliz tilini tez o'zlashtirish, ta'lim mazmuni, kommunikativ yondashuv, integratsiyalashgan ko'nikmalar.

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ БЫСТРОГО УСВОЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В последние годы введение английского языка в качестве обязательного предмета с начальных классов в системе образования Республики Узбекистан обусловило необходимость теоретического и практического переосмысления содержания обучения иностранным языкам. Быстрое усвоение английского языка на начальном этапе определяется не темпом обучения, а содержанием учебного материала, организованного с учетом возрастных, психологических и когнитивных особенностей учащихся. В статье анализируются теоретические основы содержания, направленного на развитие навыков быстрого усвоения английского языка в начальных классах в рамках национальной учебной программы Республики Узбекистан. Исследование опирается на принципы коммуникативного обучения иностранным языкам, теорию языкового ввода и интеграцию речевых навыков.

Ключевые слова: начальное образование, быстрое овладение английским языком, содержание обучения, коммуникативный подход, интегрированные навыки.

CONTENT OF DEVELOPMENT OF SKILLS OF QUICK LEARNING OF ENGLISH IN PRIMARY SCHOOLS

Abstract. In recent years, the introduction of English as a compulsory subject from the primary grades in the education system of the Republic of Uzbekistan has necessitated a theoretical and practical reconsideration of foreign language

teaching content. Rapid English language acquisition at the primary level is determined not by the pace of instruction but by the organization of learning content in accordance with learners' age-related, psychological, and cognitive characteristics. This article analyzes the theoretical foundations of content aimed at developing rapid English language acquisition skills in primary grades within the framework of Uzbekistan's national curriculum. The study is based on the principles of communicative language teaching, input theory, and integrated language skills development.

Keywords: primary education, rapid acquisition of English, educational content, communicative approach, integrated skills.

Bugungi kunda ingliz tili global miqyosda ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida asosiy muloqot vositasiga aylangan. Shu bois ko‘plab mamlakatlarda, jumladan O‘zbekistonda ham ingliz tilini erta yoshdan o‘rgatish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ–1875-sonli qarori xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o‘rganish tizimini tubdan takomillashtirishga xizmat qilgan muhim hujjat hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xorijiy tilni o‘zlashtirishga bo‘lgan tabiiy moyillikni ilmiy asoslangan pedagogik strategiyalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanish xususiyatlari, xususan, sensor idrok etishning yuqoriligi va axborotni mexanik xotira yordamida tezkor muhrlash qobiliyati til muhitiga adaptatsiya bo‘lish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Tilni tezkor o‘zlashtirishning mohiyati o‘quvchi ongiga haddan tashqari ko‘p leksik yoki grammatik yuklamalarni kiritishda emas, balki ularning emotsional intellektini faollashtiruvchi va qiziqishlarini rag‘batlantiruvchi metodik muhitni yaratishda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik yondashuvning kommunikativ yo‘naltirilganligi o‘quvchining tildan qo‘rqmaslik va xato qilishdan cho‘chimaslik instinktini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda o‘quv mazmuni nafaqat til birliklarini o‘rgatishga, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga, ya’ni o‘zaro hamkorlik, fikr almashish va tushunishga qaratilgan bo‘lishi shart. O‘quv materialining vizualizatsiyalashganligi va interaktiv shaklda taqdim etilishi bolaning dars davomida diqqat markazida qolishini ta’minlaydi va o‘rganilayotgan tushunchalarni real hayotiy obrazlar bilan bog‘lash imkonini beradi. Natijada til shunchaki yod olinadigan fan emas, balki bolaning kundalik faoliyatida qo‘llashi mumkin bo‘lgan jonli vositaga aylanadi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, samarali o‘qitish mazmuni o‘quvchining psixofiziologik tayyorgarligi bilan hamohang bo‘lgandagina kutilgan natijani beradi. Bu o‘rinda o‘qituvchining mahorati o‘quv dasturini shunday modulyatsiyalashdan iboratki, unda har bir mashg‘ulot yangi kashfiyotdek tuyulishi, o‘quvchining mustaqil munosabat bildirishiga keng maydon yaratishi lozim. Bunday tizimli yondashuv boshlang‘ich sinf bitiruvchilarida til o‘rganishga nisbatan barqaror motivatsiyani shakllantiradi va keyingi bosqichlarda

murakkabroq til tuzilmalarini oson o‘zlashtirish uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi.

Mazkur tadqiqot tegishli tadqiqot metodologiyasi asosida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida ingliz tilini boshlang‘ich sinflarda tezkor o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv mazmuni tizimli ravishda o‘rganildi. Asosiy e’tibor o‘quv dasturi mazmunining ilmiy-nazariy asoslari hamda uning amaliyotda qanday tatbiq etilayotganini aniqlashga qaratildi.

Tadqiqotda tahliliy, tavsifiy va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar o‘quv dasturidagi mazmuniy yo‘nalishlarni aniqlash, ularning pedagogik samaradorligini baholash hamda real dars jarayonlari bilan taqqoslash imkonini berdi. Sifatli metodologiyaning tanlanishi tadqiqot mavzusining murakkabligi va o‘rganilayotgan jarayonning kontekstual xususiyatlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan 1–4-sinflar uchun ingliz tili o‘quv dasturi, amaldagi darsliklar, shuningdek, metodik qo‘llanmalar tanlandi. Ushbu manbalar boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitish mazmunini belgilovchi asosiy hujjatlar hisoblanadi.

Bundan tashqari, tadqiqot doirasida shahar va qishloq hududlarida joylashgan umumta’lim maktablarida olib borilgan ingliz tili darslari kuzatildi. Dars kuzatuvlari o‘quv dasturida belgilangan metodik talablarning real ta’lim jarayonida qay darajada amalga oshirilayotganini aniqlashga xizmat qildi.

Boshlang‘ich sinflar uchun ingliz tili o‘quv dasturi mazmuniy va metodik jihatdan chuqur tahlil qilindi. Tahlil jarayonida quyidagi asosiy mezonlarga alohida e’tibor qaratildi:

- nutq faoliyatining to‘rt turi — tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarining o‘zaro integratsiyasi va bosqichma-bosqich rivojlantirilishi;
- lug‘at va grammatik materiallarning yosh xususiyatlariga mos holda tanlanishi va izchil ketma-ketlikda berilishi;
- kommunikativ mashqlar, o‘yinlar va interaktiv faoliyatlarning o‘quv jarayonidagi ulushi;
- o‘quv mazmunining o‘quvchilarning yosh, psixologik va kognitiv xususiyatlariga mosligi.

Mazkur tahlil orqali o‘quv dasturining nazariy asoslanganligi, zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlarga mosligi va tezkor til o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi jihatlari aniqlab berildi.

Dars kuzatuvlari maxsus ishlab chiqilgan strukturaviy kuzatuv varaqalari asosida amalga oshirildi. Kuzatuvlar jarayonida o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilayotgan metodlar, mashq va faoliyat turlari, o‘quvchilarning darsdagi faolligi hamda muloqotga kirishish darajasi tizimli ravishda qayd etildi.

Shuningdek, o‘quvchilarning ingliz tilini real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash holatlari, ya’ni savollarga javob berish, dialoglarda ishtirok etish va o‘yinli mashqlarda til birliklaridan foydalanish jarayonlari tahlil qilindi. Kuzatuv natijalari o‘quv mazmunining amaliy samaradorligini aniqlashga imkon berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini tezkor o‘zlashtirish jarayonida tinglab tushunish (listening) va gapirish (speaking) ko‘nikmalariga ustuvor ahamiyat berilishi o‘quvchi nutqining tabiiy shakllanishini ta’minlovchi asosiy pedagogik omil hisoblanadi. Insonning til o‘zlashtirish tabiatiga ko‘ra, og‘zaki nutq kompetensiyalari yozma ko‘nikmalardan oldin shakllanadi; bu esa o‘quv dasturida mazkur ikki ko‘nikmaning poydevor sifatida belgilanishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O‘qish va yozish ko‘nikmalarining bosqichma-bosqich, o‘quvchilarning kognitiv tayyorgarlik darajasiga mos holda joriy etilishi boladagi "til to‘sig‘i" (language barrier) paydo bo‘lishining oldini oladi. Bu yondashuv o‘quvchilarga tilni grammatik qoidalar yig‘indisi emas, balki jonli muloqot vositasi sifatida qabul qilish imkonini beradi. Dars kuzatuvlari shuni tasdiqladiki, dastlabki bosqichda ko‘proq audio-vizual materiallar bilan ishlagan o‘quvchilarning talaffuz madaniyati va intonatsion aniqligi an’anaviy metodda o‘qigan tengdoshlariga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo‘ladi.

O‘quv dasturidagi lug‘at materiallarining o‘quvchilarning kundalik hayoti, shaxsiy qiziqishlari va ijtimoiy tajribasiga (oila, o‘yinchoqlar, hayvonlar, kundalik tartib) bog‘lanishi "kontekstual o‘rganish" samaradorligini oshiradi. Lug‘at birliklarining mavhum tushunchalar emas, balki bolaning hayotiy ehtiyojlari bilan bog‘liq holda taqdim etilishi neyrolingvistik jihatdan xotirada uzoq saqlanishiga va so‘zlarni passiv lug‘atdan aktiv nutqqa tezroq o‘tishiga xizmat qiladi.

Natijada, o‘quvchi o‘rgangan so‘zlarini shunchaki takrorlamasdan, ularni yangi vaziyatlarda ijodiy qo‘llashga, ya’ni produktiv muloqotga kirishishga o‘tadi. Bu esa boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadi bo‘lgan kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Dars kuzatuvlari davomida lug‘at birliklarining o‘yinlar, vizual vositalar, rasmlar va qisqa hikoyalar orqali takroriy va kontekstual tarzda o‘rgatilishi yuqori samaradorlik bergani aniqlandi. Bu esa lug‘atni mexanik yodlash emas, balki mazmunli o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili grammatikasi alohida qoidalar majmuasi sifatida emas, balki kommunikativ vaziyatlar doirasida funksional tarzda o‘rgatilmoqda. Grammatik birliklar o‘quvchilarga tayyor nutq namunalari orqali berilib, muloqot jarayonida tabiiy ravishda o‘zlashtiriladi.

Mazkur yondashuv o‘quvchilarning grammatik tuzilmalarni ongli yodlashdan ko‘ra, intuitiv tarzda qabul qilishiga imkon yaratadi. Natijada grammatik xatolar kamroq uchraydi va o‘quvchilarning nutqiy faolligi oshadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dars jarayonida interaktiv va o‘yinli metodlardan keng foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Bunday metodlar o‘quvchilarni erkin muloqotga jalb etib, qo‘rquv va ishonchsizlik kabi affektiv to‘siqlarni kamaytiradi.

Affektiv omillarning pasayishi ingliz tilini tezkor o‘zlashtirish uchun muhim psixologik sharoit yaratadi. O‘quvchilar tilni o‘rganishni majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli va mazmunli faoliyat sifatida qabul qila boshlaydilar.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston boshlang‘ich ta’lim tizimida ingliz tilini tezkor o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmunining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yoshga mos, kommunikativ va integratsiyalashgan o‘quv mazmuni o‘quvchilarning ingliz tilini tezkor va barqaror o‘zlashtirishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish samaradorligi bevosita o‘quv mazmunining ilmiy asoslanganligi va uning amaliyotda to‘g‘ri tatbiq etilishiga bog‘liq. Kelgusida mazkur yo‘nalishda empirik va miqdoriy tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xorijiy tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori (PQ–1875, 2012.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining boshlang‘ich sinflar uchun ingliz tili o‘quv dasturi.
3. Krashen, S. D. (1982). Principles and practice in second language acquisition. Pergamon Press.
4. Krashen, S. D. (1985). The input hypothesis: Issues and implications. Longman.
5. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). How languages are learned (4-nashr). Oxford University Press.
6. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). Teaching ESL/EFL listening and speaking.

UDK: 37.013.42:28-423

HADISLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA VOSITASI SIFATIDAGI AHAMIYATI

Abdiramanov Bahadır Saǵıydullaevich,
Nukus DPI "Pedagogika" kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim jarayonlarida diniy qadriyatlardan foydalanish, hadislarni o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari, ma'naviy-axloqiy komillikka yetkazish vositasi sifatidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: diniy qadriyatlar, umummadaniy kompetensiya, hadislar, axloqiy-ma'naviy qiyofa, halollik, pok, soflik, komil imon.

ЗНАЧЕНИЕ ХАДИСОВ КАК СРЕДСТВА ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. В данной статье освещается использование религиозных ценностей в образовательных процессах в общеобразовательных школах, возможности развития общекультурных компетенций учащихся, значение хадисов как средства достижения духовно-нравственного совершенства.

Ключевые слова: религиозные ценности, общекультурная компетенция, хадисы, нравственно-духовный облик, честность, чистота, чистота, совершенная вера.

THE IMPORTANCE OF HADITHS AS A MEANS OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION

Abstract. This article highlights the use of religious values in the educational process in general education schools, the possibilities of developing students' general cultural competencies, and the importance of hadiths as a means of achieving spiritual and moral perfection.

Keywords: religious values, general cultural competence, hadiths, moral and spiritual image, honesty, purity, integrity, perfect faith.

Respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim jarayonlarida diniy qadriyatlardan foydalanish, hadislarni o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari va shart-sharoitlarini aniqlash, ijobiy dunyoqarash bilan aloqador jihatlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslash, shuningdek, mazkur hadislarning o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, hadislardan tizimli tarzda foydalanish usullari, metodlari va texnologiyalarini hamda ushbu maqsadga yo'naltirilgan jarayon modelini ishlab chiqish zarurati

kuchaymoqda. Diniy qadriyatlarning pedagogik ta'limotlarini o'rganish va shu asosda o'quvchilar umummadaniy kompetensiyalarini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri sifatida belgilandi. "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish" [6] ustuvor maqsadidan kelib chiqib ajdodlarimiz merosining olamshumul ahamiyatini o'rganish, hadisshunoslik ilmini rijojlantirish, mutafakkirlarning umummadaniy tarbiyaga oid qarashlaridan pedagogik amaliyotda keng foydalanish kabi jihatlarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda milliy maktabni va unda milliy mazmunga ega ta'lim-tarbiya tizimi barpo qilish ehtiyoji dinni va hadislarni o'rganishni taqozo qiladi. Din va hadislarni o'rganish taqvodorlik yoki din hukmronligi nuqtai-nazaridan emas, balki umumiy madaniy saviya, ma'naviyat nuqtai-nazaridan zarurdir. Bunda Islom dini va uning tarixini hamda uning boshqa dunyoviy dinlar tizimida o'rnini qiyosiy o'rganish lozim. Demak, hadislardan foydalanish o'sib kelayotgan yoshlarni mehnat qilish, ilm olish, matonatli, g'ayratli hamda ma'naviyatli bo'lish va axloq-odobning oltin qoidalarini o'zlashtirishda shuningdek, umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarga hadislar vositasida odob o'rgatish, umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim va tarbiyaning boshqa shakl va metodlari tizimida ijobiy natija berishi hammamizga ma'lum. Chunki hadislar o'z mohiyati bilan insonlar tabiatiga, milliy ruhiga yaqin turadi. Bu yaqinlik hadislarning insonlar yashash tarzi, milliy ruhiga zo'rovonlik bilan emas, balki ixtiyoriy ehtiyoj, ma'naviy oziq sifatida kiritilishidir. Tadqiqotda tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish, tasniflash usullaridan foydalanilgan.

Umummadaniy kompetensiyalarga O'zbekiston olimlari ko'proq o'z tadqiqotlarida milliy qadriyatlar, ma'naviy va axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog'laydi. Bunda: milliy o'zlikni anglash, ma'naviy barkamollik, vatanparvarlik va fuqoralik ma'suliyat shunungdek, insoniy fazilatlar nazarda tutiladi. Milliy o'zlikni anglash o'quvchilarda o'z tarixini, urf-odatlarni, an'analarni bilishi va ularni hurmat qilishi tushuniladi. Ma'naviy barkamollikda esa din, Hadislar, Sharq mutafakkirlari merosi asosida yoshlarni ma'naviy-axloqiy komillikka yetkazish nazarda tutiladi. Vatanparvarlik va fuqoralik ma'suliyat deganda yosh avlodning o'z yurtiga sodiq, jamiyat oldida ma'suliyatli bo'lishini ta'minlovchi sifati deb keltirilsa, insoniy fazilatlar sifatida halollik, mehr-shafqat, ota-onaga hurmat, atrofdagilar bilan sog'lom munosabatni shakllantirish asosiy mezonlar hisoblanadi. Shunday qilib O'zbekistonlik olimlar umuminsoniy kompetensiyaning mazmuni-shaxsning milliy qadriyatlar asosida shakllangan ma'naviy-axloqiy qiyofasi sifatida izohlaydi.

Rus olimasi I.A.Zimyaya esa "Umummadaniy kompetensiya- shaxsning jamiyatda yashsash, muloqat qilish va ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan umumiy tayyorgarlik darajasi" –deb keltirib o'tadi [4].

Shuningdek, rossiyalik olim A.V.Xutorskoy "Umummadaniy kompetensiya-ta'lim oluvchining madaniy meros, san'at, urf-odat va ijtimoiy qadriyatlarni anglab

yetishi hamda kundalik hayotda ulardan foydalana olish qobiliyati" [9] sifatida ta'riflaydi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari olimlari "umummadaniy kompetensiya"ni ko'piroq ijtimoiy faoliyat, kommunikativ madaniyat va shaxsning fuqoralik kompetensiyalari nuqtayi nazaridan talqin qiladi. Bunda: Jamiyatga moslashuv, multimadaniyat, hayotiy ko'nikmalar nazarda tutiladi. Olimlar jamiyatga moslashuv deganda o'quvchilarning ijtimoiy muhitga kirishishi, hamkorlikda ishlashi, jamiyat talablariga moslashishi tushunilsa, hayotiy ko'nikmalar esa huquqiy savodxonlik, sog'lom turmush tarsi, o'zini boshqarish madaniyati sifatida izohlanadi. Shunday ekan, MDH olimlari "umummadaniy kompetensiya"ni jamiyatda faol va samarali ijtimoiy hayot kechirish ko'nikmalari sifatida talqin qiladi.

Buyuk Britaniyalik olim J. Raven o'z tadqiqotida "Madaniy kompetentlik - bu shaxsning turli madaniyatlar va ijtimoiy me'yorlarga ega bo'lgan odamlarni tushunish, hurmat qilish va ular bilan samarali muloqot qilish qobiliyatidir" –deya umummadaniy kompetensiyaga tarif beradi[6].

Serqirra hayotimizning barcha sohalari kabi diniy jabhada ham sodir bo'lgan va bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar, kelajakdagi vazifalarimiz xususida ba'zi mulohazalarni bildirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Binobarin, mustaqilligimizni mustahkamlash borasida dindorlar, diniy tashkilotlar oldida ham ma'suliyatli vazifalar turibdi. Eng avvalo shuni ta'kidlash lozimki, azaldan din bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar har qanday jamiyatda ham eng dolzarb va murakkab masalalardan biri bo'lib kelgan. Binobarin, bu masala mustaqil O'zbeksitonimizda ham alohida ahamiyatga ega.

Muhammad payg'ambar hadislaridagi markaziy masala bo'lmish inson kamoloti uning axloqiyligi ma'naviy qiyofasi, halolligi va pokligi, sofligi, komil imonga ega bo'lishi, o'zgalar bilan munosabatlari kabi masalalar bilan chambarchas bog'liqlikda qaraladi. K. Zaripovning ta'kidlashicha "Hadislarda juda ko'p ta'lim-tarbiya oddiy insoniy munosabatlar tizimida berilib, ular inson ruhiyati, ma'naviyatiga o'ta yaqinligi bilan ajralib turadi" [3].

Taniqli hadisshunos, filologiya fanlari doktori U. Uvatov bugungi kun vazifalariga to'xtalib bunday deydi: "Insof-diyonatli, halol-pokiza, mehnatsevar bo'lish, ilm fan va ma'naviyatga intilish kabi yuksak insoniy fazilatlar turmush tarzimizning ajralmas tarkibiga aylanish, mustaqilligimizning sharofati bilan yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalanib, sho'ro tuzumidan qolgan "ulkan" meros-ma'naviy inqirozdan qutilish jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir" [7].

Hadislar Qur'oni Karimda ifoda etilgan murakkab oyatlar mohiyatini kengroq talqin etadi, ularda ilgari surilgan fikrlarni mufassal sharhlaydi, boyitadi, Muhammad payg'ambar tomonidan aytilgan so'zlar, ular tomonidan bajarilgan amallar bilan to'ldiradi.

U. Uvatovning bir ta'kidi juda o'rinlidir: "Payg'ambar allayhissalom hadislari u zoti sharif yashagan davr uchun haqiqiy bir ko'zgu vazifasini ham o'taydi. Chunki ular sarvari olamning hayotlari, xusni-axloqlari, namunaviy jamiyat qurish

uchun ko‘rsatgan sa’yi-harakatlari, adolatu xayri barokatga asoslangan jahdlarni o‘z ichiga oladi” [7].

Umuman olganda, islom ta’limoti mujassamlashgan “Qur’oni Karim” insonni aqliy, axloqiy ham jismonan shakllantirishda muhim manba ekanligi namoyon bo‘ladi.

Islom dini jamiki insonlarni ma’naviy poklikka chorlar ekan, xuddi ana shu maqsadda islom ulamolari tomonidan targ‘ib qilib kelingan. Islom dinini targ‘ib etuvchi ulamolar ham har tomonlama ham ma’naviy, ham axloqiy, jismoniy, ham xulqiy kamolga yetgan insonlardan hisoblanganlar.

Taniqli olim U. Uvatov "Hadis" so‘zini izohlab, shunday deydi: “Payg‘ambar alayhissalomning so‘zlari-yu, amallari, u zoti sharifning ko‘rsatgan yo‘l-yo‘riqlari, hatto uyqulari va bedorliklaridagi hatti-harakatlari - bular hammasi hadis deb yuritiladi”,- deydi va yana shunday qo‘shimcha qiladi: “Payg‘ambar alayhissalom vafotlaridan keyin sahobalarning Rasulullоh haqida aytgan qavllari va axborotlari ham hadislar tarkibiga kiradi” [8].

Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” kitobiga yozilgan “Muqaddima”da hadisga bunday sharh beriladi: “Islom dinining asosiy qonuni (dastur ul-amali) bo‘lgan Qur’oni Karimdan keyin uni izohlovchisi va bayon etuvchisi bo‘lmish Rasulullohning so‘zlagan hikmatli gaplari va qilgan ishlari, ya’ni, qavllari, fe’llari va taqdirlari ul zotning hadislari“ hisoblanadi [5].

Hadislarda insonning kamolga yetishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar o‘z aksini topgan, ular mehr-oqibat ko‘rsatish, ota-ona, kattalar va qarindoshlarga g‘amxo‘rlik, hurmat, sahiylik, ochiq ko‘ngillilik, faqir-bechoralarga muruvvat, Vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug‘lash, halollik, poklik, o‘zaro do‘stlik, tinch-totuv bo‘lish va boshqalar shular jumlasidandir.

Hadislarning ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati uning mazmunidagi mavjud g‘oyaviy yo‘nalishlar bilan bog‘liqdir. Hadislarda go‘zallik haqidagi tushunchalarga munosabati o‘z ifodasini topadi.

Hadislarda insonlarni ilm o‘rganishga chaqiruvchi, ilmning ahamiyatini ko‘rsatib beruvchi rivoyatlarni ham ko‘plab uchratish mumkin: «Ilm egallang. Ilm sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘iz damlarda yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg‘uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir»[1] “Ilmga ilm olish yo‘li bilan erishilur” [1] ,“Ilm o‘rganish har bir mo‘min musulmon uchun farzdir. Ilm tolibi uchun hamma narsa, xatto dengizdagi baliqlar ham gunohini so‘rab istig‘for aytadi (kechirim so‘raydi) [5].

Ota-onasini rozi qilgan kishining umri uzoq bo‘lishi haqida “Kim ota-onasini rozi qilsa tubo nasib bo‘lib “Olloh taolo uning umrini ham ziyoda qiladi” - deyilgan hadisni keltirish mumkin.

Hadislarda insoniy xislatlardan ezgulik, iffat, sabr-qanoat va shukronalik kabi axloqiy xislatlar ulug‘lansa, isrofgarchilik, ta’magirlik, ochko‘zlik, nafsu havoga, shahvoniy hissiyotlarga berilish, bahillik, johillik kabi illatlar qoralanadi. “Yaxshi siyrat, chiroyli hay'at va har bir ishda iqtisodchilik yetmish xislatlardan bir bo‘lagidir“ - deyiladi [5]. Bunda yaxshi siyrat deganda yaxshi muomala, chiroyli

hayot - bu tashqi ko‘rinishga e’tibor berish, iqtisod qilish, tejamkorlik nazarda tutiladi.

“Kimga bir balo yetsa sabr qilsa, ne’mat kelsa shukr qilsa, zulmlansa kechirsa, o‘zi zulm qilsa kechirim so‘rasa, mana shunday odamlarga oxirat va dunyo omonligi bo‘lur va ular hidoyatli kishilardir” [2]- deya rivoyat qilingan sabr-qanoat haqidagi hadislarni ham ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Hadislarning yuqorida qayd etilgan tarbiyaviy ahamiyati tufayli, VIII asrdanoq hadislar bilan shug‘ullanuvchi olimlar paydo bo‘lgan.

Hadis ilmining taraqqiyot bosqichlari ikki davrga bo‘linadi:

1. Payg‘ambar alayhissalom davridagi hadis ilmi;
2. Sahobalar davridagi hadis ilmi;

1. Hadis ilmi vujudga kelishining dastlabki davri sahobalarning Rasulullohdan eshitgan hadislarini mushohada qilish bilan belgilanadi. Shu bois ushbu bosqichda hadis ilmi rivoyat, yodda saqlash (xafz) va g‘oyiblarga yetkazish kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan.

2. Sahobalar davri asosan Rasulullоh vafotlaridan keyin boshlangan. Zotan, aynan shu davrdan boshlab hadis rivoyatga maxsus talab paydo bo‘lgan va avvalroq zikr qilganimizdek, shu maqsadda boshqa shahar va mamlakatlarga safarlar ham boshlangan. Ayni vaqtda sahobalar zo‘r e’tibor bilan rivoyat qilinadigan hadislarda biron xato voqoye bo‘lishidan ham ogoh bo‘la boshlaganlar. Darvoqe, rivoyatning to‘g‘ri (haqiqat) ekani, uning shartlariyu xillari, ahkomlari, roviylarning holatlariyu sharoitlariga doir hadis ilmining turli-tuman masalalarini tadqiq qiladigan maxsus soha bo‘lgan. Binobarin ana shu paytdan e’tiboran roviylarning rivoyatlarining sobitligi, ular Rasulullohni ko‘rgan yoki ul zotdan bevosita biror hikmat eshitgan bo‘lsalar, bularni tasdiqlovchi shohidlarni talab qilish, bu haqda hatto qasam ichirish kabi masalalar odat tusiga kira boshlagan. Qo‘shimcha rivoyat qilinadigan hadis matnini tadbiq etishga ham zo‘r e’tibor berilgan. Matnni aniqlashda “Qur’oni Karim” oyatlari yoki boshqa shu mavzuga dahldor hadislarga asoslanib xulosa chiqarilgan. Hadislar bilan shug‘ullanish asosan hijriy yil hisobida birinchi asrda boshlangan bo‘lsa-da, u faqat uchinchi asrga kelib o‘z cho‘qqisiga ko‘tarilganini ko‘ramiz.

Hijriy ikkinchi asrda hadisshunoslikda yaratilgan hadis to‘plamlari ichida Molik ibn Anasning “Muvatta” nomli kitobi eng muhim asar hisoblanadi.

Hijriy uchinchi asr hadisshunoslikda oltin davr hisoblanadi. Bu asrda hadislar aytish mumkinki ilmiy asosda tadbiq qilinib, muayyan qonun-qoidalarga tayangan holda tartibga tushirildi. Mana shu hijriy uchinchi asrda hadis ilmi mustaqil ilm sifatida fiqx ilmi (masalalari)dan ajralib chiqdi. O‘z navbatida hadis ilmidan bir qancha boshqa ilmlar ajralib chiqdi, hadisshunoslik shu asrda mustahkam asosga ega bo‘lgan qudratli ilm sifatida qaror topdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida hadislarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish asosida o‘quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga qiziqishni shakllantirish asosan dars jarayonini tashkil etish, uning asosiy tarkibiy qismlariga pedagogik talablar asosida ijodiy yondashishga bog‘liq.

Hadislar vositasida o‘quvchi umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni quyidagi andoza asosida tashkil etilishi muammoni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining umumiy mohiyatini inobatga olish natijasida maqsadga muvofiq ekanligiga ishonch hosil qildik.

Biz "Tarbiya" o‘quv fani bo‘yicha VII-IX sinflarda o‘tiladigan muayyan darsda qo‘llash mumkin bo‘lgan hadislarni ajratishga harakat qildik. Bu hadislar o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlandi. Darslarda aynan shu mashg‘ulot mavzusiga mos bo‘lgan hadislardan foydalanish mumkin. Suhbat, bahs-munozara uyushtirish, referatlar yozdirish, albomlar tuzish, savol-javob tipidagi disputlar uyushtirish, qisqa ma’ruzalar tashkil qilish, kartochkalardan foydalanish kabilar hadislarni o‘rganishning samaradorligini ta’minladi

O‘quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda ularda umummadaniy kompetentsiya ko‘rinishlarini va motivlarini aniqlashga erishildi. O‘quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish ularning istiqboldagi ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi. Natijada o‘quvchilar o‘z xatti-harakatining mohiyatini anglab ma’naviyatini yuksaltirishga muvofiq bo‘lishadi. Shu asosda o‘quvchilar diniy qadriyatlarda ilgari surilgan hayotbaxsh g’oyalarni o‘z amaliy faoliyatlarida qo‘llashlariga harakat qiladilar. Ma’naviy dunyoqarashni egallash o‘quvchilarda atrof-muhitni o‘rganish, ong va tafakkurni shakllantirish va ularni amaliyotda qo‘llay olishni targ’ib qilish konsepsiyasini tarbiyalaydi. O‘quvchilarda egallangan umummadaniy kompetensiyalar ma’naviy-axloqiy dunyoqarashining kengayishiga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. ҳадис ал-Жомиъ ас-Саҳиҳ (ишонарли тўплам) 1-китоб. –Т.: Қомуслар бош таҳририяти. 1991. -560-б.

2.Axloq – odobga oid hadis namunalari. T. “Fan”, 2008, 170-bet.

3.Зарипов К. Таълим-тарбияда Қуръони Карим ва ҳадислардан фойдаланиш. Бухоро нашриёти. 1990. -64-б.

4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции- новая парадигма результата образования// Высшее образование сегодня. 2003 №3 С 34-42.

5. Имом ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад. (Адаб дурдоналари). –Т.: Ўзбекистон. 1990. -197-б.

6.Уватов У. Муслим ибн ал-Хажжож. –Т.: 1995. -62-б.

7.Уватов У. Иймон нури. –Т.: Ёзувчи. 1996. -111-б.].

8.Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении. Научно-методическое пособие. -М.: Издательство “Эйдос” -2013. 5.; 60

UDK: 37.034

UMUMINSONIY VA MILLIY QADRIYATLAR INTEGRATSIYASI ORQALI YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Xalmuratov Imamatdin Tajetdinovich,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson borlig'i va jamiyat taraqqiyoti uchun fundamental ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlar tizimining sotsiomadaniy mohiyati tadqiq etiladi. Tadqiqotda erkinlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifatparvarlik kabi umuminsoniy tamoyillar bilan bir qatorda, moddiy-ma'naviy boyliklar hamda milliy an'analarning yoshlar ta'lim-tarbiyasidagi strategik o'rni tahlil qilingan. Maqolada qadriyatlarning yosh avlod ma'naviy madaniyatini rivojlantirishdagi funksional ahamiyati ilmiy asoslanib, ularning shaxs ijtimoiy-axloqiy qiyofasini shakllantirishdagi integrativ roli yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: qadriyatlar tizimi, ma'naviy madaniyat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, moddiy va ma'naviy meros, ijtimoiy-axloqiy rivojlanish, badiiy-estetik savodxonlik, madaniy-ma'naviy integratsiya, ta'lim-tarbiya paradigmasi.

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ ЧЕРЕЗ ИНТЕГРАЦИЮ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. В данной статье исследуется социокультурная сущность системы ценностей, имеющих фундаментальное значение для человеческого бытия и развития общества. В исследовании, наряду с такими общечеловеческими принципами, как свобода, справедливость, социальное равенство и просвещение, анализируется стратегическая роль материально-духовных благ и национальных традиций в обучении и воспитании молодежи. В статье научно обосновывается функциональное значение ценностей в развитии духовной культуры молодого поколения, а также освещается их интегративная роль в формировании социально-нравственного облика личности.

Ключевые слова: система ценностей, духовная культура, национальные ценности, общечеловеческие ценности, материальное и духовное наследие, социально-нравственное развитие, художественно-эстетическая грамотность, культурно-духовная интеграция, парадигма образования и воспитания.

FORMATION OF YOUTH'S SPIRITUAL CULTURE THROUGH THE INTEGRATION OF UNIVERSAL AND NATIONAL VALUES

Abstract. This article examines the socio-cultural essence of the value system, which holds fundamental significance for human existence and societal progress. Alongside universal principles such as freedom, justice, social equality, and enlightenment, the research analyzes the strategic role of material and spiritual wealth, as well as national traditions, in the education and upbringing of youth. The article provides a scientific substantiation of the functional importance of values in developing the spiritual culture of the younger generation and highlights their integrative role in shaping the social and moral identity of the individual.

Keywords: value system, spiritual culture, national values, universal values, material and spiritual heritage, social-moral development, artistic-aesthetic literacy, cultural-spiritual integration, education and upbringing paradigm.

Hozirgi davrda kreativ qobiliyatli, aqlan zukko, izlanuvchan va mustaqil mulohaza yurituvchi yoshlar jamiyatni ilmiy texnik taraqqiyonini harakatga keltiruvchi katta kuch, shu nuqtai nazaridan istedodli yoshlarni topish, ularga oqilona ko‘rsatmalar berish va muayyan sohalarga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ularning har qaysisiga xos individual xususiyat, ichki kuch-quvvat, yashirin imkoniyatlarni ochish, takomillashtirish, taraqqiy ettirish, ta’sir o‘tkazuvchi omillar va vositalar topish, ularning jamiyat ehtiyoji talabi hamda rivojlanish imkoniyatiga mos maqsadga yo‘naltirish hozirgi davr talabi hisoblanadi. Shu o‘rinda har xalqning badiiy san’atini o‘rganish uning madaniy o‘zgachaligini, o‘tmishda bunyod etilgan san’at asarlarini asrab-avaylash, milliy urf-odatlarni saqlash orqali madaniy turmushimiz yaxshilanib, yoshlarni bu hunarga qiziqishini orttirish ma’naviy madaniyatimizning yuksalishi va rivojlanishini ko‘rsatadi.

Yurtimizni rivojlangan davlatlar qatoriga o‘tayotgan bir davrda jamiyat va davlat o‘zligini namoyon etishga bo‘lgan munosabati turli ma’rifiy madaniy g‘oyalar tushunchalar anglagan vatanparvarlik tuyg‘usi bilan millat, xalq manfaatlari, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun ma’suliyatli, ilmiy bilim, mehnat va kasb hunar ko‘nikmalarini o‘zida mujassam etgan ma’naviy madaniyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishda manfaatdordir. Bunday shaxsni shakllantirishda asrlar davomida xalqimizning ma’naviy ehtiyoji, talabi asosida yaratilgan qadriyatlar muhim rol o‘ynaydi.

Ma’lumki, umumiy ta’lim oldiga qo‘yilgan eng muhim maqsad - umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta’lim tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g‘oyasini kuchaytirish, xalqchillashtirish va shular asosida yoshlarda ma’naviy madaniyatni shakllantirishdan iborat. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, kompleks va funktsional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Insoniyat boy qadriyatlarga suyangan holda kamol topadi. Buyuk O‘zbekistonimizning istiqboli ko‘p jihatdan yoshlarning salohiyatiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalashga bog‘liq. Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Prezidentimizning har bir nutqi, asarlari o‘sib kelayotgan yosh avlod

muammolariga bag‘ishlanishi shaxsni shakllantirish, shaxs tuzilmasida milliy qadriyatlarning, ma’naviy komponentlarning o‘rni qanchalik ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. Zero, jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ma’naviy tanazzulning oldini olish, yuzaga kelish ehtimolini pasaytirishda sog‘lom e’tiqod, munosabat, dunyoqarashiga ega bo‘lgan barkamol inson shaxsini shakllantirish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Agar biz O‘zbekiston kelajagi, taqdiriga o‘zimizning javobgar ekanligimizni his etsak, har birimiz uning taraqqiyoti vositasi bo‘lmish yosh avlodni tarbiyalash masalalarini chuqur egallamog‘imiz, yangicha tafakkur asosida yashashni o‘z burchimiz deb bilmog‘imiz kerak. Boshqacha qilib aytganda, yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash, ularda to‘g‘ri munosabatni shakllantirish, ularning ruhan tetik shaxs sifatida rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish zarurati bosh maqsadlardan biridir. Milliy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatadigan ta’sirlari mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayoti va yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini inobatga olib, bu boradagi izlanishlar samarasini oshirish, tadqiqot natijalari asosida qo‘llanmalar ishlash va ijtimoiy yo‘nalishdagi oliy ta’lim tizimiga joriy qilish maqsadga muvofiq. Yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashda inson ruhiyati va milliy qadriyatlar omilidan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish didaktik mazmun kasb etadi.

Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlariga va maqsadlariga xizmat qiladigan, shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunish lozim. Mazkur ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, qadriyatlar:

birinchidan, voqelikda mavjud bo‘lgan tabiat va jamiyat ne’matlarini anglatadi;

ikkinchidan, ularni qadriyat turkumiga kiritish yoki kiritmaslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, orzu-umidlari bilan belgilanadi;

uchinchidan, tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalarning qadriyatlar turkumiga kiritilishining asosiy sababi kishilar ularni qadrlaydi, avaylab-asraydi, chunki bu qadriyat ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi.

Qadriyatshunoslikda qadriyat tushunchasi bilan bu tushuncha bog‘langan obyekt o‘rtasida farq bor, deb qaraladi. Agar qadriyat qadrni ifodalaydigan falsafiy tushuncha sifatida qaralmasa, unga ta’riflarning son-sanoqsiz bo‘lishi aniq. Negaki, dunyoda qadrlanadigan narsalar, hodisalar, voqealar, jarayonlar, joylar va sifatlar, ideal va maqsadlar nihoyatda ko‘p. Qadriyat tushunchasi esa ularning birortasi uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ism, atama yoki bevosita nom bo‘la olmaydi, balki, ularning qadrini anglatadigan tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Odamlar bitta jamiyatda, bir davrda va o‘xshash sharoitlarda yashayotganliklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadri turlicha anglab olinadi, tushuniladi va talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvuri, qarashlari o‘zgaradi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma’naviy qiyofasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Ana shunga ko‘ra, hammada ham qadrlash tuyg‘usi doimo bir xil bo‘lavermaydi, ijobiy va salbiy qarashlar, turli xil jihatlar har qanday qadriyatning qarama-qarshi tomonlarini

tashkil qiladi. Ijobiyligi va salbiyligi, baholanishi va ahamiyatiga ko‘ra bir-biriga mutlaqo ziddek bo‘lib ko‘rinadigan yaxshilik va yomonlik, haqiqat va haqsizlik, baxt-saodat va g‘am-kulfat, taraqqiyot va tanazzul kabi tushunchalar hayotning bir-biriga zid va chambarchas bog‘langan tomonlarini ifodalaydi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, qadriyatlar jamiyatning rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruriyatga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog‘onasiga chiqib oladi, boshqalarini xiralashtirganday bo‘lib tuyuladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlariga mos ravishda, oldinga chiqib olgan qadriyatni barqaror qilishga intilish nisbatan kuchayadi. Yoshlarda, ayniqsa, talaba va o‘quvchilarda ma’naviy yetuk tuyg‘ularni shakllantirishda ana shunday aksiologik bog‘liqliklarning botiniy va zohiriy tomonlarini o‘rgatish katta ahamiyat kasb etadi. Inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo‘q joyda biror narsaning qadr-qimmati haqida so‘zlash bema’nilikdir. Zero, davlatimizning ijtimoiy hayotning turli sohalardagi faoliyati, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi kishilarning hayoti to‘q, boy, go‘zal bo‘lishi, inson o‘zini chinakam erkin his etishi, o‘z mehnatining, o‘z taqdirining, o‘z mamlakatining egasi bo‘lishini ta’minlashga qaratilgandir.

“Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”. B.Ziyomuhammadov o‘zining “Komillikka eltuvchi kitob”[1] asarida “Qadriyat” so‘ziga quyidagicha ta’rif beradi: “Kishini qurshab turgan cheksiz ko‘p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma’naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh, yo, konkret bir millat, yoxud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo‘lganlarini qadriyat deyiladi. Professor Q.Nazarov esa, qadriyat tushunchasini ilmiy tahlil qilib, quyidagi xulosaga keladi. Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy – axloqiy, madaniy – ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan falsafiy – sotsiologik va aksiologik tushuncha[2], – deb hisoblaydi.

Yana bir mutaxassisning e’tirof etishicha, “Qadriyat – jamiyat, millat, xalq va ijtimoiy guruhlarning manfaati uchun xizmat qiladigan, ularning istiqboliga asos bo‘ladigan, taraqqiyot va rivojlanishga hissa qo‘sha oladigan moddiy va ma’naviy boyliklarning ahamiyatini yorqin ifodalaydigan tushunchadir. Bundan tashqari, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan: erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf – odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi [3]. Ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlari o‘zgarib boradi. Tarixiy zaruriyatga qarab goh u, goh bu qadriyatlar ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi. Masalan: yurtni yov bosganida – ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida – istiqlol, urush davrida – tinchlik, tutqunlikda – erkinlik, kasal yoki bemorlikda – sihat – salomatlikning qadri oshadi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz kerak, qadriyat bilan urf – odatlarni o‘zaro aralishtirib yubormaslik joiz. Millatning tarixiy boyligi bo‘lgan, ajdodlardan

avlodlarga me'ros sifatida kelayotgan juda ko'p urf – odatlarimiz mavjud, lekin ularni biz qadriyatlar qatoriga qo'sha olmaymiz. Zero, "Qadriyat kategoriyasini, urf – odat va an'ana tushunchalaridan farqlashimiz lozim, deydi – akademik E.Yusupov. Chunki, urf – odat va an'analar orasida jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikka, umuman taraqqiyotga putur yetkazuvchilar ham bor. Jumladan, mutassiblik, boqimandalik, beparvolik, befarqlik va boshqalar. "Qadriyat" deganda xalq qadrlaydigan, hurmat qiladigan va e'zozlaydigan, yuksalishga, taraqqiyotga hamda farovonlikka yo'naltirilgan ma'naviy boyliklarni tushunishimiz lozim [4].

"Qadriyatlar", – deydi N.Nevoski, – "insonlar ehtiyojlarini qondiruvchi predmetlar, hodisalar va ularning xususiyatlaridir. Insoniyatga nisbatan baholanmagan buyum va hodisalar hech qanday qadr – qimmatga ega bo'lmaydi. Qadriyatlar insonga xizmat qiluvchi ne'matlardir" [5]. Yuqoridagi olimlarning keltirib o'tilgan fikr mulohazalaridan kelib chiqib shuni aytishi mumkinki, "qadriyat" deganimiz beqiyos kuch bo'lib, unda har bir millatning o'ziga hos tomonlari va fe'l – atvori, milliy mentaliteti, donishmandligi, milliy g'ururi, ma'naviy – axloqiy va diniy qiyofasi ham o'z aksini topadi. Boshqacha ifodalansa, millat madaniyati, urf – odati, an'analari, mehr – oqibati, turmush tarzi, kuy – qo'shiq, raqslari va milliy libosi, milliy tarbiyaning barcha qirralari har qanday xalqning o'ziga xos qadriyatlarida ham namoyon bo'ladi. Bundan tashqari qadriyat deganda hech qanday bir rasmiy xujjatlarda va qonun – qoidalarda aks etmagan bo'lsada, lekin unga barcha xalqlar birdek amal qiladigan, insonlarning qon – qoniga singib ketgan an'analarni tushunmoq lozim. Yuqorida bayon etilgan fikr – mulohazalar shuni ko'rsatadiki, har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlar silsilasi mavjud bo'lib, u xalqning ko'zgusi hisoblanadi. Mustaqillik esa, – bugungi davrning eng asosiy qadriyatidir. Zotan, mustaqil bo'lmagan davlatning qadriyatlar tizimi ham hech qachon to'kis va haqqoniy bo'lmasligi tabiiy, albatta. Aynan Istiqlol sharofati bilan qadr va qadriyat tushunchalari mazmunan boyitildi. Jumladan, jamiyat hayotida hamda fuqarolarimizning ongu – shuurida yangicha tafakkur, dunyoqarash va qadrlash me'zonlari shakllandi. Natijada, avvalgi, boqimandalik, beparvolik, befarqlik, mutassiblik, iqtisodiy tanglik, halol mehnat qilib, farovon hayoti uchun boylik ortira olmaslik va yana boshqa juda ko'plab salbiy illatlar batamom jamiyat, inson hayoti va faoliyatidan chiqarib tashlanib, uning o'rniga, o'tda yonmas, suvda cho'kmas, tarixiy taraqqiyot silsilalarida toblanib, har qanday taxqiru – zulumga bardosh berib kelgan azaliy va umrboqiy qadriyatlarimiz qayta tiklanib, va yana, yangidan – yangi qadriyatlar shakllana boshlandi.

Chet el falsafasida qadriyatlar tabiatini tahlil qilishga yondashuvlarni umumlashtirish asosida qadriyatning manbaiga asoslanib, ularni ehtiyojli, ideal turmush, oliy qadriyatli voqelik, intuitsiya qadriyatlari tarzida tasnif etadi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimini ilmiy va milliylashtirish bosqichida ta'lim-tarbiyaning mazmunini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish asosida talaba shaxsining o'zligini anglashga erishishini amalga oshirish maqsadini hal etishda xalq amaliy san'ati va o'tmish hunarmadlarimiz ishlab chiqqan noyob asarlar tizimini metodologik asos sifatida qabul qilish lozim va shu asosda talabalarning

innovatsion faoliyatini rivojlantirishda quyidagi metodologik yo‘nalishllarga tayanish zarur deb hisoblaymiz:

1. Ilmiy merosni, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni xalqining kelib chiqishi, millat sifatida shakllanishi va rivojlanishi, uning etnik yadrosining o‘ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan o‘rganish, ayni vaqtda tarixiy bosqichlarda bu zaminda yaratilgan ijtimoiy-madaniy qadriyatlar boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining ham madaniy boyligi ekanligini, ular yaratgan amaliy hunarmandchilikning ajralmas bo‘lagi ekanligini unutmaslik zarur.

2. Hamma tarixiy davrlarda jamiyatning gullab-yashnashi, uning ilmiy-texnik taraqqiyoti, kelajakdagi o‘rni shu jamiyat ma’naviy boylik darajasi bilan baholanib keladi. Shu boisdan ham amaliy san’atning barcha manbaalari, uning tarkibiy qismlari o‘zining tarixiyligi, insonparvarlik va xalqchillik yo‘nalishlari bilan ajralib turadi.

3. Har qanday jamiyat shaxsning ma’naviy barkamol bo‘lishidan manfaatdor.

4. Markaziy Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o‘zbek, qoraqalpoq xalqlarining boy amaliy ilmiy merosida muhim o‘rinni egallagan tarixan tarkib topgan ma’naviy-ruhiy qadriyatlarni, an`analarni, xalqning amaliy san’ati, urf-odatlarni pedagogik g‘oyalar rivoji nuqtai nazaridan o‘rganish talabalarning ma’naviy madaniyatining shakllanishiga katta ta’sir etadi.

5. Ilmiy meros rivoji madaniy manbaalarning o‘zaro aloqasi va ta’sirisiz kechmaydi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarning amaliy madamiyatini shakllantirishda barcha xalqlar, millatlar amaliy san’at manbaalarining o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’siriga e’tibor berish talab etiladi.

Asrlar davomida xalqning ilmiy ehtiyoji, talabi asosida yaratilgan amaliy san’atga oid qadriyatlarida olg‘a surilgan ilg‘or g‘oyalarni o‘z ongida yaxlit shakllantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, oilaning, xalqning, jamiyatning ma’naviy rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan shaxs ma’naviy madaniyatli hisoblanadi. Milliy va ma’naviy me`rosdan ma’naviyat va qadriyatlardan to‘la bahramand bo‘lmagan, ona tilini, o‘lkasi tarixini bilmagan, jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga ongli ravishda hissa qo‘shmagan inson ma’naviy qashshoqdir. Ma’naviy qashshoqlik esa xalqni, millatni, umuman jamiyatni tanazzulga olib boradi. Demak, amaliy san’atiga oid meros manbaalarini o‘rganish ularda olg‘a surilgan g‘oyalarga amal qilish, ularni kelgusi avlodlar ongiga singdirish jamiyatning har bir a’zosining vijdoni oldidagi, o‘z Vatani oldidagi burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyomuhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. – T.: “TURON-IQBOL” nashriyoti, 2006. – B. 73.
2. Nazarov Q. Qadriyatlar tizimining barqarorligi va o‘zgarishlari. – T.: Sharq, 1992. – B. 105.
3. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: O‘zbekiston, 1998.
4. Yusupov E. Ma’naviy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. – T.: 2003. – B. 29.
5. Нено Невоски. Право и ценности/Под ред. В.Д.Зоркина. 1987. – С. 210

UDK: 37.02:7

MUSIQA, TASVIRIY SAN'AT VA DIZAYN YO'NALISHIDA INTEGRATSION METODLAR

Gubenova Gozzal Turganbayevna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa, tasviriy san'at va dizayn yo'nalishida integratsion metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Integratsion yondashuv o'quvchilarning estetik dunyoqarashini kengaytirish, ularni ijodiy fikrlashga, badiiy idrok va didni shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Maqolada fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, musiqa, san'at va dizayn darslarini bir-birini to'ldiruvchi tarzda tashkil etish orqali o'quvchilarning ko'p qirrali ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: integratsion metodlar, san'at ta'limi, musiqa, tasviriy san'at, dizayn, fanlararo bog'liqlik, ijodiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar.

ИНТЕГРАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ В МУЗЫКЕ, ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ И ДИЗАЙНЕ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования интеграционных методов в области музыки, изобразительного искусства и дизайна. Отмечается, что интеграционный подход способствует расширению эстетического мировоззрения учащихся, развитию их творческого мышления, художественного восприятия и вкуса. В статье анализируются возможности развития многогранного творческого потенциала обучающихся через обеспечение междисциплинарной связи и организацию уроков музыки, искусства и дизайна во взаимодополняющем формате.

Ключевые слова: интеграционные методы, художественное образование, музыка, изобразительное искусство, дизайн, междисциплинарная связь, творческое мышление, педагогические технологии.

INTEGRATIVE METHODS IN THE FIELD OF MUSIC, FINE ARTS AND DESIGN

Abstract. This article highlights the theoretical and practical aspects of using integrative methods in the fields of music, visual arts, and design. It emphasizes that an integrative approach helps broaden students' aesthetic outlook, develop their creative thinking, artistic perception, and taste. The article analyzes the possibilities of developing students' multifaceted creative potential by ensuring

interdisciplinary connections and organizing music, art, and design lessons in a complementary manner.

Keywords: integrative methods, arts education, music, visual arts, design, interdisciplinary connections, creative thinking, pedagogical technologies.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimida integratsion yondashuvlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini, estetik didini va madaniy ongini rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda. Xususan, musiqa, tasviriy san'at va dizayn yo'nalishlarining o'zaro integratsiyasi ta'lim jarayonida nafaqat o'quvchi bilimini chuqurlashtiradi, balki ularning hissiy, emotsional va ijodiy salohiyatini uyg'otadi.

Integratsion metodlar bu turli fanlarni o'zaro bog'liq holda o'qitish orqali yaxlit ta'limiy jarayonni tashkil etishdir. San'at fanlarida bu metod o'quvchilarga badiiy asarni nafaqat idrok etish, balki uni tushunish va tahlil qilish, tasvir va tovush uyg'unligini his qilish imkonini beradi.

Integratsion yondashuv zamonaviy pedagogikada ta'lim mazmunini tizimli modellashtirishning strategik mexanizmi bo'lib, u nafaqat fanlararo bog'liqlikni ta'minlashga, balki o'quvchi shaxsining intellektual va estetik salohiyatini sinergetik tarzda rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuv shaxsning kognitiv jarayonlarini faollashtirish orqali unda ijodiy tafakkur algoritmlarini shakllantiradi, estetik didni individual qadriyat darajasiga ko'taradi hamda hissiy-intellektual dunyoqarashini gumanistik paradigmalar asosida kengaytiradi.

Musiqa, tasviriy san'at va dizayn sohalarining o'zaro integratsiyasi shunchaki sun'iy birlashuv emas, balki ularning tub mohiyatidagi forma, ritm, rang, dinamika va kompozitsiya kabi universal estetik kategoriyalarning uyg'unlashuvidir. Mazkur tushunchalar san'atning barcha turlari uchun umumiy bo'lgan "badiiy til" vazifasini o'taydi. Masalan, musiqa asaridagi metroritmik harakatlar tasviriy san'atdagi kompozitsion chiziqlar dinamikasiga, dizayn arxitektonikasidagi shakllar muvozanati esa musiqiy fakturaning garmonik mutanosibligiga mos keluvchi fundamental estetik qonuniyatlarni ifodalaydi. Bunday analogiya o'quvchida voqelikni yaxlit obrazli tasavvur qilish (holistik idrok) ko'nikmasini shakllantiradi.

Integratsion ta'lim muhitida pedagogning funksional vazifasi ham transformatsiyaga uchraydi. O'qituvchi endilikda faqat bitta tor yo'nalishdagi ma'lumotlar tashuvchisi emas, balki san'atning turli shakllari, janrlari va ifoda vositalarini o'zaro uyg'unlashtirgan holda innovatsion ta'lim traektoriyalarini loyihalashtiruvchi kurator va fasilitator sifatida namoyon bo'ladi. Dars jarayonini bunday polifonik (ko'p ovozli) tashkil etish o'quvchilar tafakkurining ko'p qirraliligini ta'minlaydi, ularda hodisalarni tahlil qilishda kreativlik va moslashuvchanlik kabi XXI asrning eng muhim soft-skills ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Musiqa darslarida integratsion metodlar orqali o'quvchilar san'atning boshqa turlarini ham idrok etadi. Misol uchun, o'quvchi qo'shiqni tinglar ekan, unga mos ranglar, obrazlar, shakllarni tasavvur qilish orqali musiqani ko'rish va his qilishni

o‘rganadi. Dars jarayonida “Ranglar musiqasi”, “Tovushdagi tasvir” kabi mashg‘ulotlar o‘tkazilishi mumkin. Bu usullar orqali o‘quvchi musiqa ritmini chizgilarda aks ettiradi yoki rassomlik asaridan kelib chiqib, unga mos ohang yaratadi. Natijada o‘quvchilarning idrok etish, estetik fikrlash va ijodiy yondashuvi kuchayadi. Masalan, Betxovenning “Oy sonatasi” asarini tinglagan o‘quvchilar oq va kulrang ranglar orqali tasviriy his-tuyg‘ularini ifodalaydi bu integratsiyaning emotsional samarasi hisoblanadi [1].

Tasviriy san’at ta’limida integratsion yondashuv musiqiy ritm, dizayn elementlari va badiiy obrazni uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, o‘quvchilar ranglar uyg‘unligini musiqaning tonalligi bilan bog‘laydi, chiziq harakatini ritmik ohang bilan uyg‘unlashtiradi. Bu orqali “eshitish – ko‘rish – his qilish” mexanizmi shakllanadi. O‘qituvchi “Ranglar va ohanglar” mavzusida musiqiy fon asosida rasmlar chizishni tashkil etadi. Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarni o‘z holatini ifodalashga, ranglar orqali his-tuyg‘ularini obrazlashtirishga o‘rgatadi. Bu esa o‘z navbatida dizayn tafakkurini ham rivojlantiradi. Tasviriy san’at fanlari integratsiyasi asosida o‘quvchi uchun dars mashg‘ulotlarini tashkil etishning bir qancha muhim usullari mavjud:

1. Ko‘rsatkichlar va ko‘nikmalar. Dars mashg‘ulotlarini tashkil etishda talabalar uchun aniq maqsadlar va kutilayotgan natijalarni belgilab olish muhimdir. Bu jarayonda egallanishi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar, o‘quv texnologiyalari, dars mazmuni va amaliy faoliyatning ahamiyati oldindan aniqlanadi. Shunday yondashuv darsni tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan shaklda olib borishga yordam beradi.

2. Amaliy mashg‘ulotlarning roli. Integratsiyalashgan darslarni samarali o‘zlashtirish uchun talabalar ko‘proq amaliy mashg‘ulotlar bajarishlari lozim. Bu jarayon ularda yaratuvchanlik, mustaqil fikrlash va nazariy bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Amaliy faoliyat o‘quv jarayonini jonlantiradi va o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlaydi.

3. Dars vositalari va ta’lim texnologiyalari. Integratsiyalashtirilgan o‘quv jarayonida zamonaviy o‘quv vositalari va texnologiyalarni qo‘llash katta ahamiyatga ega. Virtual muhitda, onlayn platformalarda yoki ilmiy asoslangan texnologiyalar yordamida o‘qitish talabalarga mavzuni chuqurroq anglash va o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu jarayon ta’limni interaktiv, qulay va samarali qiladi.

4. Darsning fanlararo xususiyati. Tasviriy san’atni boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitish talabalarda kengroq dunyoqarashni shakllantiradi. Masalan, matematika, tarix, texnologiya va boshqa yo‘nalishlar bilan integratsiya darslarning mazmunini boyitadi. Bunday yondashuv orqali san’atning ilmiy, tarixiy va texnik jihatlari yaxlit holda o‘rganiladi.

5. Kooperativ o‘qitish usullari. Integratsiyalashgan darslarda guruhli ishlar, hamkorlikdagi faoliyatlar va muhokamalardan foydalanish muhim. Bu usullar talabalarni jamoaviy fikrlashga, bir-birini qo‘llab-quvvatlashga va o‘z g‘oyalarini erkin ifoda etishga undaydi. Kooperativ yondashuv o‘quv jarayonida faollik va ijodkorlikni oshiradi.

6. Biriktirilgan o‘quv materiallaridan foydalanish. Integratsiyalashgan ta’limda talabalar uchun maxsus yaratilgan qo‘llanmalar, video darslar, yozma manbalar va interaktiv resurslardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday materiallar darsni vizual, eshitish va amaliy jihatdan boyitadi hamda o‘zlashtirish jarayonini yengillashtiradi [2].

Dizayn ta’limi o‘zining konseptual mohiyatiga ko‘ra ko‘p tarmoqli (multidistsiplinar) fenomen bo‘lib, u turli fan sohalarining kognitiv va badiiy jihatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Musiqa va tasviriy san’at elementlarining dizayn o‘qitish metodikasiga integratsiya qilinishi bo‘lajak mutaxassisning dizaynerlik tafakkuri uchun zarur bo‘lgan badiiy-estetik poydevorni fundamental darajada mustahkamlaydi.

Dizayn kompozitsiyasining tayanch tushunchalari bo‘lmish muvozanat, ritm, proporsiya va dinamika musiqiy nazariyadagi ohang, metr va sur’at kategoriyalari bilan garmonik uyg‘unlikda tadqiq etiladi. Ushbu fanlararo o‘xshashlik talabalarda vizual va akustik obrazlarni yagona estetik tizim sifatida qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Amaliyotda dizayn loyihalarini yaratish jarayonida o‘quvchilar musiqiy asarlarning strukturaviy tuzilishidan ilhomlanish, ohang oqimidan kompozitsion yechimlar izlash hamda ranglar palitrasi orqali emotsional ekspressivlikni kuchaytirish kabi sinestetik usullardan foydalanadilar. Xususan, dizayn darslarida muayyan musiqiy kompozitsiyani audiovizual tahlil qilish va uning asnosida vizual konsepsiya (metaforsel obraz) yaratish kabi kreativ topshiriqlar talabalarning assotsiativ tafakkurini va intellektual salohiyatini maksimal darajada faollashtiradi.

Integratsion metodologiyaning o‘quv jarayonidagi ustuvorliklari tizimli xarakterga ega bo‘lib, ular ta’lim oluvchilarning nafaqat kognitiv-intellektual, balki estetik idrok etish va hissiy-sensor tafakkur yuritish qobiliyatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv fanlararo muloqotni (interdisciplinary dialogue) shakllantirish orqali o‘quvchilar dunyoqarashida san’at, texnika va madaniyat sohalarining o‘zaro uzviy bog‘liqligi haqidagi yaxlit, holistik tasavvurni uyg‘otadi.

Pedagogik jarayonga integratsion modellarning tatbiq etilishi darsning didaktik samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi. Bu esa o‘quvchini passiv axborot iste’molchisidan ta’lim jarayonining subyekti – faol, kreativ va tashabbuskor ishtirokchisiga aylantiradi. Natijada, talabaning mustaqil loyihalash faoliyati o‘z-o‘zini anglash va badiiy mahoratini doimiy takomillashtirishning innovatsion platformasiga aylanadi.

Shu bilan birga, mazkur metodlar ijodiy fikrlash algoritmlarini ishga tushirishi, emotsional xotirani faollashtirishi va tasavvur kuchini kengaytirishi natijasida shaxsning kreativ salohiyatini maksimal darajada yuzaga chiqaradi. Eng muhimi, integratsiyalashgan ta’lim muhiti madaniyat va san’atga oid fanlarni bir-biridan ajralgan holda emas, balki yagona bir butunlikda, tizimli tizim sifatida anglashga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida yosh avlodning ma’naviy-estetik madaniyatini yuksaltirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, integratsion metodlar qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning ijodiy natijalari 30–40 foizga yuqori bo‘ladi, ularda san’atga bo‘lgan qiziqish barqaror saqlanadi [3].

Umumlashtirib aytganda, musiqa, tasviriy san’at va dizayn ta’limida integratsion metodologiyani tizimli tatbiq etish zamonaviy pedagogik paradigmaning eng istiqbolli va samarador yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv shunchaki fanlararo ma’lumotlar almashinuvi emas, balki o‘quvchi shaxsining hissiy-estetik dunyoqarashini fundamental darajada boyitishga, uning badiiy voqelikni polifonik (ko‘p qirrali) tarzda idrok etish layoqatini shakllantirishga xizmat qiladi. Integratsiya jarayonida turli san’at turlarining ifoda vositalari (ritm, rang, shakl, ohang) uyg‘unlashishi natijasida ta’lim oluvchining kreativ salohiyati va kognitiv imkoniyatlari sinergetik tarzda kengayadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, integratsion ta’lim modeli san’at fanlarining yagona strategik maqsadga yo‘naltirilgan murakkab va uyg‘un tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tizim o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirish bilan bir qatorda, ularda axborotlashgan jamiyatning vizual va akustik bosimlariga qarshi "estetik immunitet"ni shakllantiradi. Shaxsning madaniy-estetik rivojini ta’minlashda beqiyos ahamiyat kasb etuvchi ushbu yondashuv, yosh avlodning ma’naviy yetukligini ta’minlash va milliy o‘zlikni anglash darajasini yuksaltirishda asosiy pedagogik drayver vazifasini o‘taydi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, integratsiyalashgan san’at ta’limi nafaqat o‘quv jarayonining didaktik samaradorligini kafolatlaydi, balki bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy moslashuvchanligini va global mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlovchi ma’naviy-madaniy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida ushbu metodologiyani raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim sifatini yanada yangi, yuqori bosqichga ko‘tarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova, N. San’at ta’limida innovatsion metodlar. Toshkent: O‘zbekiston san’at akademiyasi nashriyoti, 2021.
2. Shodiev, B. Musiqa ta’limida fanlararo integratsiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Xudoyberganova, G. Dizayn ta’limida kreativ tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari. Toshkent: TDPU, 2022.

UDK: 374:37.091.33

KATTALAR TA'LIMIDA INTERFAOL METODLAR

Davletova Aziza,
Berdoq nomidagi QQDU tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kattalar ta'limining nazariy asoslari, andragogikaning shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida kattalar ta'limini tashkil etishning pedagogik xususiyatlari tahlil qilingan. Kattalar ta'limida ta'lim oluvchining hayotiy tajribasi, mustaqilligi va kasbiy ehtiyojlariga tayangan holda o'qitish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, interfaol va kompetentsiyaviy yondashuvlarni qo'llashning ilmiy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kattalar ta'limi, andragogika, uzliksiz ta'lim, pedagogik yondashuv, kompetentsiya, interfaol o'qitish.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ВЗРОСЛЫХ

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы образования взрослых, становление и развитие андрагогики, а также педагогические особенности организации образования взрослых в современной системе образования. Обоснована необходимость обучения на основе жизненного опыта, самостоятельности и профессиональных потребностей учащегося в обучении взрослых. Также раскрывается научная значимость применения интерактивного и компетентностного подходов.

Ключевые слова: образование взрослых, андрагогика, непрерывное образование, педагогический подход, компетентность, интерактивное обучение.

INTERACTIVE METHODS IN ADULT EDUCATION

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of adult education, the formation and development of andragogy, and the pedagogical features of organizing adult education in the modern education system. The necessity of learning based on life experience, independence, and the professional needs of the student in adult education is substantiated. The scientific significance of applying interactive and competency-based approaches is also revealed.

Keywords: adult education, andragogy, continuous education, pedagogical approach, competence, interactive learning.

Jamiyat taraqqiyoti, fan va texnika rivoji hamda mehnat bozoridagi o'zgarishlar insondan butun hayoti davomida bilim va ko'nikmalarni yangilab borishni talab etmoqda. Bunday sharaoitda kattalar ta'limi uzluksiz ta'lim

tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kattalar ta’limi shaxsning kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilib, uning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

Kattalar ta’limi an’anaviy ta’limdan o‘ziga xos pedagogik va psixologik xususiyatlari bilan farq qiladi. Kattalar ta’lim olish jarayonida mustaqil qaror qabul qilishga moyil bo‘ladi., o‘z hayotiy tajribasiga tayanadi hamda ta’limdan aniq amaliy natijalar kutadi. Shu sababli kattalar ta’limini tashkil etishda maxsus yondashuv – andragogika asosiy o‘rin tutadi.

Ushbu maqolaning maqsadi kattalar ta’limining nazariy asoslarini tahlil qilish, uning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rnini ochib berish hamda samarali pedagogik yondashuvlarni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi kallatalar ta’limi, andragogik yondashuv, kompetentsiyaviy ta’lim modeli hamda faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyalariga asoslandi.

Tadqiqot jarayonida qo‘yilgan muammolarni har tomonlama o‘rganish va ilmiy yechimlar ishlab chiqish maqsadida o‘zaro aloqador bo‘lgan ilmiy-tadqiqot usullari majmuasidan foydalanildi. Avvalo, mavzuning konseptual asoslarini belgilash uchun falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlar nazariy tahlil qilindi, bu esa o‘rganilayotgan hodisaning mohiyatini umuminsoniy va milliy qadriyatlar prizmasi orqali yoritish imkonini berdi. Ayniqsa, andragogika (kattalar ta’limi) sohasidagi nazariyalarning rivojlanish dinamikasini aniqlash maqsadida mahalliy va xorijiy manbalar qiyosiy o‘rganildi, bu esa xalqaro tajribalarning eng samarali jihatlarini milliy ta’lim muhitiga moslashtirish (adaptatsiya) uchun ilmiy zamin yaratdi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida to‘plangan nazariy ma’lumotlar va empirik materiallar tizimlashtirildi hamda umumlashtirildi, natijada mavzuga oid tarqoq ilmiy tushunchalar yaxlit bir pedagogik model ko‘rinishiga keltirildi. O‘rganilgan barcha nazariy qarashlar va xalqaro andragogik modellarning tahlili yakunida ob’ektivlik tamoyillariga tayangan holda tahliliy va mantiqiy xulosalar chiqarildi. Ushbu usullar kombinatsiyasi tadqiqotning nazariy chuqurligini ta’minlash bilan birga, uning amaliy ahamiyatini, xususan, ta’lim oluvchilarning ijtimoiy va professional kompetentsiyalarini rivojlantirishdagi metodologik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Metodologik asos sifatida M.Noulzning andragogik konsepsiyasi, uzliksiz ta’lim g’oyasi hamda kompetentsiyaviy yondashuv qarashlari qabul qilindi. Maqolada nazariy tahlil orqali kattalar ta’limiga xos bo‘lgan pedagogik qonuniyatlar ochib berildi.

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida kreativ, nostandart fikrlaydigan, o‘z sohasida yangi usullarni taklif qila oladigan professional mutaxassislarga ehtiyoj tobora ortmoqda. Har bir soha uchun kadrlarni tayyorlash ta’lim beruvchining zimmasiga yuklatilgan vazifadir. “Andragogika” atamasi nemis pedagogika tarixshunosi A. Kapp tomonidan kiritilgan. Mazkur atama grek tilidan andros – erkak, odam; agogeyn – olib borish, yetaklash ma’nosini anglatadi. So‘zma-so‘z tarjima qilinganda andragogika – “katta odamni boshqarish, yetaklash” ma’nosini

bildiradi. Bu atama pedagogik voqe'likdan vujudga kelgan ekan, unda so'z katta yoshdagi odamni ta'lim orqali boshqarish, yetaklash to'g'risida boradi. Aynan kattalarga ta'lim beruvchi pedagog andragog hisoblanadi [1].

O'qitish jarayonida qo'llaniladigan didaktik metodlar qandaydir maqsadga erishish, aniq vazifani yechish usuli sifatida tushunishdan kelib chiqib, S.I.Zmeyov unga quyidagicha tarif beradi: "o'qitish metodi – bu o'quv jarayonining faol ishtirokchilarining (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi) bilim, malaka, ko'nikma, sifatlar va axloqiy qadriyatlarni egallash bo'yicha faoliyatini tashkil etish usulidir" O'qitishning adragogik modeli bo'yicha ta'lim jarayonni tashkil etishda asosiy rol ta'lim oluvchiga qaratiladi. Katta yoshdagi ta'lim oluvchi ta'lim jarayonining teng huquqli ishtirokchisi, faol elementi hisoblanadi [2].

Dunyoda andragogik ta'limni tashkil etishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashtirish, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun muhim hisoblangan kattalar ta'limida o'qitishning intensiv usullarini ishlab chiqish, tinglovchilarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish tobora ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Biroq bu boradagi ishlar ko'p bo'lishiga qaramay, xorijiy tajribani o'rganish zarurati to'liq qondirilmayapti. Xorijiy tajriba tahlilining ahamiyati N.E. Vorobyov, B.L. Vulfson, A.N. Dzjurinskiy, A.M. Mitina, M.V. Klarin kabi MDH mamlakatlari tadqiqotchilari tomonidan qayd etilgan [3].

Nazariy tahlil natijalari kattalar ta'limini tashkil etishda quyidagi muhim jihatlar ustuvor ekanligini ko'rsatdi:

birinchidan, kattalar ta'limida ta'lim oluvchining hayotiy va kasbiy tajribasi asosiy ta'lim markazi sifatida xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim mazmuni amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

ikkinchidan, kattalar ta'limida mustaqil ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirisj muhim ahamiyat kasb etadi. Kattalar o'z bilimlarini ongli ravishda boshqarishga intiladi va ta'lim jarayonida faol sub'ekt sifatida ishtirok etadi.

uchinchidan, interfaol va kompetentsiyaviy yondashuvlar kattalar ta'limida samarali hisoblanadi. Bunday yondashuvlar orqali ta'lim oluvchilarda kasbiy, kommunikativ va ijtimoiy kompetentsiyalar shakllanadi.

to'rtinchidan, kattalar ta'limida o'qituvchining roli o'zgaradi. U axborot etkazuvchi emas, balki maslahatchi, yo'naltiruvchi va hamkor sifatida faoliyat yuritadi.

M.Noulz ta'limotida ta'kidlanganidek, kattalar ta'limida ichki motivatsiya, o'z-o'zini boshqarish va hayotiy tajriba asosiy omillar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, interfaol metodlar va kompetentsiyaviy yondashuv kattalar ta'limi uchun eng maqbul pedagogik echimlardan biri hisoblanadi [4].

Andragogikaning asosiy qoidalarini birinchilardan bo'lib M.Sh. Noulz kattalar va bolalarning ta'lim jarayonini taqqoslab, shakllantirgan. Kattalar ta'limining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'limda yetakchi rol, faol pozitsiya;

- ta'lim maqsadining aniqligi, mustaqillik, o'zini o'zi amalga oshirish, o'zini o'zi boshqarish;
- o'qitish jarayonida mavjud hayotiy tajriba, bilim, ko'nikma, malakalardan foydalanish;
- muhim hayotiy muammoni hal qilish va ta'lim orqali aniq maqsadga erishish;
- ta'lim jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarni tezda qo'llash;
- ta'lim jarayoniga turli, ham yordam beruvchi, ham cheklovchi omillarning ta'siri (vaqt, makon, maishiy, kasbiy, ijtimoiy);
- ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining barcha bosqichlardagi birgalikdagi faoliyati [5].

Kattalar ta'limi masalalari bo'yicha olib borilgan nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, an'anaviy pedagogik yondashuvlar kattalar auditoriyasi uchun har doim ham samarali emas. Kattalar ta'limida o'qitish mazmuni va shakllari andragogik tamoyillarga muvofiq ravishda tashkil etilishi zarur.

Bugun dunyoda katta yoshlilarni o'qitish masalasi va kasbiy qayta tayyorlash, qo'shimcha kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishni istovchi katta yoshlilarni qo'llab-quvvatlash va ularga sharoit yaratib berishga qaratilgan,davlat yoki xalqaro miqyosda ham faoliyat yurituvchi ta'lim markazlari, institutlar mavjud. Jumladan, YUNESKO ta'lim instituti(Gamburg), Xalqaro ta'limni rejalashtirish instituti (Parij), Xalqaro ta'lim instituti(AQSH), Shveysariya kattalar ta'limi tashkiloti, Kattalar ta'limining milliy instituti(Buyuk Britaniya), Xalqaro pedagogik tadqiqotlar instituti (Germaniya) shular jumlasidandir [6].

YUNESKOning kattalar ta'limi bo'yicha 2009-yil dekabrda o'tkazilgan oltinchi Xalqaro konferensiyasida qabul qilingan «Belen harakatlar me'yori»da aytilishicha, «Kattalar o'qishi va ularga ta'lim berish odamlarga o'z haq huquqlarini rivojlantirish va ro'yobga chiqarish hamda o'z taqdirlarining egalari bo'lishlari uchun zarur bilimlar, malakalarni egallash, fazilat va qadriyatlarni qaror toptirishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birgalikda kattalar o'qishi va ularga ta'lim berish adolat va inklyuzivlikka erishish, qashshoqlikning ko'lamini kamaytirish va savodxonlikka asoslangan adolatli, bardoshli va barqaror jamiyat yaratish uchun mutloq zaruriyat bo'lib hisoblanadi».

Kattalar ta'limi zamonaviy dunyoda shunchaki kasbiy malaka oshirish jarayoni emas, balki shaxsning sotsializatsiyasi, uning intellektual salohiyatini doimiy yangilab borish hamda jamiyatning transformatsion jarayonlariga moslashishini ta'minlovchi strategik mexanizm hisoblanadi. Ushbu tizim kattalarda nafaqat professional ko'nikmalarni, balki jamiyat hayotida daxldorlik hissi bilan ishtirok etishni (ijtimoiy faollik), axborotlar oqimini saralash layoqatini (tanqidiy fikrlash) va o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda o'z o'rnini topishni (ijtimoiy moslashuv) shakllantiradi. Binobarin, kattalar ta'limi inson kapitalini boyitish orqali jamiyatning umumiy taraqqiyotini harakatlantiruvchi asosiy drayver sifatida e'tirof etilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, kattalar ta'limi (andragogika) uzluksiz ta'lim (Lifelong Learning) paradigmasining fundamental bo'g'ini bo'lib, uning samarali

faoliyat ko‘rsatishi jamiyatning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligining kafolatidir. Kattalar auditoriyasi bilan ishlashda an’anaviy pedagogikadan farqli o‘laroq, ta’lim oluvchining hayotiy tajribasiga tayanadigan andragogik yondashuv, o‘zaro bilim almashishga yo‘naltirilgan interfaol o‘qitish metodlari hamda natijadorlikni belgilovchi kompetensiyaviy ta’lim modeli ustuvor metodologik ahamiyat kasb etadi. Ushbu modellar o‘quv jarayonini akademik doiradan chiqarib, uni real hayotiy va professional muammolar yechimiga yo‘naltiradi.

Kattalar ta’limi tizimining takomillashtirilishi shaxsning kasbiy va individual rivojlanish trayektoriyasini belgilab berish bilan bir qatorda, mehnat bozoridagi dinamik o‘zgarishlarga mos, moslashuvchan va raqobatbardosh kadrlar zaxirasini yaratishga xizmat qiladi. Bugungi raqamli iqtisodiyot va bilimlar jamiyati sharoitida kattalar ta’limi tizimini ilmiy asosda modernizatsiya qilish, uning huquqiy va metodik bazasini mustahkamlash davlat ta’lim siyosatining dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda. Zero, bilimlarini doimiy yangilab boruvchi shaxs nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy yuksakligini ham ta’minlovchi asosiy subyekt hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirsoliyeva M.T. Andragogikaning taraqqiyot yo‘nalishlari. Zamonaviy ta’lim. – 2021.

2. Hayot davomida ta’lim olish bo‘yicha YUNESKO instituti/UIL/2009.

3. Андреев, В. И. Введение в европейскую сравнительную педагогику. М.: НИО, 2001.

4.Knowles M. The Adult Learner. – London: Routledge, 2015.

5.Jarvis P. Adult Education and Lifelong Learning. – London: Routledge, 2018.

6.Lindeman E. The Meaning of Adult Education. – New York, 2017.

UDK 378.37.0

РАЗВИТИЕ КОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НА ОСНОВЕ МЕЖПРЕДМЕТНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ

Жумамуратова Аибахар Нурмуханбетовна,
Национальный педагогический университет Узбекистана, независимый исследователь

Аннотация. В данной статье рассматривается актуальная проблема профессиональной подготовки будущих педагогов в условиях смены образовательных стандартов. Отмечается противоречие между требованием формировать у школьников целостную картину мира и фрагментарным («лоскутным») характером знаний, получаемых студентами в вузе из-за предметной разобщенности.

Ключевые слова: когнитивные компетенции, межпредметная интеграция, высшее педагогическое образование, будущий учитель, критическое мышление, бинарные занятия, компетентностный подход, профессиональная подготовка.

TA'LIMDA FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim standartlari o'zgarishi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning dolzarb muammolari ko'rib chiqiladi. Maktab o'quvchilarida olamning yaxlit manzarasini shakllantirish talabi va oliy o'quv yurtlarida fanlarning tarqoqligi sababli talabalar oladigan bilimlarning fragmentar («bo'lak-bo'lak») xususiyati o'rtasidagi ziddiyat qayd etilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv kompetensiyalar, fanlararo integratsiya, oliy pedagogik ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, tanqidiy fikrlash, binar mashg'ulotlar, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik.

DEVELOPMENT OF COGNITIVE COMPETENCIES OF THE FUTURE TEACHER ON THE BASIS OF INTERPREDMENTAL INTEGRATION IN EDUCATION

Abstract. This article discusses the urgent problem of professional training of future teachers in the context of changing educational standards. The contradiction between the requirement to form a holistic worldview in schoolchildren and the fragmented ("patchwork") nature of knowledge received by university students due to disciplinary disunity is noted.

Keywords: cognitive competencies, interdisciplinary integration, higher pedagogical education, future teacher, critical thinking, binary lessons, competency-based approach, professional training.

Сегодня мы наблюдаем парадоксальную ситуацию в образовании. От школьного учителя требуют, чтобы он научил детей видеть мир целостно, мыслить широко. Но где этому учат самого учителя? В вузе его подготовка часто напоминает раскладывание знаний по разным полкам: психология — отдельно, методика — отдельно, а цифровые навыки вообще живут своей жизнью. Это классический «эффект колодца», когда дисциплины не пересекаются.

После выпуска такой педагог приходит работать в колледж или лицей. Допустим, он готовит строителей — каменщиков или отделочников. И тут он сталкивается с реальностью: старые стандарты (второго поколения) уже не работают, а новые (третьего поколения) требуют от него формировать у студентов компетенции, а не просто заставлять их зубрить теорию. Происходит слом всей системы: мы уходим от «знаниевой» модели к тому, что человек реально умеет делать. Однако меняются правила игры: сейчас образование уходит от устаревших стандартов второго поколения. Внедрение стандартов третьего поколения диктует новые условия, где во главу угла ставится не просто объем усвоенной информации, а конкретные компетенции. Это знаменует окончательный отказ от чисто «знаниевой» концепции в пользу компетентностной модели подготовки [1].

В современных образовательных реалиях проблема формирования «лоскутных» (фрагментарных) знаний у будущих педагогов становится одним из ключевых барьеров на пути к профессиональному мастерству. Феномен «лоскутного» знания заключается в том, что информация в сознании студента хранится в виде изолированных кластеров. Будущий учитель может демонстрировать глубокие академические знания в предметной области (например, биологии, химии или истории) и параллельно успешно осваивать теоретические каноны педагогики и психологии. Однако в ситуации реального образовательного процесса эти дисциплинарные пласты не вступают во взаимодействие, лишая педагога возможности системно воздействовать на аудиторию.

Суть профессиональной неготовности проявляется именно в отсутствии междисциплинарного синтеза. Студент знает «что» преподавать и теоретически понимает «как» это делать, но оказывается неспособен объединить эти компоненты для решения комплексной кейс-стадии в классе. Здесь на первый план выходят когнитивные компетенции, которые в системе высшего образования должны интерпретироваться гораздо шире, чем просто развитие базовых психических функций (памяти или внимания).

Когнитивные компетенции — это сложная структура метапредметных навыков, включающая в себя:

способность извлекать алгоритм решения из одной предметной области и адаптивно применять его в совершенно другом контексте;

умение распознавать скрытые причинно-следственные связи между психологическим состоянием ученика, спецификой учебного материала и методологией его подачи;

готовность мгновенно перестраивать образовательную стратегию, опираясь на прогнозирование развития педагогической ситуации.

Развитие таких компетенций требует перехода от репродуктивного обучения к контекстному и проектному подходу. Когнитивно развитый педагог не просто воспроизводит заученный алгоритм, он выступает в роли «архитектора образовательного пространства», способного конструировать знания вместе с учениками. Таким образом, преодоление «лоскутности» образования возможно лишь через формирование у студентов способности к синтезу, критическому анализу и творческому переносу теоретических конструктов в плоскость живой педагогической практики.

Ключевой миссией выпускника вуза по профилю профессионального образования становится работа в системе колледжах и лицеях. Именно здесь происходит подготовка квалифицированных рабочих кадров, например, для строительной индустрии — от каменщиков до мастеров-отделочников. Сегодня этот процесс находится в фазе активной трансформации: нормативная база обновляется, и на смену стандартам второго поколения приходят регулятивы третьей волны. Данный переход является следствием глобального сдвига образовательной парадигмы: приоритет смещается с трансляции теоретических знаний («знаниевая модель») на выработку практической готовности действовать («компетентностный подход»).

К сожалению, в современном педагогическом дискурсе наблюдается явный перекос в сторону функционализма. Портрет компетентного специалиста сегодня часто рисуют исключительно через набор технических навыков: "умеет, владеет, применяет". В погоне за этим вузы превращаются в фабрики по передаче алгоритмов и технологий работы. При этом фундамент профессии — интеллектуальная гибкость и глубина мышления — незаслуженно отодвигается на второй план, словно это некая необязательная опция, а не основа профессионализма [6].

Между тем, достичь этих показателей, оставаясь в рамках традиционной, дробной структуры обучения, практически невозможно. Компетентностный подход требует отхода от изолированного изучения предметов, так как профессиональные задачи в реальной жизни никогда не ограничиваются рамками одной науки. Чтобы устранить разрыв между теорией и практикой и оптимизировать учебное время, необходима коренная перестройка архитектуры образовательного процесса. Ключевым методологическим решением этой проблемы становится внедрение интегративных подходов.

В данном контексте под интеграцией следует понимать процесс качественной трансформации связей между отдельными компонентами. Это

слияние разрозненных подсистем в единый целостный организм, главной задачей которого является оптимизация: устранение дублирующих функций и лишних структурных звеньев ради повышения общей производительности системы [2].

Наша гипотеза проста: если мы перестанем учить студентов линейно (предмет за предметом), а создадим «узлы» пересечения разных наук, то их мышление (анализ, гибкость) начнет развиваться гораздо быстрее.

В качестве экспериментальной площадки мы выбрали Каракалпакский государственный университет им. Бердаха. Работа велась два семестра. Участниками стали 60 студентов-филологов (направление «Филология и иностранные языки»).

Мы разделили поток на две части. Контрольная группа (КГ, 30 человек) училась как обычно, по старому плану. А вот для экспериментальной группы (ЭГ, 30 человек) мы перекроили программу, внедрив модель «горизонтальной интеграции».

Сразу скажем: обычные тесты на запоминание мы отбросили. Они не показывают, как человек думает. Мы использовали другой набор - давали запутанные ситуации из школьной жизни, где нужно применить и право, и психологию, и методику разом.

Применение теста Уотсона-Глейзера (адаптация) - это лучший способ проверить критическое мышление. Он показывает, умеет ли студент видеть логические дыры.

Оценка эффективности интегративного подхода невозможна без анализа того, как студенты применяют знания в условиях неопределенности. Традиционные экзаменационные вопросы здесь бессильны, так как они проверяют память, а не понимание связей. Чтобы объективно оценить сдвиги в когнитивной сфере будущих педагогов, мы использовали следующий набор диагностических процедур, логика и механика которых описаны далее.

Интересно, что у кейс-стади до сих пор нет жесткой "прописки" в педагогической классификации. Одни методисты уверенно относят его к инструментам проблемного обучения, другие же видят в нем логическое продолжение проектных технологий. Лингвистические корни термина (case — ящик, чемодан) подсказывают нам формат работы: это своеобразный "интеллектуальный багаж", который студенту предстоит разобрать и систематизировать [4].

В качестве основного инструмента диагностики была выбрана адаптированная версия теста Уотсона-Глейзера. Изначально этот психометрический инструмент зарекомендовал себя в корпоративном секторе и юриспруденции как надежный фильтр при отборе персонала. Однако его механика — анализ текстовых блоков с последующей верификацией утверждений (формат «истина — ложь — недостаточно данных») — оказалась универсальной. Тест позволяет «оцифровать» такие сложные навыки, как способность к дедукции, умение отделять факты от допущений и видеть логические разрывы в аргументации, что критически

важно для будущего педагога. Хотя термин начал свое восхождение в научной среде еще полвека назад (изначально в трудах по психологии и философии), его статус в современной педагогике остается двойственным. С одной стороны, признается его безусловная ценность для адаптации человека к реалиям информационного общества. С другой — мы сталкиваемся с отсутствием консенсуса в дефинициях. Исследовательское поле остается фрагментированным: до сих пор неясно, как именно критический анализ коррелирует с другими ментальными функциями и в какой момент процесс запоминания перерастает в критическое осмысление [3].

Обращение к методу экспертных оценок продиктовано необходимостью "оцифровать" качественные показатели, которые невозможно измерить тестами. В основе подхода лежит трансформация профессиональной интуиции и опыта специалистов в валидные данные для прогноза или диагностики. Процедурно этот «фильтр» может быть реализован в двух форматах: как работа с независимыми индивидуальными рецензентами, так и через организацию коллегиальных (групповых) обсуждений для выработки консенсуса [5].

Мы пошли на риск и перестроили расписание. Ввели бинарные пары. Например, курс «Лингвистика и эпоха». В аудитории одновременно работали историк и лингвист. Студенты разбирали не скучные правила, а смотрели, как, скажем, Викторианская эпоха или Великая депрессия меняли значения слов.

Еще сделали интегративные проекты. Задание было таким: создать виртуального гида для иностранцев. Чтобы это сделать, студентам пришлось стать немного программистами, немного дизайнерами и, конечно, переводчиками. Главная задача была найти «культурные нестыковки» (лакуны) и придумать, как их объяснить иностранцу.

Цифры, которые мы получили в конце, удивили даже нас.

Главное отличие — в аргументации. Когда студенты из экспериментальной группы решали кейсы, 78% из них использовали доводы из разных наук (в обычной группе таких было всего 34%). То есть у них включился так называемый когнитивный перенос.

Тест на критическое мышление тоже показал рост в ЭГ на 22%. Ребята стали замечать логические ошибки там, где раньше просто читали текст.

Но был и неожиданный эффект. Студенты сказали, что им стало легче учиться. Когда они поняли общие принципы системного подхода, новые спецпредметы перестали казаться им чем-то страшным и незнакомым. Они начали искать аналогии с тем, что уже знают.

В контрольной группе всё осталось по-старому: студенты отлично цитировали учебник, но впадали в ступор, если на уроке языка нужно было применить знания из физиологии.

Наши данные подтверждают: старая «кафедральная» система, где каждый преподаватель сидит в своей скорлупе, тормозит развитие мозгов.

Почему интеграция сработала? Всё просто: наш мозг не хранит файлы по папкам «История» или «Химия». Он строит связи. Связывая литературу с историей, мы делаем эти нейронные связи толще и прочнее.

Конечно, есть проблемы. Главная беда — неготовность самих преподавателей. Трудно найти филолога, который разбирается в IT, или историка, знающего физику. Это требует кадровых изменений.

И еще: просто поставить два предмета рядом в расписании — не поможет. Нужна именно проблема, которую нельзя решить одним способом. Только интеллектуальный тупик заставляет мозг работать на полную.

Межпредметная интеграция — это не просто методический прием для разнообразия пар. Это фундаментальное условие для развития гибкого, адаптивного ума будущего учителя. Переход от предметно-центрированной модели к интегративной позволяет выпускать специалистов, способных видеть образовательный процесс как единую систему, а не набор разрозненных уроков.

Список литературы:

1. Бикчентаева Р. Р., Халиуллин М. И. Влияние межпредметных связей на формирование компетенций будущих специалистов // Известия КазГАСУ. 2013. №3 (25). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-mezhpredmetnyh-svyazey-na-formirovanie-kompetentsiy-buduschih-spetsialistov

2. Мусин Ш.Р., Куваева М.М., Гайнуллин И.А. Интегрированное обучение в процессе формирования профессиональных компетенций будущих бакалавров технических направлений // Современные проблемы науки и образования. 2019. № 1.

3. Вихман Александр Александрович ТЕСТ «КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ ПОДРОСТКА»: РАЗРАБОТКА И ПСИХОМЕТРИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА // Вестник Удмуртского университета. Серия «Философия. Психология. Педагогика». 2024. №2.

4. Грузкова Светлана Юрьевна, Камалеева Алсу Рауфовна. Кейс-метод: история разработки и использования метода в образовании // Russian Journal of Education and Psychology. 2013. №6 (26).

5. Данелян Тэя Яновна. Формальные методы экспертных оценок // Статистика и экономика. 2015. №1.

6. Абдуллина Г.Т. Развитие интеллектуальных умений будущего учителя в компетентностно-ориентированном образовательном процессе вуза // Фундаментальные исследования. 2011. №12-4.С.723-731.

UDK: 378.147:37.091.12:004.4

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ISH SINF O‘QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YARATISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Juginisova Juldız Imnixashimovna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik dasturiy vositalarni yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy yondashuvlari va metodologik asoslari ko‘rib chiqilgan. Faoliyatli, konstruktiv, kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan, loyihaviy va aksiologik yondashuvlar hamda raqamli didaktika nazariyasining qoidalari ochib berilgan. Bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy tayyorlashda pedagogik dasturiy vositalarning o‘rni haqidagi mahalliy va xorijiy metodistlarning qarashlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘z raqamli ta’lim vositalarini yaratishga tizimli va bosqichma-bosqich tayyorlash zarurati asoslangan.

Kalit so‘zlar: pedagogik dasturiy vositalar, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, raqamli didaktika, faoliyatli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ СОЗДАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В статье рассмотрены теоретические подходы и методологические основы развития навыков создания педагогических программных средств у будущих учителей начальных классов. Раскрыты деятельностный, конструктивный, компетентностный, системно-деятельностный, личностно-ориентированный, проектный и аксиологический подходы, а также правила теории цифровой дидактики. Особое внимание уделяется взглядам отечественных и зарубежных методистов о роли педагогических программных средств в профессиональной подготовке будущего учителя. Обоснована необходимость системной и поэтапной подготовки будущих учителей к созданию собственных цифровых образовательных инструментов.

Ключевые слова: педагогические программные средства, будущие учителя начальных классов, цифровая дидактика, деятельностный подход, компетентностный подход.

METHODOLOGY OF DEVELOPING THE SKILLS OF CREATING PEDAGOGICAL PROGRAMM MEANS IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Abstract: The article examines the theoretical approaches and methodological foundations for developing the skills of creating pedagogical software tools in future primary school teachers. Activity-based, constructive, competency-based, system-activity-based, personality-oriented, project-based, and axiological approaches, as well as the rules of the theory of digital didactics, are revealed. Special attention is paid to the views of domestic and foreign methodologists on the role of pedagogical software tools in the professional training of a future teacher. The need for systematic and phased preparation of future teachers for the creation of their own digital educational tools is substantiated.

Keywords: pedagogical software tools, future primary school teachers, digital didactics, activity-based approach, competency-based approach.

Zamonaviy sharoitda ta'limni raqamlashtirish boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash mazmuni va usullarini qayta ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ushbu tayyorgarlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri raqamli ta'lim muhitida ta'lim va tarbiyaning didaktik maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan pedagogik dasturiy vositalarni yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirish bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan nazariy yondashuvlar va uslubiy tushunchalar to'plamiga tayanishni talab qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik dasturiy vositalarni yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik nazariya, faoliyat nazariyasi, konstruktivizm va raqamli didaktika integratsiyasiga asoslanadi. L.S.Vigotskiy [1;352] tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat nazariyasiga ko'ra, ta'lim oluvchi real ta'lim mahsulotini yaratishga qaratilgan faol mahsuldor faoliyatga kiritilganda ta'lim samarali bo'ladi. Bunda pedagogik dasturiy vositalar mazmunli o'quv-kasbiy faoliyat natijasi sifatida namoyon bo'ladi. P.Ya. Galperinning [2; 336] aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi muhim metodologik ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko'ra, har qanday aqliy harakatning shakllanishi bir qator o'zaro bog'liq bosqichlarni o'z ichiga olgan izchil jarayondir - harakatning taxminiy asosidan tortib, uning ichki, avtomatlashtirilgan bajarilishigacha. Olim aqliy harakatni bir vaqtning o'zida tugallangan holda shakllantirib bo'lmasligini, balki uni bosqichma-bosqich egallash zarurligini ta'kidlagan. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratishga kelsak, bu mavjud raqamli mahsulotlarni tahlil qilishdan kelajak vositasining tuzilishini modellashtirishga, interaktiv elementlarni bosqichma-bosqich ishlab chiqishga va keyinchalik tayyor mahsulotni pedagogik ekspertizadan o'tkazishga izchil o'tishni o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv shakllanayotgan kasbiy ko'nikmalarning ongliligi, tizimliligi va barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv ham muhim rol o'ynaydi, u kasbiy ta'limni zamonaviy ta'lim muhitida samarali faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan asosiy va kasbiy kompetensiyalar to'plamini shakllantirish jarayoni sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu yondashuv doirasida o'zlashtirilgan bilimlar hajmiga emas, balki ularni real pedagogik vaziyatlarda

qo‘llash qobiliyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish qobiliyati bu kontekstda pedagogik, metodik va texnologik komponentlarni birlashtirgan integrativ kasbiy kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi. U bo‘lajak o‘qituvchining ta’lim oluvchilarning yosh xususiyatlari va o‘qitishning didaktik maqsadlarini hisobga olgan holda raqamli ta’lim resurslarini loyihalashga tayyorligini aks ettiradi. Raqamli didaktikaning zamonaviy nazariyasi ko‘rsatilgan yondashuvlarni to‘ldiradi, raqamli texnologiyalarni nafaqat o‘qitish vositasi, balki ta’lim jarayonining maqsadlari, mazmuni va usullarini o‘zgartiradigan mustaqil didaktik omil sifatida ko‘rib chiqadi. Raqamli ta’lim muhiti sharoitida pedagogik dasturiy vositalarni yaratish XXI asr o‘qituvchisi kasbiy kompetentligining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu esa bo‘lajak pedagoglardan loyihalash faoliyati, raqamli resurslarni tanqidiy idrok etish va ulardan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatini talab etadi. Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik dasturiy vositalarni yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan, loyihaviy va aksiologik yondashuvlar hamda raqamli didaktika nazariyasi qoidalaridan kompleks foydalanishga asoslanishi lozim. Ularning integratsiyasi kasbiy tayyorgarlikning yaxlitligini ta’minlaydi, barqaror amaliyotga yo‘naltirilgan ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi va ta’limni raqamlashtirish sharoitida pedagogik kadrlarni tayyorlash sifatini oshiradi.

J. Piaje asarlarida [11; 192] keltirilgan konstruktivizm nuqtayi nazaridan bilimlar subyektning o‘z tajribasini faol konstruksiyalash jarayonida shakllanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash sharoitida bu nafaqat ulardan foydalanish, balki o‘z raqamli didaktik vositalarini yaratish zarurligini anglatadi. Kompetensiyaviy yondashuv raqamli, loyihaviy va metodik kompetentlikni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik dasturiy vositalarni yaratish raqamli ta’lim muhiti sharoitida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatga tayyorligining asosiy ko‘rsatkichi sifatida qaraladi.

Ye. S. Po‘lat [7; 272] ta’limda raqamli texnologiyalar yordamchi vosita emas, balki ta’lim oluvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatini tashkil etish vositasi bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchining fikricha, bo‘lajak o‘qituvchi didaktik maqsadlarni hisobga olgan holda elektron topshiriqlarni loyihalash, interfaol mashqlarni ishlab chiqish va raqamli ta’lim mahsulotlarini yaratish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. B.Dendev [4; 320] tahriri ostidagi jamoaviy monografiyada pedagoglarni raqamli tayyorlashning tizimli xususiyati ta’kidlangan. Muallifning ta’kidlashicha, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat raqamli resurslardan foydalanishi, balki o‘zining pedagogik dasturiy vositalarini moslashtirish va yaratishni ham bilishi kerak, bu esa maqsadli metodik tayyorgarlikni talab qiladi.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda ta’lim jarayoniga texnologiyalarni samarali integratsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratilib, bu borada P. Mishra va M. Koehler [10; 1017; 1054] tomonidan ishlab chiqilgan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli keng qo‘llanilmoqda. Mazkur model

o‘qituvchining kasbiy kompetentligini uch asosiy bilim sohasi kesishmasida izohlaydi va ta’lim samaradorligini oshirish uchun texnologiya, metodika hamda fan mazmunini uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi.

TPACK modeli quyidagi tarkibiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

• T (Technology) — o‘qituvchining texnologik savodxonligi, ya’ni raqamli vositalarni tanlash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish va ta’lim jarayoniga moslashtirish kompetensiyasi;

• P (Pedagogy) — pedagogik bilim va mahorat, o‘qitish metodlari, strategiyalari, baholash hamda sinf boshqaruvi kabi didaktik jarayonlarni samarali tashkil etish salohiyati;

• C (Content) — fan mazmuni bo‘yicha bilim (kontent savodxonligi), ya’ni o‘qitiladigan predmetning nazariy va amaliy asoslarini chuqur bilish;

• K (Knowledge) — “bilim” tushunchasi bo‘lib, u yuqoridagi barcha komponentlarning yagona kasbiy kompetensiya tizimida birlashishini anglatadi.

Shu asosda, TPACK modeli o‘qituvchidan nafaqat alohida texnologik, pedagogik yoki fan bilimiga ega bo‘lishni, balki ularning o‘zaro integratsiyasini ta’minlashni talab qiladi. Natijada o‘qituvchi ta’lim mazmunini zamonaviy texnologiyalar yordamida metodik jihatdan to‘g‘ri, maqsadli va samarali tarzda yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kompetensiyaviy yondashuv (I. A. Zimnyaya) kasbiy tayyorgarlikni kasbiy vaziyatlarda samarali harakat qilish qobiliyatini shakllantirish sifatida talqin qiladi [3]. Tizimli-faoliyatli yondashuv (A. N. Leontev) PPSni yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqadi [6]. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv (V. V. Serikov) [8] bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini faoliyat subyekti sifatida rivojlantirishga e’tibor qaratadi. Loyihaviy yondashuv (U. Kilpatrik) amaliyotga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish orqali o‘qitishni nazarda tutadi. Aksiologik yondashuv (V. A. Slastenin) [9] pedagogik faoliyatning qadriyatli xususiyatini va raqamli ta’lim vositalarining tarbiyaviy yo‘naltirilganligi zarurligini ta’kidlaydi.

Metodist olimlarning nazariy qarashlari va zamonaviy pedagogik konsepsiyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik dasturiy vositalarni (PDV) loyihalash va yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish shunchaki qo‘shimcha mahorat emas, balki ta’limni transformatsiya qilish va raqamlashtirish davrining ob’ektiv qonuniyatidir. Bu jarayon o‘qituvchi shaxsining kasbiy tayyorgarligini belgilovchi integral ko‘rsatkich bo‘lib, o‘quv jarayonini interfaol, moslashuvchan va natijaga yo‘naltirilgan formatda tashkil etish imkonini beradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish ko‘nikmasi o‘zida o‘qituvchining uchta muhim kompetensiyasini birlashtiradi:

zamonaviy raqamli qurilmalar, multimedia texnologiyalari va dasturlash elementlaridan ta’limiy maqsadlarda foydalana olish;

murakkab o‘quv materiallarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos ravishda vizuallashtirish va tizimlashtirish;

standart darsliklar doirasidan chiqib, o‘ziga xos mualliflik ishlanmalarini yaratish orqali o‘quv motivatsiyasini oshirish.

Tahlil qilingan metodik yondashuvlardan (tizimli, faoliyatli va kompetensiyaviy) kompleks foydalanish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashning ilmiy asoslanganligini hamda ta’lim mazmunining metodik yaxlitligini kafolatlaydi. Raqamli muhitda pedagogik dasturiy vositalarni mustaqil yarata oladigan o‘qituvchi nafaqat tayyor resurslar iste’molchisi, balki innovatsion ta’lim muhitining faol arxitektori sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu ko‘nikmalarning rivojlanishi bo‘lajak mutaxassisning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi va boshlang‘ich ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi. Zero, o‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligi uning bugungi kundagi texnologik imkoniyatlarni pedagogik maqsadlar bilan qanchalik uyg‘unlashtira olishi bilan belgilanadi.

Zamonaviy ta’limni raqamlashtirish jarayoni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash mazmuni, shakl va usullarini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tahlil qilingan nazariy va metodologik yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhiti sharoitida pedagogik dasturiy vositalarni yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu ko‘nikmalar o‘qituvchining nafaqat tayyor raqamli resurslardan foydalanish, balki ularni didaktik maqsadlarga muvofiq holda loyihalash, moslashtirish va yaratish qobiliyatini ham belgilaydi.

Faoliyat nazariyasi va aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi pedagogik dasturiy vositalarni yaratish jarayonini izchil, ongli va amaliyotga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida tashkil etish zarurligini asoslaydi. Ushbu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilar real ta’lim mahsulotini yaratish orqali o‘z kasbiy tajribasini boyitadi, bu esa shakllanayotgan ko‘nikmalarning barqarorligi va samaradorligini ta’minlaydi. Konstruktivizm g‘oyalari esa bilimlarning faol konstruksiyalanishini ta’kidlab, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z raqamli didaktik vositalarini mustaqil yaratishga tayyorligini metodologik jihatdan asoslaydi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida pedagogik dasturiy vositalarni yaratish pedagogik, metodik va texnologik komponentlarni integratsiyalovchi muhim kasbiy kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat TPACK modeli bilan uyg‘unlashib, o‘qituvchidan fan mazmuni, pedagogik metodlar va raqamli texnologiyalarni bir butun tizimda qo‘llashni talab etadi. Natijada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi raqamli ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritish, ta’lim mazmunini innovatsion va didaktik jihatdan asoslangan shaklda tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, tizimli-faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan, loyihaviy va aksiologik yondashuvlarning integratsiyasi pedagogik dasturiy vositalarni yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasining yaxlitligini ta’minlaydi. Ushbu yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini, qadriyatga yo‘naltirilgan pedagogik pozitsiyasini hamda amaliyotga tatbiq etiladigan raqamli mahsulotlar yaratish salohiyatini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik dasturiy vositalarni yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi — bu shunchaki texnik mahoratni shakllantirish emas, balki zamonaviy pedagogik nazariyalar, raqamli didaktika va kompetensiyaviy yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan murakkab tizimli jarayondir. Ushbu metodikaning samaradorligi bo‘lajak mutaxassisning nafaqat raqamli vositalardan foydalana olishi, balki murakkab o‘quv materiallarini boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos ravishda didaktik transformatsiya qila olish layoqati bilan belgilanadi.

Bunday kompleks yondashuv ta’limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini tubdan oshirishga xizmat qiladi. U o‘qituvchini tayyor elektron resurslarning passiv iste’molchisidan innovatsion ta’limiy kontentning faol yaratuvchisi — "pedagogik dizayner" darajasiga ko‘taradi. Bu esa, o‘z navbatida, bo‘lajak o‘qituvchining zamonaviy mehnat bozoridagi kasbiy raqobatbardoshligini ta’minlaydi va uning o‘zgaruvchan texnologik muhitga moslashuvchanligini oshiradi.

Metodikaning amaliyotga tatbiq etilishi boshlang‘ich ta’lim samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradi. Zero, o‘qituvchi tomonidan yaratilgan mualliflik dasturiy vositalari o‘quv jarayonini vizuallashtirish, interfaollikni ta’minlash va har bir o‘quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini inobatga olishga xizmat qiladi. Oxir-oqibat, ushbu ilmiy asoslangan metodologik yondashuv raqamli jamiyat uchun zarur bo‘lgan intellektual salohiyatli yosh avlodni shakllantirishning eng muhim pedagogik shartiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allambergenova, M. X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuter dasturlaridan o ‘quv-tarbiya jarayonida foydalanish. Inter education & global study, 3(6), 36-43, 2025.

2. Allambergenova M., Juginisova J, Advantages of using e-learning resources in preschool education. Internatsional journal For Innovative Enginering end Manajemen Research. Nov 2020. Volume 09, Issue 11, Pages: 5-9.

3. Выготский Л. С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 1999. - 352 с.

4. Гальперин П. Я. Введение в психологию. - М.: МГУ, 2000. -336 с.

5. Juginisova, J. I. . Using software tools in teaching children of preschool educational institutions. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(1), 170-173, 2025.

6. Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результат образования.-М., 2004.

7. Информационные и коммуникационные технологии в образовании /под ред. Б. Дендева. -М.: ЮНЕСКО, 2013. -320 с.

8. Лапчик М. П. Цифровая дидактика. -М.: БИНОМ, 2020.

9. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Политиздат, 1975.

10. Полат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. - М.: Академия, 2019. -272 с.

11. Сериков В. В. Личностно-ориентированное образование. - М.: Логос, 1999.

13. Mishra P., Koehler M. Technological Pedagogical Content Knowledge // Teachers College Record. -2006. Vol. 108, № 6. P. 1017-1054.

14. Piaget J. The Psychology of Intelligence. - London: Routledge, 2001. -192 p.

UDK:37.025.7

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Saribayeva Madina Nurlanovna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti pedagogika yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishning ta'lim samaradorligi va dunyoqarashni kengaytirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish faqat pedagogik faoliyat bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchining mustaqil izlanishi va ota-onalar nazoratining uyg'unligini talab etuvchi kompleks jarayon sifatida yoritiladi. Maqolada o'qituvchining yo'naltiruvchi va poydevor yaratuvchi roli hamda zamonaviy ta'lim strategiyalarining ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, Abu Nasr Forobiy, mantiqqa oid asarlar, olimlar qarashlari, milliy ta'lim strategiyalari.

РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Аннотация. В данной статье анализируется роль формирования логического мышления учащихся в повышении эффективности обучения и расширении их мировоззрения. Развитие логического мышления рассматривается как комплексный процесс, который не ограничивается только педагогической деятельностью, но и требует сочетания самостоятельного поиска учащегося с родительским контролем. В статье освещаются направляющая роль учителя как фундамента знаний, а также значимость современных стратегий образования.

Ключевые слова: логическое мышление, Аль-Фараби, труды по логике, взгляды ученых, национальные стратегии образования.

DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING OF GENERAL EDUCATION SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article analyzes the role of developing students' logical thinking in enhancing educational effectiveness and expanding their worldview. The development of logical reasoning is presented as a complex process that is not limited to pedagogical activity but requires a combination of a student's independent inquiry and parental involvement. The article highlights the teacher's guiding role as a foundational support, as well as the significance of modern national educational strategies.

Keywords: logical thinking, Al-Farabi, works on logic, scholars' views, national education strategies.

Ma'lumki, o'quvchilar mantiqiy fikrlashga o'rgatilganida ularning masalaga yondashuvi, savol berish madaniyati va ijodiy faoliyati sezilarli o'zgaradi. Demak, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

Hozirgi kunda faqat bizning yurtimizda emas, balki butun dunyo aholisi o'quvchilari mantiqiy va kreativ fikrlashlarini kengaytirishni o'z oldiga maqsad qilib olganlar. Buni uchun turli metod va metodikasilarni o'ylab topmoqdalar va amaliyotda qo'llab, natijalarini kuzatishmoqda. Rivojlanishning jadallashuvi bilan turli xil interfaol metodlar va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beruvchi vositalar ham kirib kelmoqda. Bu har doim metod qo'llash bilan fikrlash rivojlanib qolmaydi. Avvalo, o'quvchilarning qiziqishini va dunyoqarashini ham o'rganish, shunga mos ravishda o'qitish uslubini qo'llash zarurdir. Bu esa o'qituvchining kasbiy mahorati va bilimi bilan uzviy bog'liq. Perspektiv va oldindan ko'ra olish qobiliyati yaxshi rivojlangan o'qituvchilarda bu jarayon juda oson kechadi. O'quvchilarini sevuvchi va kelajagiga befarq bo'lmagan o'qituvchi o'zi ustida har doim ishlaydi va izlanishda bo'ladi. Bu, albatta, vaqt, bilim, izlanishlar va o'quvchilar bilan bog'liq holdagi jarayon hisoblanadi. Hamma narsaning ikki tarafi bo'lgani kabi faqatgina o'qituvchi izlanishi bu- o'quvchilarning savodli bo'ladi degani emas. Buning uchun o'quvchilarda ham intilish bo'lishi kerak. Ota-onalar ham bunda chetda kuzatib turishi kerak degani emas. Ular ham bolalarining qiziqishlariga e'tibor qaratishi, darslarini muntazam kuzatib borishi, o'zlashtirishlarini va bolasidagi o'zgarishlarni ham nazorat ostiga olishi kerak. Hozirgi kundagi zamon talabi ham shu, yani uch taraflama: maktab, mahalla va ota- ona hamkorligi. Buning yo'lga qo'yilgani bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan naqlning isbotidir. Ammo bu hamkorlik faqat bir taraflama bo'lib qolmoqda, yani faqat maktab va unga mas'ul o'qituvchilar bolalar bilan shug'ullanmoqda. Ko'pchilik ota-onalar ish bilan band va bolamni yaxshi ta'minlasamgina unga yaxshi bo'ladi deb o'ylaydi, ammo buning o'zi yetarli hisoblanmaydi va kelajagini ham yaxshi bo'lishini kafolatlamaydi. Ular bilan suhbat qurish, tushunish va imkoni boricha qo'shimcha to'garaklar va sport turlariga berish bola uchun, kelajagi uchun muhim qadam hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari o'z asarlarida mantiqiy fikrlash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, Abu Nasr Forobiy mantiqni "fikrlash san'ati" (*art of logic*) deb ta'riflab, uni fikrni to'g'ri yo'naltirish va xatolardan saqlash nazariyasi sifatida talqin etgan. Olim til va mantiq o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tadqiq etib, so'z ma'nosi, tushuncha hamda hukmlar shakllanishining mantiqiy usullar bilan aloqadorligini isbotlab bergan. Farobiyga ko'ra, mantiqning asosiy maqsadi — «qarashlarni tartibga solish, xatolarning oldini olish va tafakkurni haqiqat yo'liga yo'naltirish»dan iboratdir. U Aristotelning klassik mantiqiy ta'limotini rivojlantirib, unga kategoriyalar, imkoniyat nazariyasi va teskari mulohazalar kabi o'ziga xos yangiliklarni kiritdi [1].

Forobiy yondashuviga asoslanib, o‘quvchilarni o‘z fikrlarini tizimli bayon etishga o‘rgatishda savol-javob va ilmiy muhokama kabi metodlardan foydalanish lozim. Shuningdek, so‘z va tushunchaning o‘zaro muvofiqligini ta’minlash, mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ymaslik hamda “ma’lumot — tahlil — xulosa” zanjiri asosida fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega [2]. Inson muayyan bir fikrni bayon etishdan avval o‘sha mavzuda to‘liq faktik ma’lumotga ega bo‘lishi, uni tahlil qilishi va tushunishi zarur. So‘ngra, ongda amalga oshirilgan analiz va sintez jarayonlari orqali fikrga har tomonlama nazar solib, yakuniy xulosaga kelish talab etiladi. Xalq donishmandligidagi “yetti o‘lchab, bir kes” maqoli aynan mantiqiy tahlilning hayotiy ifodasi bo‘lib, u insonni xato xulosalardan, asossiz mulohazalardan va obro‘sizlanishdan asraydi.

Ibn Sino logikani falsafa uchun muhim instrument deb bilgan: logic yordamida ma’lum tushunchalardan noma’lumga o‘tish, haqiqiy bilimga erishish mumkinligini ta’kidlagan.O‘rta asr sharqida logika nafaqat falsafa balki tilshunoslik, fiqh va boshqa sohalarda ham qo‘llanilgan. Ibn Sino mantiqni tushuncha va tasdiq nazariyasi orqali ko‘rib chiqilgan — ya’ni, fikr shakllanishini, uni tasdiqlashni va xatolarni aniqlashni o‘z ichiga olgan. Ibn Sinoning yondoshuvi:o‘quvchilarga tushunchalarni avval aniq belgilash (ta’rif berish), keyin fikr tuzishga o‘rgatish,xulosa chiqarishda logik usullarni (masalan, syllogism) qo‘llashni o‘rgatish,mantiqiy fikrlashni faqat faktni yodlash emas, balki ma’lumotdan xulosa qilish jarayoni sifatida ko‘rsatish [3].

Al-G‘azzoliyga ko‘ra: “Kim mantiqni bilmasa, ilmiga ishonib bo‘lmaydi.”Bu fikr mantiqiy fikrlash ilmiy asos bo‘lishini ko‘rsatadi.U fikr xatolarining asosiy manbalarini keltiradi: Noto‘g‘ri ta’rif, noto‘g‘ri tasnif, qarama-qarshi dalil,hissiy xatolar.Bu yondashuv zamonaviy critical thinkingga juda yaqin. “Haqiqatga dalil asosida erishiladi”.Uning nazarida fikr:dalil (burhān),isbot (istidlāl),tajriba yordamida tekshiriladi.Al-G‘azzoliy mantiqni: darslarda fikrni tartiblash,savollarga aniq javob berish,bahslashish madaniyatini shakllantirish vositasi deb belgilaydi.Uning mashhur asari “Tahāfut al-Falāsifa” (Faylasuflar iztirobi) mantiqsiz fikrlashning oqibatlarini ochib bergan.U falsafani inkor qilmagan, balki: noto‘g‘ri fikrlash usullarini rad etgan. U bilimning uch manbai: hissiy idrok, aql orqali xulosa,ichki ruhiy idrok (tajribaviy) haqida asarlarida batafsil to‘xtalib o‘tgan.Bu tasnif G‘arb epistemologiyasidan oldin paydo bo‘lgan. “Fikr shakli – fikr mazmunidan muhim”.U nazarida avval fikrning shakli (mantiqiy model), keyin ma’no keladi.U tushunchani to‘g‘ri ta’riflashni mantiqning bosh mezoni deb bilgan.Bu hozirgi linguistik logikaga mos keladi.G‘azzoliy o‘quvchilarni:savol bera oladigan,dalil keltiradigan,xulosaga keladigan tarzda o‘qitishni taklif qilgan.Bu tanqidiy fikrlashning ilk modeli hisoblanadi [4]. U mantiq bo‘yicha:"Miyar al-İlm","Al-Qistas al-Mustaqim","Al-Mustasfa fil-Usul" asarlarini, falsafa-mantiq tanqidi bo‘yicha "Tahafut al-Falasifa", "Maqasid al-Falasifa" asarlarini, pedagogik-ruhiy harakterdagi "Ihya Ulum ad-Din" asarlarini yaratgan.Bu asarlar Markaziy Osiyo madrasalarida asrlar davomida darslik sifatida o‘qitilgan.Bugun G‘azzoliy asarlari turli yo‘nalishlarda o‘rganilmoqda. Nafaqat G‘azzoliy, balki Abu Mansur Moturidiy “Kitab at-Tawḥid”, “Ta’vilat al-Qur’an”,

Burhoniddin al-Marg‘inoniy “Al-Hidaya” (4 jild), Nasiriddin Tusi “Asas al-Iqtibas” (mantiq), “Tajrid al-aqa’id” (kalom), Sa’daddin Taftazoniy “Sharḥ at-Talwih”, “Sharḥ al Aqa’id”, Shamsuddin as-Samarqandiy “Ashkal at-Ta’sis”, “Qistas al-Afkar", Ibn Rushd (Averroes) “Sharḥ Kitab al-Burhan”, “Talkhis al-Qiyas” asarlarini hammasi mantiqiy fikrlash, o‘quvchilarda uni rivojlantirish va bilim darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha hisoblanadi. Sharq mantiq maktabida Moturidiy, Marg‘inoniy, Tusi, Taftazoniy, Samarqandiy va Ibn Rushd kabi mutafakkirlar mantiqiy fikrlash masalalarini turli asarlarida yoritganlar [6].

Luria A.R mantiqiy fikrlash - bu faqat bilim emas, balki miyadagi neyron tarmoqlar faoliyatidir, deya ta’kidlagan. Prefrontal korteks (miya oldingi qismi) aynan tahlil, rejalashtirish, sabab-oqibat aloqalarini ko‘rish, xulosa chiqarish kabi fikrlash shakllarini boshqaradi.10–14 yosh oralig‘ida ayni soha tez rivojlanadi — bu esa aynan o‘rta maktab bosqichida mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun eng qulay davr ekanligini ko‘rsatadi. Lekin ko‘pchilik rivojlangan davlatlar o‘quvchilarda mantiqiy va kreativ rivojlanishni bog‘cha davridan boshlashgan. Ularga turli xil o‘yinchoqlar berib qaysi jihatlariga e’tibor berish kerakligini o‘rganishgan va bu orqali ularni qaysi kasbga yo‘naltirish kerakligini ham bilib olishadi. Bolalar o‘yinchoqlarga qilgan munosabati, nimalarga e’tibor berayapti, shularni kuzatishadi. To‘g‘ri tanlangan kasb esa ularni butun bir kelajagi, hayotini belgilab beradi va bu dastlabki qadam hisoblanadi. AQSh va Angliyada 6-12 yoshli bolalarga falsafiy savollar beriladi va bu orqali ularning mantiqiy, tanqidiy va axloqiy fikrlashi tekshiriladi. Ular berilgan savollarga qanday javob beryapti, qancha vaqtda javob beryapti, javob berolmayaptimi shular nazorat qilyaptilar. Finlandiya davlat ta’lim tizimida o‘quvchilarga har darsda savollar beriladi va rag‘batlantirish orqali ularning mustaqil tahlil qilish qobiliyati o‘rganiladi. Rag‘batlantirish o‘quvchilar uchun juda muhim va hozirgi zamon talabi hisoblanadi. Rag‘batlar har xil usulda amalga oshirilishi mumkin, ya’ni sovg‘alar, baholar, stikerlar yoki bo‘lmasa oddiy maqtovlar orqali bo‘lishi mumkin. Maqtovlar o‘quvchining boshqa o‘quvchilar orasidagi obro‘sini oshiradi, o‘quvchining o‘ziga ishonchini oshirishga yordam beradi [7].

Ko‘plab mamlakatlar (maxsus ta’lim strategiyalari va davlat dasturlari orqali) o‘quvchi kompetensiyalari — jumladan tanqidiy va mantiqiy fikrlashni — o‘quv natijalariga kiritingan. Masalan, Qozog‘iston va Tojikistonning milliy ta’lim strategiyalarida o‘qituvchilarni tayyorlash va o‘quv dasturlarini modernizatsiyalash orqali tanqidiy fikrlash elementlarini kiritish maqsadi belgilangan. Ta’lim sifatini oshirish uchun K-12 hamda pedagogika oliy ta’limida o‘qituvchilarga mo‘ljallangan maxsus treninglar, HCD/HPC sikllari va seminarlar o‘tkazilmoqda — bunda muammo yechish, savol-javob, bahs va formativ baholash kabi mantiqiy fikrlashni rivojlovchi metodlar o‘rgatiladi. Bunday dasturlar Qirg‘iziston va Qozog‘istonda keng tarqalgan. Fanlar darsliklari va o‘quv natijalari (learning outcomes) qayta ko‘rib chiqilib, “analiz qilish, sintez va muammo hal etish” kabi yuqori tartibli fikrlash ko‘nikmalari kiritilmoqda. Bu ayniqsa boshlang‘ich va asosiy ta’lim bosqichida (matematika, tabiiy fanlar va til darslarida) sezilarli [8].

Maktab va oliy ta'lim tashkilotlarida muammo yuzasidan guruh ishlari tashkil etish yordamida o'quvchilar mantiqiy xulosalar chiqarishga o'rgatilmoqda. Shu bilan birga, fanlararo loyihalar va olimpiada-tanlovlar mantiqiy fikrlashni mustahkamlashga xizmat qiladi (ta'lim tahlillari va dars metodikasi maqolalari bunga misol). Ba'zi maktablar va milliy dasturlar dars rejalariga raqamli resurslar va diagnostik testlarni kiritib, o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy qobiliyatlarini o'lchash va monitoring qilishga kirishgan. Bu, o'z navbatida, qo'shimcha individual yondoshuv va intervension darslarni amalga oshirishga yordam beradi. Schools2030, GPE/KIX, Erasmus va boshqa xalqaro dasturlar hududda ta'lim islohotlarini qo'llab-quvvatlab, o'qituvchilarni treningdan o'tkazish, HCD tsikllari va pilot loyihalar orqali mantiqiy fikrlashni o'rgatish usullarini joriy qilmoqda. Bu dasturlar ayni mintaqada amaliy metodlarni tarqatishda muhim rol o'ynaydi[8].

Hududiy universitetlar va pedagogika institutlarida mantiqiy fikrlashga bag'ishlangan metodik tadqiqotlar, maqolalar va konferensiya materiallari chop etilmoqda (masalan, Chirchiq, Toshkent, Almati va Bishkekdagi pedagogika jurnallari). Bu tadqiqotlar amaliy dars metodlarini, test-natijalarni va tajribalarni baham ko'radi [6].

Xullas, o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish jarayoni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Analitik topshiriqlar, loyiha ishlari, problem-based learning, bahslar va interaktiv ta'lim vositalari bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarning metodik savodxonligini oshirish, darsliklarni zamonaviy talablarga moslashtirish hamda raqamli platformalardan foydalanish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ko'rsatkichlarini sezilarli oshirish mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Al-Forobiy, A. N. Iḥṣā' al-'Ulūm (Ilmlarning tasnifi). – Bayrut: Dar al-Fikr, 1996.
2. Al-Forobiy, A. N. Kitāb al-Qiyās. – Bayrut, 1987.
3. Ibn Sino, A. A. Ash-Shifo' (Mantiq bo'limlari). – Qohira, 2005.
4. Al-G'azzoliy, A. H. Mi'yār al-'Ilm. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2001.
5. Al-G'azzoliy, A. H. Tahāfut al-Falāsifa. – Bayrut, 1997.
6. Mahmudov A. Sharq mutafakkirlari falsafasi va mantiqi. Toshkent, 2018.
7.Luria, A. R. (1966). Higher cortical functions in man. New York: Basic Books.
8. UNESCO. Regional Education Support Strategy for Central Asia. – Paris: UNESCO, 2023.
9. Abdullayeva M., Jo'rayev R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish. – Toshkent: Fan, 2019.

UDK:37.034

GLOBALLASHUVNING O‘QUVCHILAR MA’NAVIY TARBIYASIGA IJOBIY VA SALBIY TA’SIRI

Mamatsaliyeva Muxlisa San’at qizi,
Ajinyoz nomidagi NDPI pedagogika yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonining o‘quvchilar ma’naviy tarbiyasiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy ta’sirlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqolada globallashuvning ushbu ikki qirrali jarayonini muvozanatli baholash, o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan samarali foydalanish zarurligi asoslanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, globallashuv sharoitida tarbiyaviy faoliyatni milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy mas’uliyat va madaniy immunitetni rivojlantirish asosida tashkil etish o‘quvchilarning ma’naviy kamolotini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, ma’naviy tarbiya, o‘quvchi shaxsini shakllantirish, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ommaviy madaniyat, axborot texnologiyalari, ta’lim jarayoni, ma’naviy immunitet, ijtimoiy mas’uliyat.

ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ И ОТРИЦАТЕЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА ДУХОВНОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения анализируются положительные и отрицательные аспекты влияния процесса глобализации на духовное воспитание учащихся. Обосновывается необходимость сбалансированной оценки этого двустороннего процесса и эффективного использования национальных и общечеловеческих ценностей в духовно-нравственном воспитании учащихся. Согласно результатам исследования, организация воспитательной деятельности в условиях глобализации на основе развития национального самосознания, социальной ответственности и культурного иммунитета обеспечивает духовное совершенствование личности учащегося.

Ключевые слова: Глобализация, духовное воспитание, формирование личности учащегося, национальные ценности, общечеловеческие ценности, массовая культура, информационные технологии, образовательный процесс, духовный иммунитет, социальная ответственность.

POSITIVE AND NEGATIVE IMPACT OF GLOBALIZATION ON THE SPIRITUAL EDUCATION OF STUDENTS

Abstract. This article scientifically analyzes the positive and negative impacts of the globalization process on the spiritual education of students. It substantiates the necessity of a balanced evaluation of this two-sided process and

the effective use of national and universal values in the spiritual and moral education of students. According to the research results, organizing educational activities in the context of globalization based on the development of national identity, social responsibility, and cultural immunity ensures the spiritual perfection of the students' personality.

Keywords: Globalization, spiritual education, student personality formation, national values, universal values, mass culture, information technologies, educational process, spiritual immunity, social

Globallashuv zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib, u barcha sohalar qatori ta’lim va tarbiya tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu jarayon o‘quvchilarning ma’naviy dunyosi, qadriyatlari va ijtimoiy qarashlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois globallashuvning ma’naviy tarbiyaga ta’sirini ilmiy tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni o‘quvchilarning ma’naviy tarbiyasiga ikki qirrali ta’sir ko‘rsatmoqda: bir tomondan u ta’lim sifatini oshirish, dunyoqarashni kengaytirish, innovatsion bilimlarni egallash va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish imkonini beradi, boshqa tomondan milliy qadriyatlarning susayishi, ommaviy madaniyatning keng tarqalishi, internetga qaramlik va ma’naviy bo‘shliq kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Bu jarayonda muammolarni bartaraf etish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarda ma’naviy immunitetni shakllantirish, tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda ota-ona va jamiyat hamkorligini kuchaytirish zarur.

Globallashuv sharoitida o‘quvchilarning ma’naviy tarbiyasi murakkab jarayon bo‘lib, bunda ijobiy imkoniyatlar va salbiy xavflar bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘ladi. Ijobiy jihatlaridan biri sifatida ilmiy-texnik taraqqiyot, axborot texnologiyalaridan foydalanish, madaniyatlararo muloqot va innovatsion fikrlash imkoniyatlari keltirilsa, salbiy tomonida esa milliy o‘zlikni yo‘qotish, iste’molchilik kayfiyatining ortishi, ma’naviyatsizlik va yengil ko‘ngilochar madaniyatning ustunlik qilishi qayd etiladi. Shu sababli tarbiyaviy faoliyatda o‘quvchilarning mustaqil tafakkurini rivojlantirish, milliy merosga sodiqligini mustahkamlash, global qadriyatlarning ijobiy tomonlarini tanlab qabul qilish va zararli oqibatlardan himoyalash eng muhim vazifa hisoblanadi [2].

Globallashuvning o‘quvchilar ma’naviy tarbiyasiga ta’siri murakkab va ko‘p qirrali jarayon sifatida ilmiy tahlilni talab qiladi. Bir tomondan, u ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish imkonini beradi. Globallashuv ta’sirida yoshlar umuminsoniy qadriyatlarni chuqurroq o‘zlashtirib, madaniyatlararo muloqot va tolerantlik ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar, bu esa ularning ijtimoiy faoliyatini va intellektual salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, globallashuvning salbiy oqibatlari ham mavjud: milliy qadriyatlarning nisbatan susayishi, ommaviy

madaniyatning ustunlik qilishi, iste'molchilik psixologiyasining kuchayishi, axborot oqimining tartibsizligi natijasida o'quvchilarda ma'naviy bo'shliq va mustaqil fikrlashning zaiflashishi kabi muammolar kuzatilmoqda. Bu holat ta'lim va tarbiya tizimidan yanada samarali strategiyalar ishlab chiqishni talab etadi. Xususan, ma'naviy tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, axborotni ongli ravishda qabul qilish madaniyatini rivojlantirish hamda ma'naviy immunitetni mustahkamlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shuningdek, tarbiyaviy faoliyatda innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish, interaktiv yondashuvlarni keng joriy etish, ota-onalar va jamoatchilik bilan uzviy hamkorlikda ishlash orqali globallashuvning salbiy ta'sirlarini kamaytirish mumkin.

Globallashuv jarayoni bugungi kunda dunyo miqyosida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda chuqur o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy tarbiyasi globallashuv ta'sirini eng tez va bevosita qabul qiladigan sohalardan biridir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi o'quvchilarning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan globallashuvning o'quvchilar ma'naviy tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta'sirlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Avvalo, globallashuvning ijobiy ta'siri haqida so'z yuritadigan bo'lsak, u o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirish, dunyo xalqlari madaniyati va qadriyatlari bilan tanishish imkonini yaratadi. Internet orqali turli davlatlarning ta'lim tizimi, ilm-fan yutuqlari, tarixiy merosi haqida ma'lumot olish imkoniyati mavjud. Bu esa o'quvchilarda ochiq fikrlilik, bag'rikenglik, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan madaniyatlararo muloqot g'oyalari yoshlar ongida tinchlik, hamkorlik va o'zaro hurmat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, globallashuv jarayoni xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirib, o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantiradi.

Globallashuvning yana bir ijobiy jihati — ilg'or pedagogik tajribalar va innovatsion ta'lim texnologiyalarining tezkor almashinuvidir. Raqamli platformalar, onlayn kurslar, masofaviy ta'lim imkoniyatlari o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu jarayon o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va saralash madaniyatini rivojlantiradi. Natijada ular global mehnat bozorida raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Biroq globallashuvning salbiy ta'sir jihatlari ham mavjud. Eng avvalo, ommaviy madaniyatning cheksiz kirib kelishi milliy qadriyatlar va an'anaviy tarbiya mezonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayrim hollarda internet orqali tarqaladigan yot g'oyalar, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentlar yoki axloqiy me'yorlarga zid materiallar o'quvchilarning ma'naviy dunyosiga zarar yetkazadi. Bu esa ularda befarqlik, individualizm va iste'molchilik kayfiyatining kuchayishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Shuningdek, globallashuv sharoitida axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligi o‘quvchilarda axborot tanqisligi emas, balki axborot ortiqchaligi muammosini yuzaga keltirmoqda. Har qanday ma’lumotni tanqidiy tahlil qilmasdan qabul qilish esa noto‘g‘ri qarashlar va stereotiplarning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois axborot madaniyatini shakllantirish, media savodxonlikni oshirish zamon talabi bo‘lib qolmoqda.

Globallashuv o‘quvchilar ma’naviy tarbiyasiga bir vaqtning o‘zida ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uning ijobiy jihatlaridan samarali foydalanish va salbiy oqibatlarini bartaraf etish ta’lim tizimi, oila va jamiyatning hamkorlikdagi sa’y-harakatlariga bog‘liqdir. Eng muhimi, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash globallashuv sharoitidagi ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Globallashuvning o‘quvchilar ma’naviy tarbiyasiga ta’siri zamonaviy pedagogika va tarbiya nazariyasida chuqur ilmiy tadqiqotni talab etuvchi masalalardan biridir. Bir tomondan, u yoshlar uchun cheksiz imkoniyatlar, yangicha bilim manbalari, dunyoqarashni kengaytirish va intellektual salohiyatni oshirish omili sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlardan uzoqlashish, begona madaniyatga mukkasidan ketish, iste’molchilik kayfiyatining kuchayishi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Demak, globallashuv jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy tarbiyalashda ikki asosiy yo‘nalishga e’tibor qaratish zarur. Birinchidan, ijobiy imkoniyatlardan samarali foydalanish talab etiladi. Globallashuv tufayli kirib kelayotgan ilg‘or tajribalar, ilmiy-texnik yutuqlar va pedagogik innovatsiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish orqali yoshlarning ijodiy tafakkurini, yangicha yondashuvlarini va kommunikativ madaniyatini shakllantirish mumkin. Shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali yoshlar bag‘rikeng, erkin fikrlaydigan va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida kamol topadilar. Ikkinchidan, salbiy ta’sirlardan himoya mexanizmlarini yaratish zarur. Ommaviy madaniyatning salbiy oqibatlari, internetga qaramlik, ma’naviyatsizlik va axloqiy bo‘shliq xavflariga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Bunda milliy qadriyatlarni chuqur o‘rganish, tarixiy meros va madaniyatni yosh avlod ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar ongida milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosga sadoqat, mustaqil va tanqidiy tafakkur asosida global jarayonlarga to‘g‘ri munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarbdir. Shuningdek, globallashuv sharoitida tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etishda oila, maktab va jamiyatning hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Ma’naviy tarbiya faqat ta’lim tashkilotlari zimmasida emas, balki oilaviy muhit, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va jamoatchilikning umumiy mas’uliyatini ham talab etadi. Shu bois, yoshlarning ma’naviy kamoloti uchun ta’lim va tarbiya jarayonini kompleks ravishda, davlat va jamiyatning hamkorligida olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Globallashuv sharoitida o‘quvchilarning ma’naviy tarbiyasi masalasi yanada murakkab va ko‘p qirrali tus olmoqda. Chunki bugungi o‘quvchi nafaqat o‘z mahallasi yoki mamlakati doirasida, balki butun dunyo axborot makonida

yashamoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, xalqaro ta'lim dasturlari yoshlarning ongiga tezkor ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan globallashuv jarayonini faqat ijobiy yoki faqat salbiy hodisa sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Globallashuvning ijobiy ta'siri o'quvchilarda global fuqarolik tuyg'usining shakllanishida namoyon bo'ladi. Ular inson huquqlari, ekologiya, tinchlik va barqaror rivojlanish kabi umuminsoniy qadriyatlar haqida kengroq tasavvurga ega bo'ladilar. Masalan, United Nations tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari yoshlar ongida mas'uliyat, ijtimoiy faollik va kelajak oldidagi javobgarlik hissini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bunday global tashabbuslar o'quvchilarni faqat shaxsiy manfaat bilan emas, balki jamiyat va insoniyat manfaatlari bilan ham yashashga undaydi.

Shuningdek, globallashuv jarayonida xorijiy adabiyotlar, ilmiy manbalar va madaniy meros namunalariga erkin kirish imkoniyati mavjud. Bu esa o'quvchilarning estetik didini o'stiradi, tafakkurini boyitadi, turli madaniyatlarni qiyosiy o'rganish ko'nikmasini rivojlantiradi. Natijada yoshlar o'z milliy qadriyatlarini chuqurroq anglash bilan birga, boshqa xalqlarga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

Biroq globallashuvning salbiy ta'siri ko'pincha "ommaviy madaniyat" orqali namoyon bo'ladi. Ayrim xorijiy filmlar, musiqalar yoki internet trendlari yoshlar ongiga bevosita ta'sir etib, ularning qadriyatlar tizimini o'zgartirib yuborishi mumkin. Masalan, haddan tashqari individualizm, tez boyish g'oyasi, shaxsiy manfaatni hamma narsadan ustun qo'yish kabi qarashlar o'quvchilarning ma'naviy dunyosida ziddiyatlar keltirib chiqaradi. Bu holat milliy tarbiya tamoyillari bilan nomuvofiqlikni yuzaga keltirishi mumkin.

Yana bir muhim jihat — ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri. Virtual muloqot real hayotdagi muloqot o'rnini egallab borayotgani o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Ular ko'proq ekran orqali muloqot qilgani sababli empatiya, jonli suhbat madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlar yetarli darajada shakllanmasligi mumkin. Bundan tashqari, yolg'on axborotlar, manipulyativ kontent va zararli g'oyalar yosh ongiga tez singadi.

Globallashuvning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun ta'lim jarayonida milliy-ma'naviy tarbiyaga alohida e'tibor qaratish zarur. O'quvchilarga milliy tarix, an'ana va qadriyatlar chuqur o'rgatilishi, ularni zamonaviy bilimlar bilan uyg'un holda singdirish muhimdir. Shu bilan birga, media savodxonlikni rivojlantirish, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Umuman olganda, globallashuv o'quvchilar ma'naviy tarbiyasiga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi: bir tomondan, ularning tafakkurini kengaytiradi, intellektual salohiyatini oshiradi va umuminsoniy qadriyatlarga yaqinlashtiradi; ikkinchi tomondan esa, nazoratsiz va tanqidsiz qabul qilingan axborot hamda ommaviy madaniyat ta'siri ularning ma'naviy barqarorligiga putur yetkazishi mumkin. Demak, muhim vazifa — globallashuv imkoniyatlaridan oqilona

foydalanish va yosh avlodni mustahkam ma'naviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlar mavjud. Globallashuv aspektlarini o'rgangan Habibuli Haka Hongira shunday deydi: "Globallashuv g'alabaga, yo'qotishlarga olib keladigan jarayondir. Ba'zilar globallashuvni o'z yo'lidagi hamma narsani yo'q qiladigan po'yezd sifatida ko'rsalar, boshqalari uni iqtisodiy o'sish va modernizatsiyaga olib keladigan foyda manbai deb bilishadi". Globallashuvga bunday yondashuv tadqiqotimizni murakkab tabiatga ega ekanligini, unga bir yo'la yondashish ziddiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Globallashuv mafkurachisi M.Uotersning aytishicha, "Globallashuv olamida hududiy chegaralar va mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy munosabatlar va milliy manfaatlardan mustaqil yangi dunyo shakllanadi. O'rnatilgan dunyo yagona jamiyatni, yagona madaniyatni ifodalaydi. Bu madaniyatlarning insoniyat madaniyatiga ixtiyoriy integratsiyalashuvini bildiradi". Ayrim globallashuv olimlarining ta'kidlashicha, "global integratsiya" barcha sohalarda o'z aksini topgan bo'lsa-da, «din», «madaniyat», «millat» kabi tushunchalar atrofida tez sodir bo'lmaydi. Masalan, S.Xantingtonning fikricha, «G'arb mafkurasining ilg'or davri yakuniga yetmoqda, biz esa endi yangi davrga qadam qo'ymoqdamiz, turli madaniyatlar bir-biri bilan raqobatlashmoqda». Amerikalik olim S.Xantingtonning fikridan kelib chiqib, globallashuv dunyo siyosatining yangi bir ko'rinishiga aylanayotganligini, demokratiya va erkinlik g'oyasi asosida rivojlangan mamlakatlarni o'zidan nochorroq davlatlarga ta'sir o'tkazish kuchi sifatida shakllanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Garvard universiteti professori S.Xoffmanning fikricha, «Jahon madaniyatining globallashuvi milliy madaniyatlar, urf-odatlar va qadriyatlar me'yorlarini tiklashga qaratilgan madaniy xilmaxillikni va madaniyatlarning plyuralistik sintezini (lokoglobalizatsiya) yaratadi». S.Xoffmanning fikri, S.Xantingtonning fikriga yaqin hisoblanib, globallashuv madaniy xilma-xillikning yangicha obrazi bo'lib, unda muayyan xalq madaniyati ustuvor ahamiyat kasb etmaydi. Maks Veberning fikricha, «Dunyoning g'azabi» – bu ittifoqqa qarshi reaksiyadir. S.Xantington va C.S. Xoffmanning fikricha, madaniy birlashuv darhol sodir bo'lmaydi, aksincha, bu hududlar kelajakda nizolar o'chog'iga aylanishi mumkin. Zamonaviy dunyoning «global» tabiatidan kelib chiqib, unga munosabat bildirish, unga qarshilik ko'rsatish, imkon qadar qattiq yashash, dunyoga o'zligini va madaniyatini ko'rsatish, buzilgan mamlakatlarga ergashish ko'zda tutilgan. O'tgan asr davomida, mustamlakachi davlatlar o'z mustaqilligi uchun kurash olib bordilar va asr oxiriga kelib sovet ittifoqining parchalanishi bilan mustamlakachilik jarayoni yakuniga yetib bordi. Globallashuv jarayonida sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kuchayib borayotgan bir sharoitda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda zamonaviylik va tarixning o'zaro ta'sirini ta'minlash, ajdodlar ma'naviy merosi ne'matlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish zarur. Shu bois «...Sharq falsafasini teran o'rganish, shu asosda ulug' madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini jonlantirish, yaqin o'tmishimizdan qolgan mafkuradan xalos bo'lish, o'zimizning asrlar sinovidan o'tgan, ulug' ajdodlarimiz bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni

zamonaviy umumbashariy ruh bilan boyitish hammamizning dolzarb vazifamizdir». Sivilizasiya taraqqiyoti inson ma'naviy dunyosi qanday bo'lishi kerak?, degan falsafiy savolga javob topa oldimi, degan o'rinli mulohazaga kelishimizni o'rganishimizni dolzarblashtiradi. Darhaqiqat, «Inson qalbida ma'naviyat qanchalik yuksak bo'lsa, johillik, yovuzlik, xudbinlik, loqaydlik kabi jamiyatga xavf soladigan illatlar shunchalik chekinadi va ular o'rnida yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, bunyodkorlik, tuyg'ulari qaror topadi». Mana shunday ezgu maqsad va g'oyalar insonma'naviy dunyosini boyib borishida, uning o'zligini anglab yetishida muhim xalqa bo'lib hisoblanadi. «Boshqa tomondan esa, globallashuv jarayonlari endilikda o'zaro hamkorlik tamoyillariga tayanish taraqqiyot va rivojlanishning g'oyat muhim va hal qiluvchi mezonlaridan biri ekanligini eslatdi. Natijada barcha jabhalarda integratsiya jarayonlari, innovatsion o'zgarishlarni jadallashtirish davlat va jamiyat boshqaruvining eng asosiy yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda»[1].

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonini to'liq inkor etish ham, uni mutlaqo cheksiz imkoniyat sifatida qabul qilish ham to'g'ri emas. Asl maqsad – globallashuvning ijobiy tomonlarini ta'lim-tarbiyada samarali qo'llash, salbiy ta'sirlarini esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanib bartaraf etishdir. Ana shundagina o'quvchilar ma'naviy barkamol, intellektual salohiyatli va milliy hamda global qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot va ma'rifat yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.

2.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

3.Abdurahmonov A. Globallashuv va ma'naviyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.

4.Aliyev A., Raximov N. Ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning metodik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

5.G'afforov T. Globallashuv va ta'lim jarayonidagi yangicha yondashuvlar. – Toshkent: Tafakkur, 2020.

6.Jalolov J. Pedagogika nazariyasi va tarbiya metodlari. – Toshkent: Universitet, 2018.

7.Karimova D. Yoshlar ma'naviy tarbiyasida oilaning o'rni. – Toshkent: Ma'rifat, 2016.

8.Qodirov H. Ma'naviyat va zamonaviylik: dolzarb masalalar. – Toshkent: Fan, 2015.

9.Saidov A. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrash masalalari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021.

10.To'xtayev N. Axborot texnologiyalari va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Universitet, 2020.

UDK:37.026.9

OQITIWSHILARDA KREATIV SIPATLARDI RAWAJLANDIRIWDIN TEORIYALIQ-METODOLOGIYALIQ TIYKARLARI

Maqsetova Vazira,
Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti magistranti

Annotatsiya. Bul maqalada zamanagóy tálim sistemasında pedagog kadrlar kreativligin rawajlandırıwdıń teoriyalıq-metodologiyalıq tiykarları izertlenedi. Izertlew dawamında dóretiwshilik túsinigíniń filosofiyalıq hám psixologiyalıq tiykarları, oqıtıwshı shaxsında payda bolatuǵın dóretiwshilik sapalar hám de olardı qáliplestiriwdiń tiykarǵı principleri analiz etilgen. Dóretiwshilik túsinigíniń pedagogikalıq mazmunı, oqıtıwshı iskerliginde kreativ jantasıwdıń áhmiyeti, zamanagóy tálim processinde kreativ kompetenciyalardı qáliplestiriw jolları kórsetip beriledi. Sonıń menen birge, kreativ sıpatlardı rawajlandırıwǵa xızmet etiwshi pedagogikalıq texnologiyalar, metodlar hám innovciyalıq jantasıwlar ilimiy-teoriyalıq tárepten tiykarlanadı.

Gilt sózler: dóretiwshilik, pedagogikalıq uqıp, divergent pikirlew, refleksiv jantasıw, aqmeologiya, innovciyalıq iskerlik, metodologiya, intellektuallıq potencial.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНЫХ КАЧЕСТВ У УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье исследуются теоретико-методологические основы развития креативности педагогических кадров в современной системе образования. В ходе исследования были проанализированы философские и психологические основы понятия творчества, творческие качества, возникающие в личности учителя, а также основные принципы их формирования. Показано педагогическое содержание понятия творчества, значение креативного подхода в деятельности учителя, пути формирования креативных компетенций в современном образовательном процессе. Вместе с тем научно-теоретически обоснованы педагогические технологии, методы и инновационные подходы, служащие развитию креативных качеств.

Ключевые слова: творчество, педагогическая компетентность, дивергентное мышление, рефлексивный подход, акмеология, инновационная деятельность, методология, интеллектуальный потенциал.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE QUALITIES IN TEACHERS

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of developing the creativity of teaching staff in the modern education

system. During the study, the philosophical and psychological foundations of the concept of creativity, the creative qualities that arise in the teacher's personality, and the basic principles of their formation were analyzed. The pedagogical content of the concept of creativity, the importance of a creative approach in teacher activity, and ways to form creative competencies in the modern educational process are shown. At the same time, pedagogical technologies, methods, and innovative approaches that serve the development of creative qualities are scientifically and theoretically substantiated.

Keywords: creativity, pedagogical competence, divergent thinking, reflexive approach, acmeology, innovative activity, methodology, intellectual potential.

Zamanagóy tálim sistemasınıń tiykarǵı wazıypalarınan biri-básekige shıdamlı, ǵárezsiz pikir júritetuǵın, dóretiwshilik potencialǵa iye bolǵan shaxslardı tárbiyalaw bolıp tabıladı. Bul processte oqıtıwshınıń roli júdá úlken bolıp, onıń kásiplik iskerligi tekǵana bilim beriw, bálki oqıwshılardıń pikirin rawajlandırıw, mashqalalı jaǵdaylarda tuwrı jol taba alıw, jańasha qararlar qabıllaw qábiletin qáliplestiriw menen bekkem baylanıslı. Sol sebepli de búgingi kúnde oqıtıwshılarda kreativ sıpatlardı rawajlandırıw máselesi aktual ilimiy-pedagogikalıq mashqala retinde tán alınıp atır.

Dóretiwshilik oqıtıwshınıń kásiplik iskerliginde innovciyalıq jantasıwlardı qóllaw, tálim procesin nátiyjeli shólkemlestiriw, oqıwshılar menen nátiyjeli baylanıs ornatıw hám de jańa pedagogikalıq ideyalardı ámeliyatqa engiziwde zárúrli faktor esaplanadı. Sol sebepli usı maqalada oqıtıwshılarda kreativ sıpatlardı rawajlandırıwdıń teoriyalıq-metodologiyalıq tiykarları keń jarıtılıp, onıń tálim processindegi ornı hám áhmiyeti analiz etiledi.

"Dóretiwshilik" túsinigi latınsha "kreatio"-jaratıw, jańalıq kirgiziw mánislerin ańlatadı. Pedagogikalıq kóz qarastan dóretiwshilik-bul shaxstıń jańa ideyalar jaratıw, mashqalalı jaǵdaylarda ádetten tıs sheshim tabıw, innovciyalıq pikirlew qábileti. Ilimiy ádebiyatlarda dóretiwshilik shaxstıń intellektuallıq hám emocional rawajlanıwı menen tıǵız baylanıslı bolǵan quramalı psixologiyalıq-pedagogikalıq sapa retinde aytiladi [12].

Dóretiwshilik oqıtıwshınıń kásiplik kompetentligin belgilewshi zárúrli faktorlardan biri bolıp, ol tálim procesiniń mazmunı hám formaların jańalaw, sabaqlardı qızıqlı hám nátiyjeli shólkemlestiriw imkaniyatın beredi. Kreativ oqıtıwshı oqıwshılardıń aktivligin arttıradı, olardı ǵárezsiz pikirlewge shaqıradı hám tálim procesin shaxsqa baǵdarlanǵan tárizde júrgizedi.

Búgingi kúnde jáhán tálim sistemasında júz berip atırǵan ulken ózgerisler, oqıtıwshı jeke ózine salıstırǵanda jańasha talaplardı qoyıp atır. Zamanagóy oqıtıwshı tek ǵana tayın bilimlerdi jetkeriwshi, bálki oqıwshı-studentlerde ǵárezsiz hám kreativ pikirlew kónlikpelerin qáliplestiriwshi dizayner hám de fasilitator retinde bolıwı kerek. Oqıtıwshılarda kreativ sıpatlardı rawajlandırıwdıń teoriyalıq-metodologiyalıq tiykarların úyreniw, bárinen burın, "dóretiwshilik" túsinigíniń mazmun-mánisin túsiniwden baslanadı. Dóretiwshilik-bul shaxstıń dástúriy pikirlew qáliplerinen waz keshken halda, mashqalalarǵa ózine tán sheshimler

tabıw, jańa ideyalardı islep shıǵıw hám olardı ámeliyatqa qollanıw qábileti. Teoriyalıq tárepten qaraǵanda, pedagogikalıq dóretiwshilik tikkeley oqıtıwshınıń intellektuallıq hám sezimli tayınlıǵı menen baylanıslı. J. P. Ílayford hám E. P.Tarrens [11] sıyaqlı psixologlar kreativlikti divergent pikirlew, yaǵnıy bir mashqalanıń bir neshe alternativ sheshimlerin tabıw procesi retinde bahalaydı. Pedagogikalıq iskerlikte bul sapa sabaqtıń hár bir basqıshın, qızıqlı hám nátiyjeli tárizde shólkemlestiriwde kózge taslanadı. Metodologiyalıq kózqarastan, oqıtıwshı kreativligin rawajlandırıw bir neshe zárúrli jantasıwlarǵa tayanadı. Birinshiden, sistemalı jantasıw pedagogikalıq dóretiwshilikti ápiwayı process emes, bálki anıq maqsetke baǵdarlanǵan, izbe-izlikke iye bolǵan quramalı struktura retinde kórsetedi. Ekinshiden, aqmeologik jantasıw oqıtıwshınıń óz kásiplik sheberlik shıńına umtılıwı, óz-ózin rawajlandırıw zárúriyatın kreativ sıpatlardıń tiykarı dep biledi. Oqıtıwshı óz ústinde islewden toqtaǵan jaǵdayda onıń kreativligi de sóne baslaydı. Sol sebepli de metodologiyalıq tiykarında refleksiv jantasıw bólek orın tutadı. Refleksiya oqıtıwshıǵa óziniń kúshli hám kúshsiz táreplerin qalıs bahalaw, qáteler ústinde islew hám sabaq procesin jetilistiriw ushın jańa strategiyalar islep shıǵıw imkaniyatın beredi. Pedagogikalıq kreativliktiń strukturalıq bólekleri retinde motivaciyalıq, kognitiv hám texnologiyalıq komponentlerdi ajıratıp kórsetiw múmkin. Motivaciyalıq komponent oqıtıwshınıń jańalıqqa bolǵan ishki mútajligi bolsa, kognitiv komponent onıń teoriyalıq bilimler bazası hám dúnyaqarasın ańlatadı. Texnologiyalıq komponent bolsa sol ideyalardı sabaqta interaktiv metodlar arqalı ámelge asırıw sheberligi bolıp tabıladı. Oqıtıwshılarda kreativlikti rawajlandırıwdıń ámeliy basqıshlarında innovciyalıq ortalıqtıń roli sheksiz. Tálim mákemelerinde oqıtıwshınıń kreativ baslamaları qollap-quwatlanıwı, olarǵa tájiriybe ótkeriw hám qátelikke jol qoyıw huqıqı beriliwi kerek.

Kreativ sıpatlar rawajlanıwı ushın oqıtıwshı psixologiyalıq tosıqlardan, yaǵnıy "Naduris sóylep qoymaymanba?", "Kásipleslerim qanday qaraydı?" degen ándiyshelerden erkin bolıwı zárúr. Sınergetik jantasıw bul processti óz-ózin quraytuǵın hám rawajlandırıwshı sistema retinde túsindiredi, yaǵnıy oqıtıwshınıń ishki potencialı sırtqı pedagogikalıq ortalıq penen baylanısqa kiriskende eń joqarı nátiyje beredi. Sonıń menen birge, sabaq processinde mashqalalı oqıtıw texnologiyalarınan paydalanıw oqıtıwshıdan turaqlı izertlewdi talap etedi. Izertlewler sonı kórsetedi, oqıtıwshı oqıwshılar menen sóylesiwde subyekt-subyekt múnásibetine ótkende ǵana, yaǵnıy oqıwshını teń huqıqlı sherik dep bilgende ǵana haqıyqıy dóretiwshilik ortalıq júzege keledi. Bul bolsa oqıtıwshıdan joqarı dárejedegi empatiya hám kommunikativlik kreativlikti talap etedi.

Teoriyalıq tárepten dóretiwshilik tómendegi komponentlerdi óz ishine aladı:

Dóretiwshilik oylaw, mashqalalı jaǵdaylarda operativ qarar qabıllaw, innovciyalıq ideyalardı ilgeri jıljıtıw, maslasıwshanlıq hám ashıqlıq, ǵárezsiz pikirlew hám refleksiya [15].

Oqıtıwshılarda kreativ sıpatlardıń qáliplesiwi bir qatar ishki hám sırtqı faktorlarǵa baylanıslı. Ishki faktorlarǵa shaxstıń intellektuallıq qábileti, Motivaciya, qızıǵıwshılıǵı hám kásiplik jónelgenligi kirse, sırtqı faktorlar retinde

tálim ortalıǵı, pedagogikalıq sharayatlar, innovciyalıq texnologiyalardıń engiziliwi hám kásiplik rawajlanıw imkaniyatların kórsetiw múmkin.

Kreativ sıpatlardıń qáliplesiwinde tómendegi faktorlar zárúrli áhmiyetke iye, úzliksiz kasiplik tálim hám bilimlerdi jetilistiriw, pedagogikalıq innovaciyalar menen tanısıw, tájiriybe almasıw hám refleksv iskerlik, motivaciyalıq ortalıqtı jaratıw, ǵárezsiz izertlew hám izertlew iskerligi.

Oqıtıwshılarda kreativ sıpatlardı rawajlandırıwda sistemalı, shaxsqa baǵdarlanǵan, kompetenciyalıq hám innovciyalıq jantasıwlar tiykarǵı metodologiyalıq tiykar bolip xızmet etedi.Sistemalı jantasıwda kreativlikti rawajlandırıw procesin pútin sistema retinde kórip shıǵıw názerde tutadı. Bul jaqntasıwdan maqset, mazmun, metod hám nátiyjeler óz-ara tıǵız baylanıslı halda shólkemlestiriledi.

Shaxsqa baǵdarlanǵan jantasıw oqıtıwshınıń individual múmkinshilikleri, qızıǵıwshılıǵı hám mútájliklerin esapqa alıwǵa tiykarlanadı. Shaxsqa baǵdarlanǵan tálim kreativ potencialdı ashıp beriwde zárúrli áhmiyetke iye boladı.

Kompetenciyalıq jantasıw kreativ kompetenciyalardı qáliplestiriw tálim nátiyjeleriniń tiykarǵı kriteriya retinde belgileydi. Bul processte oqıtıwshınıń bilim, hám kónlikpeler integraciyalanǵan halda rawajlandırıladı.

Oqıtıwshılarda kreativ sıpatlardı rawajlandırıwda tómendegi metod hám qurallar nátiyjeli esaplanadı:mashqalalı tálim metodları; joybar tiykarında oqıtıw; interaktiv metodlar (tartıs, intellektual húјim, klaster); trening hám seminarlar; refleksv analiz; sanlı texnologiyalar hám innovciyalıq platformalar.

Usı metodlar oqıtıwshılardıń dóretiwshilik pikirlewin aktivlestiredi, ǵárezsiz qarar qabıllaw kónlikpelerin rawajlandıradı hám kásiplik iskerlikte jańasha jantasıwlardı qáliplestiredi.Dóretiwshilik oqıtıwshınıń kásiplik kompetentligin Belgilewshi zárúrli strukturalıq bólim bolıp, ol tálim procesiniń nátiyjeliligin asırıwǵa xızmet etedi. Kreativ oqıtıwshı tálim mazmunın bayıtadı, sabaq procesin qızıqlı quraydı hám oqıwshılardıń biliw aktivligin arttıradı.Kreativ kompetenciya tómendegi táreplerdi óz ishine aladı :pedagogikalıq innovaciyalardı qollaw; mashqalalı jaǵdaylarda nátiyjeli sheshim tabıw; tálim procesin proektlestiriw; refleksiv iskerlikti ámelge asırıw; kásiplik ósiwge umtılıw.

Juwmaqlap aytqanda, oqıtıwshılarda kreativ sıpatlardı rawajlandırıwdıń teoriyalıq-metodologiyalıq tiykarları óz-ara tıǵız baylanıslı bolǵan psixologiyalıq hám pedagogikalıq texnologiyalar jıyındısı. Bul process ápiwayı sabaq metodikasın ózgertiw emes, bálkim oqıtıwshı shaxsınıń strukturalıq ózgeriwi, onıń social-kásiplik adaptaciyasınıń joqarı basqıshı. Kreativ oqıtıwshı óziniń sabaq beriw usılı menen oqıwshılardıń ishki imkaniyatların ashıwǵa, olarda XXI ásir kónlikpelerin qáliplestiriwge xızmet etedi. Keleshek tálimi anıq intellektuallıq tárepten bay, sezimli turaqlı hám kreativ pikir júritetuǵın pedagoglar qolında bolıp, bul sıpatlardı rawajlandırıw mámleket tálim siyasatınıń ústin turatuǵın baǵdarı bolıp qaladı.

Paydalanilǵan ádebiyatlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Jańa Ózbekstan strategiyası.-Tashkent: Ózbekstan, 2021.
2. Karimov I. A. Bárkámal áwlad-Ózbekstan rawajlanıwınıń tiykarı.-Tashkent, 2019.
3. Mirziyoyev Sh. M. Tálim hám tárbiya salasında reformalar.-Tashkent, 2020.
4. Musulmanov N. Pedagogikalıq Kompetenciya tiykarları.-Tashkent, 2018.
5. Abdullaeva M. Innovciyalıq pedagogika.- Tashkent, 2021.
6. Torrance E. Creativ Thinking in Education.-New York, 2017.
7. Abdukadirov A. A., Perdeev A. X. Tálim procesin texnologiyalastırıw teoriyası hám metodologiyası.-T.: Pán hám texnologiya, 2012.
8.Musulmanov N. A. hám basqalar. Pedagogikalıq uqıp hám dóretiwshilik. -Tashkent:" Ekonomika-finans", 2015.
9. Ziyadamuhammedov B. Pedagogikalıq uqıp tiykarları.-T.:Medicina baspaxana, 2010.
10.Guilford J. P. 1 Tábiyat-dan Insan Intelligence.-McGraw-Túrl, 1967.
11.Tarrance E. P. Guiding Dóretiwshi Talant.-Eńlewood Cliffs, NJ:Prentice-Xal, 1962.
12.Raxmonova G. S. Pedagogikalıq kreativliktiń teoriyalıq tiykarları // Joqarı tálim mashqalaları jurnal.-2020.-№2.
13. Muhammedov R. J. Innovciyalıq texnologiyalar járdeminde tálim nátiyjeliligin asırıw jolları.-T.:TDPU, 2005.
14.Vygotskiy L. S. Oyda sawlelendiriw hám dóretiwshilik:psixologiyalıq izertlewler.-M.:Prosveshenie, 1991.
15. Sadriddinova N. J. Bolajaq oqıtıwshılardıń kreativligin qáliplestiriw metodikası.-T.:" Ilim", 2018.
16. Bono E. Serious Kreativity.-HárperJumıs, 1992.
17.Ózbekstan Respublikası Joqarı tálim sistemasın 2030-jılǵa shekem rawajlandırıw koncepciyası. 2019-jıl 8-oktyabr.

UDK: 373.5:37.013:39:316.4

XALQ PEDAGOGIKASI VOSITASIDA O‘QUVCHILAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Davletova Rimajon Nurberdi qizi,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada xalq pedagogikasi an’analari, milliy qadriyatlar va folklor namunalari asosida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning konseptual-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yosh avlodning ijtimoiy sotsializatsiyasi jarayonida etnomadaniy vositalarning, xususan, jamoaviy mehnat an’analari (hashar), milliy o‘yinlar va og‘zaki ijod namunalarining kognitiv-tarbiyaviy samaradorligi ilmiy asoslab berilgan. Muallif tomonidan xalq pedagogikasi manbalari o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat, vatanparvarlik va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi strategik drayver sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: xalq pedagogikasi, ijtimoiy faollik, ijtimoiy sotsializatsiya, etnopidagogik vositalar, milliy qadriyatlar, folklor, an’analar, hashar, kreativ tafakkur, komil inson konsepsiyasi, ma’naviy-axloqiy tarbiya.

ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ

Аннотация. В данной научной статье анализируются концептуально-педагогические основы развития социальной активности учащихся на базе традиций народной педагогики, национальных ценностей и образцов фольклора. В исследовании научно обоснована когнитивно-воспитательная эффективность этнокультурных средств, в частности традиций коллективного труда (хашар), национальных игр и образцов устного народного творчества, в процессе социальной социализации молодого поколения. Источники народной педагогики рассматриваются автором как стратегический драйвер формирования у учащихся социальной ответственности, патриотизма и гражданской позиции.

Ключевые слова: народная педагогика, социальная активность, социальная социализация, этнопедагогические средства, национальные ценности, фольклор, традиции, хашар, креативное мышление, концепция совершенного человека, духовно-нравственное воспитание.

INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS THROUGH FOLK PEDAGOGY

Abstract. This scientific article analyzes the conceptual and pedagogical foundations for developing students' social activity based on the traditions of folk

pedagogy, national values, and folklore samples. The study scientifically substantiates the cognitive and educational effectiveness of ethno-cultural tools—specifically collective labor traditions (hashar), national games, and oral folk art—in the process of social socialization of the younger generation. The author evaluates the sources of folk pedagogy as a strategic driver for shaping social responsibility, patriotism, and civic engagement among students.

Keywords: folk pedagogy, social activity, social socialization, ethno-pedagogical tools, national values, folklore, traditions, hashar, creative thinking, perfect human concept, spiritual and moral education.

Dunyoda ijtimoiy faollik masalalari bo‘yicha tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilar ijtimoiy faolligi o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib boriladigan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar bilan uyg‘unlikda xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga oid bilim, ko‘nikma va malakalari, mavjud ijtimoiy faollik kompetensiyalari o‘rtasidagi mutanosiblik jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlariga mos ravishda ish olib borish zamon talablaridandir.

Mamlakatimizda izchil islohotlar natijasida yurt istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash bilan bir qatorda xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish jarayoni ko‘lamini kengaytirish zarurati mavjud. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida “jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qati’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish kabi yo‘nalishlar belgilangan bo‘lib, bu o‘z navbatida mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lgan pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqish zaruratini izohlaydi.

Xalq pedagogikasi — bu uzoq asrlar davomida millatning hayotiy tajribalari, ijtimoiy-axloqiy ideallari va ta’limiy qarashlari asosida shakllangan fundamental ma’naviy merosdir. Ushbu merosning o‘ziga xosligi shundaki, u bizga zamonaviy ta’lim tizimidagi kabi alohida metodik qo‘llanma yoki qat’iy darsliklar shaklida yetib kelmagan. Aksincha, xalq pedagogikasining o‘zagi folklor asarlari, maqollar, dostonlar, mifologik va epik janrlar qatiga singib ketgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviyatida islomiy qadriyatlar — Qur’oni Karim va hadisi shariflardagi axloqiy me’yorlar xalq pedagogikasining mazmuniy ko‘lamini yanada kengaytirgan va uni mukammal "shaxsiyat metodikasi" darajasiga ko‘targan.

Xalq pedagogikasining asrlar osha yashovchanligini ta’minlagan asosiy mexanizm — uning og‘zaki va jonli muloqot xarakteriga ega ekanligidir. Har bir avlod ushbu ma’naviy silsilaga o‘z davrining ijtimoiy tajribasini, yangicha qarashlarini va fazilatlarini qo‘shib kelgan. Bu esa xalq pedagogikasini dinamik va

rivojlanuvchan tizimga aylantirgan. Biroq, globallashuv va raqamli transformatsiyalar davrida ushbu jonli zanjirning uzilish xavfi paydo bo‘lmoqda. Shu bois, bugungi kunda ushbu pedagogik qarashlarni tizimli to‘plash, ilmiy jihatdan klassifikatsiya qilish va nashr etish kechiktirib bo‘lmas vazifadir.

Mazkur vazifani amalga oshirish shunchaki arxiv ishlarini bajarish emas, balki yo‘qolish arafasiga kelib qolgan milliy o‘zlikni anglash (identifikatsiya), axloqiy me’yorlar va asriy an’analarni tiklash jarayonidir. Xalq pedagogikasining metodologik asoslarini tiklash — yosh avlod tarbiyasida "ijtimoiy immunitet"ni shakllantirishga xizmat qiladi. Udumshunoslik, elshunoslik va an’anaviylik asosida yaratiladigan yangi avlod o‘quv adabiyotlari milliy qadriyatlarimizni global madaniyat bilan raqobatbardosh darajada saqlab qolishning yagona kafolatidir. Binobarin, xalq tajribasini akademik ilm bilan integratsiya qilish bugungi zamonaviy pedagogik renessansning bosh mezoni bo‘lishi lozim.

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va ularning jamiyatdagi o‘rnini topishlariga ko‘maklashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Yangi O‘zbekiston sharoitida o‘quvchi-yoshlarning nafaqat bilimli, balki ijtimoiy jihatdan faol, tashabbuskor va vatanparvar bo‘lib voyaga yetishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy faollik – bu shaxsning jamiyat hayotida ongli ravishda ishtirok etishi, o‘z fuqarolik burchini anglashi va jamoat ishlariga daxldorlik hissidir.Ushbu jarayonda asrlar davomida shakllangan va sinovdan o‘tgan xalq pedagogikasi durdonalaridan foydalanish eng samarali vosita hisoblanadi. G‘arb pedagogik texnologiyalaridan farqli o‘laroq, xalq pedagogikasi mentalitetimizga mos bo‘lib, u bolani "Men" doirasidan chiqarib, "Biz" tushunchasi asosida jamoaga moslashtirishga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy ishning maqsadi – tajriba-sinov natijalariga emas, balki chuqur nazariy tahlilga tayangan holda, xalq pedagogikasi vositalarining o‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishdagi rolini ochib berishdan iborat.

Ijtimoiy faollik tushunchasi va uning xalq pedagogikasidagi talqiniIjtimoiy faollik zamonaviy pedagogikada shaxsning jamiyat normalarini o‘zlashtirishi va jamiyat rivojiga hissa qo‘shishga intilishi sifatida qaraladi. Xalq pedagogikasida esa bu tushuncha "odamgarchilik", "himmat", "kattaga hurmat, kichikka izzat", "el-yurt xizmati" kabi kategoriyalar orqali ifodalanadi.Xalqimiz azaldan bolani yakkalanib qolishdan saqlashga, uni el ichida bo‘lishga undagan.

"Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas" maqoli xalq pedagogikasida jamoaviylik va hamjihatlik g‘oyasi shaxs kamolotining bosh mezoni ekanligini anglatuvchi yorqin falsafiy asosdir. Ushbu yondashuv xalq pedagogikasining tub mohiyati o‘quvchini shunchaki passiv kuzatuvchidan ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylantirishdan iborat ekanligini tasdiqlaydi. Zamonaviy ta’lim paradigmasida ijtimoiy faol o‘quvchi tushunchasi nafaqat darslarni a’lo baholarga o‘zlashtirishni, balki sinf, maktab va mahalla muhitida o‘z o‘rniga ega bo‘lishni, jamiyat hayotidagi muammolarga nisbatan shaxsiy pozitsiyasini ifodalay olishni nazarda tutadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari bu jarayonda ijtimoiy motivatsiya manbai bo‘lib xizmat qiladi. Maqol va hikmatli so‘zlar xalqning asrlar davomida saralangan ijtimoiy qonun-qoidalari majmuasi

sifatida o‘quvchiga jamiyatda yashash san’atini o‘rgatadi. Xususan, "Ko‘pchilik — ko‘l, ozchilik — cho‘l" yoki "Biriki — kuch, birlashgan — yengilmas" kabi hikmatlar o‘quvchida jamoa bilan ishlash ko‘nikmasini (team building) shakllantirsa, Vatan haqidagi maqollar unda ijtimoiy daxldorlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini kamol toptiradi.

Ertaklar va qahramonlik dostonlari o‘quvchi shaxsidagi sotsializatsiya jarayonining eng muhim poydevori bo‘lib, ular bolaning ongi va hissiyotlariga emotsional-obrazli ta’sir ko‘rsatish orqali ijtimoiy rollarni anglash va ijobiy qahramon obrazini modellashtirishda beqiyos o‘rin tutadi. "Alpomish" yoki "Go‘ro‘g‘li" kabi dostonlar shunchaki adabiy meros emas, balki yosh avlod uchun yuksak ijtimoiy faollik, sadoqat va el-yurt manfaati yo‘lida xizmat qilish idealini taqdim etuvchi axloqiy maktabdir. Alpomishning o‘z xalqi ozodligi, sha’ni va birligi uchun kurashishi o‘quvchida nafaqat jasorat, balki mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish hamda liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim didaktik manba bo‘lib xizmat qiladi. Bunday epik asarlar vositasida bola "Men — jamiyatning bir qismiman" degan daxldorlik hissini o‘zlashtiradi va o‘z xulq-atvorini qahramonona andozalar asosida shakllantirishga intiladi.

Shu bilan birga, milliy urf-odatlar va marosimlar shaxsning ijtimoiy tajribasini boyituvchi hamda sotsializatsiya jarayonini ta’minlovchi real amaliy maydon sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik qadriyati hisoblangan "Hashar" an’anasi o‘quvchilarda beg‘araz yordam, jamoaviy uyushqoqlik va ekologik madaniyatni shakllantiruvchi noyob ijtimoiy-pedagogik hodisadir. Maktablarda tashkil etiladigan obodonlashtirish ishlarini shunchaki mehnat sifatida emas, balki "hashar" qadriyati bilan integratsiyalashgan holda o‘tkazish o‘quvchida mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni, jamoat mulkini asrashga bo‘lgan ijtimoiy mas’uliyatni va altruistik fazilatlarni barqarorlashtiradi. Bu jarayonda o‘quvchi o‘zining jismoniy va aqliy imkoniyatlarini jamoa manfaati uchun safarbar qilishni o‘rganadi.

Mehmondo‘stlik va qo‘ni-qo‘shnichilik odobi o‘quvchilarda empatiya, kommunikativ kompetensiya va jamiyatning boshqa a’zolari bilan konstruktiv muloqot qilish madaniyatini yuzaga chiqaradi. Sharqona mehmondo‘stlik qoidalari bolaga o‘zgalar ehtiyojini birinchi o‘ringa qo‘yishni, bag‘rikenglikni (tolerantlikni) va notanish muhitda ham o‘zini munosib tutishni o‘rgatadi. Qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari orqali shakllanadigan "yaqinlarga darmon bo‘lish" tamoyili o‘quvchining hissiy intellektini rivojlantirib, uni ijtimoiy izolyatsiyadan saqlaydi va jamiyatga integratsiyalashuvini jadallashtiradi. Natijada, xalq pedagogikasi vositalari orqali tarbiya topgan o‘quvchi nafaqat bilimli mutaxassis, balki boy madaniy immunitetga ega, ijtimoiy faol va ma’naviy barkamol shaxs sifatida kamol topadi.

Xalq o‘yinlari esa bolaning ijtimoiy hayotga kirib borishidagi asosiy faoliyat turi sifatida nafaqat jismoniy chiniqish, balki ijtimoiy munosabatlar treningi vazifasini bajaradi. "Oq terakmi, ko‘k terak", "Chillak" yoki "Kurash" kabi o‘yinlar jarayonida o‘quvchi liderlik, bo‘ysunish, halollik va strategik fikrlash kabi sifatlarni o‘zlashtiradi. O‘yindagi "Halol o‘yna" talabi bolada adolat tuyg‘usini va

irodaviy faollikni tarbiyalaydi. Bundan tashqari, mahalla instituti va "Kattalarga hurmat" tamoyili xalq pedagogikasining ijtimoiy nazorat va ma'naviy qo'llab-quvvatlashdagi kuchini ko'rsatadi. Oddiy salomlashish odobidan tortib, ustoz-shogird an'analarigacha bo'lgan jarayonlar o'quvchini kasbiy va ijtimoiy sotsializatsiyaga tayyorlaydi. Mahalla muhitida shakllangan odob-axloq me'yorlari o'quvchining jamiyat uchun foydali va mas'uliyatli inson bo'lib yetishishida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalq pedagogikasi – bu eskicha qarashlar yig'indisi emas, balki o'quvchilarni zamonaviy jamiyatga moslashtirish, ularda liderlik, tashabbuskorlik va mas'uliyat hissini tarbiyalashning eng samarali, sinalgan tizimidir. Tajriba qismisiz ham, nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim o'quvchining ijtimoiy passivligini yo'qotishga va uni jamiyatning faol a'zosiga aylantirishga xizmat qiladi.Tavsiyalar:Dars jarayoniga integratsiya: Ona tili, adabiyot, tarix va tarbiya darslarida mavzuga oid maqollar, rivoyatlar va xalq o'yinlaridan "muz yorar" (ice-breaker) mashqlari sifatida foydalanish.Sinfdan tashqari ishlar: Maktablarda "Buvimning sandig'i", "Otalar so'zi – aqlning ko'zi", "Xalq o'yinlari festivali" kabi tadbirlarni tizimli tashkil etish. Bu tadbirlarda o'quvchilar tashkilotchi sifatida qatnashishi shart.Loyihaviy ta'lim: O'quvchilarga o'z mahallasi tarixini, hududdagi urf-odatlarni o'rganish bo'yicha kichik ijtimoiy loyihalar (Project-based learning) topshirish.Hashar madaniyatini zamonaviylashtirish: Hasharni majburiy mehnat sifatida emas, balki "Eko-aksiya" yoki "Volontyorlik harakati" shaklida, milliy an'analar bilan uyg'unlashtirgan holda o'tkazish.Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning nafaqat bilimi, balki ijtimoiy kompetensiyalarini (Soft skills) rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash tizimini yuksaltirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 14-avgust PQ-3907-sonli Qarori.

2.Avloniy A. "Turkiy guliston yohud axloq". – T.: O'qituvchi, 1992.

3.Musurmonova O. "O'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishda xalq pedagogikasi vositalari". – T.: Fan, 1993.

4.Musiqa, 2010.Yo'ldoshev J.G'. "Ta'lim yangilanish yo'lida". – T.: O'qituvchi, 2000.

5. Hoshimov K, Safo Ochil. Xalq pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.

6.Hoshimov K., Nishonova S. "Xalq pedagogikasi tarixi". – T.: O'qituvchi, 2005.

UDK:37.026.9

O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ROLLI O‘YIN METODINING AHAMIYATI

Gaipova Sadoqat Qo‘ziboyevna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishda rolli o‘yin metodining ahamiyati tahlil qilingan, rolli o‘yin metodining ta’rifi, uning kreativlikka ta’siri, ta’lim jarayonida qo‘llanilishi, afzalliklari va kamchiliklari yoritilgan. Shuningdek, tegishli metodning samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Maqolada ta’limda rolli o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy salohiyati, ijtimoiy ko‘nikmalari va muammoni ijodiy yechish qobiliyatlariga ta’sir ko‘rsatishi o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: rolli o‘yin, kreativ qobiliyat, ijodiy fikrlash, ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, pedagogika.

ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДА РОЛЕВОЙ ИГРЫ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье на основе учебных пособий и научной литературы анализируется значение ролевой игры в развитии творческих способностей учащихся. Рассматриваются сущность метода ролевой игры, его влияние на креативность, особенности применения в образовательном процессе, а также его преимущества и недостатки. Кроме того, представлены практические рекомендации по повышению эффективности использования данного метода. В исследовании показано влияние ролевых игр на развитие творческого потенциала, социальных навыков и способности учащихся к творческому решению проблем.

Ключевые слова: ролевая игра, творческие способности, творческое мышление, образование, начальное образование, педагогика.

THE IMPORTANCE OF THE ROLE GAME METHOD IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES

Abstract. This article analyzes the importance of the role-playing method in developing students’ creative abilities based on educational manuals and scholarly literature. The article discusses the definition of the role-playing method, its impact on creativity, its application in the educational process, as well as its advantages and limitations. In addition, practical recommendations for improving the effectiveness of this method are provided. The study examines how the use of role-

playing activities in education influences students' creative potential, social skills, and ability to solve problems creatively.

Keywords: role-playing, creative ability, creative thinking, education, primary education, pedagogy.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim pedagogik maqsadlardan biridir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy modelida ta'kidlanganidek, o'quvchi-yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish ta'lim sifatini baholashning bosh mezoniga aylandi. Shu sababli, dars jarayonida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol metodlar, xususan, rolli o'yin texnologiyalaridan foydalanish dolzarb pedagogik ahamiyat kasb etmoqda [1]. Kreativlik o'quvchilarning muammolarni yangicha yechish, innovatsion g'oyalar ishlab chiqish va moslashuvchan fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rolli o'yin metodi ushbu jarayonda samarali vosita sifatida keng qo'llaniladi. Ushbu maqola rolli o'yin metodining kreativ qobiliyatni rivojlantirishdagi rolini tahlil qiladi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik olim D. Veksler "Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi " - deb ta'rif beradi. Ko'p olimlar shuni tan oladilarki, ularning aksariyati biror masalaning yechimini izlayotganda bir joyda o'tirmas, balki albatta harakatda bo'lib turishi kerak. Qachonki bizning tanamiz harakatda bo'lsa, shunda aqlimizga muammolar yechimi oson keladi [2]. Bu fikrlardan ayonki, dars mashg 'ulotlarida o 'quvchilarni turli interaktiv , harakatli, fikrlovchi metodlardan imkon darajada ko'proq foydalanilsa, ularning tanqidiy fikrlash, kreativlik sifatlari rivojlanadi.

Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida beqiyoslik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi [3]. Bu fikrlarga asosan shuni aniq aytishimiz mumkinki, muammoni oldindan ko'ra bilish, aniqlash va unga yechim topishda aynan rolli o'yin metodi orqali o'quvchilarda yangi fikrlarni, g'oyalarni tabiiy shaklda yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Kreativlik va o‘yin faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik uzoq yillardan buyon fundamental tadqiqotlar markazida bo‘lib kelmoqda. Jumladan, L.S. Vigotskiy o‘yinni bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"ni yaratuvchi asosiy omil deb baholagan bo‘lsa [4]. J.P. Guilford kreativlikning tarkibiy qismlari sifatida divergent fikrlash va moslashuvchanlikni ko‘rsatib o‘tgan [5]. O‘zbekistonlik olimlardan J.G‘. Yo‘ldoshev va S.A. Usmonovlar rolli o‘yinlarni hayotiy vaziyatlarni modellashtirishning eng samarali usuli sifatida e’tirof etishgan [6]. Shuningdek, R. Ishmuhamedov va N.N. Azizxo‘jayeva kabi pedagog-olimlarning ishlarida rolli o‘yinlar orqali o‘quvchining ijtimoiy-psixologik to‘siqlardan xalos bo‘lishi va uning ichki ijodiy "men"ini namoyon qilishi ilmiy asoslab berilgan [7].

Rolli o‘yin metodining ta’rifi va xususiyatlari. Rolli o‘yin – o‘quvchilarning muayyan rollarni o‘ynashi va ma’lum bir ssenariy, hayotiy vaziyatlar asosida o‘zaro muloqot qilishi orqali o‘quv jarayonini faollashtirish usuli. Bu metod o‘quvchilarga real hayotiy vaziyatlarni taqlid qilish imkonini beradi, bu esa ularning tasavvur, empatiya va ijodiy yechim topish qobiliyatlarini rivojlantiradi [8].

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil qilishning innovatsion usullaridan biri bu turli interaktiv o‘yinlarni dars jarayonlariga taqbiq qilishdir. Shu o‘rinda amaliy mashg‘ulotlarni qizg‘in tarzda namoyish qilishning usuli bu “Rolli o‘yin” lardir. Dars jarayonida mavzuni tushuntirishda o‘quvchilarga ma’lumotlarni taqsimlab mavzu oid hayotiy vaziyatni taqdim qiladi. Bunda pedagog o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Nazariy bilimlarni real vaziyat bilan bog‘laydi. Bu orqali esa o‘quvchilarda yangicha fikrlash, muloqot va nutq ko‘nikmalarini, bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. “Rolli o‘yin” interaktiv o‘yini bu, qatnashchilarning tajribasini kengaytirish metodi bo‘lib, ularni kutilmagan vaziyatga duchor qilish orqali shu vaziyatda qatnashchilardan kimningdir rolini ijro etish taklif etiladi, shu orqali vaziyatning mos intixosini topadigan metod ishlab chiqishga erishiladi.

Rolli o‘yin nazariyasi mashhur amerikalik tadqiqotchi Dj.Moreno aytganidek, “Role” so‘zi lotincha rotula (kichik g‘ildirak yoki g‘o‘la) so‘zidan olingan bo‘lib, keyinchalik peesaning aktyor uchun qog‘ozga yozigan va dumaloq naycha qilib o‘ralgan varaqdagi so‘zlari edi. Faqatgina XVI-XVII asrga kelib bu so‘z aktyorlar “Rolli o‘yin” ma’nosini anglata boshladi.

Rolli o‘yinlar vaqtinchalik qatnashchining boshqa kishining rolini o‘ynashni, yoki o‘zini boshqa vaqt oralig‘ida ko‘rsatishini ko‘zda tutadi. O‘quvchi rolni qabul qilganidan keyin shu roldagi personaj kabi his qilishga, harakat qilishga va o‘zini ko‘rsatishga harakat qiladi. Boshqa qatnashchilar biron bir maqsad bilan rol o‘ynayotganlarini kuzatadilar. Ishning bunday shakli turli maqsadlarda qo‘llaniladi. Rolli o‘yinlar bolalarning ijtimoiy va ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita sifatida ta’kidlanadi [9].

Rolli o‘yinlar o‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarda samarali qo‘llash mumkin:

1. Tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

Rolli o‘yinlar o‘quvchilarga turli rollarni sinab ko‘rish orqali o‘z tasavvurlarini erkin ishlatish imkonini beradi. O‘yin jarayonida bolalar o‘ziga xos vaziyatlarda yangi yechimlar topishga undaladi, bu esa ularning ijodiy fikrlashini oshiradi [10]. Misol uchun, “Kelajakdagi shahar” rolli o‘yinini ko‘rib chiqamiz.

Vazifa: O‘quvchilarga topshiriq beriladi: “Sizlar 2050-yildagi shahar hayotini tasvirlaysiz. Kimdir – shahar hokimi, kimdir – muhandis, boshqa bir kishi – ekolog, yana kimdir – oddiy fuqaro bo‘lib, shaharni loyihalashtiriladi.”

O‘yin jarayoni: Har bir o‘quvchi o‘ziga berilgan rolga kiradi.

O‘quvchilar kelajak shahrida qanday muammolar bo‘lishi, ularni qanday hal etish mumkinligi, texnologiyalar va yashash tarzi qanday bo‘lishini muhokama qiladi.

Loyihani taqdim etishadi – masalan, “aqlli yo‘llar”, “ekologik toza transport”, “aqlli uylar” kabi g‘oyalar bilan. Buning natijasida:

- O‘quvchilar fantaziyasini ishga solishadi.
- Muammoga turli tomonlardan qarashadi.
- O‘z g‘oyalarini boshqalarga yetkazishga, ularni himoya qilishga harakat qilishadi.
- Bu jarayon ularning tasavvurini kengaytiradi va ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi.
- Muammolarni noan’anaviy yondashuv bilan hal qilish imkoniyatini yaratadi.

2. Ijtimoiy ko‘nikmalar va emotsional intellekt.

Rolli o‘yinlar o‘quvchilarga boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tushunish va empatiya ko‘rsatish imkonini beradi. Bu jarayon kreativlikning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan emotsional intellektni rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun: “Maktabdagi nizoni hal qilish” rolli o‘yini:

Bunda o‘quvchilarga shunday topshiriq beriladi: “Sinfingizda ikki o‘quvchi o‘zaro janjallashib qolgan. Sizlar ushbu muammoni hal qilish uchun rollarga kirib, vaziyatni tinch yo‘l bilan yechishingiz kerak.”-degan mazmunda.

Keyin rollar taqsimlanadi. Boshqa o‘quvchilar – nizodagi tomonlar (masalan, sinf sardori – vositachi, o‘qituvchi yoki maktab psixologi – kuzatuvchi yoki maslahat beruvchi rolida bo‘ladi).

O ‘yin jarayonida har bir o‘quvchi o‘z roliga kiradi va real hayotdagi kabi g‘azab, ranjish, tushunmovchilik singari hissiy holatlarni ifodalaydi.

Vositachi sifatida bir o‘quvchi nizoni hal qilishga harakat qiladi. Jarayon so‘ngida o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ulari, boshqalar nuqtayi nazarini qanday tushunganliklari haqida fikr almashadilar. Bu rolli o ‘yin orqali ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi ya’ni hamjihatlikda muammo hal qilish, tinglash madaniyati, boshqalar nuqtayi nazarini tushunish va hurmat qilish, hamdardlik ko‘rsatish kabi xususiyatlar rivojlanadi. O‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini sezish (emosional sezgirlik), vaziyatga mos munosabat bildirishni o‘rganish, konfliktlarni boshqarish ko‘nikmasi shakllanadi.

Muammoni ijodiy yechishda “rolli o‘yinlar” o‘quvchilarni turli ssenariylar asosida muammolarni hal qilishga undaydi. Bunday o‘yinlar moslashuvchan fikrlashni rivojlantiradi va bir nechta yechim variantlarini sinab ko‘rish imkonini

beradi [11]. Maktabda faoliyatida hozirgi paytda juda ko ‘plab muammoli holatlar kelib chiqmoqda. Bu muammolarga misol qilib o‘quvchilar orasida kitobxonlikni yo ‘qolib borayotgani, turli ijtimoiy tarmoqlarda o‘quvchilar vaqtini ko ‘proq o‘tkazayotganligi sababli bir birlari bilan jonli muloqotning kamayib borayorgani va boshqa shu kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Misol uchun, “Maktab kutubxonasi bo‘sh, o‘quvchilar kitob o‘qimayapti. O‘quvchilar kitob o‘qishga qiziqmayapti, kutubxona esa kitobxon o‘quvchilarsiz” muammosini ko‘rsatish mumkin. Ayni holatda rollarni shunday taqsimlash kerak: kutubxonachi, o‘quvchilar, o‘qituvchi, sinf sardori, tuman madaniyat uyi vakili.

Bu kabi muammolarga quyidagicha ijodiy yechimlar berish mumkin:

-“O‘zing o‘qigan kitobni boshqaga sovg‘a qil” aksiyasini o ‘tkazish;

- “1 kun – 1 sahifa” shiori bilan o‘quvchilarni rag‘batlantirish;

“Kitob qahramonlari ishtirokidagi mini-sahna” kabi ertaliklar tayyorlash (adabiy rolli o‘yin);

-eski kitoblardan san’at asarlari, kollaj yoki bezaklar tayyorlash kabi loyihalarni tashkillashtirish va o‘tkazish;

rolli o‘yinlar orqali muammoni ijodiy yechish.

Bunday tadbirlar o‘quvchilarga hayotiy masalalarni ko‘p tomonlama ko‘rib chiqish imkonini beradi. Ularni ijtimoiy jihatdan faol, mas’uliyatli, hamkorlikka tayyor shaxs sifatida tarbiyalaydi. Ijodiy fikrlash, murosa qilish, va liderlik ko‘nikmalarini kuchaytiradi.

Rolli o‘yin metodining darslarda qo‘llash afzalliklari shundaki, o‘yin jarayonida o‘quvchilar faol ishtirok etadi, bu esa ularning bilim olishga qiziqishini oshiradi. Jamoaviy ish qobiliyati va guruhda hamkorlikni rivojlantiradi. O‘quvchilar turli vaziyatlarda moslashuvchan kreativ yondoshgan holda yangicha yechimlar topishga o‘rganadi.

Rolli o‘yinlarni tashkil etish o‘qituvchidan yuqori malaka talab qiladi. O‘yinlar dars jadvaliga moslashishni, vaqtni taqsimlashni qiyinlashtirishi mumkin. Ba’zi o‘quvchilar rolli o‘yinlarda faol ishtirok etishda qiyinchilik his qilishlari mumkin.

M.S. Xoliqov maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’limda o‘yinlarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi o‘rnini tadqiq qilgan. O‘yinlarni bolalarda kreativ tafakkurni shakllantirishda motivatsion vosita sifatida qo‘llashni asoslagan. Ta’limiy o‘yinlarning didaktik jihatlarini chuqur tahlil qilib, ularning o‘quvchilar faolligiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rgangan. M.Xoliqov ijodiy qobiliyatni rivojlantirish uchun maxsus tayyorlangan o‘yinlarning pedagogik samaradorligini aniqlagan. Uning ishlab chiqqan ta’limiy o‘yinlari maktabgacha ta’lim tashkilotlari va boshlang‘ich ta’lim tashkilotlarida muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazilib, samaradorligi tasdiqlangan [12].

Rolli o‘yin metodi zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘quvchi shaxsining kreativ salohiyatini ro‘yobga chiqaruvchi va kognitiv faolligini oshiruvchi eng samarali interfaol texnologiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu metod o‘quv jarayonini shunchaki axborot uzatish modelidan real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish va muammoli ssenariylarni tahlil qilish bosqichiga olib chiqadi.

Rolli o‘yinlar jarayonida o‘quvchi ma’lum bir ijtimoiy yoki professional rolni o‘z zimmasiga olar ekan, u nafaqat nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadi, balki voqelikka turli nuqtayi nazarlardan yondashish ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

Metodning fundamental afzalligi shundaki, u o‘quvchilarda kompleks hayotiy ko‘nikmalarni (soft skills) tizimli ravishda rivojlantiradi. Muloqot madaniyati, konfiktli vaziyatlarda sabr-toqat ko‘rsatish, empatiya (o‘zgalar his-tuyg‘usini anglash) va yuqori darajadagi hissiy ong (EQ) aynan rolli o‘yinlar muhitida shakllanadi. O‘quvchi o‘z personajining xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali o‘zini-o‘zi anglash va o‘z emotsiyalarini boshqarishni o‘rganadi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim oluvchining nafaqat akademik muhitda, balki kelajakdagi ijtimoiy va kasbiy faoliyatida ham muvaffaqiyat qozonishiga xizmat qiluvchi barqaror poydevor yaratadi.

Rolli o‘yin metodining universal xarakteri uning barcha ta’lim bosqichlarida qo‘llanilishiga imkon beradi. Maktabgacha ta’limda ushbu metod o‘yin orqali dunyoni anglash vositasi bo‘lsa, umumiy o‘rta ta’limda ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish va kreativ fikrlashni rag‘batlantirish mexanizmi vazifasini o‘taydi. Oliy ta’lim tizimida esa rolli o‘yinlar bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, xususan, "pedagog-o‘quvchi", "shifokor-bemor" yoki "menejer-mijoz" kabi professional muloqot modellarini o‘zlashtirishda kutilganidan yuqori ijobiy natijalarni bermoqda. Bu yondashuv ta’limni hayotiylik tamoyili bilan boyitib, o‘quvchining passiv tinglovchidan faol ijodkor subyektga aylanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – T.: O‘zbekiston, 2020.

2. Sh.Yuvashov, B.Akbarovю “Kreativ fikrlash”. Namangan-2024.

3. U.Abdusattorova. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘yin faoliyati yordamida kreativ fikrlashga o ‘rgatishning nazariy-metodologik asoslari. Modern Science (https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/69607#) and Research, 4(2), 1053–1057. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/69607.

3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy o‘quv texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2004.

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008.

5. Qobilova A.T. Maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining bolalarni o‘yin metodi orqali iqtidorini rivojlantirishda pedagogik asoslari. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.

6. Kuranbayeva Tursunoy Matyakubovna, Matmuratova Shirinjon Texnologiya fani amaliy mashg‘ulotlarida rolli va ishbop o‘yinlardan foydalanish metodikasi. https://doi.org/10.5281/zenodo.7067801.

7. Turdiyeva M.J. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik o'yinlar va ularning shaxs rivojlanishiga psixologik ta'siri. Toshkent: "O'zbekiston", 2021.

8. Ravshanova G. O'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda mediata'lim texnologiyalarining o'rni. Toshkent: "Ta'lim", 2022.

9. Musayeva Nafisa Azimjonovna. "PEDAGOGS"international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995https://scientific-jl.com/pedVolume-75, Issue-1, February-2025309 Ta'limiy o'yinlar va kreativ qobiliyat tushunchalarning o'rganilganlik mohiyati.

10.Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.

11. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence. – McGraw-Hill, 1967.

UDK: 373.5:37.091.33:159.928.23

IQTIDORLI O‘QUVCHILARNING O‘ZIGA XOS INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Baxtiyorova Munira Mansur qizi,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtidorli o‘quvchilarning o‘ziga xos bo‘lgan individual – psixologik xususiyatlari, ishki kuch-quvvat, yashirin imkoniyatlarini oshish, takomillashtirish, taraqqiy ettirish, ta’sir o‘tkazuvshan omilkor vositalar topish, ya’ni ularni jamiyat ehtiyoji, talabi, rivoji imkoniyatiga mos ravishda maqsadga muvofiq yo‘naltirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: iste’dod, iqtidor, intellektual salohiyat, ma’naviy, ruhiy, jismoniy barkamollik, ishki kuch-quvvat, talant, intellekt ko‘rinishlari.

ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОДАРЕННЫХ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы повышения, совершенствования, развития индивидуально-психологических особенностей, внутренней силы, скрытых возможностей одаренных учащихся, поиска эффективных средств воздействия, то есть их целенаправленного направления в соответствии с потребностями, требованиями и возможностями развития общества.

Ключевые слова: талант, одаренность, интеллектуальный потенциал, духовное, психическое, физическое совершенство, внутренняя сила, талант, проявления интеллекта.

INDIVIDUAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GIFTED STUDENTS

Abstract. This article highlights the individual psychological characteristics of gifted students, their inner strength, the growth, improvement, development of their hidden potential, and the search for effective means of influence, i.e., their targeted orientation in accordance with the needs, demands, and development possibilities of society.

Keywords: types of talent, giftedness, intellectual potential, spiritual, mental, and physical perfection, inner strength, talent, and intellect.

Iste’dodli o‘quvchilar va iqtidorli yoshlar davlatning intellektual salohiyatini oshirib boruvchi va aniq maqsadlar yo‘lida samarali foydalanishi uchun zarur bo‘lgan «oltin zahirasi» dir. Bu-davlatimiz qudrati, mamlakatimiz kelajagi bilimli, dono va ma’naviy barkamol, iste’dodli, ijodkor, qobiliyatli kadrlarga bog’liq

ekanini chuqur anglagan holda faoliyat yuritish demakdir. Shunki ijodkor, iste'dodli, ya'ni yuksak ma'naviy, ruhiy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan shaxsgina jamiyatni, xalqni yuksak taraqqiyot sari yetaklaydi, ularni ma'naviyat va ma'rifat bobida tengsiz yutuqlarga ilhomlantiradi. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Iste'dod, qobiliyat komillikning eng asosi, uzviy qismi bo'lib, iste'dodli shaxslarni tarbiyalash, ularni iqtidorini yuzaga shiqarish jamiyatimizda eng muhim, dolzarb vazifasidir.

Iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga oqilona ko'rsatma berish, darsda va darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarga jalb qilib, ularni qobiliyatini muayyan yo'nalishlarga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Iqtidorli o'quvchilarning o'ziga xos bo'lgan individual – psixologik xususiyatlarini, ishki kuch-quvvat, yashirin imkoniyatlarini oshish, takomillashtirish, taraqqiy ettirish, ta'sir o'tkazuvshan omilkor vositalar topish, ya'ni ularni jamiyat ehtiyoji, talabi, rivoji imkoniyatiga mos ravishda maqsadga muvofiq yo'naltirish O'zbekistonimizni mustaqil taraqqiyoti, istiqbol rejalarining, dunyo hamjamiyatida eng rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishini amalga oshirishning negizidir. Aynan mana shunday yondashuv yuqori darajada rivojlangan intellektual va ijodiy sifatlarga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash imkonini beradi.

Ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri fan, texnikaning rivoji, uning zaminida esa kasbiy tayyorgarlik darajasi va bu kasbiy tayyorgarlik ularning shaxsiy sifatlariga munosib kelishi ushbu muammo yechimining bosh omili hisoblanadi.

Yoshlarning o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini, bilim va intellektual salohiyatlarini to'liq namoyon etishlari hamda ulardan ijtimoiy hayotda o'rinli foydalanishlari uchun ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan maktabning har bir bitiruvchisi, o'zining kelajak soha faoliyatini to'g'ri tanlashi va kelgusi ta'lim yo'lini belgilashi lozim. Bu jarayonda shaxsning o'z sohasining malakali mutaxassisi sifatida shakllanishida uning shaxsiy sifatlari birlamchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shaxsiy sifatlar esa individ dunyoga kelgandan so'ng oila va uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida ijtimoiylashib borishi jarayonida shakllantiriladi [1].

Iqtidor – bu hayot davomida psixikani rivojlanish tizimidir. Bunda iqtidor u yoki bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishda kuzatiladi.

Iqtidor – bu muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovshi qobiliyatlarning o'ziga xos shaklidir. Qobiliyatlarning o'zaro muvofiqligi boshqa qobiliyatlardagi kamshiliklarni to'ldirishga xizmat qiladi.

Inson kamoloti va faoliyati samaradorligini belgilovchi individual-psixologik xususiyatlar tizimida qobiliyatlar markaziy o'rin tutadi. Umumiy qobiliyatlar shaxsning intellektual va amaliy imkoniyatlarini kengaytirib, uning turli yo'nalishdagi faoliyati o'ziga xos tarzda rivojlanishini ta'minlovchi fundamental poydevor hisoblanadi. Qobiliyatlarning shakllanishi va namoyon bo'lishi bevosita shaxsning tabiiy asosi bo'lmish layoqatlarga tayanadi hamda o'zida genetik va ijtimoiy omillarning dialektik birligini aks ettiradi. Faoliyatda yuksak muvaffaqiyatlarni ta'minlovchi ichki psixologik sharoitlardan biri bu —

talant (iste'dod) bo'lib, u shaxsning muayyan sohadagi yuksak darajadagi iqtidorini ifodalaydi. Iqtidorli o'quvchi, birinchi navbatda, u yoki bu faoliyat turida o'zining yorqin kreativligi, nostandart tafakkuri va uzluksiz muvaffaqiyatlari bilan tengdoshlaridan ajralib turuvchi subyektdir.

Zamonaviy pedagogik psixologiyada iqtidorli o'quvchilar muammosiga doir eng munozarali masalalardan biri bu — iqtidorning namoyon bo'lish chastotasi (uchrash darajasi) hisoblanadi. Ushbu masala bo'yicha ilmiy doiralarda ikki xil konseptual yondashuv mavjud bo'lib, ular muammoga turlicha yechim taklif etadi. Birinchi pozitsiya tarafdorlari "haqiqiy iqtidorli" o'quvchilar tabiatan juda kamdan-kam uchrashini ta'kidlasalar, ikkinchi yondashuv vakillari har bir o'quvchida muayyan darajadagi iqtidor potensiali mavjudligini ilgari suradilar. Mazkur alternativ qarashlar quyidagi umumiy xulosada o'z yechimini topishi mumkin: turli faoliyat ko'rinishlariga nisbatan iqtidorlilik potensiali (yashirin iqtidor) o'quvchilarning ko'pchiligiga xos bo'lishi mumkin, biroq ijtimoiy va professional ahamiyatga ega bo'lgan, yaqqol namoyon bo'luvchi iqtidor egalari amaliyotda nisbatan sanoqlidir.

Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimidagi asosiy vazifa — har bir o'quvchining ichki imkoniyatlarini (layoqatlarini) o'z vaqtida aniqlash va ularni ijtimoiy foydali iqtidor darajasiga ko'tarish uchun zarur psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Iqtidorning rivojlanishi nafaqat intellektual ko'rsatkichlarga, balki shaxsning motivatsion-irodaviy sohasiga hamda uning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga bo'lgan ichki intilishiga bevosita bog'liqdir [6].

U yoki bu o'quvchi ko'pgina faoliyat sohalarida aytarli muvaffaqqiyatga erishishi mumkin. Qolaversa, muayyan bir faoliyat ko'rinishida ko'pgina o'quvchilar o'zlarining layoqatlaridan kelib chiqib keng qamrovda yondashishlari mumkin. O'quvchining psixologik imkoniyatlari va yosh davrlari xususiyatlariga ko'ra turlicha iqtidor ko'rinishlari mavjud.

Iqtidorni namoyon bo'lishiga xalaqit beruvchi omillardan biri zaruriy bilim, ko'nikma, malakalarni yetishmasligidir. Agar o'quvchida zaruriy bilimlarni o'zlashtirilsa, uning iqtidori namoyon bo'la boshlaydi.

Ba'zi hollarda esa o'quvchi taraqqiyotidagi qiyinchiliklar ham uning iqtidorini niqoblab qo'yadi. Masalan, xavotir, qo'rquv, nizolar uning iqtidorini susaytirishi mumkin.

Shunday qilib, turli o'quvchilarda iqtidor turlisha namoyon bo'ladi. O'quvchi xulqini tahlil qilgan holda ota-onalar, psixologlar, pedagoglar o'quvchi iqtidorini «oshishga» yordam berishlari lozim.

Boshqa tomondan, iqtidorni namoyon qilish oilaning ta'minlanganligiga ham bog'liq. Bizga ayonki, moddiy ta'minlangan o'quvchilarda har tomonlama imkoniyatlar keng bo'ladi, shuning uchun iqtidorni namoyon qilish uning o'ziga bog'liq, kam ta'minlangan oila farzandlarida iqtidorni namoyon qilishga xohish bo'lgani bilan ayrim vaziyatlarda «qo'l kaltalik» qilib qolishi mumkin.

Iqtidorli o'quvchilarning o'ziga xos jihatlari bizning hayotimizni rang-barangligini ta'minlaydi va jamiyat uchun foydalidir.

Birinchidan, iqtidorlilarda hamma narsaga ta'sirchanlik kuzatilib,

adolatparvarlik hissi kuchli rivojlangan; ular ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritishga va o‘zgartirishga qobiliyatli bo‘ladilar.

Ikkinchi xususiyat, bilimni faolligi va intelektning yuqori darajadagi taraqqiyoti atrof-muhit haqida yangi ma’lumot olish imkonini beradi. Ijodiy qobiliyatlar ularga yangi konsepsiyalar yondashuvlarni yaratish imkonini beradi.

Iqtidorli o‘quvchilardagi intuitiv, diskursiv (ijodiy) tafakkurning o‘zaro muvofiqligi yangi bilimlar egallash jarayoni samarali bo‘lib qoladi.

Uchinchi xususiyat, ko‘pgina iqtidorli o‘quvchilarga omma hayotida qiziqarli va muhim loyihalarni amalga oshirishga imkon beruvchi ijodiy qobiliyatlar va muhim bilimlarni egallashdagi yuqori energiya, maqsadga intiluvchanlik va qatiyatlilik xislatlari xosdir [2].

Iqtidorlilikni belgilari – bu iqtidorli o‘quvchining real faoliyatida namoyon bo‘luvchi va uning harakatlarini kuzatish natijasida baholanuvchi xususiyatdir. Iqtidorlilik belgilari faoliyatni amalga oshirish darajasi bilan bog’liqdir. Iqtidorlilik belgilarini muhokama qilishdan avval xohlayman va «qila olaman» tushunchalarini muhokama qilish kerak. Shuning uchun ham iqtidorlilik belgilari iqtidorni 2 muhim jihatini o‘zida mujassam etadi: instrumental va motivasion, instrumental - bu uning faoliyati usulini xarakterlaydi. Motivasion - o‘quvchi faoliyatining u yoki bu tomoniga, qolaversa o‘z faoliyatiga munosabatini xarakterlaydi.

Iqtidorli o‘quvchi xulqining instrumental jihati quyidagi belgilarda kuzatiladi:

1. Faoliyatning maxsus strategiyalarini mavjudligi iqtidorli o‘quvchining faoliyat uslubi uning o‘ziga xosligi va samaradorligi bilan farqlanib turadi, shunga muvofiq faoliyat muvafaqqiyatini uni amalga oshirish strategiyasi bilan bog’liq 3 asosiy darajasini ajratib ko‘rsatilgan:

- faoliyatni tez o‘zlashtirish va uni amalga oshirishda muvafaqqiyat;
- berilgan vaziyat yechimini topish sharoitida faoliyatning yangi usullarini qo‘llash va yaratish.
- fanni chuqur o‘zlashtirish natijasida yangi maqsadlarni ilgari surish, voqelikka o‘zgacha nazar bilan yondashish.

Iqtidorli o‘quvchilar uchun ko‘proq 3 daraja xosdir.

- «Hamma narsani o‘ziga qilish»ga asoslangan va iqtidorli o‘quvchining o‘zini - o‘zi boshqarishi bilan bog’liq bo‘lgan faoliyatning o‘ziga xos individual uslubini shakllanganligi faoliyat uslubining individualizatsiyasi faoliyat mahsulidagi g’ayrioddiylik elementida aks etadi.
- Iqtidorli o‘quvchining bilim, ko‘nikmalari yuqori darajada bir tizimga solingan bo‘lib, bir tomondan ko‘pgina ma’lumotlar yagona faktni ajrata oladi va ikkinchi tomondan, xususiy xulosa tahlillardan umumiy xulosa va tahlillarga osonlik bilan o‘ta oladi.
- O‘zlashtirishning maxsus tipi. U yuqori tezlikda va osonlik bilan yoki sekin va qiyinchilik bilan o‘zlashtirishda namoyon bo‘lishi mumkin, lekin bilim, tasavvur, ko‘nikmalar strukturasining tez o‘zgarishi bilan harakatlanadi.

Iqtidorli o‘quvchilar xulq-atvorining motivatsion sohasi ularning intellektual salohiyatini harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo‘lib, u shaxsning ichki ehtiyojlari va faoliyatga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Akademik tadqiqotlar va

psixologik kuzatuvlar asosida iqtidorli o‘quvchi xulqining motivatsion jihatlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

iqtidorli o‘quvchining motivatsion profili, birinchi navbatda, muayyan predmetli faoliyatga yoki shaxsiy faollikning aniq bir shakliga nisbatan o‘ta yuqori ta’sirchanlik (sezgirlik) bilan tavsiflanadi. Bu jarayon o‘quvchida chuqur qoniqish hissi bilan kechib, uni murakkab vazifalarni bajarishga undaydi. Bunday o‘quvchilarda u yoki bu fan sohasiga nisbatan haddan ziyod qiziquvchanlik kuzatiladi; ular o‘zlariga yoqqan faoliyat turiga diqqat-e’tiborini butunlay qaratib, vaqt va atrofdagi omillarni unutish darajasida (fokuslangan diqqat) mehnat qiladilar.

Shuningdek, iqtidorli shaxslarda intellektual ehtiyoj va bilim olishga bo‘lgan chanqoqlik o‘ta yuqori darajada bo‘ladi. Ular axborotni shunchaki iste’mol qilmay, balki uni tahlil qilish va mohiyatini anglashga intiladilar. Motivatsiyaning yana bir muhim ko‘rsatkichi — an’anaviylik va qolipli fikrlashdan qochishdir (divergent tafakkur). Iqtidorli o‘quvchi muammolarga standart yechimlarni emas, balki original va noodatiy yondashuvlarni afzal ko‘radi.

Motivatsion sohaning eng murakkab jihatlaridan biri bu — o‘z faoliyati natijalariga nisbatan haddan ziyod tanqidiy munosabatda bo‘lish (perfeksionizm) hamda o‘z oldiga o‘ta yuqori maqsadlarni qo‘ya bilish qobiliyatidir. Komillikka intilish va yuqori darajadagi shaxsiy mas’uliyat ularni doimiy ravishda o‘z ustida ishlashga va erishilgan natijalar bilan to‘xtab qolmaslikka undaydi. Ushbu motivatsion belgilar iqtidorli o‘quvchini nafaqat iqtidorli, balki samarali ijodkor subyekt sifatida shakllantiradi.

Iqtidorlilikni namoyon qiladigan psixologik xususiyatlar faqatgina iqtidorlik bilan keshadigan belgilar sifatida ko‘rilishi lozim (ular, iqtidorlilikni yuzaga keltirmaydi), shuning uchun yuqorida sanab o‘tilgan belgilar faqatgina iqtidorni mavjudligini taxmin qilishimizga imkon beradi, xolos.

Zamonaviy konsepsiyalarda intellekt ko‘rinishlariga muvofiq iqtidor ko‘rinishlari ham ajratilgan. Masalan, G. Gardner tomonidan namoyon bo‘lishi xususiyatlariga ko‘ra kinestik, makon mantiqiy - matematik musiqiy lingvistik va ijodiy iqtidor ko‘rinishlari, Myunxen tadqiqotlarida esa iqtidorning kognitiv omillardan xoliligi namoyish qilingan: intellektual, kreativ, ijtimoiy kompetentlik, musiqiy va sensomotor qobiliyatlar [3].

Iqtidorlilikning sifatiy xarakterlarini tahlil qilish shaxsning u yoki bu faoliyat turida namoyon qiladigan maxsus psixik xususiyatlari bilan bog’liq iqtidorlilikning miqdor xarakteristikasini tahlil qilish insonning psixik imkoniyatlarini namoyon qilish darajasi bilan bog’liq. Iqtidorlilikni quyidagi mezonlarga binoan turlarga ajratish mumkin:

1. Faoliyat turi va uning psixik sohadagi o‘rniga ko‘ra turlari.
2. Shakllanganlik darajasiga ko‘ra turlari.
3. Namoyon bo‘lishiga ko‘ra turlari.
4. Turli faoliyat turlarida namoyon bo‘lishi kengligiga ko‘ra turlari.
5. Yosh davr taraqqiyoti xususiyatlariga ko‘ra turlari.

Faoliyat turlari va uning psixologiya sohalaridagi o‘rniga ko‘ra turlari

faoliyatning 5 turi va psixologiya sohalarining o‘zaro hamohangligi doirasida ajratiladi. Asosiy 5 faoliyat turlari: amaliy, nazariy (bilim), badiiy-estetik, kommunikativ va ma’naviy-axloqiy psixik sohalar: intellektual emotsional va motivatsion-irodaviy. Shunga muvofiq, iqtidorlilikning quyidagi turlari farqlanadi. Amaliy faoliyatda sportiv tashkilotshilik iqtidorini: bilim (nazariy) faoliyatlarda intellektual iqtidorni: badiiy-estetik faoliyatda xoreografik, sahnaviy she’riyat, rassomshilik va musiqiy iqtidorni; kommunikativ faoliyatlarda eng avvalo liderlik va attraktiv iqtidorni: ma’naviy-axloqiy faoliyatda esa yangi axloqiy qadriyatlar va insonlarga xizmat qiluvchi ma’rifatni yaratish iqtidorini ajratib ko‘rsatishi mumkin [5].

Iqtidorlilikning har bir ko‘rinishi o‘zida psixologiya sohalarining borini mujassamlashtiradi, biroq faoliyat turi xususiyatiga ko‘ra ularning darajasi har xil bo‘ladi.

Ushbu mezon iqtidorga tizimli qarash imkonini yaratdi. Shu bilan birga faoliyat qobiliyatlarini namoyon qilish, shakllantirish vositasiga aylandi. Bir xil iqtidor turi har bir individualda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. «Iqtidorni shakllanganlik darajasi» mezoniga ko‘ra yaqqol va potensial iqtidor turlarini ajratish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli va samarali amalga oshirishining fundamental sharti hisoblangan, bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyatlar majmuasi qobiliyatlar deb yuritiladi. Qobiliyatlar shunchaki tayyor bilimlar yig‘indisi emas, balki yangi tajribalarni o‘zlashtirishdagi psixologik tayyorgarlik va intellektual salohiyatning o‘ziga xos ko‘rsatkichidir. Ushbu xususiyatni diagnostika qilish va uning mavjudligini ilmiy asoslashda shaxsning individual imkoniyatlari bilan faoliyat qo‘yayotgan talablar o‘rtasidagi mutanosiblikni tahlil qilish strategik ahamiyat kasb etadi. Agar shaxsning muayyan psixofiziologik va intellektual sifatlari belgilangan vaqt oralig‘ida murakkab faoliyat talablariga to‘liq javob bersa hamda yuqori natijadorlikni ta’minlasa, demak, unda ushbu yo‘nalishga nisbatan barqaror qobiliyat tizimi shakllangan deb hisoblash mumkin.

Aksincha, inson o‘zining mavjud individual xususiyatlari bilan qo‘yilgan talablarni bajarishda qiyinchilikka uchrasa, bu holat unda mazkur yo‘nalishdagi psixologik sifatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Biroq, ta’kidlash lozimki, ma’lum bir qobiliyatning yetishmasligi shaxsning ushbu sohada kerakli ko‘nikma va malakalarni umuman egallay olmasligini anglatmaydi; balki ushbu jarayonning kognitiv va vaqt ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni, iqtidorli yoki qobiliyatli shaxs murakkab vazifalarni tez va oson o‘zlashtirgan bir paytda, boshqa bir shaxs xuddi shu natijaga erishish uchun ancha ko‘p vaqt va irodaviy kuch sarflashiga to‘g‘ri keladi. Binobarin, qobiliyatlar faoliyatning nafaqat yakuniy natijasini, balki uni o‘zlashtirishning iqtisodiy va psixologik samaradorligini ham belgilovchi individual-psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды. - М.: Педагогика, 1980, 1-том.
2. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта. Психология мышления. - М.: Прогресс, 1969.
3. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. - М.: 1998. - 246 с.
4. Halilova N. Iqtidorli talabalar psixologiyasi. - T.: 2009. 3-75 betlar.
5. Choriev Z. Iqtidorli talabalar maskani. Ta'lim va islohot. // Turkiston//2002 yil 30 noyabr.
6. Шумакова Н.Б. Обучение и развитие одаренных детей. – М.: МПСИ, 2003. – С. 93-195.